

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI**

**«XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK
RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA
BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISH
IMKONIYATLARI»**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

(I QISM)

2025 йил 21-22 fevral

SAMARQAND – 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

TAMBOV DAVLAT UNIVERSITETI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

**«XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK
RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA
BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI
FAROVONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI»**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI

(I QISM)

2025 йил 21-22 fevral kunlari

SAMARQAND – 2025

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ
«ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**“ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И БЛАГОСОСТОЯНИЯ
НАСЕЛЕНИЯ В РЕГИОНАХ ПУТЁМ
СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СЕКТОРА УСЛУГ”**

(ЧАСТЬ I)

(21-22 февраль 2025 г.)

САМАРКАНД– 2025

Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari/Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (I qism). 2025 йил 21-22 fevral kunlari. Samarqand, SamISI, 2025. – 272 bet.

Nashr uchun mas'ul:

M.Q.Pardayev – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi rahbari:

M.E.Po'latov – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi a'zolari:

M.M.Muxammedov – iqtisod fanlari doktori, professor,

J.R.Zaynalov – iqtisod fanlari doktori, professor,

I.S.Tuxliev – iqtisod fanlari doktori, professor,

O.Murtazaev – iqtisod fanlari doktori, professor,

R.X.Ergashev – iqtisod fanlari doktori, professor,

V.I.Abdukarimov – iqtisod fanlari doktori, professor,

N.A.Ibragimov – iqtisod fanlari doktori, professor,

K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,

Q.J.Mirzaev – iqtisod fanlari doktori, professor,

A.Eshtaev – iqtisod fanlari doktori, professor,

S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor,

A.N.Xoliqulov – iqtisod fanlari nomzodi, professor,

D.H.Xolmamatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Sahifalovchi: Firdavs O'roqov

An'anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish muammolari va ularning yechimlari, sohaning alohida tarmoqlari samaradorligini oshirish istiqbollari oid masalalar yoritilgan. Unda barqaror iqtisodiy o'sish va hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari va ularni hal qilishning strategik yo'nalishlari, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligi, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish masalalari, xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, marketing va menejment imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish jarayonida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muammolarini bartaraf qilish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o'rin olgan. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantlar, doktoranturada tahsil oluvchilar, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

I SHO‘BA. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.

Озода Мамаюнова Пардаева – Тошкент давлат иқтисодиёт университети кафедра мудири, доцент, PhD.

Севара Абдиназаровна Бабаназарова – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти. PhD.

ИНСОН РЕСУРСЛАРИ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ

Аннотация: Мақолада инсон ресурслари тушунчаси ва унинг жамият тараққиётидаги аҳамияти илмий-назарий ва амалий жиҳатдан ёритилган. Бунда бугунги кун талабидан келиб чиқиб, инсон ресурсларига таъриф ишлаб чиқилган. Шунингдек, инсон ресурслари микро даражада, яъни корхона ва ташкилотларда бажарадиган бир қанча функциялари ҳам аниқ келтирилган.

Калим сўзлар: инсон ресурслари, инсон капитали, меҳнат ресурслари, инсон тараққиёти, инсон салоҳияти, иш жойи, ишловчи ходимлар, таълим сифати.

Аннотация: В статье рассматривается понятие человеческих ресурсов и его значение в развитии общества с научной, теоретической и практической точки зрения. В связи с этим было разработано определение человеческих ресурсов, исходя из потребностей сегодняшнего дня. В нем также четко обозначен ряд функций, которые человеческие ресурсы выполняют на микроуровне, то есть на предприятиях и в организациях.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, человеческий капитал, трудовые ресурсы, развитие человеческого потенциала, рабочее место, сотрудники, качество образования.

Abstract: The article examines the concept of human resources and its importance in the development of society from a scientific, theoretical and practical point of view. In this regard, a definition of human resources was developed based on the needs of today. It also clearly outlines a number of functions that human resources perform at the micro level, that is, in enterprises and organizations.

Key words: human resources, human capital, labor resources, human potential development, workplace, employees, quality of education.

Мавзунинг долзарблиги. Ҳозирги пайтда меҳнатга қобилиятли ходимларга “инсон капитали”, “инсон салоҳияти”, “ходимлар”, “меҳнат ресурси”, “инсон ресурслари” каби нисбатларни бермоқда. Инсон ресурси (Human Resources, HR), одатда корхона ва ташкилотларда ишлатиладиган ва уларнинг фаолиятини самарали амалга ошириш учун масъул бўлган инсонлардан иборат бўлади. Инсон ресурслари консултатив, стратегик ва тезкор операцияларни бажаришга алоқадор бўлган бир неча вазифаларни ўз ичига оладиган жараёнларни амалга оширадиган шахсни қамраб олади.

Тадқиқот методологияси. Мақолани ёзиш жараёнида турли методологик йўналишлардан, хусусан, индукция ва дедукция, макон ва

замон, таҳлил ва синтез, мантикий таҳлил каби методологик ёндошувлардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Инсон ресурси тушунчасига турли қарашлар мавжуд. Жумладан, мамлакатимиз олимларидан Ҳ.П.Абулқосимов раҳбарлигида тайёрланган “Инсон тараққиёти” номли дарсликда умумий ёндошувни ҳам эслатиб ўтилган. “Иқтисодиёт фанида *инсон капитали* дейилганда инсоннинг интеллектуал жисмоний ва маънавий салоҳияти, яъни билими, малакаси, саломатлиги ва бошқа хусусиятлари жамланмаси тушунилади”¹, дейилган. Россиялик олим И.А.Кокарев инсон капиталини қуйидагича изоҳлайди. Ушбу олимнинг фикрича “Инсон капитали – бу тирик инсонлар эмас, балки уларнинг ишлаб чиқариш қобилиятлари, билимлари ва укувларидир”², дейилган.

Юқоридагиларга ўз фикрини билдириб, инсон ресурслари айнан инсон капитали эмаслигини изоҳлаб, “меҳнат ресурслари”, “меҳнат салоҳияти” ва “инсон ресурслари”ни фарқлаш лозимлигини қайд этади. Ҳ.П.Абулқосимов меҳнат ресурсларини қуйидагича изоҳлайди: “Меҳнат ресурслари – бу меҳнат қилиш қобилиятига эга бўлган аҳолини ифодалайди” деган бўлса, “Меҳнат салоҳияти меҳнат ёшигача ва ундан катта ёшда бўлган жисмоний ва соғлом аҳоли тоифасини ифодалаш учун ишлатилади”, деб кўрсатилган. Сўнгра Меҳнат ресурслари ва меҳнат салоҳияти биргаликда инсон ресурсларини ифодалайди, деган фикрни олға суриб, инсон ресурсларига қуйидагича таъриф берилган. Бунда “Инсон ресурслари деганда мамлакат аҳолисининг фойдали меҳнат фаолияти юритиш учун зарур бўлган жисмоний ва ақлий соғлом ҳамда касбий билимга эга бўлган қисми тушунилади”³, дейилган.

Ушбу қарашларни жамлаган ҳолда бугунги кун талабидан келиб чиқиб, инсон ресурсларига қуйидагича таъриф бериш мумкин. **Инсон ресурслари деганда, мамлакат аҳолисининг ҳамма соҳаларда фойдали меҳнат билан шуғулланадиган, ёшидан қатъи назар, барча жисмоний ва ақлий соғлом қатлами ҳамда замонавий касбий билимга ҳамда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш илмини эгаллаган қисми тушунилади.**

Шуни инобатга олиш керакки, меҳнат ресурсига фойдали меҳнат билан шуғулланадиган ёши чегараланган аҳоли ҳисобланади. Булар таркибига мамлакатимизда аёллар 16-55 ёшдагилари ва эркекларнинг 16-60 ёшдагилари киради. Инсон ресурсларига эса, ишлайдиган ёш болалар ҳам, пенсиядаги аҳоли ҳам киради. Алоҳида қайд этиш жоизки, ҳозирги рақамли иқтисодиёт шароитида барча ишловчилар компьютердан ва бошқа ахборот-технологияларидан фойдаланишни билишлари лозим. Чунки ҳозирги рақамли иқтисодиёт шароитида инсонларнинг асосий қисми ўзаро алоқаларни масофадан туриб мулоқат қилади.

¹ Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., профессор Қ.Х.Абдурахманов таҳрири остида. – “Fan va texnologiya”. 2013. – 31. бет.

² Кокарев И.А. Управление персоналом в рамках концепции человеческого капитала. – м.: 2006. – С. 66

³ Абулқосимов Ҳ.П. ва бошқалар. Ижтимоий-иқтисодий жараёнларни бошқариш. – Т.:”Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.”, 2007. – 236-237 бетлар

Инсон ресурслари микро даражада, яъни корхона ва ташкилотларда бир қанча функцияни бажаради. Булар жумласига қуйидаги бажариладиган функцияларни киритиш мумкин:

Биринчи галда, улар **ишга қабул қилиш** вазифасини бажаради. Бунда энг қулай номзадларни танлаб олади, улар қиладиган ишларни аниқ белгилаш, иш тартибини қонун доирасида ушбу корхонанинг фаолиятига мослаштирган ҳолда тушунтириш йўллари амалга оширади.

Иккинчидан, инсон ресурсларини ривожлантиришнинг муҳим йўналиши **ходимларни таълимга йўналтириш**. Бунда ходимларни касбий ҳамда шахсий ривожланишини таъминлаш учун турли тренингларни ҳам ташкил этиш ва малакасини оширишнинг бршқа йўллари ҳам амалга оширади.

Учинчидан, ходимнинг ҳуқуқий муҳитини ташкил этишда **ҳуқуқларни муҳофаза қилиш**, меҳнат ҳуқуқлари, умумий ва иқтисодий сиёсатларга амал қилган ҳолда уларни тартибга солувчи кодекслар ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдаланиш йўллари кўрсатиб берилади.

Тўртинчидан **инсон ресурсини иш натижасига қараб баҳолаш** тизимини йўлга қўйиш. Бунда ходимларнинг самарали ишлашини, фаолиятига ижодий (креатив) ёндоша олиш қобилиятини баҳолаш ва шунга асосан уни мукофотлаш ва рағбатлантиришнинг бошқа механизмларини қўллаш лозим бўлади.

Бешинчидан, **инсон ресурсини ижтимоий тадбирлар иштирокчиси** сифатида ҳам ривожлантириш мумкин. Бунда у ходимлар орасида ижтимоий тадбирларда, жамоавий ишларда жамоага мослашиш билан бирга ўз ўрнини топишга ҳам ҳаракат қилади. Жамоада бундай тадбирларни ташкил қилиш ҳам инсон ресурсининг такомиллашувига туртки бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, инсон ресурслари корхона ва ташкилотларнинг асосий активларидан бири бўлиб, уларнинг самарали бошқарилиши ташкилотнинг муваффақияти ва узоқ муддатли ривожланишига катта таъсир кўрсатади. Шу тариқа инсон ресурслари жамият тараққиётига хизмат қилади ва уни ривожлантирувчи омил сифатида майдонга чиқади.

Бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодиёти аҳолининг теран тафаккури асосида инновацион ва рақамли иқтисодиёт босқичига етиб келди. Бундай иқтисодиётнинг ривожланиши учун юқори даражада креатив фикрлайдиган тафаккури терон илғор, замонавий талабларга жавоб берадиган инсон ресурслари шаклланиши лозим. Бу албатта жуда катта эътибор ва кучни талаб қилади. Аммо ушбу тадбирни кечиктириб бўлмайди, чунки дунё шу йўл билан ривожланмоқда. Биз ҳам глобал рақобат шароитида орқада қолмаслик, енгилмаслик учун шунга мос ҳолда ҳаракатланишимиз лозим.

Исроилов Боҳодир Ибрагимович – и.ф.д, профессор. Тошкент давлат иқтисодиёт университети, b.isroilov@tsue.uz.

Очилов Олмос Икром ўғли – и.ф.ф.д. (PhD), доцент. Тошкент давлат иқтисодиёт университети, o.ochilov@tsue.uz.

ИНСОН КАПИТАЛИ ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

***Аннотация:** Мазкур илмий тезисда инсон капитали ва унга қилинган инвестициялар борасидаги тадқиқотлар натижалари атрофлича муҳокама қилинган. Уларнинг ўзаро ўхшаш ва фарқли жиҳатлари муаллифлик ёндашувлари асосида очиб берилган. Инсон капитали ва унга қилинган инвестицияларни бухгалтерия ҳисобида акс эттиришида эътибор қаратилиши лозим бўлган айрим жиҳатлар кўрсатиб берилган.*

***Калит сўзлар:** инсон капитали, инсон капиталига инвестициялар, инсон капитали ҳисоби, инсон капитали назарияси, инсон капитали қиймати.*

***Аннотация:** В данном научном тезисе подробно обсуждаются результаты исследований человеческого капитала и инвестиций в него. Их сходства и различия раскрыты на основе авторских подходов. Указаны некоторые аспекты, на которые следует обратить внимание при отражении в бухгалтерском учете человеческого капитала и инвестиций в него.*

***Ключевые слова:** человеческий капитал, инвестиции в человеческий капитал, учет человеческого капитала, теория человеческого капитала, стоимость человеческого капитала.*

***Abstract:** This scientific thesis comprehensively discusses the results of research on human capital and investments made in it. The similarities and differences between these are revealed based on the author's approaches. Some aspects that should be considered when reflecting human capital and investments made in it in accounting records are highlighted.*

***Keywords:** human capital, investments in human capital, accounting for human capital, human capital theory, value of human capital.*

Глобал рақобот шароитда ишлаб чиқариш ривожланиши нафакат моддий омилларга (табiiй ресурслар ер капитал), балки илм фаннинг ривожланиши, малакали инсон капитали ва уларнинг маҳоратига ҳам боғлиқ бўлади. Шу боис инсон капитали ва унинг ривожланиши фаолият самарадорлиги ҳамда мамлакат иқтисодиёти ўсиш учун энг муҳим аҳамият касб этадиган омиллардан бири бўлиб қолади.

Замонавий иқтисодиёт тизимида инсон капитали ва унинг иқтисодиётдаги ўрнини тавсифловчи инсон капитали, инсон ресурслари, меҳнат ресурслари каби тушунчалар илмий адабиёт ва нашрларда кўплаб учрайди.

Инсон ресурсларини иқтисодий категория сифатида тор ва кенг маънода тушуниш зарурдир. Тор маънода инсон ресурслари "инсон капитали" тушунчасига нисбатан анча чекланган ҳисобланади. Инсон капитали меҳнат кўникмаси, билим, малака даражаси, маҳорат, уларни амалиётга қўллай олиш қобилияти каби кўрсаткичлар билан бирга шахснинг ахлоқий фазилатларини ҳам ўз ичига олади.

Инсон ресурсларини ҳисобга олиш ўзининг услубий ва тарихий асосларига эга. Лекин ўтган асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб, интеллектуал

ва инсон капитали назарияси илмий изланишларнинг асосий майдонга айланди, десак хато бўлмайди.

Аксарият, Ғарб иқтисодчиларининг фикрига кўра, инсон капитали, товарлар ва хизматлар ишлаб чиқариш борасида ўтган бир неча йиллар давомида олинган кўникмалар, билимлар, энергия ва мотивациялардан иборат бўлади. Шунингдек олимлар томонидан инсон капитали келажакда асосий даромад манбаи бўлиб шахснинг ажралмас қисми бўлиб қолишини башорат қилган.

П. Друкер ўз тадқиқотларида “Ривожланган мамлакатларнинг рақобатдаги бирдан-бир устунлиги малакали ишчи кучи ресурслари бўлиб қолмоқда. Ишлаб чиқаришда банд бўлган малакасиз ишчилардан малакали ишчиларнинг фарқи шундаки, улар ишлаб чиқариш воситаларига эгалик қиладилар: улар билимларни ўзлари билан олиб юривчилар ҳисобланадилар⁴”, деб қайд этади.

А.Добрынин ва бошқалар инсон капитали “ижтимоий такрор ишлаб чиқаришнинг у ёки бу соҳасида мақсадли фойдаланиладиган, ишлаб чиқариш самарадорлиги ва меҳнат унумдорлигининг ўсишига кўмаклашадиган, шунингдек инсоннинг иш ҳақи (даромади) ўсишига таъсир кўрсатадиган инвестициялар ва инсон томонидан жамғарилган соғлиқ, билим, кўникма, қобилиятлар, мотивацияларнинг муайян захираси натижасида шаклланган капитал⁵” эканлигини таъкидлаганлар.

Инглиз ва немис олимлари томонидан аҳоли IQ даражасини бир пунктга ошириш жон бошига тўғри келадиган ЯИМ миқдорини 229 АҚШ долларига кўпайтиришини исботланган⁶.

Шунингдек, ЯИМ ва аҳоли маълумотлилик даражаси коэффицентлари ўртасида ўзаробоғлиқлик мавжудлиги эътироф этилади. Америкалик олимлар тадқиқотлари натижалари ўқиш муддатини бир йилга ошириш ялпи ички маҳсулотни 3 фозга оширишини асослаган⁷.

Ҳақиқатда ҳам жорий асрнинг ўтган чорак даври инсон капитали томонидан яратилаётган миллий даромад миқдорининг йилдан-йилга ўсиши кузатилмоқда. Халқаро валюта фонди ҳисоб-китобларига кўра дунё мамлакатлари миллий бойлиги таркибида жисмоний капитал улуши 16 фоизни, табиий капитал улуши 20 фоизни ва 64 фоиз улуш инсон капитали умумий бойлигидан иборатлигини кўрсатган⁸.

Инсон капиталининг замонавий назарияси дастлаб классик иқтисодчи В.Петти асарларида ўз аксини топган. В.Петти биринчи бўлиб “аҳоли бойлиги” тушунчаси ғоясини таклиф этган. Унинг фикрича, миллий бойликни яратувчилар таркибига рента шаклида даромад келтирувчи ер

⁴ Друкер П. О профессии менеджера / пер. с англ. – М., 2008.

⁵ Добрынин А. И., Дятлов С. А., Курганский С. А. Методология человеческого капитала. // Экономика образования. – 1999. – № 1.

⁶ <https://mgimo.ru/about/news/experts/242193/>

⁷ Набиева Х.Н. К вопросу о теории человеческого капитала и человеческого фактора // [Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия общественных наук](#). - 2015. - С. 52 - 60.

⁸ О.Ю.Когут. Диссертация на соискание степени доктора философии (PhD) на тему “Учетно-информационное обеспечение управления человеческим капиталом”.

участкаси, фойда келтирувчи капитал таркибига ўз малакаси, соғлиғи ва меҳнати эвазига фойда келтирувчи ходим ҳам кириши ва “аҳоли бойлиги”ни миллий бойликнинг бир қисми деб ҳисоблашни таклиф қилади⁹.

Адам Смит миллий бойликни яратишда инсон капиталининг ҳал қилувчи ролини ўрганган ҳамда эътироф этган биринчи классик олим ҳисобланади. Инсоннинг қобилияти, малакаси ва кўникмалари “меҳнат унумдорлигини ошириш ишчиларнинг билими, маҳорати ва эпчиллиги бевосита боғлиқ, бу улар даромадларидаги фарқда ўз аксини топишини асослайди”. Асосий капитал таркибига ер, меҳнат қуроллари асбоб-ускуналар ва бинолар билан мамлакат аҳолисининг қобилиятини кўшади. Адам Смит таълимни юқори баҳолади ва уни мамлакат бойлигини оширишдаги асосий омил сифатида таъкидлайди¹⁰.

Д. Рикардо ҳам ушбу ғояни қўллаб-қувватлаб, мамлакат иқтисодий ривожланишдаги оқсашликни “аҳоли барча қатламларида билим ва малаканинг етишмаслиги билан боғлайди. У аҳоли ва ишчи кучининг ўсишини таққослаб, ишлаб чиқариш самарадорлиги ишчи кучи малакасининг сифатига боғлиқ¹¹” деган ғояни илгари суради.

Инсон капиталига инвестицияларга оид илмий қарашларга дастлабки намоёндаларидан бири Теодор Шульц таъкидлашича “инсон капитали бу, инсоннинг даромадлар келтириш ва талабларини қондиришга йўналтирадиган ҳамда унинг ажралмас қисми бўлиб қоладиган шаклдаги капиталдир¹²”. Олим фикрича, инсон ресурслари бир тарафдан табиий ресурс иккинчи тарафдан эса, буюм капитали ҳисобланади. Чунки инсон табиий ресурс каби туғулиши билан самара бермайди. Маълум бир қайта ишлаш жараёнларидан сўнггина одам инсон капиталига айланади. Инсон капитали барча турдаги капиталлардан устун бўлиб, бошқа капитал турларидан фарқли равишда инсон капитали ким томонидан шакллантирилишига қарамадан, капитал эгаси (одам) доим уни назоратчиси ҳисобланади.

Т. Шульц биринчи бўлиб таълимни иқтисодий ўсишни таъминловчи омил сифатида эътироф этади ва таълимга кўшимча маблағ сарфлаш инсон капитали сифатини оширишга хизмат қилишини таъкидлайди.

Микроиқтисодиёт даражасида Г.Беккер инсон капитали назарияси ривожланишига назариясига энг катта ҳисса қўшган олимлардан ҳисобланади. Олим томонидан таълимнинг иқтисодий самарадорлиги бўйича амалий ҳисоб-китоблар амалга оширилган. Олим таълимнинг самарадорлигини шахсининг умри давомида олган даромадидан таълим харажатларини чегириш йўли билан аниқлашни таклиф этади. Даромад ва таълим харажатларини таққослаш натижасида инсонга киртилган инвестиция рентабеллигини баҳолаш имконияти яратилади¹³.

⁹Петти В. Экономические и статистические работы. – М.: Соцэкгиз, 1940. - 324 с.

¹⁰Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1956. - 490 с.

¹¹Антология экономической классики в 2-х томах. Под ред. И.А.Столяров. - М.: Эконом. 1993. – 961 с.

¹²Schultz T.W. The Economic Value of Education. New York: Columbia University Press. 1963

¹³Беккер Г. С. Экономический анализ и человеческое поведение // THESIS. — 1993. Т. 1, вып. 1. С. 38 (англ. Economic Analysis and Human Behavior, 1987).

Г.Беккер инсонга киритилаётган махсус ва умумий инвестициялар бири-биридан фарқ қилади, деб ҳисоблайди. Махсус билимлар инсонга соҳа бўйича билим, кўникма ва маҳоратини оширишни таъминлаши ҳисобига меҳнат унумдорлиги ўсишига хизмат қилади. Унинг натижасидан биринчи манфаатдор фирма ҳисобланади.

Умумий инвестиция шахс, унинг ота-онаси томонидан киритилади. Ушбу инвестиция дастлабки босқичда кам даромадли бўлади. Лекин маълум вақт ўтиши билан шахсда махсус билимлар олиш эвазига ўз капитали сифатини ошириш имконияти пайдо бўлади.

Фикримизча, ушбу қарашлар бугун ҳам аҳамиятли ҳисобланади. Инсон капитали сифати жамият ривожланиши ва ялпи ички маҳсулот даражаси ўсиши билан бирга шахс (капитал эгаси)нинг ҳам ўз капиталини сақлаш, барқарор ривожлантириш ҳамда инвестиция имкониятларини ошишига хизмат қилади.

Норвегиялик олим Одда Нордхоганинг¹⁴ фикрича ҳозирги шароитда ходим малакаси ва унинг ўсиши корхона ривожланишининг асоси ҳисобланади. Олим малакани юқори, ўрта ва паст даражали кўрсаткичлар билан ифодаланишни тавсия этади.

Ҳақиқатда ҳам олим ҳақ бўлиб, ходимнинг малака даражаси корхона потенциалидан максимал фойдаланишни таъминлайдиган муҳим омилдир. Меҳнат куроллари, технология қанчалик замонавий бўлмасин ходимнинг уларни ишлатиш бўйича малакаси пастлиги юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш, меҳнат унумдорлигини ошириш ва даромадни кўпайтиришга хизмат қила олмайди.

Д.Уилер иқтисодий ўсиш ва инсон ресурслари ривожланиши ўртасидаги ўзаробоғлиқликни аниқлаш бўйича синхрон модель ишлаб чиқади. Мазкур модель асосида 88 та ривожланаётган мамлакатлар бўйича амалга оширилган тадқиқотлари натижасида саводхонлик даражасини 20 фоиздан 30 фоизга етказиш натижасида мамлакатда иқтисодий ўсиш 8 фоиздан 16 фоизгача кўтарилишини аниқлайди¹⁵.

Тадқиқотларимиз натижалари олимлар томонидан инсон капитали макро ва микро даражада қийматга эга бойлик эканлиги эътироф этилганлигини кўрсатмоқда. Шунингдек тадқиқотчилар инсон капитали таркиби ва унинг қийматини аниқлаш бўйича ўз қарашларини тавсия этган. Демак инсон капитали микро даражада ҳам ўз қийматига эга экан унинг кирим-чиқим қилиш, қиймати ўзгариши, ҳаракати, амортизацияси каби жараёнлар бухгалтерия ҳисобида ҳам ўз аксини топиши зарур, деб ҳисоблаймиз.

Шу билан бир қаторда инсон капиталидан фойдаланиш ҳолати, унинг самарадорлиги ҳамда уларни баҳолашни таҳлил қилиш услубиёти ҳам ишлаб чиқилиши зарурдир.

¹⁴ Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе (реферат книги Одда Нордхога «Человеческий капитал в организации») // Общество и экономика. 1997. № 7–8. С. 244.

¹⁵ О.Н.Горбунова. Инвестиции в образование как неотъемлемый элемент формирования трудовых ресурсов. // Социально-экономические явления и процессы. № 5-6 (027-028), 2011. С.60.

О.Когут¹⁶ ўз тадқиқотларида инсон капитали бухгалтерия ҳисоби 9 та ўзига хос хусусиятга эга эканлигини таъкидлайди:

- унинг шахсдан ажралмаслиги, номоддий хусусиятга эгаллиги, кўриш имконияти йўқлиги ва фақат ҳис этиш мумкинлиги;
- инсон капитали эгаси ва фаолияти ўзаробоғлиқлиги;
- шаклланиши ва инвестиция узлуксизлиги ва аниқ шахс билан боғлиқлиги ҳамда корхона мулки ҳисобланмаслиги;
- олди-сотди предмети эмаслиги, фақат ходимни иш берувчи томонидан ёллаш муддатида ижарага олиниши ҳамда ўша даврдаги хизматининг сотилиши;
- унинг шаклланиши учун шахс ва жамият томонидан молиявий ва бошқа харажатларни амалга оширилишини талаб қилиши;
- инсон капиталига инвестициянинг мулк эгаси, инвесторига даромад келтириши;
- маънавий ва жисмоний эскириши;
- нархини бозор талаблари асосида шаклланиши;
- бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботларда акс эттирилмаслиги.

Инсон капиталининг бухгалтерия ҳисобига оид ўзига хос хусусиятлар тўғрисидаги қарашларга умумий тарзда қўшилган ҳолда, инсон капиталининг маънавий ва жисмоний износи тўғрисидаги фикри мунозарали эканлигини қайд этиш мақсадга мувофиқ. Чунки инсон капитали йил ўтиши билан емирилиш эмас балки, маълум босқичгача тажриба, маҳоратнинг ўсиши эвазига қиймати ўсиш хусусиятига эгадир.

Шу сабабли инсон капитали ҳисоби ва таҳлили услубиётига ёндошувда ушбу ўзига хос жиҳатлар инобатга олиниши тавсия этилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Друкер П. О профессии менеджера / пер. с англ. – М., 2008.
2. Добрынин А. И., Дятлов С. А., Курганский С. А. Методология человеческого капитала. // Экономика образования. – 1999. – № 1.
3. <https://mgimo.ru/about/news/experts/242193/>
4. Набиева Х.Н. К вопросу о теории человеческого капитала и человеческого фактора // [Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия общественных наук.](#) - 2015. - С. 52 - 60.
5. Когут О.Ю. Диссертация на соискание степени доктора философии (PhD) на тему “Учетно-информационное обеспечение управления человеческим капиталом”.
6. Петти В. Экономические и статистические работы. – М.: Соцэкгиз, 1940. - 324 с.
7. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1956. - 490 с.

¹⁶ Когут О.Ю. Диссертация на соискание степени доктора философии (PhD) на тему “Учетно-информационное обеспечение управления человеческим капиталом”.

8. Антология экономической классики в 2-х томах. Под ред. И.А.Столяров. - М.: Эконов. 1993. – 961 с.

9. Маршалл, А. Принципы экономической науки / А. Маршалл. – М., 1993. – 594 с. 4.

10. Schultz T.W. The Economic Value of Education. New York: Colambia University Press. 1963

11. Беккер Г. С. Экономический анализ и человеческое поведение // THESIS. — 1993. Т. 1, вып. 1. С. 38 (англ. Economic Analysis and Human Behavior, 1987).

12. Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе (реферат книги Одда Нордхога «Человеческий капитал в организации») // Общество и экономика. 1997. № 7–8. С. 244.

13. О.Н.Горбунова. Инвестиции в образование как неотъемлемый элемент формирования трудовых ресурсов. // Социально-экономические явления и процессы. № 5-6 (027-028), 2011. С.60.

14. Когут О.Ю. Диссертация на соискание степени доктора философии (PhD) на тему “Учетно-информационное обеспечение управления человеческим капиталом”.

Эргашев Рахматулла Хидирович – Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти иқтисод фанлари доктори, профессор
УДК: 338.478.33:5, erx55@Rambler.ru, ORCID 0009-0008-9794-9859

МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ КООПЕРАЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада мева-сабзавот маҳсулотлари кооперациясини ривожлантириш масалалари ҳамда иқтисодий самарадорлигини ошириш, амалиётда уларни мева-сабзавотчилик кооперациялари агрокластерлар, дехқон ва фермер хўжаликлари, шунингдек интеграция тизимлари фаолиятларида кенг фойдаланишни ҳисобга олган ҳолда мева-сабзавот маҳсулотлари кооперациясининг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш ҳамда аҳолини мева-сабзавотга бўлган талабини қондириш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: мева-сабзавот, маҳсулот, кооперация, самарадорлик, ижтимоий-иқтисодий муҳит, агрокластер, қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат, қайта ишлаш, интеграция, истиқбол, аҳолини таъминлаш, ривожлантириш.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития плодоовощной производственной кооперации, а также излагаются предложения и рекомендации по совершенствованию организационно-экономических основ плодоовощной производственной кооперации и удовлетворения спроса населения на фрукты и овощи с учетом их широкого использования на практике в деятельности плодоовощной кооперации, агрокластеров, крестьянских и фермерских хозяйств, а также интеграционных систем.

Ключевые слова: фрукты и овощи, продукция, кооперация, эффективность, социально-экономическая среда, агрокластер, сельское хозяйство, продовольствие, переработка, интеграция, перспективы, безопасность населения, развитие

Annotation: In this article, proposals and recommendations have been developed on the issues of development of fruit and vegetable cooperation and economic efficiency improvement,

taking into account their wide use in the activities of fruit and vegetable cooperation agroclusters, farmers and farms, as well as integration systems, improving the organizational and economic basis of fruit and vegetable cooperation and meeting the population's demand for fruits and vegetables.

Key words: fruit and vegetables, product, cooperation, efficiency, socio-economic environment, agrocluster, agriculture, food, processing, integration, perspective, population provision, development.

Кириш. Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавот маҳсулотлари асосан хусусий тармоқда етиштирилаётган бўлиб, унинг 70-80 фоизи деҳқон ва фермер хўжаликлари зиммасига тўғри келган бўлса, бугунги кунда боғдорчилик соҳасидаги йирик тадбиркорлик субъектларининг сони ортиши мева-сабзавот етиштирувчи хусусий тармоқ ўртасида рақобатнинг кучайишига олиб келмоқда. Бундай тизимда мавсумий пишиб етиладиган ва транспортда ташишга кўп ҳолларда ноқулай бўлган мева-сабзавот маҳсулотлари жуда кўп сонли, жойлашуви жиҳатидан тарқоқ ҳамда ҳажми кичик деҳқон ва фермер хўжаликларининг рақобат курашида иштирок қилишлари учун уларнинг кооперацияга бирлашишлари муҳим аҳамият касб қилади. Бу борада Ўзбекистон Республикасида қатор ташкилий-иқтисодий ҳамда ҳуқуқий асослар яратилмоқда. Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда мева-сабзавотчилик кооперативларини ташкил этиш тартиби, уларнинг турлари, шакллари ва фаолиятининг ҳуқуқий ва иқтисодий асослари, кооперативга аъзо бўлиш ҳамда пай улушларини киритиш шартлари ва бошқалар белгиланган. Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари кооперативи қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари: фермер, деҳқон хўжаликлари ва шахсий томорқа ер эгалари ва хўжаликлар эгалари томонидан ихтиёрийлик тамойиллари асосида ташкил этилган тижорат ташкилоти шаклида бўлади.

Мева-сабзавотчилик кооперацияларини ташкил этишдан мақсад – кооператив аъзоларининг моддий ва бошқа эҳтиёжларини қондириш учун биргаликда ишлаб чиқариш фаолиятини юритиш. Мажбурий шарти – уларнинг мулкӣ пай улушларини бирлаштириш ва кооператив фаолиятида шахсан иштирок этишдан иборатдир.

Мамлакатимиз ҳудудлари бўйича мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш, қайта ишлаш ва сақлаш борасида аниқ ихтисослашув мавжуд бўлиб барча республика вилоятларида ҳам табиий-иқлим шароитларидан келиб чиққан ҳолда мева-сабзавот етиштирилади қайта ишланади ва сақланади ҳамда бу борада катта имкониятлар мавжуд.

Олиб борилган тадқиқотларнинг кўрсатишича, республикада сабзавот етиштириш миқдорлари 2005-2023 йилларда барча тоифадаги хўжаликлар бўйича ўсган. Сабзавот маҳсулотлари экин майдонлари 2005 йилдаги 137,7 минг гектар ўрнига 2023 йилга келиб 235,6 минг гектарни ташкил қилган ва ушбу йиллар давомидаги ўсиш 171,1 фоизга тенг бўлган. Ўртача ҳосилдорлик эса мос равишда 215,8 центнердан 308,3 центнерга ортиб, умумий ўсиш 142,9 фоизни ташкил қилган. Натижада етиштирилган ялпи ҳосил миқдори 2005 йилдаги 2971,6 минг тонна ўрнига 2023 йилда 7363,5

минг тоннани ташкил қилган ва ялпи ўсиш 2,5 мартадан ортиқни ташкил қилган.

Ўзбекистон Республикасида сабзавот етиштириш борасида юз бераётган ялпи ўсиш тенденцияси мутаносиб равишда мамлакат жанубида жойлашган Қашқадарё вилоятида ҳам кузатилади. Жумладан, 2005 йилда вилоятда жами сабзавот экин майдонлари миқдори 28,1 минг гектарни ташкил қилган ҳолда, 2023 йилдан келиб 43,2 минг гектарга ёки 153,7 фоизга ортган бир пайтда ялпи маҳсулот етиштириш миқдори мос равишда 549,3 минг тоннадан 1981,3 минг тоннага ёки 196,90 фоизга ортган. Ялпи маҳсулот ҳажмидаги ўсиш суръати юқорилиги экинлар ҳосилдорлигининг экин майдонлари ўсишига қараганда тезроқ ўсиши ҳисобига юз берган. Сабзавот экинлари ҳосилдорлиги вилоятда республика кўрсаткичига нисбатан ўрганилаётган йиллар турлича нисбатларда бўлиб, асосан 2005 йилдан кейин 37,6 га пасайиб борган.

Мева-сабзавот маҳсулотлари аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашдаги энг зарур маҳсулотлардан биридир. Аҳоли сони ўсиб боришини ҳисобга оладиган бўлсак, мева-сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмларининг доимий равишда ўсиб боришини таъминлаш зарурати ҳисобланади. Мева-сабзавот маҳсулотлари билан аҳолини тиббий меъёрлар талаби даражасида таъминлаш ва бунда маҳсулот сифати сақланиши ва қайта ишланишига муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбекистон Республикаси бўйича 2023 йилда сабзавот маҳсулотларининг ҳосилдорлиги 308,3 ц/га бўлган бўлса ушбу кўрсаткич 2005 йилга нисбатан 85,8 центрга ошиб 142,9 фоизни ташкил этди. Қашқадарё вилояти бўйича ушбу кўрсаткич мутаносибон 212,7; 17,3 ва 250,3 ни ташкил этади. Шунини таъкидлаш лозимки, Қашқадарё вилоятининг сабзавот етиштириш ҳосилдорлиги республика кўрсаткичига нисбатан 20,4 центргадан 58,0 центргача паст кўрсаткичда бўлмоқда. Чунки Қашқадарё вилояти сабзавот маҳсулотларини етиштиришда тупроқ-иқлим шароити, сув масаласи бошқа омиллар ҳисобига шундай кўрсаткичга эга бўлмоқда.

Мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмлари ўзгариши энг аввало маҳсулотларни сотиш сақлаш ва қайта ишлаш соҳасидаги деҳқон учун қулайликлар ва бозорда талаб даражасининг доимийлигига боғлиқ бўлади. Бугунги кунда ушбу икки омил асосий ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлмоқда. Чунки асосий мева-сабзавот маҳсулотлари деҳқон хўжаликлари, ва таморқа ер эгаларида етиштирилиши, унча катта бўлмаган инвестиция ҳисобига ҳам маҳсулот ҳажми ошишини таъминлаши мумкин. Аммо, айтилган пайтда мева-сабзавот маҳсулотларни етиштириш, сақлаш ва қайта ишлаш ҳамда сотиш соҳасидаги муаммолар маҳсулот ҳажмининг кескин камайишига олиб келувчи кучли омиллар ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида боғдорчилик ҳудудларининг тупроқ-иқлим унумдорлигини, мева етиштириш соҳасидаги кўп асрлик бой тажрибаларимизни, соҳада шаклланган мутахассислар ва илмий салоҳиятимизни ҳисобга оладиган бўлсак, кўп миқдордаги инвестициялар сарф қилмасдан туриб ҳам 200-250 центнердан ҳосил олишни таъминлаши

мумкин. Шу билан биргаликда пакана бўйли боғларда 400-500 центнердан ҳосил кўтариш мумкинлигини амалиёт кўрсатиб турибди.

Мамлакатимизда мева-сабзавот кластер-кооперацияларини яратишдан асосий мақсад:

- мева-сабзавотчиликни жадал ва самарали ривожлантиришни таъминлаш;

- юқори сифатли ва рақобатбардош тайёр мева-сабзавот маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш;

- юқори сифатли ва рақобатбардош тайёр мева-сабзавот маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш.

Бугунги кунда мамлакатимизда мева-сабзавот кооперация тизимини ривожлантиришда қўйидагиларга эътибор қаратиш лозим, хусусан:

- мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш, қайта ишлаш ва экспорт қилиш бўйича мева-сабзавот кластерини ташкил этишда шартномалар асосида амалга ошириш;

- қайта ишловчи ва экспорт қилувчи ташкилотлар орасидан, уларнинг тажрибаси ва имкониятларидан келиб чиқиб танлаб олиш, бунда биринчи навбатда маҳсулотларни сақлаш ва қайта ишлаш бўйича тўлиқ ишлатилмаётган қувватларни ишга тушириш;

- мева-сабзавот маҳсулотлари етиштирувчиларни мева-сабзавот кооперациясига бириктириш, улар билан қайта ишловчи ва экспорт қилувчи ташкилотлар ҳамда туман ҳокимлиги ўртасида ихтиёрийлик асосида тузиладиган маҳсулот етказиб бериш шартномалари орқали амалга ошириш;

- мева-сабзавот кооперациялари - маҳсулот етиштирувчи, қайта ишловчи ва экспорт қилувчи ташкилотлар ўртасидаги муносабатлар маҳсулот етказиб бериш шартномалари орқали тартибга солиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қ.А.Чориев. Фермер ва деҳқон хўжаликларини кооперация жараёнига жалб этиш. Агроиқтисодиёт илмий-амалий аграр иқтисодий журнал. – Тошкент. – 2017. – №1. – Б. 22-30.;

2. Ў.П.Умурзаков., С.Эшматов. (O'zbek) Meva-sabzavotchilikda qiymat zanjiri tahlili. / <http://evu.uz/magazine/mevasabzavotchilikda-qiymat-zanjiri-tahlili.html>;

3. Н.С.Хушматов. Мева-сабзавот маҳсулотлари савдосида кооперацияни ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари. Аграр иқтисодиёт. Илмий-амалий муаммолар бюллетени. □/ЎзБИИТИ. – 2008. – № 3-4. – Б. 3-7.;

4. Р.Х.Эргашев Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти, Дарслик, Т.: “Молия-Иқтисод”, 2018, 45-47 б.

З.Н.Курбанов – и.ф.д., профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

КРЕАТИВ ҲИСОБНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: Мақолада креатив бухгалтерия ҳисобининг назарий масалалари ёритилган. Креатив ҳисоб борасидаги иқтисодчиларнинг илмий ишлари таҳлил қилиниб, тегишли хулосалар қилинган.

Калим сўзлар: молиявий ҳисоб, бошқарув ҳисоби, солиқ ҳисоби, креатив ҳисоб.

Аннотация: В статье освещены теоретические вопросы креативного учета. Проанализированы научные работы экономистов по креативному учету и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: финансовый учет, управленческий учет, налоговый учет, креативный учет.

Аннотация: The article highlights theoretical issues of creative accounting. The scientific works of economists on creative accounting are analyzed and appropriate conclusions are drawn.

Keywords: financial accounting, management accounting, tax accounting, creative accounting.

Кейинги йилларда жаҳонда креатив иқтисодиётнинг ривожланиши кузатилмоқда. Креатив иқтисодиёт замирида билим кўринишидаги интеллектуал капитал билан бир қаторда иқтидор потенциали ётади. Шу сабабли ҳам мутахассислар замонавий иқтисодиётнинг тараққиёти асосини билим ва ижод ташкил этишини таъкидлашади.

Ривожланишнинг кейинги ўн йиллик таҳлиллари шуни кўрсатмоқдаки, айнан креатив соҳа жаҳон иқтисодиётининг энг жадал тараққий этаётган тармоғига айланмоқда. Креатив иқтисодиёт — бу ижод намуналарини тижоратлаштиришни назарда тутаяди. Маълумотларга кўра, маданий ва креатив саноатлар ҳар йили тахминан 2,3 триллион доллар миқдорида даромад келтириб, глобал ялпи ички маҳсулотнинг 3,1 фоизини ташкил қилади. 2030 йилга бориб мазкур кўрсаткич 10 фоизга ўсиши кутилмоқда¹⁷.

Мамлакатимизда креатив иқтисодиётни ривожлантириш ва унинг ҳуқуқий асосини мустаҳкамлаш борасида Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда” Креатив иқтисодиёт тўғрисида” ги Қонуни, ЎРҚ-970-сон қонуни қабул қилинди. Креатив иқтисодиётнинг ривожланиши креатив ҳисобнинг шаклланишига асос бўлади.

Илмий адабиётлар ва меъёрий ҳужжатларда “креатив иқтисодиёт” ва “креатив ҳисоб” тушунчалари турлича талқин қилинмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда” Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сон қонунида креатив иқтисодиёт қуйидагича эътироф этилган: Креатив иқтисодиёт — ижодиёт, интеллектуал қобилият, шунингдек инновацияларга ҳамда технологияларга асосланган

¹⁷ Тошкент шаҳри IV Жаҳон креатив иқтисодиёт конференциясига мезбонлик қилмоқда. 2 октябр 2024. <https://yuz.uz/news/toshkent-shahri-iv-jahon-kreativ-iqtisodiyot-konferentsiyasiga-mezbonliq-qilmoqda.25.11.24>.

инсон салоҳияти натижасида иқтисодий қимматга эга бўлган товарларни (ишларни, хизматларни) яратишга қаратилган иқтисодиёт тармоғи¹⁸.

О.А.Заровнятных “креатив индустрия” тушунчасига қуйидагича таъриф берган: “креатив индустрия – бу иқтисодиётнинг интеллектуал фаолият билан боғлиқ бўлган тармоғи бўлиб, асосан ғоялар ва технологиялар асосида ривожланади. Бу атаманинг синонимлари “креатив иқтисодиёт” ва “маданий индустрия”дир. “Креатив иқтисодиёт” тушунчаси эса маданий, санъат, инновацион маҳсулотлар ҳамда хизматларни яратувчи шахслар ва корхоналар мажмуи сифатида таърифланади¹⁹.

Н.А.Лазареванинг қайд этишича, креатив ҳисоб тўғрисидаги биринчи фикрлар британиялик иқтисодий шархловчи Й.Гриффитсуга тегишли бўлиб, у 1986 йилда креатив ҳисобни қуйидагича таърифлаган: "Креатив бухгалтерия ҳисоби - бу ижодий бухгалтернинг арсеналидаги қонуний усуллар тўплами бўлиб, у ўзининг профессионал билимлари туфайли манфаатдор томонлар учун молиявий ҳисоботларнинг жозибадорлигини оширади ва у ишлаётган компания учун солиқ юкини камайтиради"²⁰.

М. Жеймсон (1988) шундай деб ёзган эди: “Бухгалтерия ҳисоби турли хил мулоҳазалар билан шуғулланиш ва молиявий ҳодисанинг натижалари тўғрисида ҳисобот бериш ва операцияларнинг табиати ўртасидаги зиддиятларни ҳал қилиш заруратини ўз ичига олади... Бундай мослашувчанлик манипуляция учун ёлғон ва ёлғон эшикларни очади. Бухгалтерлик касбининг виждонсиз аъзолари томонидан содир бўладиган бундай қонунбузарликлар энди "креатив бухгалтерия" номи билан машҳур бўлди"²¹.

Unisa Kamara Креатив бухгалтерия - бу бизнес дунёсида узок вақтдан бери мавжуд бўлган амалиёт. Тўғри бажарилган бўлса, бу сизнинг компаниянгизга ёрдам бериши мумкин. Аммо сиз доимо амал қилган баъзи бухгалтерия стандартларига амал қилмайсиз. Креатив бухгалтерия таърифи молиявий ҳисоботларни шаффоф бўлмаган тарзда ҳисобот бериш усулини англатади. Бу бухгалтерия ҳисоби тамойилларидаги бўшлиқлар ва ноаниқликлардан фойдаланишни ўз ичига олади. Асосан, сиз атайлаб компаниянинг молиявий соғлиғини бошқа нуктаи назардан тасвирлайсиз. Бундай хатти-ҳаракатлар шубҳали ва ахлоқсиз кўринади. Бироқ, ҳақиқатан ҳам, улар маълум қонуний талаблар ва стандарт бухгалтерия амалиётига мос келади²².

¹⁸Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда” Креатив иқтисодиёт тўғрисида” ги Қонуни, ЎРҚ-970-сон қонуни. 2024.

¹⁹ Заровнятных О.А. Креативные индустрии: тематический свод. / Департамент культуры Тюменской области. – Тюмень: ГАУК ТОН.2022.

²⁰ Лазарева Н.А. Исследование влияния профессионального суждения и креативного подхода на состав бухгалтерской финансовой отчетности. Ученые записки Российской академии предпринимательства. 2024;23(2):40-49. <https://doi.org/10.24182/2073-6258-2024-23-2-40-49>.

²¹ Jameson M. A Practical Guide to Creative Accounting. London, Kogan Page, 1988, 190 p.

²² Unisa Kamara. Creative Accounting: Definition, Types & Methods. <https://www.linkedin.com/pulse/creative-accounting-definition-types-methods-unisa-kamara>. 26.11.2024.

Н.В.Потапованинг ёзишича: Умумий маънода, креатив (ижодий) бухгалтерия ҳисоби - бу қонуний бўлган, аммо ҳақиқий вазиятни аниқ акс эттирмайдиган ва одатда ташкилотни аслидан кўра муваффақиятлироқ деб тавсифловчи ташкилот тўғрисида молиявий маълумотларни шакллантириш усулларидадан фойдаланиш²³.

В.С.Кивачукни такидлашича “Бухгалтерия ҳисоби амалиётида креатив ҳисобнинг пайдо бўлиши трансформация жараёнлари, замонавий иқтисодиётдаги қарама-қаршиликларнинг намоён бўлиши ва кучайиши билан боғлиқ. Бухгалтерия ҳисобининг креатив усулларидадан фойдаланган ҳолда, маълумотлар қонун доирасидаги профессионал мулоҳазалар ёрдамида аниқ фойдаланувчилар учун тўғри тақдим этилиши мумкин. Креатив бухгалтерия ҳисоби муаммоси амалда қонунчилик нормалари, бухгалтерия ҳисоби қоидалари ва бухгалтерия операциялари бухгалтер томонидан ҳам ўз касбий тажрибасидан фойдаланган ҳолда, ҳам маълумотлардан фойдаланувчилар томонидан турлича кўрсатилиши ва талқин қилиниши мумкинлиги билан боғлиқ”²⁴.

Бизнинг фикримизча, креатив бухгалтерия ҳисоби - бу корxonанинг қулай молиявий ҳолатини яхшилаш учун молиявий ҳисоботларни бухгалтерия ҳисоби қонуни ва бухгалтерия стандартларидаги бўшлиқлардан фойдаланган ҳолда манипуляция қилиш амалиётидир.

Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда” Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сон қонунининг 11-моддасида креатив иқтисодиёт соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборатлиги белгилаб берилган:

креатив индустрия соҳаларида фуқароларнинг ўз ижодий ва интеллектуал салоҳиятини намоён этиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш;

креатив индустрияни иқтисодиётнинг фаол тармоқларидан бирига айлантириш орқали креатив маҳсулотлар айланмасини ошириш;

креатив индустрия субъектларини давлат томонидан қўллаб-қувватлашда тенг имкониятлар яратиш;

креатив индустрия соҳаларини қўллаб-қувватлаш орқали кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш;

креатив иқтисодиёт соҳасида илм-фан ва илмий фаолиятни қўллаб-қувватлаш ҳамда креатив ғояларни ва лойиҳаларни амалга оширишда кўмаклашиш;

креатив индустрия субъектлари учун зарур инфратузилмани яратиш;

²³ Потапова, Н.В. Креативный учет в современной цифровой бизнес-среде / Н.В. Потапова // Устойчивое развитие экономики: состояние, проблемы, перспективы : сборник трудов XVI международной научно-практической конференции, Пинск, 29 апреля 2022 г. : в 2 ч. / Министерство образования Республики Беларусь [и др.] ; редкол: В.И. Дунай [и др.]. – Пинск : ПолесГУ. 2022. – Ч. 2. – С. 225-228.

²⁴ Кивачук, В. С. Креативный учет: проблематика в условиях цифровизации, современные подходы / В. С. Кивачук, Н. В. Потапова, Е. О. Дружинина // Актуальные проблемы современных экономических систем – 2021 : сборник научных трудов / Министерство образования Республики Беларусь, Брестский государственный технический университет ; ред.: А. Г. Проровский [и др.]. – Брест : БрГТУ, 2021. – С. 85–89.

креатив маҳсулотлар яратишда илм-фан ва технология ютуқларидан ва инновацион ёндашувлардан фойдаланилишини таъминлаш;

мазкур соҳадаги кўникмаларни ривожлантириш мақсадида креатив индустрия соҳаларида таълим тизимини такомиллаштириш, замонавий таълим дастурларини жорий этиш;

креатив индустрия субъектларининг ижодий салоҳияти ва имкониятларини рўёбга чиқариш бўйича чекловларни бартараф этиш;

миллий маданият ва миллий брендларни халқаро майдонда кенг танитилишини таъминлаш.

Креатив иқтисодиётда креатив маҳсулот яратилар экан, унинг мамлакат ЯИМдаги улуши аниқланар экан креатив бухгалтерия ҳисобига эҳтиёж туғилади.

Мамлакатимизда креатив ҳисоб элементларидан корхоналар тижорат банкларидан кредит олиш ва инвестициялар киритиш мақсадида кўрсаткичларни сохталаштириш мақсадида фойдаланади. Масалан, асосий восита ва товар моддий захираларнинг ҳақиқий қийматини ошириб кўрсатиш, мажбуриятларни камайтириб кўрсатиш ҳамда даромад ва харажатларни сохталаштиришдир.

Молиявий ҳисоботни манипуляция қилиш - бу корхоналар ўзларининг молиявий ҳолати тўғрисида нотўғри тасвирни тақдим этиш учун фойдаланадиган усул бўлиб, бу манфаатдор томонларни алдаш учун молиявий ҳисоботларни ўзгартириш ёки нотўғри тақдим этишдир. Молиявий ҳисоботни манипуляция қилиш - бу манфаатдор томонларни алдаш учун молиявий ҳисоботларни ўзгартириш ёки бузиб кўрсатиш жараёнидир.

Молиявий ҳисоботни манипуляция қилиш сабаблари:

- инвесторларни жалб қилиш;
- кредит ёки қарз олиш;
- солиқларни кам тўлаш мақсадида солиққа тортиш базасини камайтириб кўрсатиш;
- КРІ кўрсаткичларини бажариш асосида мукофотлар олиш;
- корхонани сунъий банкротликка олиб келиш ва бошқалар.

А.Н.Холиқулов – СамИСИ Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси мудири, и.ф.н., профессор

ХИЗМАТ КўРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА САМАРАДОРЛИК БАҲОЛОВЧИ КўРСАТКИЧЛАР БОғЛИҚ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ҚАРАШЛАР ТАҲЛИЛИ

***Аннотация:** Мақолада “Хизмат кўрсатиши корхоналарида самарадорлик баҳоловчи кўрсаткичлар боғлиқ назарий ва амалий қарашлар таҳлили, ҳамда мижозлар ва инвестор нуқтаи назардан самарадорликни ифодаловчи кўрсаткичлар ёритиб берилган.*

***Калит сўзлар:** Хизмат, хизмат кўрсатиши, хизмат кўрсатиши корхоналари, хизмат кўрсатиши корхоналари самарадорлиги.*

Аннотация: В статье «Анализ теоретических и практических взглядов, связанных с показателями эффективности на предприятиях сферы услуг, а также показателей эффективности с точки зрения заказчиков и инвесторов».

Ключевые слова: Сервис, сервис, сервисные предприятия, эффективность сервисных предприятий.

Annotation: The article "The analysis of theoretical and practical views related to performance indicators in service enterprises, as well as performance indicators from the point of view of customers and investors, is highlighted.

Key words: Service, service, service enterprises, efficiency of service enterprises.

Иқтисодиётнинг эркинлашуви, ислохотларнинг чуқурлашуви, турли инкироз ва иқтисодий беқарорликларнинг содир бўлиб туриши, рақобатнинг мавжудлиги ҳар бир хўжалик юритувчи субъектлар, хусусан, хизмат кўрсатиш корхоналарининг ҳам фаолияти самарадорлигини ошириш заруратини туғдиради. Чунки самарадорлик таъминланмаган жойда, фойда етарли даражада бўлмайди, фойда бўлмаган жойда эса мулкӣ (иқтисодий) ўсиш таъминланмайди ва бу ҳам бўлмаган жойда корхоналарнинг инкирозга юз тутиши, банкрот бўлиши тайин. Шу туфайли барча хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг самарадорлигини оширишга эришиш лозимдир.

Бирок, ушбу масала иқтисодий адабиётларда кам ёритилган. Хусусан, хорижлик олимлардан²⁵, Боден М., Милес И., Еиченгреен Б., Гупта П., Ешченбач Ф., Хоекман Б., Триплетт Й. Е., Босвортх Б. П., Корцзынски М., Михалёв И. В., Полянин А. В., В.К. Романович, С.Н.Коробкова, И. В.Михалёв, А. В. Полянин, В.К. Романович, Л. М. Кликич, Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т.А. Туренко, Л. А. Сосунова, Д. В. Чернова, А.Я.Басс, Е. А. Разомасова, В.А. Плотников, М.Г. Иваненко, Д.Р. Хайруллина ва бошқалар томонидан тадқиқ этилган. Ушбу муаммоларни ўрганишга ўзбекистонлик олимлардан²⁶ Б.А.Адукаримов, М.Қ.Пардаев, М.М. Мухаммедов, Қ.Ж. Мирзаев, О.М. Пардаев, И.С.Тухлиев, Э.С.Файзиев²⁷ ва бошқаларнинг хизмат кўрсатиш корхоналари иқтисодиётига бағишлаб дарсликлар, ўқув қўлланма

²⁵ Boden M., Miles I. (ed.). Services and the Knowledge-based Economy. – Psychology Press, 2000.; Eichengreen B., Gupta P. The two waves of service-sector growth //Oxford Economic Papers. – 2013. – №. 1. – pp. 96-123.; Eschenbach F., Hoekman B. Services policy reform and economic growth in transition economies, 1990-2004. – The World Bank, 2005.; Triplett J.E., Bosworth B.P. Productivity in the US services sector: new sources of economic growth. – Brookings Institution Press, 2004.; Михалёв И. В., Полянин А. В. Методологические подходы государственного регулирования в сфере услуг. - 2014.; Korczynski M. Human resource management in the service sector. – Basingstoke: Palgrave, 2002.; Романович В.К. Сервисная деятельность. учеб. пос.: под общ. ред. В.К.Романович. / С.Н. Коробкова, В.И. Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова -3-е изд.-СПб.:Питер, 2005.-156 с.; Кликич Л.М. Эволюция сферы услуг: неравновесный подход //М.:Изд-во МСХА. - 2004. - С.18.; Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А. Сфера услуг: Экономика: учебное пособие// М.: кнорус. – 2007. -Т. 328 с.; Плотников В.А., Иваненко М.Г. Подходы к анализу понятий «сервис» и «услуга». Журнал. Техничко-технологические проблемы сервиса №3(33) 2015, стр.70.; Хайруллина Д.Р. Повышение эффективности управления развитием малых предприятий сферы услуг: дис. канд. экон. наук. 2014. – 230 с.;

²⁶ Абдукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик. 2-нашр.– Т.: "ИQTISOD-MOLIYA", 2010. – 384 б.; Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021. 186 б.; Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2014. – 384 б.; Тухлиев И.С., Турсунова Г.Р. Хизмат кўрсатиш соҳасида тадбиркорлик фаолиятининг асосий йўналишлари. // «Сервис» илмий – амалий журналы, 2012 йил, 4-сон. – 43-48 б.

²⁷ Файзиев Э.С. Сервис соҳасининг иқтисодиётдаги ўрни. Рисола. Т.: 'Fan va texnologiya', 2007. – 16 б.-1,0 б.т. , Файзиев Э.С. Сервис тизими фаолияти асослари. Маъруза матни. Самарқанд, 2007. – 208 б.-13,0 б.т.

ва бошқа ўқув ва илмий адабиётларни ёзганлар. Аммо ушбу асарларда хизмат кўрсатиш корхонлари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар бир тизимга келтирилган ҳолда ифода этилмаган, шу билан биргаликда хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорлик ва уларни ифодаловчи ифодаловчи кўрсаткичларни таҳлил этишнинг йўллари умуман тадқиқ қилинмаган.

Биз хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар билан боғлиқ назарий ва амалий қарашларни таҳлил қилиб ва ўрганиб, ушбу масалани ҳал қилишга икки нуқтаи назардан қараш мақсадга мувофиқ, деган хулосага келдик. Биринчиси, самарадорликнинг классик таърифига ва умумметодологик асосига таянган ҳолда ёндошиш бўлса, иккинчидан хизмат кўрсатиш корхоналарининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ёндошиш лозимлигидир. Булардан ташқари хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигига бир томондан миждозлар ва иккинчи томондан, хўжалик юритувчи субъектлар нуқтаи назаридан қараш лозимдир.

Миждозларнинг нуқтаи назаридан, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини баҳолашда қуйидаги йўналишлар инобатга олинади:

- миждозларга кўрсатиладиган хизматларнинг сони;
- уларни овқатлантириш;
- миждозларга савдо хизматларини кўрсатиш;
- миждозларга транспорт хизматларини кўрсатиш;
- миждозларга дам олиш ва роҳатланиш учун зарур бўлган турли маданий хизматларни кўрсатиш;
- миждозларга молиявий хизматларни кўрсатиш;
- миждозларга маиший хизматларни кўрсатиш;
- миждозларнинг ҳоҳиш истакларига қараб турли хил хизматларни кўрсатиш ва шу кабилар.

Бундай хизматларни юқори савияда сифатли ва самарадорликда кўрсатиш ва миждозларнинг талабларини тўлиқ қондириш учун хизмат кўрсатиш корхоналари ходимлари (хизматчилари) профессионал малакага эга бўлишлари лозим. Ушбу ходимлар кўрсатилган хизмат турларини аъло бажариш билан бирга хушмуомала, мулойим, ўз кўрки ва тароватига эга, зийрак ва хушёр бўлишлигини ҳам талаб қилади.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни баҳолашда иккинчи йўналиш бўйича қаралганда шуни инобатга олиш лозимки, хизмат кўрсатиш корхонаси эгаси ёки шу хўжалик юритувчи субъект шу соҳага қўйган инвестициясидан етарли даражада фойда олишга эришмоғи, мавжуд моддий-техника асосларидан самарали фойдаланмоғи, ходимларнинг юқори меҳнат унумдорлигига эришмоғи ва харажатлардан ҳам самарали фойдаланмоғи лозим. Булардан келиб чиқиладиган бўлса, хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни баҳолаш учун, бизнинг фикримизча, кўрсаткичлар тизимидан фойдаланиш мумкин бўлади. Бундай кўрсаткичлар тизимини тўртта гуруҳга бўлишни тавсия қиламиз:

- хизмат кўрсатиш корхоналарига қўйилган активлар самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;

- хизмат кўрсатиш корхоналари моддий-техника асослари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;
- хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнат самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;
- хизмат кўрсатиш корхоналари харажатлари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар.

Буни қуйидаги чизма орқали ифодалаш мумкин (1-расм).



1-расм. Хизмат кўрсатиш корхоналари хўжалиги самарадорлигини хўжалик юритувчи субъектлар нуқтаи назаридан ифодаловчи кўрсаткичлар

Ҳар бир гуруҳ кўрсаткичлар ўз навбатида бир қанча гуруҳларни қамраб олади. Масалан, улардан бири хизмат кўрсатиш корхоналарига қўйилган активлар самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар. Бу гуруҳ кўрсаткичларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- узоқ муддатли активлар рентабеллиги;
- жорий активлар рентабеллиги;
- умумий инвестициянинг қопланиш коэффиценти.

Хизмат кўрсатиш корхоналари моддий-техника асослари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ҳам ўз навбатида бир қанча кўрсаткичларни қамраб олади. Хизмат кўрсатиш корхоналарининг хусусиятларидан келиб чиқиб, ушбу гуруҳ кўрсаткичларига қуйидагиларни киритишни тавсия қилинади:

- битта ўринга тўғри келадиган ўртача тушум;
- хизмат кўрсатиш корхоналари умумий моддий-техникаларидан фойдаланиш коэффиценти;
- хизмат кўрсатиш корхоналари умумий моддий-техникалари самарадорлиги коэффиценти.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнат самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ҳам муҳим иқтисодий кўрсаткичлар сифатида ўз ўрнига эга. Мазкур гуруҳ кўрсаткичларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- битта ходимга тўғри келадиган ўртача тушум (хизмат кўрсатиш корхоналари ходимларининг меҳнат унумдорлиги, қийматда);

- битта ходимга тўғри келадиган ўртача хизматлари сони (хизмат кўрсатиш корхоналари ходимларининг меҳнат унумдорлиги, натурал кўринишда).

Хизмат кўрсатиш корхоналарида яна бир муҳим кўрсаткичлардан бири, уларга жорий йилда сарфланган харажатлари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлардир. Ушбу гуруҳ кўрсаткичларга қуйидагиларни киритишни тавсия қиламиз:

- жорий йилда қилинган харажатлар рентабеллиги;
- ҳар бир кўрсатилган хизматларнинг таннархи.

Тадқиқот жараёнида ушбу кўрсаткичларни аниқлаш, уларнинг ўзгаришига таъсир этувчи омилларни ҳисоблаш орқали ҳар бирининг яхшиланиши учун ички имкониятларни ахтариб топиш йўллари кўрсатиб бериш лозим бўлади. Бу масала хизмат кўрсатиш корхоналари иқтисодий фаолиятида ва ўқув жараёнида тингловчилар учун жуда муҳим. Чунки, хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни ифодаловчи кўрсаткичлар тизимли тарзда ишлаб чиқилмаган ва мос равишда амалиётда қўлланилмасдан келинаётган эди. Шу туфайли биз ишлаб чиққан мазкур тавсия нафақат назарий жиҳатдан муҳим, балки амалий жиҳатдан аҳамиятга молик масалалардан биридир.

Олиб борилган тадқиқотларимиз давомида шу нарса аниқ бўлдики, биз юқорида тавсия қилган кўрсаткичлар орқали хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини баҳолаш имкониятига эга бўламиз, ҳамда таҳлил қилинаётган хизмат кўрсатиш корхонасини самарадорлигин қайси йўллар орқали ошириш мумкинлиги кўрсатиш имкониятларига эга бўламиз. Бу кўрсаткичларни ўрганилаётган даврда самарадорлик ҳолатига амалий жиҳатдан баҳо бериш, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлиги тўғрисида хулосалар чиқариш имкониятига эга бўламиз.

Мухаммадиев Заррух Умарович – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти докторанти, PhD

КАПИТАЛ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

***Аннотация.** Мазкур мақолада капитал инвестициялар ҳисобининг назарий масалалари, хусусан хўжалик юритувчи субъектларда капитал инвестициялар бухгалтерия ҳисобини ташкил этиши ва юритишининг амалдаги ҳолати, аҳамияти каби масалалар, шунингдек капитал инвестициялар ҳисобини такомиллаштиришига оид илмий тавсиялар ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар:** яшил иқтисодиёт, капитал инвестициялар, капитал инвестициялар ҳисоби, ижтимоий жараёнлар, бухгалтерия ҳисоби, бухгалтерия ҳисоби объектлари.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические вопросы учета капитальных вложений, в частности, современное состояние и значение организации и ведения учета капитальных вложений в хозяйствующих субъектах, а также научные рекомендации по совершенствованию учета капитальных вложений.*

***Ключевые слова:** зеленая экономика, капитальные вложения, учет капитальных вложений, социальные процессы, учет, объекты учета.*

Abstract. In this article, the theoretical issues of capital investment accounting, in particular, issues such as the current status and significance of the organization and management of capital investment accounting in economic entities, as well as scientific recommendations for improving capital investment accounting, have been developed.

Keywords: green economy, capital investment, capital investment accounting, social processes, accounting, accounting objects.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтишга қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида саноат тармоқларида энергия самарадорлигини ошириш, ялпи ички маҳсулот бирлигига тўғри келадиган иссиқхона газлари ва энергия сарфи ҳажмини камайтириш, барча иқтисодиёт соҳаларида сув ресурсларидан фойдаланиш даражасини ошириш, сувнинг тежалишига хизмат қиладиган инновацион технологияларни жорий этиш, турли жойларда кўчатлар экиш орқали яшил майдон ҳудудларини янада кенгайтириш каби муҳим вазифалар кўрсатиб берилган²⁸.

Шунингдек, “2019 – 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Президент қарорида келтирилган корхона ва ташкилотларни модернизациялаш, уларнинг молиявий тизимларини оптималлаштириш каби вазифалар мамлакатнинг “яшил” иқтисодиётга ўтишининг асосий вазифалари сифатида кўрсатилган²⁹. Бундан кўриниб турибдики, “Яшил иқтисодиёт”га ўтиш стратегияси мамлакатимизда 2019 йилдан бошлаб қабул қилинган бўлиб, ушбу йўналиш бўйича ижтимоий ҳамда иқтисодий ислохотлар амалга оширила бошланди.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида сўзлаган нутқи мамлакатимизда “яшил иқтисодиёт” бўйича олиб борилаётган қатор ислохотлар натижаларидан бири ҳисобланади. Ушбу анжуманда Давлат раҳбари томонидан “Оролбўйи ҳудуди экологик фожианинг марказига айланди. Биз мавжуд аҳволни яхшилаш учун бу ерда икки миллион гектар янги ўсимлик майдонлари ва дарахтзорлар яратиш, тупроқ қатламини шакллантириш бўйича улкан ишларни амалга оширмоқдамиз”³⁰, деб таъкидлангани мамлакатимизда “яшил иқтисодиёт” мамлакатимизда мазкур сиёсатга бўлган эътибор юксак даражада эканлигидан далолат беради.

Миллий ва глобал иқтисодиёт олдидаги бундай муҳим вазифалар бир томондан инсонлар ва турли хўжалик юритувчи субъектлар, иккинчи томондан эса, табиат ва табиий ресурслар ўртасидаги ижтимоий-иқтисодий

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтишга қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2022 йил 02 декабрь. ПҚ-436.

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019 – 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори. 2019 йил 04 октябрь. ПҚ-4477.

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи //Халқ сўзи газетаси. 2020 йил 24 сентябрь. № 202 (7704). 1-бет. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>

ва хўжалик муносабатларини тартибга солишга, уларни оптималлаштиришга хизмат қиладиган “яшил иқтисодиёт”нинг кириб келишига туртки бўлди. Яшил иқтисодиёт корхоналарда табиий ресурслардан самарали фойдаланган ҳолда ишлаб чиқариш жараёнларини ташкил этишга, табиатнинг асл ҳолда сақланиб қолинишига, иқтисодий ресурсларнинг тежалишига хизмат қилади. Ушбу жараёнлар мамлакатимизда “яшил макон”, “яшил ҳудуд”, “яшил бино”, “яшил энергетика”, “яшил транспорт”, “яшил логистика” каби янги иқтисодиёт йўналишларининг кириб келишига сабаб бўлди.

Тадқиқотлар “яшил иқтисодиёт” ва “капитал инвестициялар” атамаларининг мазмун-моҳияти, иқтисодий адабиётларда улар бўйича келтирилган таъриф ва тавсифлари бўйича илмий изланишлар олиб боришни тақозо этди.

Бирлашган миллатлар ташкилотининг атроф-муҳит дастури (UNEP) ташкилоти томонидан қуйидагича таъриф берилган “Яшил иқтисодиёт – бу келажак авлодларни жиддий экологик хавф ва камчиликларга дучор қилмасдан, инсон фаровонлигини яхшилайдиган ва тенгсизликни камайтирадиган иқтисодиёт. Бундай иқтисодиёт экологик хавфларни камайтиришга қаратилган қисқа муддатли тадбирлар натижасида узок муддатли ижтимоий нафақа олишга қаратилган. Яшил иқтисодиёт барқарор ривожланиш мақсадига эришишга ёрдам беради”³¹. Халқаро ташкилот томонидан берилган ушбу таъриф яшил иқтисодиётнинг инсоният фаровонлиги йўлидаги ижтимоий муносабатларни ҳал этишга қаратилганлигини исботлайди.

В.И.Титовнинг тадқиқот ишида қуйидагича таъриф келтирилган “капитал қўйилмалар – бу капитал қурилиш тизимида ижтимоий ишлаб чиқаришнинг ривожланиш суръати ва тавсифига бевосита таъсир кўрсатадиган асосий фондларга айлантириладиган таннарх ва моддий омилларнинг мураккаб иқтисодий категорияси”³².

К.Б.Уразов ва М.Э.Пўлатовлар томонидан қуйидагича таъриф берилган: “Капитал инвестициялар – бу янги объектларни қуришга, эски объектларни кенгайтириш, реконструкция ва модернизация қилишга, шунингдек янги асосий воситаларни сотиб олишга сарфланган маблағлар мажмуаси”³³.

Мамлакатимизда корхоналар фаолиятини ривожлантириш, жумладан капитал инвестицияларни амалга ошириш, уларнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштиришга қаратилган бир қанча чора-тадбирлар ишлаб чиқилган. Бундай натижалар асосида хулоса қилиш мумкинки, рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида корхоналар фаолиятини ривожлантириш, уларнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштиришга, жумладан корхоналарда рақамли ишлаб чиқариш жараёнларига капитал инвестициялар ҳисобини

³¹ Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication / R. Ayres [et al.]. – Nairobi : United Nations Environment Programme, 2011. – 44 p.

³² Титов В.И. Фактор времени в оценке экономической эффективности капитальных вложений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Орёл: 1997. 19-с.

³³ Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” - 2021, 560 бет. 145-бет.

такомиллаштириш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Юқорида келтирилган долзарб вазифалардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, бугунги кунда рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида корхоналар фаолиятини ривожлантириш ҳамда уларнинг бухгалтерия ҳисоби, хусусан унинг асосий ва ажралмас объекти ҳисобланган капитал инвестициялар ҳисобини такомиллаштиришга бағишланган илмий-тадқиқот ишларини тадқиқ этиш зарурияти мавжуд. Шу боис, ушбу тадқиқот ишимизда хорижий ва маҳаллий олимларимиз томонидан юқоридаги масалаларни ҳал этишга бағишланган илмий тадқиқот ишларини тадқиқ этишни тақозо этди.

Бугунги иқтисодиёт шароитида корхоналар фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари, шунингдек корхоналарда бухгалтерия ҳисобининг муҳим объекти саналган капитал инвестициялар ҳисобининг илмий-назарий ва методологик масалаларини такомиллаштиришга бағишланган кўйида келтирилган илмий тадқиқот ишлари аҳамиятга моликдир. Хусусан, хорижий олимлардан А.В.Бодяко, А.А.Бутина, Т.В.Гудкова, М.А.Городилов, Н.В.Днепровская, Е.А.Ильина, О.Н.Жукова, Н.А.Жданкина, И.Б.Манжосова, Р.З.Мухаметзянов, И.Л.Мамаева, В.И.Титов ва бошқа олимларнинг илмий тадқиқот ишлари алоҳида аҳамиятга эга ҳисобланиб, уларнинг илмий ишларида инновацион муҳитни шакллантириш, корхоналарни модернизациялаш, уларнинг барқарор ривожлантириш стратегиясини шакллантириш, капитал инвестициялар ҳисоби, уларни молиялаштириш масалалари, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш шароитида капитал инвестициялар ҳисоби ва таҳлили, капитал инвестициялар ички аудитини такомиллаштириш, капитал инвестицияларнинг иқтисодий категория ва бухгалтерия ҳисобининг муҳим объекти сифатидаги талқинига илмий қарашлар каби масалалар ўрин олган.

Мамлакатимиз олимларидан О.Т.Астанакулов, Б.Ф.Боронов, О.Жўраев, А.К.Ибрагимов, Ш.И.Илхамов, О.И.Очилов, М.Қ.Пардаев, А.Х.Худойбердиев, С.Р.Эгамбердиева, К.Б.Уразов ва бошқа иқтисодчи олимларимиз томонидан капитал инвестициялар ҳисоби, уларни бухгалтерия ҳисобида таснифлаш ва тавсифлаш, тан олиш, баҳолаш, молиявий ва бошқарув ҳисобида юритиш, ҳисоботларда акс эттириш масалалари бўйича илмий изланишлар олиб боришган.

Мазкур олимлар томонидан бажарилган илмий тадқиқот ишлари муҳим аҳамият касб этиб, корхоналарда капитал инвестициялар ҳисобини такомиллаштиришда маълум даражада хизмат қилган. Бироқ, капитал инвестицияларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги талқини, капитал инвестициялар ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари принципларига мувофиқлаштириш масалалари етарлича тадқиқ этилмаган. Шу боис, ушбу заруриятлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, мазкур мавзуда илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш, яъни капитал инвестициялар ҳисобини рақамли ва яшил иқтисодиёт шароитида

такомиллаштириш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, корхоналарда капитал инвестицияларни жалб қилиш, ахборот фойдаланувчиларнинг капитал инвестицияларга оид ахборотларга бўлган бўлган эҳтиёжларини қондирувчи молиявий ҳисобот шакллари ишлаб чиқиш, корхоналарда капитал инвестициялар ҳисобининг ҳам назарий, ҳам амалий томондан такомиллаштириш лозим, деб ҳисоблаймиз. Бугунги кунда, яшил иқтисодиёт шароитида капитал инвестициялар ҳисобининг илмий-назарий масалаларига бағишланган илмий тадқиқот ишларида уларнинг тавсифи ва таърифи тадқиқ этилган бўлиб, капитал инвестицияларнинг ҳисоб объекти сифатидаги таснифий асослари, уларни халқаро тажрибалар асосида баҳолаш ва молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида молиявий ва бошқарув ҳисоботларда акс эттириш ҳамда уларни такомиллаштириш каби масалалар очик қолмоқда.

Шунингдек, капитал инвестицияларнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш бўйича ислоҳотлар амалга оширилган бўлиб, бугунги кунга қадар ўндан ортиқ номатив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилган. Бироқ, мамлакатимизда эришилган бундай натижаларга қарамай корхоналарда яшил иқтисодиётни шакллантириш шароитида капитал инвестициялар бўйича оқилона сиёсат тўғри юритилмади деб, тўлиқ айта олмаيمиз.

Бизнинг фикримизча, бизнинг ушбу тадқиқот натижаларимиз юқорида зикр қилинган муаммоларни тўғри ҳал этишга, корхоналарда яшил иқтисодиёт шароитида капитал инвестициялар ҳисобини тизимли ва аниқ юритишга, ҳисобот шакллари очик ва шаффоф акс эттиришга, умуман олганда, капитал инвестициялар ҳисобини ҳам назарий, ҳам илмий бойитишга муайян даражада хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтишга қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2022 йил 02 декабрь. ПҚ-436.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019 – 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “Яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори. 2019 йил 04 октябрь. ПҚ-4477.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи //Халқ сўзи газетаси. 2020 йил 24 сентябрь. № 202 (7704). 1-бет.

4. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication / R. Ayres [et al.]. – Nairobi : United Nations Environment Programme, 2011. – 44 p.

5. Титов В.И. Фактор времени в оценке экономической эффективности капитальных вложений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Орёл: 1997. 19-с.

6. Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” -2021, 560 бет. 145-бет.

Максудхужаева Дилишодахон Мансурхужа кизи – Ташкентский государственный экономический университет базовый докторант 1-курса, dilshodakhon.mks@mail.ru,

Маликов Т.С. – д.э.н., проф, Ташкентский государственный экономический университет

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ «ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ» С УЧЕТОМ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕГИОНАХ

***Annotatsiya:** Tezisdan aholining iqtisodiy farovonlik darajasini belgilovchi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi eng muhim omil bo'lgan “moliyaviy savodxonlik” tushunchasiga ta'rif berilgan. Moliyaviy vositalar murakkab va qulay bo'lib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitlari ham hisobga olingan.*

***Kalit so'zlar:** Moliyaviy savodxonlik, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy faol aholi, moliyaviy vositalar, kreditlashtirish.*

***Аннотация:** В тезисе даётся определение «финансовой грамотности», которая является важнейшим фактором, определяющим уровень экономического благополучия населения и способствующим стабильному развитию национальной экономики. Также учитываются условия рыночной экономики, где финансовые инструменты становятся все более сложными и доступными.*

***Ключевые слова:** Финансовая грамотность, финансовая устойчивость, экономический рост, экономически активное население, финансовые инструменты, кредитование.*

***Abstract:** The thesis provides a definition of “financial literacy,” which is the most important factor determining the level of economic well-being of the population and contributing to the stable development of the national economy. Also taken into account are the conditions of a market economy, where financial instruments are becoming more complex and accessible.*

***Key words:** Financial literacy, financial stability, economic growth, economically active population, financial instruments, lending.*

Финансовая грамотность — это совокупность знаний, навыков и установок, позволяющих человеку принимать обоснованные финансовые решения, рационально распоряжаться денежными средствами, оценивать возможные риски и обеспечивать долгосрочную финансовую устойчивость. Это не только способность понимать основы экономики и принципы работы финансовых институтов, но и умение применять эти знания в повседневной жизни.

Финансовая грамотность³⁴ включает в себя способность понимать и применять финансовую информацию, анализировать возможные последствия экономических решений и эффективно использовать доступные финансовые инструменты. Таким образом, уровень финансовой грамотности населения является важным показателем устойчивости экономики страны.

Финансовая грамотность включает в себя несколько ключевых компонентов:

1. Финансовые знания – базовые экономические понятия, принципы формирования бюджета, виды доходов и расходов, основы налогообложения, кредитования, инвестирования и страхования. Осведомленность в этих вопросах позволяет гражданам принимать осознанные финансовые решения и избегать распространенных ошибок;

2. Финансовые навыки – умение вести личный и семейный бюджет, рационально распределять доходы, планировать расходы, сравнивать условия различных финансовых продуктов и пользоваться современными цифровыми финансовыми инструментами (мобильные приложения, онлайн-банкинг, инвестиционные платформы и др.);

3. Финансовые установки и поведение – осознание важности сбережений, инвестиционного планирования, ответственного подхода к кредитованию, а также умение анализировать потенциальные риски и избегать финансовых мошенничеств.

Эти компоненты формируют у человека способность критически оценивать информацию, принимать взвешенные экономические решения и обеспечивать долгосрочную финансовую устойчивость.

Финансовая грамотность как фактор устойчивого экономического роста:

Финансовая грамотность оказывает влияние не только на уровень жизни конкретного человека, но и на экономическую ситуацию в стране в целом. Граждане, обладающие высоким уровнем финансовой грамотности, реже сталкиваются с долговыми проблемами, эффективнее используют инвестиционные инструменты, обеспечивают себе финансовую независимость и благополучие в будущем.

Кроме того, рост финансовой грамотности способствует:

- уменьшению уровня закредитованности населения – люди лучше оценивают свои финансовые возможности и избегают чрезмерных долговых обязательств.

- повышению уровня сбережений и инвестиций – граждане осознают важность накоплений и рационального распределения средств.

- развитию предпринимательской активности – люди с высоким уровнем финансовой грамотности чаще открывают собственный бизнес и эффективнее управляют финансовыми потоками.

³⁴ Согласно определению Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР)

Финансовая грамотность также играет важную роль в обеспечении устойчивого экономического роста и развитии сферы услуг, особенно в регионах. Одной из ключевых теоретических и методологических проблем является дисбаланс между развитыми и слабо развитыми регионами, где низкий уровень финансовой грамотности ограничивает предпринимательскую активность и снижает доступ к современным финансовым инструментам.

В стратегическом плане решение этой проблемы требует:

- расширения образовательных программ по финансовой грамотности, особенно в сельских и отдаленных регионах.
- создания благоприятных условий для малого и среднего бизнеса, включая доступные кредитные программы и инвестиционные механизмы.
- развития цифровых финансовых технологий, что позволит населению быстрее адаптироваться к современным финансовым инструментам.
- государственного регулирования и поддержки финансовых инициатив, направленных на повышение уровня финансовой грамотности среди различных слоев населения.

Согласно исследованиям³⁵, общий уровень финансовой грамотности в Республике Узбекистан остается низким. В частности, средний балл по финансовой грамотности среди взрослых составил 12,7 из возможных 21, что указывает на необходимость усиления образовательных инициатив в этой области.

В ответ на эту проблему правительство Узбекистана предпринимает шаги для повышения финансовой осведомленности населения. В 2021 году была принята Национальная стратегия³⁶ направленная на улучшение знаний и навыков граждан в области управления личными финансами.

Кроме того, в стране появляются онлайн-курсы и образовательные программы, направленные на повышение финансовой грамотности. Например, курс «Финансовая грамотность» предлагает обучение по контролю расходов и доходов, эффективному использованию кредитов, инвестированию и разработке личных финансовых стратегий.

Эти инициативы направлены на улучшение финансовой грамотности населения и, как следствие, на укрепление экономической стабильности и благосостояния граждан Узбекистана.

Таким образом, финансовая грамотность является неотъемлемой частью стратегии опережающего развития сферы услуг, поскольку способствует формированию экономически активного населения, повышает уровень доходов и стимулирует предпринимательскую активность. Ее развитие играет ключевую роль в обеспечении устойчивого и сбалансированного роста экономики, особенно на региональном уровне.

³⁵ согласно исследованию, проведенному Организацией экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) в странах СНГ, включая Узбекистан

³⁶ Национальная стратегия повышения финансовой грамотности на 2021–2025 годы, разработанная ЦБ РУз

Список использованной литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О рынке ценных бумаг».
2. Национальная стратегия повышения финансовой грамотности Республики Узбекистан на 2021–2025 годы.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5157 от 2021 года «О мерах по повышению финансовой грамотности населения».
4. Центральный банк Республики Узбекистан. Отчёт о финансовой грамотности населения за 2023 год.
5. Министерство финансов Республики Узбекистан. Доклад о состоянии финансового рынка (2023).
6. Брызгалин А.В. Финансовая грамотность: экономические и правовые аспекты. – Москва: Юстицинформ, 2021.
7. Кудрин А.Л., Гурвич Е.Т. Финансовая грамотность и экономическое развитие. – Москва: Экономика, 2020.
8. Шаститко А.Е. Институциональная экономика и финансовая грамотность. – СПб.: Издательство СПбГУ, 2019.
9. Lusardi A., Mitchell O.S. Financial Literacy and Economic Outcomes. – Annual Review of Economics, 2014.
10. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – Pearson, 2021.
11. OECD/INFE. Financial Literacy and Financial Inclusion Measurement. – OECD Publishing, 2022.
12. Всемирный банк. Доклад о финансовой грамотности в странах СНГ. – Washington, 2021.
13. Агентство стратегических инициатив РФ. Финансовая грамотность населения: международный опыт и перспективы. – Москва, 2020.
14. Степанова Н.В. Финансовая грамотность населения: влияние на экономический рост. – Вопросы экономики, 2022, №4.
15. World Economic Forum. Financial Literacy: An Essential Tool for Economic Growth. – WEF Report, 2023
16. www.stat.uz (Официальный сайт Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике)
17. <https://cyberleninka.ru>
18. www.lex.uz/ru/docs/5186047 (Национальная база данных законодательства Республики)
19. <https://www.gazeta.uz>- новости Республики Узбекистан
20. <https://mineconomy.uz/ru/info/4480-> Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.

Севара Абдиназаровна Бабаназарова – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти, PhD.

Озода Мамаюнусова Пардаева – Тошкент давлат иқтисодиёт университети кафедра мудир, доцент, PhD.

ИНСОН РЕСУРСЛАРИ АНАЛИТИКАСИ (ТАҲЛИЛИ)НИНГ МАЗМУНИ

Аннотация: Мақолада инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили)нинг мазмуни очиб берилган. Аналитика тушунчасининг қамраб оладиган асосий жиҳатлари, яъни аналитикада инсон миясига кирган ҳодиса ва жараёнлар ҳақидаги ахборотлардан фойдаланиш, шунга асосан инсон тафаккур қилиб, унинг натижаси асосида жараёнга таъхис қўйиб тегишли хулосалар чиқариб маълум фаразлар ҳам қилинади. Бу хулосалар ижобий ёки салбий натижаларга олиб келиши, ёки ҳеч қандай ўзгаришсиз қолиши ҳам мумкинлиги хусусида маълумот беради. Хулосалар кўпинча фаразларга ҳам асосланиши ҳам кўрсатиб ўтилган.

Калим сўзлар: инсон ресурслари, инсон капитали, меҳнат ресурслари, инсон тараққиёти, инсон салоҳияти, инсон ресурслари аналитикаси, ҳодиса ва жараёнлар, фаразлар.

Аннотация: В статье поясняется содержание аналитики кадровых ресурсов. Основными аспектами, охватываемыми понятием аналитики, являются использование информации о событиях и процессах, поступающих в мозг человека, на основе которой человек мыслит, диагностирует процесс по его результатам, делает соответствующие выводы и выдвигает определенные предположения. Эти выводы предоставляют информацию о том, могут ли они привести к положительным или отрицательным результатам, или могут остаться неизменными. Также было показано, что выводы часто основываются на предположениях.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, человеческий капитал, трудовые ресурсы, развитие человеческого потенциала, аналитика человеческих ресурсов, события и процессы, предположения.

Abstract: The article explains the content of human resources analytics. The main aspects covered by the concept of analytics are the use of information about events and processes entering the human brain, on the basis of which a person thinks, diagnoses the process based on its results, makes appropriate conclusions and puts forward certain assumptions. These conclusions provide information on whether they can lead to positive or negative results, or can remain unchanged. It has also been shown that conclusions are often based on assumptions.


Keywords: human resources, human capital, labor resources, human potential development, human resource analytics, events and processes, assumptions.

Мавзунинг долзарблиги. XX1-аср инсониятнинг, жамият ва табиатнинг ўзгаришларига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Инсоният оддий қилиб айтганда, жисмоний меҳнатдан ақлий меҳнатга ўтмоқда, жамиятда ҳам интеграцион жараёнларнинг содир бўлганлиги туфайли тилидан, динидан, эътиқодидан қатъи назар бир хил технологиялар ва дунё миқёсида ўзаро фикр алмашиш учун бир қанча тилларни билишни тақозо қилмоқда. Табиатдаги ўзгаришлар ҳам, экологик жиҳатдан чегара билмайдиган даражадаги ўзгаришларни содир этмоқда. Шундай шароитда янги-янги фанлар ҳам вужудга келмоқда. Булардан бири “Инсон ресурслари аналитикаси” фанидир.

Тадқиқот методологияси. Мақолани ёзиш жараёнида турли методологик йўналишлардан, хусусан, мазмун ва шакл, индукция ва

дедукция, макон ва замон, таҳлил ва синтез, мантикий таҳлил каби методологик ёндошувлардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Инсон миясига ҳар куни минглаб ҳодиса ва жараёнлар ҳақида ахборотлар кириб боради. Бунга эътибор қилсангиз ҳозирги ҳолатингизга баҳо бера олишингиз мумкин. Бундан келиб чиқиб, атрофдагиларингиздаги аҳволни ҳам тасаввур қиласиз. Бу кўриб турган жараёнлардан кўрмаган жойлардаги ҳодисаларни ҳам тасаввур қилиш мумкин. Демак, бундай хулосаларга ахборотлар асос бўлади. Ахборотларни инсон тафаккурида қайта ишлаши лозим. Натижада худди шудай ҳолатнинг бошқа ўзи кўрмай турган жойларида ва келажакда ҳам содир бўлаётганлигини тасаввур қилиш ва шунга мос равишда қарор қабул қилиш мумкин. Бу жараёнларни бир сўз билан айтганда аналитика деб айтиш мумкин. Аналитиканинг ўзаро боғлиқлиги қуйидаги расмда келтирилган (1-расм).



1-расм. Аналитика тушунчасининг қамраб оладиган асосий жиҳатлари

Расмдан кўриниб турибдики, аналитикада инсон миясига кирган ҳодиса ва жараёнлар ҳақидаги ахборотлардан фойдаланилиши унинг биринчи босқичи ҳисобланади. Бу ахборотлар бефарқ инсонларда шунчаки бир мияга киради ва шу билан ҳаракатсиз ҳолатда вақт ўтиши билан унутилади. Агар инсон ҳар бир ахборотни тафаккур қилиб, унинг пайдо бўлиши ва натижасини ўйлайдиган бўлса нималар бўлишига ташхис қўя олади. Бу ахборотлардан фойдаланиб, уларнинг ўзаро боғлиқликларидан тегишли хулосалар чиқарилади ва фаразлар қилинади. Бу хулосалар ижобий ёки салбий натижаларга олиб келиши, ёки ҳеч қандай ўзгаришсиз қолиши ҳам мумкинлиги хусусида маълумот беради. Хулосалар кўпинча фаразларга ҳам

асосланади. Шу йўл билан келажакда нима бўлиши мумкинлиги хусусида фикрлар айтилади. Ушбу усулдан олдин ҳам ўзимизда фойдаланилган. Жумладан фолбинлар, башоратчилар айнан шу йўлни тутганлар.

Ҳозирги пайтда, қайси соҳа бўлмасин, уларнинг ахборотларини тўплаб, буларнинг келажаги ҳақида башорат (прогноз) қилиш мумкин. Табиат ҳодисаларидаги ўзгаришлар, хусусан булутларнинг ҳаракатига қараб об-ҳавонинг ўзгаришларини, соҳадаги рақамларнинг ўзгаришларига қараб, келажакда буларнинг қандай даражага кўтарилиши ёки камайиши хусусида ҳам башорат қилиниши мумкин. Жумладан, молия соҳасида ва унинг ҳар бир йўналишида, қимматбаҳо қоғозларнинг сотилишида, бюджетнинг тахчиллиги каби масалалари ҳам ҳолтдан келиб чиқиб башорат қилиш мумкин. Ёки савдо соҳасида ҳам товарларнинг сотилишидаги ўзгаришларга уларга таъсир қилувчи омилларни инобатга олган ҳолда ташхис қўйиш ҳам мумкин бўлади.

Аналитикани бевосита инсоннинг ўзгаришларини аниқлашда ҳам фойдаланиш мумкин экан. Бунда инсонлар қуйидаги тоифаларга бўлиб олинади:

ўзига, миясига кирган ахборотларга бефарқ бўлмаган, улардан хулоса чиқарадиган одамлар;

ўзига бефарқ эмас, бироқ чуқур ўйлаб ўтирмайди. Бировларнинг айтганини ва аниқ топшириқларни бажаради, бироқ ўзи ўйлаб топмайдиган кишилар тоифасидагилар;

ўзига бефарқ одамлар, миясига кирган ахборотлар билан умуман қизифмайди ва буларга бефарқ ҳолатида бўлади. Биров бирор ишни айтса ва унинг қандай бажарилишини кўрсатсагина ижро этади.

Аналитика ёрдамида шундай ташхислар қўйилса, кимни ишга олиш керак ва қайси лавозимларга, яъни раҳбарликка, ижрочиликка ёки оддий ишчиликка олдиндан билиб олиш мумкин. Шу туфайли аналитика инсон ҳаётида, табиат ва жамиятнинг ўзгаришларини башорат қилишда ҳам муҳим ўринга эга.

Ушбу жараёнларда инсон тафаккури муҳим роль ўйнайди. Бу ҳар хил йўналишларда, хусусан содир бўлган, бўлаётган ва бўладиган маълумотларни қабул қилиш, уларни таҳлил қилиш, мулоҳаза қилиш, қарор қабул қилиш ва муаммоларни ҳал қилиш қобилиятининг юзага келишига хизмат қилади. Қисқача айтганда, инсон тафаккури, маънавий ва эмоционал кечинмаларда, ижодий ва мантқий фикрларнинг шаклланишида, турли кечинмаларнинг содир бўлишида намоён бўлади.

Инсон тафаккурининг асосий хусусиятларидан бири мантқий фикрлашда намоён бўлади. Бу аниқ ва тўғри хулосалар чиқаришда ижодий креатив фикрлаш орқали янги ғоялар, концепцияларни яратиш, муаммоларни ноодатий усуллар билан ҳал қилиш қобилиятини ҳам оширади. Бу атроф-муҳитдаги воқеаларни кузатиш ва уларни тезкор баҳолаш, таҳлил қилиш имкониятини ҳам яратади. Бу ўз навбатида, турли хил муаммоларни ҳал қилишда бир қанча вариантларни таклиф этиш ва улар орасидан энг самарали ечимни топишга ҳам кўмаклашади.

Инсон тафаккурининг аҳамиятли жихати шундаки, бу, энг аввало, ҳаётдаги ҳар қандай вазиятда тўғри ва самарали қарорларни қабул қилиш учун муҳим аҳамиятга эга. У бошқа одамлар билан самарали алоқалар ўрнатиш, ижодий ечимлар тўплаш, нафақат шахсий, балки ижтимоий ривожланишга ҳам ёрдам берадиган хулосаларни чиқаради. Шу тариқа ушбу жараёнлар шахснинг умумий ривожланишига олиб келадиган омил сифатида намоён бўлади.

Кўришиб турибдики, аналитикада муҳим босқич хулоса ва фаразлардан иборат экан. Булар одатда, маълумотлар ва уларнинг таҳлили асосида яратилади. Хулосалар асосан тегишли маълумотларга асосланган ҳола қилинади ва бунинг натижасида бошқарув қарорлари қабул қилинади. Фаразлар эса хулосалардан фарқли ўларок, қандайдир ҳолатнинг ёки ҳодисанинг келажаги ҳақидаги келиннадиган фикрлардан иборат. Бу фикрлар келажак ҳақида таклифлар ишлаб чиқишга ҳам асос бўлади. Буларга асосан ҳодиса ва жараёнлар таҳлил қилинади. Бу таҳлилнинг натижаси ҳам тегишли хулосаларни чиқаришга ва фаразларни тайёрлашда асосий манба бўлиб хизмат қилади. Бу эса ўз навбатида алоҳида таҳлил натижаси сифатида илмий тадқиқотлар учун ҳам асос бўлиб хизмат қилади.

Маълумки, олиб борилаётган илмий тадқиқотнинг асосий манбаи – бу маълумотлар ҳисобланади. Булар эса, жараёнларнинг ўзгариши ва шу билан боғлиқ маълумотларни ўрганиш ва улар ўртасидаги муносабатларни аниқлашни тақозо қилади. Бу ҳам таҳлил орқали амалга оширилади. Ушбу жараёнда статистик кўрсаткичлар, социологик сўровлар, экспериментлар ва бошқа маълумотлардан ҳам фойдаланиб, хулосаларнинг асослилигини мустаҳкамлайди. Бунда албатта илгари олинган натижалар ва тадқиқотлардан олинган хулосалар билан қиёсланиб якуний хулосалар қилинади.

Хулоса қилиб айтганда, қилинган хулосалар ва фаразлар доимо чуқур ўрганишни, янгиланиш ва ўзгартиришларни талаб қилади, чунки ўтаётган вақт, унда содир бўлаётган ҳодиса ва жараёнлар ҳар доим ўзгариб туришни тақозо қилади.

Qurbaniyozov A.Y – Qoraqalpog‘ tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti, aman0206882020@gmail.com

QORAQALPOG‘ISTONDA PAXTA- TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘istonda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Paxta yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab olgan klaster tizimining ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilg‘or tajribalardan foydalanish va klasterlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan. Maqolada ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy aholining

iqtisodiy faolligini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari paxta-to'qimachilik sanoatining kelgusi rivoji uchun ilmiy-amaliy asos yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. *Qoraqalpog'iston, paxta-to'qimachilik klasterlari, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, O'zbekiston, raqobatbardoshlik, eksport, bandlik, barqaror rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются инновационные подходы к развитию хлопково-текстильных кластеров в Каракалпакстане. Проанализирована значимость кластерной системы, охватывающей все этапы — от выращивания хлопка до производства готовой продукции. Также представлены рекомендации по внедрению инновационных технологий, использованию передового опыта и повышению эффективности деятельности кластеров. Особое внимание уделено вопросам экологической устойчивости, рационального использования ресурсов и увеличения экономической активности местного населения. Результаты исследования направлены на создание научно-практической основы для дальнейшего развития хлопково-текстильной промышленности.*

Ключевые слова. *Каракалпакстан, хлопок-текстильные кластеры, сельское хозяйство, экономическая эффективность, инновационные технологии, Узбекистан, конкурентоспособность, экспорт, занятость, устойчивое развитие.*

Abstract. *This article examines innovative approaches to the development of cotton-textile clusters in Karakalpakstan. The importance of the cluster system, which encompasses all stages from cotton cultivation to the production of finished goods, is analyzed. Recommendations are provided for the introduction of innovative technologies, the adoption of best practices, and the enhancement of cluster efficiency. Special attention is given to issues of ecological sustainability, rational resource use, and boosting the economic activity of the local population. The research results aim to establish a scientific and practical foundation for the future development of the cotton-textile industry.*

Keywords. *Karakalpakstan, cotton-textile clusters, agriculture, economic efficiency, innovative technologies, Uzbekistan, competitiveness, export, employment, sustainable development.*

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, paxta-to'qimachilik klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari mamlakatimizning qishloq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishda muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpog'istonda paxta-to'qimachilik klasterlarining rivojlanishi ushbu hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish salohiyati va ichki hamda tashqi bozor talablari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun innovatsion yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar va klasterlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasida, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligida paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Klaster modeli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirib, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, samaradorlikni oshirish va bandlikni ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur model tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xususiyl sektorini rivojlantirish hamda mahalliy aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish orqali yuqori sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta‘minlash va qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Ushbu maqola Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligida paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, ularni tashkil etishning hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollarini ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Klasterlarnig ijobiy samaralari qatorida hosildorlikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, export hajmini oshirish, xarajatlarni tejash va yana shu kabi jihatlarni ta‘kidlab o‘tishimiz mumkin. Taraqqiyot-innovatsiyani talab etadi. “Paxta-to‘qimachilik klasteri”- ulkan iqtisodiy loyiha bo‘lib, uni shakllantirishdan maqsad- shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan ta‘lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg‘unlashtirish-innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo‘nalishtirishdan iboratdir.

Klaster siyosatining tarkibiy qismlaridan biri klaster shakllantirishning tashkiliy asoslarini yaratish va uning iqtisodini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Hukumat miqyosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hisoblanadi. Klaster siyosati paxta urug‘ini ekish, shundan hosil bo‘lgan paxta xom ashyoni to‘qimachilik va tikuvchilik tarmoq fabrikalarga yetkazib berish samaradorligini va hududlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarini o‘z ichiga olgan vosita sifatida qaraladi.

Ma‘lumki, klasterlarning dastlabki faoliyati paxta urug‘ini yerga ekishdan boshlanganligini inobatga olinsa, so‘nggi olti yillikda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida, jumladan, paxtachilik sohasida keng qamrovli islohotlar ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-sonli farmoni qabul qilingan [1].

Farmonda iste‘mol va noiste‘mol mahsulotlarni yetishtirishda yer maydonlaridan oqilona foydalanish va suv resurslarini yetkazib berilishidagi kamchiliklar hamda ilm-fan yutuqlaridan foydalanishning pastligi shu bilan birgalikda eksport hajmini ko‘paytirishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar farmonda qayd etilgan bo‘lib, ushbu vazifalarni bajarish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Strategiyada ustuvor vazifalarni amalga oshirishda quyidagilar belgilangan:

- aholinig oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;
- qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini ishlab chiqish;
- sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy muhitni yaratish;
- tabiiy resurslardan to‘g‘ri foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- davlat boshqaruvining zamonoviy tizimlarni rivojlantirish;
- tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan xarajatlarni diversifikatsiya qilish;

- qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish
- qishloq hududlarini rivojlantirish;
- tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Yuqorida qayd etilgan farmonning ustuvor vazifalardan kelib chiqib, ushbu huquqiy hujjat mamlakatimiz to'qimachilik klasterlarining boshqaruv tizimini mutanosib va adolatli bo'lishini taminlaydi. Bunda klasterlarning faoliyati qishloq xo'jaligi, qayta ishlash va yakuniy bosqichlardagi ish jarayonlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini taminlaydi. Jumladan, fermerlar tomonidan klasterlarga paxta xom ashyoni yetkazib berishdagi o'zaro huquqiy munosabatlarni teng manfaatli tarzda tartibga solish va klasterlarning ichki tizimidagi qayta ishlash darajasi hamda to'liq zanjiridagi uzilishlarni oldini olish bo'yicha tizimli muammolarning hal qilinishini belgilab beradi.

Qoraqalpog‘ston Respublikasida 2021-2023 yilda faoliyat yuritgan paxta-to‘qimachilik klasterlar to‘grisida ma’lumotlar

№	Tuman nomi	Paxta-to‘qimachilik klasteri nomi	2021 yilda paxta xom-ashyosi etishtirish			2022 yilda paxta xom-ashyosi etishtirish			2023 yilda paxta xom-ashyosi etishtirish		
			gektar	yalpi xosil	O‘rtacha xosildorlik, (ts/ga)	Gektar	yalpi xosil	O‘rtacha xosildorlik, (ts/ga)	gektar	yalpi xosil	O‘rtacha xosildorlik, (ts/ga)
1	To‘rtko‘l	"Agro To'rtko'l tekstil cluster" MCHJ	9 330	28 458	30,5	8 500	27 684	32,6	8 260	28 151	34,1
2	Beruniy	"Beruniy Cluster" MCHJ	10 030	30 558	30,5	9 200	29 924	32,5	8 755	29 751	34,0
3	Ellikkala	"Bo‘ston klaster" MCHJ	10 195	31 069	30,5	6 385	20 835	32,6	5 434	18 794	34,6
4	Amudaryo	MCHJ "Amudaryotex"xk	15 030	45 853	30,5	13 900	44 844	32,3	13 780	47 811	34,7
5	Taxiatosh	"Taqiatas tex" MCHJ	2 480	6 601	26,6	2 700	6 944	25,7			-
6	Taxiatosh	«Takhiatash agrotex cluster» MCHJ							2 700	8 524	31,6
7	Xo‘jayli	"Midasiatex Cluster" MCHJ	5 550	13 876	25,0	6 000	15 073	25,1	5 960	19 522	32,8
8	Sho‘manoy	"Agro Shumanay Cluster" MCHJ	4 970	11 834	23,8	3 200	7 622	23,8	3 164	8 235	26,0
9	Sho‘man	"Eko tekstil"				2 000	5 178	25,9	2 036	5 697	28,0

	oy	MCHJ									
10	Qonliko'1	"Agro To'rtko'l Textile Cluster" MCHJ	4 320	10 247	23,7	4 600	11 249	24,5	5 000	13 001	26,0
11	Qo'ng'ir ot	MCHJ	4 090	9 358	22,9	4 500	11 020	24,5	4 700	11 702	24,9
12	Kegeyli	"Kegeyli Chimboy Agrocluster" MCHJ	4 939	11 315	22,9	5 000	11 246	22,5	6 000	14 708	24,5
13	Chimboy		5 751	13 163	22,9	5 000	11 242	22,5	5 950	14 573	24,5
14	Qorao'zak	"Qoraqalpog'iston Agrocluster" MCHJ	4 200	9 978	23,8	4 700	11 558	24,6	4 624	12 746	27,6
15	Taxtakopir		3 450	7 902	22,9	3 900	9 446	24,2	3 730	10 193	27,3
16	Nukus		665	1 655	24,9						
17	Nukus	"Nukus agro Cluster" MCHJ				2 000	5 243	26,2	2 200	8 106	36,8
18	Ellikkala	"Ellikkala oltin olasi klaster" MCHJ				2 505	8 500	33,9	3 180	11 129	35,0
Jami			85 000	231 867	27,3	84 090	237 608	28,3	85 473	262 643	30,7

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2021 yildan 2023 yilgacha jami yer maydonining deyarli o'zgarmaganligi kuzatilsa-da, yalpi hosil va o'rtacha hosildorlik sezilarli darajada oshgan. Yalpi hosil 2021 yildagi 231 867 tonnadan 2023 yilda 262 643 tonnaga oshgan bo'lsa, o'rtacha hosildorlik 27,3 tsentnerdan 30,7 tsentnerga ko'tarilgan.

Eng yuqori hosildorlik "Ellikkkala oltin olasi klaster" MCHJ tomonidan 2023 yilda 35,0 tsentner/ga darajasida qayd etilgan.

Biroq "Sho'manoy" hududidagi ayrim klasterlarda, masalan, "Agro Shumanay Cluster" MCHJda, hosildorlik pastroq bo'lib, 26,0 tsentner/ga atrofida qolmoqda.

"Amudaryo" klasterining hosildorlik darajasi barqaror o'sib bormoqda (2021 yilda 30,5 tsentner/ga, 2023 yilda 34,7 tsentner/ga).

"Taqiatash tex" MCHJ 2023 yilgi ma'lumotlari yo'qligi tufayli samaradorlik bo'yicha to'liq baho berish qiyin.

2023 yilga kelib ba'zi yangi klasterlar, masalan, "Ellikkkala oltin olasi klaster" va "Nukus agro Cluster" faoliyat ko'rsatib, yuqori hosildorlikni ta'minlagan.

Agroklasterlar faoliyati natijasida hosildorlik barqaror oshib bormoqda, bu esa resurslardan samarali foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning samarasidir.

Hududlararo hosildorlikdagi farqlarni kamaytirish uchun past samaradorlikka ega klasterlarga qo'shimcha e'tibor qaratish va tajribali klasterlar amaliyotini ularga tatbiq qilish lozim.

Yangi tashkil etilgan klasterlarning yuqori samaradorlikka erishgani qishloq xo'jaligi infratuzilmasi va boshqaruvning takomillashtirilganligini ko'rsatadi. Kelgusida bu kabi klasterlarning faoliyatini kengaytirish kerak.

Har bir klasterning muvaffaqiyati yoki qiyinchiliklarini chuqurroq tahlil qilish, hosildorlikni oshirish uchun individual strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligida paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hududning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Klaster tizimini rivojlantirish, yuqori texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish orqali xalqaro bozor talablari darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari yaratiladi. Shu bilan birga, mahalliy aholi uchun ish o'rinlarini tashkil etish va qishloq hududlarining ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashga erishiladi. Mazkur jarayonlarni tizimli ravishda tashkil etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali Qoraqalpog'istonning qishloq xo'jaligi yanada barqaror rivojlanishga erishadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-sonli farmoni.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

2. Ibragimov, A., & Tursunov, M. (2020). "Paxta-to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshlik darajasi va rivojlanish istiqbollari". *Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va siyosati*. Toshkent: O‘zbekiston Noshirlik.
3. G‘ulomov, S., & Ergashev, A. (2019). "Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va paxta sanoatining rivojlanishiga ta‘siri". *Tarmoqlar va ularning integratsiyasi: nazariya va amaliyot*. Tashkent: Iqtisodiyot va boshqaruv akademiyasi.
4. Muminov, B. (2021). "Paxta-to‘qimachilik klasterlari va ularning iqtisodiy samaradorligi". *Qishloq xo‘jaligi va agrar iqtisodiyot* (6), 98-106.
5. Khamidov, A., & Sattarov, J. (2020). "O‘zbekistonning paxta-to‘qimachilik sanoati: Tahlil va istiqbollari". *Iqtisodiy tahlil va innovatsion rivojlanish*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi ilmiy jurnali.
6. Davletov, D. (2021). "Paxta sanoatining eksport imkoniyatlari va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik". *Tashqi savdo va iqtisodiy rivojlanish*. Toshkent: O‘zbekistonda rivojlanish institutlari.
7. Karimov, Sh. (2018). "Qishloq xo‘jaligida klaster tizimining joriy etilishi va uning ahamiyati". *Iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligi tahlili*. Toshkent: Iqtisodiyot ilmiy-nazariy va amaliy jurnali.
8. Tashkent Institute of Textile and Light Industry. (2022). "Textile clusters: Current issues and solutions in Uzbekistan". *Uzbek Journal of Textile Science*, 35(2), 15-24.
9. Vakhobov, R., & Abdurahmanov, U. (2021). "Sustainable development in cotton-growing regions of Uzbekistan". *Journal of Agricultural Development*, 41(3), 122-130.
10. Shomurodov, M. (2020). "Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida paxta-to‘qimachilik sanoatining o‘rni". *Qoraqalpog‘iston jurnali*, 22(4), 45-52.

Maxmudov Sirojiddin Abdullayevich – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktranti, maxmudovsirojiddin25@gmail.com

RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA ONLAYN SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annatsiya: Raqamlashtirish jadal sur‘atlarda o‘shirish natijasida raqamli texnologiyalar orqali o‘z tasdig‘ini topmoqda. Shu bilan birga an‘anaviy bozorlar ham raqamli ko‘rinishga o‘tib elektron tijoratni tashkil etmoqda. Ushbu maqolada onlayn savdo sohasining rivojlanishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, marketpleys, onlayn savdo imkoniyatlari, . texnologik rivojlanish, mijozlar tajribasi, bozor globalizatsiyasi, raqobat va innovatsiya, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas‘uliyat, Onlayn savdo mexanizmlari.

Аннотация: Поскольку цифровизация продолжает расти быстрыми темпами, она находит свое выражение в цифровых технологиях. В то же время традиционные

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

рынки также становятся цифровыми и создают электронную коммерцию. В данной статье рассматривается развитие индустрии интернет-торговли.

Ключевые слова: оцифровка, торговая площадка, возможности онлайн-продаж, технологическое развитие, клиентский опыт, глобализация рынка, конкуренция и инновации, экологическая устойчивость, социальная ответственность, механизмы онлайн-торговли.


Annotation: Poskolku tsifrovyzat prodoljaet rasti bystryimi temami, ana nakhodit svoje vyrajenie v tsifrovyx tekhnologix. V to je vremya traditsionnye rynki takje stanovyatsya tsifrovymi i sozdayut electronic commerce. V dannoy state rassmatrivaetsya razvitie industrii internet-torgovli.

Keywords: encryption, trading platform, online sales, technological development, client experience, market globalization, competition and innovation, ecological sustainability, social responsibility, online trading mechanism.

Raqamlashtirish sharoitida elektron tijoratning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda, bu korxonalarda mavjud bo‘lgan raqobatbardosh bozor afzalliklari va resurslarini hisobga olgan holda bozorga ta'sir qilishning samarali vositalaridan foydalanish zarurligini anglatadi. Elektron bozorning yuqori darajadagi noaniqligi bir vaqtning o‘zida raqobatning o‘shishi, tovarlar va xizmatlar iste'molchilarini, shuningdek, biznesloyihalarni amalga oshirish uchun bozor sheriklarini jalb qilishda Internet-marketing imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Elektron tijorat sohasining rivojlanishida marketpleysalar asosiy ro‘l o‘ynaydi. Marketplace – marketpleys elektron tijorat platformasi, uchinchi shaxslarning mahsuloti yoki xizmati to‘g‘risida ma’lumot beruvchi elektron tijorat onlayn-do‘koni hisoblanadi. Umuman olganda, mahsulot va xizmatlarni taqdim etish uchun optimallashtirilgan onlayn platforma (veb-sayt).

Onlayn savdo xizmatlarini rivojlantirish iste’molchi va xizmat ko‘rsatuvchilarga bir qator imkoniyatlarni yaratib beradi.



1-rasm. Onlayn savdo xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari³⁷

³⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

- **Savdo hajmi ortishi.** Raqamlashtirish savdo ko‘lamini yangi oziqlantirish ekotizimlarini taqdim etadi (raqamli platformalar) va firmalarga, ayniqsa kichik va o‘rta biznesga, bir birlari bilan va butun dunyo bo‘ylab iste‘molchilar bilan yordam beradi.

- **Xizmatlarning kengayishi.** Raqamlashtirish yordamida savdoga yaroqsiz deb hisoblangan xizmat (masalan, sog‘lomlashtirish xizmatlari), “aqlli” mahsulot o‘rnatishning yangi birikmalari (masalan, aqlli lampalar) va yangi yordam (masalan, bulutli yordam) savdosining o‘shishiga keladi.

- **Global bozorlarga kirish.** Raqamli platformalar orqali har qanday o‘lchamdagi firmalar butun dunyo bo‘ylab potentsial xavfsizlik va mijozlarga murojaat qilishlari mumkin bo‘ladi.

- **Xarajatlarni birlashtirish.** Raqamlashtirish xizmatlarining tranzaksiya sifatini yaxshilashi mumkin, bu esa iste‘molchilarga raqobatbardosh narxlarda yaxshi sifatli xizmatlardan foydalanish imkonini beradi.

- **Moslashuvchanlik va qulaylik.** Raqamli tanlov texnologiyalarining ko‘proq, xilma-xilligini va qulayligini, moslashtirilgan yoki shaxsiy foydalanishni taqdim etadi.

- **Innovatsiyalar va hamkorlik.** Raqamli platformalar innovatsiyalar va hamkorlikni osonlashtirish, geografik masofa bilan bog‘liq to‘siqlarni yo‘q qiladi.

- **Yangi biznes modellari va qiymat zanjirlari.** Katta hajmdagi ma‘lumotlar tahlili, sun‘iy intellekt va IoT kabi ilg‘or kompyuter texnologiyalardan foydalanilgan holda, savdo yuki global iste‘molchilarga mahsulot va foydalanishning xilma-xil assortimentini taklif etuvchi yangi biznes modellari va qiymat zanjirlarini yaratdi.

- **Investitsiya ma‘lumotlariga oson kirish.** Raqamli savdo axborot investitsiya ma‘lumotlariga kirishni osonlashtirdi va investorlarni ma‘lumotlar va tahlillar bilan ta‘minladi. Onlayn brokerlik platformalari investorlarga qabul qilinadigan qarorlar uchun yordam beradi ta‘lim kontentidan tortib bozorga qadar bo‘lgan ko‘plab resurslarni taklif qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy savdo platformalarining xodimlari global investorlar hamjamiyati o‘rtasida fikr almashishni osonlashtiradi.

- **Algoritmli savdoga kirishning kengayishi.** Raqamli texnologiya algoritmik savdo strategiyalariga kirishni osonlashtirdi va chakana investorlarga rejalashtirish va algoritmlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Algoritm savdo algoritmlari katta hajmdagi ma‘lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, savdoni ishlab chiqarish va buyurtmalarni insonlarga yetkazib berishi mumkin.

Zamonaviy iqtisodiy jarayonlarda onlayn savdo o‘zaro ta‘sirning bilvosita xususiyatini, tovarlar va xizmatlarning vizualizatsiyasini va individual yondashuv imkoniyatini birlashtiradi. Ushbu savdo formati an‘anaviy shakllardan sezilarli farq qiladi. Internet makonida xaridor qayerda bo‘lmasin, onlayn savdo xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

Shunday qilib, raqamlashtirish mexanizmlaridan foydalanish xizmatlar, internet xizmatlari va onlayn savdo hajmining o‘shishiga yordam beradi. Shuning uchun onlayn savdoni rivojlantirish va onlayn savdo xizmatlarini rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Texnologik Rivojlanish

Onlayn savdo xizmatlarini rivojlantirishda texnologik innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Yangi texnologiyalar, masalan, sun‘iy intellekt (AI), katta ma‘lumotlar (big data), va bulutli texnologiyalar (cloud comput) onlayn savdo platformalarini yanada samarali va foydalanuvchilarga qulay qilish yaratadi.

- **Sun‘iy intellekt:** AI intellekt yordamida xulq-atvor shaxsiylashtirilgan takliflarni qabul qilish va tahlil qilish, xizmat ko‘rsatishni yaxshilash mumkin. Masalan, onlayn savdoni taklif qilishning xarid qilish tarixini, ularga mos mahsulotlar taklif qilishlari mumkin.

- **Katta ma‘lumotlarga** ega bo‘lgan bozor tendentsiyalarini, yuklarni va mahsulotlarni zararsizlantirishga yordam beradi. Bu esa strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

- **Bulutli hisoblash:** Bulutli texnologiya onlayn savdolarining platformasi ustida ishlash. Bu, resurslarni samarali ishlashiga yordam beradi.

2. Mijozlar Tajribasi

Mijozlar onlayn savdo muvaffaqiyatning kalitidir. Mijozlar uchun qulay va intuitiv interfeyslar, tez va oson to‘lov tizimlari, sifatli savdoga xizmat ko‘rsatish onlayn platformalarining ishlashini yaxshilash.

- **Shaxsiylashtirish:** Mijozlar uchun shaxsiy tajribalar olish, masalan, tavsiyani tavsiya qilish yoki maxsus takliflar berish, hujjat qoniqishini olish.

- **Mobil ilovalar:** Mobil ilova orqali onlayn savdo qilish kengaymoqda. Mijozlar mobil qurilmalardan osongina, joylarda va vaqtida xarid qilish mumkin.

- **Tezkor yetkazib berish:** Tez va ishonchli xizmat xizmatlari uchun muhim korxonaga ega. Yetkazib berish muddatlarini tozalash va ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirish onlayn savdo platformasi bilan ishlash.

3. Bozor globalizatsiyasi

Onlayn savdo global miqyosda kengaymoqda. Bu, kompaniyalarga yangi bozorlarni o‘zlashtirish va tashqi mahsulotlarga xizmat ko‘rsatadi.

- **Xalqaro savdo:** Onlayn savdo platformalari orqali kompaniyalar o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarishlari mumkin. Bu esa yangi daromad va daromad manbalarini ochadi.

- **Mahalliy bozorlar:** Mahalliy ishlab chiqarish va kichik bizneslar onlayn savdo orqali o‘z oziq-ovqat keng auditoriyaga taqdim etish uchun ega bo‘ladi. Bu, o‘z kuchi, iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shadi.

4. Raqobat va innovatsiya

Onlayn savdo orqali kuchaymoqda. Bu esa kompaniyalarni innovatsiyalarga va yangi taklifni qabul qilishga undaydi.

- **Yangi biznes modellari:** Onlayn savdo mahsuloti yangi biznes modellari, masalan, obuna asosidagi mahsulot yoki "to‘ridan-to‘g‘ri

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

iste'molchiga" (D2C) model, keng tarqalmoqda. Bu modellarning muvaffaqiyati insonbardosh bo'lishi ta'minlanadi.

- **Ijtimoiy tarmoqlar:** Ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo qilish kengaymoqda. Kompaniyalar o'z ta'sirli ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish va sotish orqali yangiga kirishlari mumkin.

5. Ekologik barqarorlik

Bugungi kunda tadbirkorlik masalalari ham onlayn savdo muhim biznes ega. Kompaniyalar o'z faoliyatida tozalashni saqlashni zarur.

- **Barqaror mahsulotlar:** Barqaror ishlab chiqarish va ekologik toza mahsulotlar taklif qilish savdo platformalarini ishlab chiqarishni onlayn.

- **Qayta ishlatish:** Qayta ishlash va biznesni ishga tushirish bo'yicha tashabbus onlayn savdo muhim biznes ega. Kompaniyalar o'z qayta ishlash va ekologik toza qadoqlashni amalga oshirishlari kerak.

6. Ijtimoiy mas'uliyat

Onlayn savdo kompaniyalari ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari zarur. Bu, huquq brendimijini yaxshilaydi va ishonchini qabul qiling.

- **Ijtimoiy loyihalar:** Ijtimoiy yordamda ishtirok etish va jamoalarga yordam berish kompaniyalari uchun foyda imij.

- **Xodimlar huquqlari:** Xodimlar huquqlarini himoya qilish va tekshirish farovonligini ta'minlash onlayn savdo kompaniyalarining ijtimoiy mas'uliyatidir.

Onlayn savdo xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish istiqbollari juda keng va ko'p qirrali. Kompaniyalar va uning ishlab chiqarish strategiyalarini olib, o'z strategiyalarini ishlab chiqishlari, yangilanishlarni amalga oshirishlari zarur. Bu esa, onlayn savdo-sotiqning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Onlayn savdo xizmatlarini rivojlantirish uchun bir nechta mexanizmlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Veb-sayt va mobil ilova

- **Foydalanuvchi tajribasi (UX):** Sayt va ilovaning intuitiv interfeysi, tez yuklanish va mobil moslashuvchanlik.

- **SEO (Qidiruvni optimallashtirish):** Saytning qidiruv tizimlarida ko'rinishini oshirish.

2. Sotsial media marketingi

- **Reklama kampaniyalari:** Facebook, Instagram va boshqa platformalarda maqsadli reklama.

- **Foydalanuvchilar bilan aloqalar:** Mijozlar fikrlarini tinglash va ularga javob berish.

3. Email marketing

- Yangi mahsulotlar va aksiyalar haqida xabar berish: Mijozlarni yangiliklar va takliflar bilan tanishtirish.

- Personalizatsiya: Mijozlar qiziqishlariga mos ravishda takliflar berish.

4. Tahlil va ma'lumotlar

- Foydalanuvchi ma'lumotlarini tahlil qilish: Xarid qilish odatlarini o'rganish va marketing strategiyalarini optimallashtirish.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

- A/B testing: Turli takliflar va dizaynlar sinovdan o‘tkazish.

5. To‘lov tizimlari

• Turli to‘lov usullari: Bank kartalari, elektron hamyonlar va naqd pul bilan to‘lov imkoniyatlari.

- Xavfsizlik: To‘lov jarayonining xavfsizligini ta'minlash.

6. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish

• 24/7 qo‘llab-quvvatlash: Mijozlarning savollariga tez va samarali javob berish.

• Ovozli va yozma aloqa: **Chatbotlar** va jonli chat orqali mijozlar bilan aloqalar.

7. Logistika va yetkazib berish

- Yetkazib berish xizmatlari: Tez va ishonchli yetkazib berish tizimlari.

• Mijozlarga yetkazib berish variantlarini taklif qilish: Turli muddatlar va shartlar asosida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-792-sonli “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022 yil 29 sentyabr. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022 y., 03/22/792/0870-son.

2. Shukurova O.P. Elektron tijorat tizimlarida virtual savdo maydonlari. // Iqtisodiyotning real tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida axborot–kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati Respublika ilmiy texnik anjumanining ma’ruzalar to‘plami, 2017 yil.

1.<https://www.statista.com/statistics/249855/mobile-retail-commerce-revenue-inthe-united-ststes/>

2.<https://www.insiderintelligence.com/topics/industry/mcommerce>

Foydalanilgan adabiyotlar:

3.“Mobile commerce;Technology, Theory and Applications”muallifi Jason Rballiet,2017.

Nasiba Ergasheva – Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, i.f.f.d.(PhD),
UDK: 339.466.54

MINTAQADA KEYTERING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqada keytering xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirishning zamonaviy shakllari, dunyo keyteringxizmatlari bozori va uning geografiyasidagi asosiy tendensiyalar, korxonalar va tashkilotlarining ahamiyati, tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari, barcha sohalarini ta'minlashning sifat jihatidan baholash mezonlari, keytering xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari, keyteringni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabilar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: keytering, outsorsing, austaffing, outsorser, maktabgacha ta’lim tashkiloti, mijoz, uchinchi tomon, integratsiya, outsorsing xizmat, baholash, narx, outsorsing narxi

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Аннотация: В статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по приоритетным направлениям научных исследований, проводимых в данной области, таким как современные формы организации и развития общественного питания в регионе, основные тенденции мирового рынка аутсорсинга услуг общественного питания и его география, значение, структура и специфические особенности предприятий и организаций, критерии качественной оценки обеспеченности всех направлений, направления развития услуг общественного питания, инновационные подходы к организации общественного питания и использование цифровых технологий.

Ключевые слова: общественное питание, аутсорсинг, аустаффинг, аутсорсер, дошкольная образовательная организация, клиент, третья сторона, интеграция, аутсорсинговая услуга, оценка, цена, цена аутсорсинга

Abstract: This article presents scientifically based proposals and recommendations on the priority areas of scientific research in this area, such as modern forms of organization and development of catering services in the region, the main trends in the global catering outsourcing services market and its geography, the importance, structure and specific characteristics of enterprises and organizations, criteria for qualitative assessment of the provision of all areas, directions for the development of catering services, innovative approaches to the organization of catering and the use of digital technologies.

Keywords: catering, outsourcing, austaffing, outsourcer, preschool educational organization, client, third party, integration, outsourcing service, evaluation, price, outsourcing price.

Yangi O‘zbekistonda taraqqiyotning hozirgi bosqichida ayrim iqtisodiyot tarmoqlarini to‘liq xususiy sektorga o‘tkazish orqali ularning sifati va samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “...maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan qamrab olish samaradorligini yanada oshirish, DXSH asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini keng joriy etish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish”³⁸ ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekistonda keytering xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish, sog‘liqni saqlash tizimida bemorlarni ovqatlantirish, kir yuvish, tibbiy buyumlarni zararsizlantirish, tibbiy tashxislar, global raqamli ekotizim, biznes jarayonlari keytering sohasini jadal rivojlantirish o‘ta dolzarb va muhim vazifalardan deb qaralmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirish keytering xizmatlarini rivojlantirish asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilab beradi.

Keytering so‘zi (inglizcha kater - yetkazib bermoq, xizmat qilmoq so‘zidan olingan) — umumiy keytiring tarmog‘i bo‘lib, u yerdan tashqari xizmatlar ko‘rsatishdan foydalanish. Bu sohada ishlovchi kompaniyalar oldindan tayyorlangan taomlarni yetkazib berish, dasturxon tuzish va tozalashni taklif

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

qilish ma’nolarini anglatadi. Keytering - bu keyteringni tashkil etish, asbob-uskunalarini ijaraga olish va istalgan joyda biron bir tadbirda ofitsiant va oshpaz sifatida ishlash uchun keng qamrovli xizmatdir. Oddiy qilib aytganda, keytering - bu sizning mehmonlaringizni ovqatlantirishi mumkin bo‘lgan ochiq xizmat turidir. Keyteringning asosiy turlari va yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin. Keyterinni bir martalik idishlarda yetkazib berishdan tortib, minglab odamlar uchun bino ichida va tashqarisida ziyofat va ziyofatlar tashkil qilishgacha bo‘lgan umumiy Keytering turli shakl va shakllarda bo‘ladi. Voqea joyi, xizmat ko‘rsatish usuli, mijozning holati va boshqa bir qator xususiyatlar va shartlarga qarab xizmat ko‘rsatishning bir nechta tasnifi mavjud.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish joyi va keytering jarayonini tashkil etish usuliga qarab, quyidagi turlarga ajratish mumkin:

➤ bino ichida keytering - korxonaning ixtisoslashtirilgan oshxonasida barcha zarur jihozlar bilan ta’minlanganda: pechlar, muzlatgichlar, mebellar, idish-tovoqlar. Tadbir o‘tkaziladigan joy (ziyofat zali) ishlab chiqarish obyekti yaqinida yoki undan uzoqda joylashgan bo‘lishi mumkin. Keytering korxonalari mehmonxonalar, kongress markazlari, konferentsiya zallari va klublarda va hokazolarda oziq-ovqat yetkazib berish va joyida restoran xizmatlarini taqdim etadilar;

➤ binodan tashqarida keytering (yoki "joydan tashqari xizmat") - mijozning binolarida (yopiq yoki ochiq maydonda) ovqat tayyorlash va tadbirni taqdim etishni o‘z ichiga oladi: qishloq joylarida, korxonalar, firmalarning ofis binolarida, dalalarda va maysazorlarda. Maxsus jihozlangan oshxona mavjudligi kutilmaydi. Idishlar mobil uskunada tayyorlanadi;

➤ tayyor taomlarni yetkazib berish - bu umumiy keytering korxonasi kelishilgan menyuga muvofiq taom tayyorlanishi. Va ular faqat mijozga etkazib berishadi. Bunday holda, stolni sozlash va saytni bezash rad etilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha variantlar bo‘ladi. Ofitsiantlar berilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, umumiy keytering korxonasi ovqat olib kelishi va dasturxon yozishi mumkin yoki mijozga oddiygina buyurtma berishi mumkin va u o‘zi xizmat qiladi.

Keytering xizmatlarining zamonaviy brendi sifatida birinchi navbatda inson kapitaliga bog‘liq bo‘lib, keytering xizmatida xodim va xodimlarning ya’ni inson rolining ahamiyati judayam biqiyosdir. Shu sababli keyteringda autstaffing, mohiyatan, mijoz kompaniyasida ishlarni bajarish uchun autstaffing kompaniyasidan xodimni (xodimlarni) ijaraga olishdir. Kadrlar autsorsingi ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning ancha ilg‘or modelidir, lekin u o‘ziga xos huquqiy xususiyatlarga ega.

Mijozning holatiga ko‘ra, quyidagilar ajralib turadi:

➤ VIP-keytering - bu yuqori darajadagi xizmat: eng yaxshi oshpazlar, yuqori malakali ofitsiantlar, yuqori oshxona taomlari. Odatda kichik bir guruh odamlar yoki hatto bitta mijoz uchun buyurtma qilinadi. Ovqatlar eng zamonaviy keytering texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat qilishdan oldin darhol tayyorlanadi;

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

➤ ommaviy keytering - ommaviy tadbir yoki iste'molchilarning katta guruhi uchun xizmatlar ko'rsatish. Oddiy ma'noda keytering - ishlab chiqarish korxonalaridagi oshxonalar, mehmonxonalar, pansionatlardagi ovqatlar va boshqalar. Bu holda ovqat tayyorlash va xizmat ko'rsatish sanoat uchun ishlab chiqilgan standartlarga qat'iy mos keladi.

Keytering bu mehmonlar xursand, lekin mezbonlar charchoqni va tog'li idishlarni eslashadi. Keyteringning maqsadi sifatli xizmat ko'rsatish va mijozni tayyorgarlikning bosh og'rig'idan xalos qilishdir. Mijoz muammoni professionallarga o'tkazadi va keraksiz tashvishlarsiz bayramdan zavqlanadi. Umumiy keytering kompaniyalari murakkablik darajasidan qat'iy nazar, saytdan tashqarida keyteringni tashkil qilish orqali tadbirni amalga oshirishga yordam beradi. Mijoz nafaqat tayyorlangan taom uchun, balki uni taqdim etish va bayram paytida xizmat qilish uchun ham pul to'laydi. Asosiy afzallik - harakatchanlik.

Menyuning taqdimoti va xilma-xilligi mijozning moliyaviy imkoniyatlariga va tadbir mavzusiga bog'liq. Misol uchun, norasmiy tadbir (korporativ tadbir, partiya, yubiley) uchun kanepalar, sovuq atirlar va shirinliklardan iborat bufetni tashkil qilish yaxshiroqdir. Xizmatlar doirasi kengaytirilishi mumkin va siz ko'chma bar yoki kalyan keyteringiga buyurtma berishingiz mumkin. Ushbu qo'shimcha sizning ta'tilingizga rang-baranglik qo'shadi va mehmonlaringiz uchun maxsus ko'ngilochar dastur yaratish zaruratini yo'q qiladi. Ziyofat yanada puxta tayyorgarlikni talab qiladi, shuning uchun ovqatga buyurtma berishdan tashqari, siz mebel ijarasini qo'shishingiz kerak. Qoida tariqasida, yirik keytering korxonalari keng imkoniyatlarga ega, shuning uchun hech qanday muammo bo'lmasligi kerak.

Keyteringning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- “Mobil restoran”ning harakatchanligi. Siz joyni tanlaysiz, kompaniya sizning xohishingizga moslashadi.

- tayyorgarlik uchun javobgarlik to'liq keytering kompaniyasi zimmasiga tushadi.

- siz turli xil tadbirlar formatlari (kofe-breyklar, banketlar, bufetlar, gala-konsertlar, partiyalar) uchun keyteringga buyurtma berishingiz mumkin. Agar siz bufet xizmatiga buyurtma bersangiz, tayyorlangan taomlar belgilangan vaqtda qutilarda yetkazib beriladi. O'z joyida pishirishni talab qiladigan ziyofat yoki tadbir bo'lsa, kompaniya o'z jihozlari va mini-oshxona bilan keladi. Ish jarayoni joylashgan hududda amalga oshiriladi.

- outsorsing (ofitsiantlar, oshpazlar, menejer va styuardessa xizmatlari).

- qo'shimcha variantlarni tashkil etish: gul xizmatlari, dizayner, konfet barini tashkil etish va hatto animatorli maydon.

- tozalash xizmat narxiga kiritilgan. Bayramdan keyin zalni "o'zgartirish" haqida tashvishlanishning hojati yo'q.

Amaliyotida keytering odatda jismoniy shaxslar va tashkilotlar tomonidan buyurtma qilingan joylardan tashqari xizmatlarni tashkil etish sifatida qaraladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida keytering xizmatlaridan foydalanish mexanizmi outsorsing tashkilotlarini tanlash, shartnomalarni ishlab chiqish, ularni amalga

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

oshirish va manfaatdor sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarni tiklash uchun mantiqiy harakatlar iqtisodiy mexanizm, nazorat (boshqaruv), xodimlarni boshqarish, mahsulot sifatini boshqarish o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizim sifatida qurilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida keytering xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida xizmatlarining samaradorligini baholash zarurati ilmiy asoslandi. Tadqiqotda autsorsing xizmatlari samaradorligini baholashning qiymat usuli tanlandi, bu ichki birlikni saqlash xarajatlari va autsorsing xarajatlarini solishtirish imkonini berdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida keytering xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida foydalanish samaradorligini baholash uchun har bir xizmat turi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlardan (KPI) foydalanish taklif etildi, ular shartnomani bajarishdan oldin va keyin taqqoslanishi kerakligi asoslandi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida keytering xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida xizmatlar sifatiga umumiy standart yondashuvlar asosida autsorsingning mualliflik ta’rifi shakllantirildi. Shu bilan birga, sifatni tushunishda ikkita komponent ajralib turadi: autsorsing xizmatlaridan foydalanishda moddiy omil va inson omilidan foydalanish kerakligi asoslandi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida keytering xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy trendi sifatida xizmatlar sifati uchun javobgarlikning modeli batafsil ko‘rib chiqildi va ilmiy asoslangan takliflar berildi. Ularning eng yaxshisi mijoz va autsorser o‘rtasida mas’uliyat sohaslarini taqsimlash bilan integratsiyalashdir degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori

2. Гилмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.

3. Федорова Е.А., Ермолов А.Б. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016. - № 27 - С. 4-14.

9. Ergasheva N. Outsourcing xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. // “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. – Samarqand, 2023 – № 1. – B. 91-95. (08.00.00; №20).

10. Ergasheva N. Autosorsing xizmatlari bozorini baholash. // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 3/2 – 2023, № 21. – B. 191-193. (OAK 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Milliy nashrlar №21)

11. Ergasheva N. Analysis of risk, effectiveness and quality assessment of using outsourcing services in preschool educational organizations. // Journal of Management Value & Ethics. <https://www.jmveindia.com> / journal / Oct – dec. 2023. Vol.13 №04. – P. 47-53. (08.00.00; №6).

“Хизматлар соҳасини стратегик ривожлантириш орқали hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIАK materiallari

Норкobilов Жахонгир - Қарши давлат техника университети мустақил изланувчиси, norkobilovjakhongir@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0005-4550-8806>, УДК: 658.64.624.024.1

АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Аннотация. Мақолада автотранспорт воситаларидан фойдаланишга доир хорижий тажрибалар ва улардан республикамизда фойдаланиш имкониятлари Германия, Хитой, АҚШ, Россия тажрибалари асосида очиб берилган. Шунингдек, хориж мамлакатларининг географик жойлашуви уларнинг рақобатбардошлик имконияти муҳим таъсир кўрсатиши, юк автомобил транспорт хизматлари ва логистик фаолиятини муваффақиятли ривожланишига, шу жумладан ташиш ва сақлашни оладиган логистик тармоги таҳлил қилинган ва айрим жиҳатларни Ўзбекистон шароитида қўллаш имкониятлари кўрсатиб ўтилган.

Ключевые слова. Автотранспорт воситалари, баҳолаш, хусусиятлари, аҳоли турмуш сифати, қиймат, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, аҳоли эҳтиёжи, хориж тажриба, логистика, ривожланиш босқичлари.

Аннотация. В статье анализируется зарубежный опыт использования автотранспортных средств и возможности его использования в нашей республике на примере Германии, Китая, США, России. Анализируется тот факт, что географическое положение зарубежных стран оказывает существенное влияние на их конкурентоспособность, успешность развития услуг автомобильного транспорта и логистической деятельности, в том числе логистической сети, обеспечивающей транспортировку и хранение, а также указываются возможности применения некоторых аспектов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова. Транспортные средства, оценка, характеристики, качество жизни населения, стоимость, социально-экономическое развитие, потребности населения, зарубежный опыт, логистика, этапы развития.

Abstract. The article discusses foreign experiences in the use of motor vehicles and the possibilities of their use in our republic based on the experiences of Germany, China, the USA, and Russia. In addition, the geographical location of foreign countries has a significant impact on their competitiveness, the successful development of truck transport services and logistics activities, including the logistics network for transportation and storage, and the possibilities of applying some aspects in the conditions of Uzbekistan are shown.

Keywords: motor vehicles, assessment, characteristics, quality of life of the population, cost, socio-economic development, population needs, foreign experience, logistics, stages of development.

Мамлакатимизда аҳолининг турмуш сифатини ошириш борасида автотранспорт воситаларини самарали ривожлантириш, баҳолаш натижаларининг ишончлилик даражасини ошириш ва очиқликни таъминлаш кабилар юзасидан мақсадли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу борада автотранспорт воситаларини баҳолаш таснифини такомиллаштириш, самарадорлигини белгиловчи кўп ўлчовли иқтисодий-математик моделини яратиш, баҳолаш хизматларининг барқарор ривожланиш истиқболлари бўйича илмий изланишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Жаҳон глобаллашув жараёнида юк автомобиллари транспорт хизматлари кўрсатишда дунёнинг етакчи давлатларининг катта тажрибалари мавжуд. Айниқса, бу борада Германия, Хитой, АҚШ, Россия тажрибалари хизмат кўрсатиш соҳаси тараққиётида алоҳида аҳамият касб этади. Таҳлиллар шуни кўрсатдики, Германия давлатининг юк автомобил транспорт хизматлари ривожлантириш бўйича муҳим жиҳатлари билан характерланади.

Давлатларнинг географик жойлашуви уларнинг рақобатбардошлик имкониятига муҳим таъсир кўрсатади. Маълумки, Германия давлати Европанинг марказида жойлашуви юк автомобил транспорт хизматлари ва логистик фаолиятини муваффақиятли ривожланишига катта йўл очиб беради. Ўз ичига юк автомобил транспорти хизматларини, шу жумладан ташиш ва сақлашни оладиган логистик тармоғи Германия иқтисодиётида энг йирик соҳалардан бири бўлиб келмоқда. Ҳозирги кунда Германияда 30 та транспорт логистик марказлари фаолият кўрсатмоқда. 2023 йилда логистика ва юк автомобил ташиш бозордаги ҳажми 207,90 миллиард долларни ташкил этган. Муҳим характерли жиҳатларидан бири транспорт (жамоат транспорти) тўғрисидаги Германия давлати қонуни бозорнинг ташаббускорлигига устунлик бериш тамойилларига асосланади ва транспорт хизматлари бозоридаги ҳар қандай ташувчига транспорт хизматларини кўрсатиш ҳуқуқини тақдим этади. Бу ҳуқуқ руҳсат бериш тартибидан бошлаб, тизим доирасидаги барча босқичларга тегишли тартиб-қоидаларни қамраб олади ва белгиланган транспорт хизматлари кўрсатиш тизимини тартибга солиб туради. Германиянинг юк автомобиль транспорт бири 2023-2029 йил прогнозлари бўйича ушбу бозор ҳажми ўртача 3,93 фоизга ўсиб, 2029 йилга келиб 262,01 миллиард долларга етади.

Германия юк ташиш ва логистика соҳасида ички бозори асосий сегмент бўлиб ҳисобланади. 2023 йилда унинг даромади 12,8 миллиард долларга етди ва ЯИМ улушида 10,6 фоизни ташкил этди.

Германиянинг шу билан бирга глобал логистик лидер компаниялари: Dachser, DB Schenker, Deutsche Post DHL Group, DSV A/S (De Sammensluttede Vognmænd af Air and Sea) ва Kuehne + Nagel лари ҳисобланади.

Янги рақамли платформа ва тизимларнинг қўлланилиши, омборхоналарнинг автоматлаштирилганлиги ва кўтариш-ташиш ускуналарнинг турлари, роботлардан фаол фойдаланиш Германиянинг замонавий иқтисодиётида автомобил юк ташиш хизматларининг ривожланганлигини кўрсатади.

Россия тажрибасини таҳлил қиладиган бўлсак, шуни таъкидлаш жоизки, юк автомобил транспорт хизматлари соҳасига инвестицияларни жалб қилиш орқали давлат ва хусусий шерикчилик муносабатлари асосида шаҳар маршрути тармоғида транспорт хизмати кўрсатишни назарда тутаяди. Замонавий талқинда давлат ва хусусий шерикчилик бу – давлат ва хусусий бизнес ўртасидаги институционал ва ташкилий бирлашма бўлиб

ҳисобланади. Бироқ, Россияда бутун транспорт тизимининг элементи сифатида юк автомобил транспорти фаолиятимасалаларини ҳуқуқий тартибга солиш бўйича комплекс қонунчилигининг йўқлиги турли даражадаги ноаниқ бошқарув қарорларини қабул қилишни келтириб чиқаради. Бу хусусий ташувчиларни танлов асосида танлаш, мижозлар билан мажбурий шартномаларни тузиш, квота муаммолари ва бошқа муаммоли масалаларни келтириб чиқаради. Россия Федерацияси юк автомобил транспорти хизматларини муҳим хусусиятларидан, федерал қонун ҳужжатларида минтақавий ва муниципал органларнинг автотранспорт фаолияти масалалари бўйича ўзига хос ваколатлари ва ҳуқуқларнинг аниқ таърифи йўқлиги, баъзи минтақаларда маълум масалалари бўйича қабул қилинган қарорлар ноқонуний, бошқаларда эса қонуний деб эътироф этилишига олиб келади. Ҳозирги вақтда автомобил транспортида логистика томонидан ҳал қилинаётган муаммолардан бири истеъмолчиларга товарларни ташиш учун қандай транспорт туридан (ёки турларидан) фойдаланиш ва транспорт воситалари кимга тегишли бўлиши кераклигидир.

Таъкидлаш жоизки, Хитой Халқ Республикасининг юк автомобил транспорт хизматларини ривожланиш бўйича тажрибаси алоҳида аҳамият касб этади. Ҳозирги кунда Хитой транспорт инфратузилмасини жаҳон талаблари асосида янгилиш босқичини амалга ошириб, йўловчи ва юкларни ташишни самарали амалга ошириш мақсади нуқтаи-назаридан ёндошмоқда. Жаҳон банкининг маълумотларидан келиб чиқадиган бўлсак, 1990 йилларнинг бошида ривожланмаган инфраструктурани мавжудлиги Хитой ялпи ички маҳсулотини 1 фоизга қисқаришига олиб келган. Транспорт хизматларини улуши Хитой ЯИМни 20 фоизини ташкил қилади. Агар бу кўрсаткич АҚШ ва ривожланган мамлакатларда 5-10 фоизни ташкил этади, холос.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Хитой тажрибасининг муҳим жиҳатлари кўйидагилардан иборат:

1. Юк автомобил транспорти транспорт соҳасида устувор эканлиги
2. Юк автомобил транспорти хизматларини тўлиқ рақамлаштирилганлиги
3. Юк ташишда сифатли ташувчининг йўлга қўйилганлиги ва бошқалар.

АҚШдаги юк автомобил транспорт хизмати – бу ҳар бир штатнинг ўзига хослиги билан ажралиб туради. Ҳозирги вақтда асосий юк ташувчи транспортлардан автомобил юк ташувчи транспорти бўлиб қолмоқда. Юк ташувчи ва логистика бозори 1274,36 миллиард долларга баҳоланмоқда. 2024 йилда ва 2029 йилга келиб 1618,73 миллиард долларни ташкил этиш кўтилмоқда. АҚШ даги ҳар бир ишлаб чиқарувчи ёки олди-сотди билан шўғулланувчи корхона тайёр маҳсулотлар ва хом-ашёни вақтида етказилиши учун юк ташувчи автомобил транспортдан фойдаланадилар.

АҚШ юк автомобил транспорт хизматларининг муҳим жиҳатлари сифатида катта ҳажмдаги юк ташувчи автомобиллар бир пайтнинг ўзида

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

омборхона вазифасини ҳам бажаради. Барча юк автомобил транспортининг турлари билан барча маҳсулотлар бир нуқтадан иккинчи нуқтага етказилади. Миллий иқтисодиётда юк ташишнинг ялпи ички маҳсулот салмоғида 5-6 фоизини ташкил этади.

АҚШ транспорт департаменти статистикасига асосан 2021 йилда автомобил юк транспорти билан 14.26 миллиард тонна юк жўнатилган ва 2,47 миллион дона юк автомобил транспорти прицепа билан ишлатилган.

АҚШ миллий автомобил магистралининг 259032 километрдан иборат сифими шу миқдордаги юк ва автомобилларни ўтишига имконият яратади.

Жаҳоннинг ривожланган давлатлари тажрибасига кўра истеъмолчиларга юк автомобил транспорти хизмати кўрсатиш қуйидаги ишлар бажарилишини тақозо этади:

- товар (юк)ларни физик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда уларни тегишли тарзда ўраб-чирмаш (упаковка) воситаларини танлаш;

- қадоқланган юк пакетларига тегишли ёзувлар ва белгилар киритиш, яъни тамғалаш;

- махсус таралардан фойдаланишни кўзда тутиш, уларга тегишли белгилаш ва кодларни киритиш, юк бирликларини шакллантириш, юкларни пакетлаштириш ва контейнерлаштириш;

- самарали ташиш тури ва воситаларини танлаш;

- транспорт воситаларига юк бирликларини рационал жойлаштириш ва юк кўтарувчанликдан самарали фойдаланишга эришиш;

- транспорт воситаларига юк ортиш ва тушириш ишларини бажаришда рационал технологияларга амал қилиш;

- юк омбори ва терминалларда товарларни рационал жойлаштириш, уларни ҳисобга олиш ва заҳираларни шакллантириш;

- инновацион технология ва ахборот-компьютер тизимларидан фойдаланиш.

Жаҳондаги етакчи давлатлар (АҚШ, Германия, Хитой) тажрибасига кўра автомобиллар ёрдамида юкларни ташишда бир пайтнинг ўзида транспорт воситаларининг бир ёки бир неча туридан фойдаланишга ва ташишни ташкил қилиш усулларига кўра ташишнинг турли моделлари моделлари мавжудлигини кўрсатди.

Бу борада, АҚШ юк автомобил транспорт хизматларининг муҳим жиҳатлари сифатида катта ҳажмдаги юк ташувчи автомобиллар бир пайтнинг ўзида омборхона вазифасини ҳам бажариши ҳамда юкларни етказиш тизими рақамлаштирилган ҳолда янги замонавий технологиялардан фойдаланиб, тезкор равишда барча маҳсулотлар бир нуқтадан иккинчи нуқтага етказилиши билан характерланади. Бундай самарали тизим АҚШ миллий иқтисодиётда юк ташишнинг ялпи ички маҳсулот салмоғида 5-6 фоизни ташкил этаётганлиги билан изоҳланади.

Россия тажрибасига кўра, юк автомобил транспорт хизматларини тизимли амалга ошириш давлат ва хусусий шерикчилик муносабатлари асосида ривожлантирилиши билан характерланади. Бундай юк ташиш

“Хизматлар соҳасини стратегик ривожлантириш орқали hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIАK materiallari

хизматларини амалга ошириш тизимда янги рақобат муҳитини шакллантириб, истеъмолчиларнинг юк автомобил транспорт хизматларига бўлган эҳтиёжини ўз вақтида қондириш имкониятини яратади.

Тадқиқот ишида Хитой Халқ Республикасининг юк автомобил транспорт хизматларини ривожланиш бўйича тажрибаси ўрганилиб, унга кўра юкларни ташиш бошқа транспорт инфратузилмалари билан биргаликда ҳамкорлик асосида амалга оширилиш тизимини йўлга қўйилганлиги билан характерланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Смирнова Н.В. Теория и практика оценочной деятельности / Н.В. Смирнова, С.М. Волостнов; Иван. гос. хим.-технол. ун-т: учеб. Пособие. – Иваново – 164 с. Рус тилидан муаллифнинг таржимаси.
2. Кондрашов Д.С. Гражданско-правовое регулирование оценочной деятельности в России: проблемы теории и практики: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.03 / Кондрашов Дмитрий Сергеевич. – Москва, 2012. [Электронный ресурс]. – 15.05.2015. – URL: <http://www.dslib.net/civil-pravo/grazhdansko-pravovoe-regulirovanieocenochnoj-deyatelnosti-v-rossii-problemy-teorii.html>
3. Фетисова Н.В. Определение понятия оценочной деятельности // Вестник ВолГУ. Серия 9. Вып. 4. 2005. Ч 1. С. 48-51.
4. Беркинов Б., Кравченко А. Бизнесни баҳолаш: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод ва молия, 2007. – 152 б.;
5. Аликулов А. И. Харажатлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2010. – 196 б.

Даврон Кесимов – Қариш давлат техника университети тадқиқотчиси, УДК:338.465, <https://orcid.org/0009-0003-5385-8721>, davronkesimov@gmail.com

СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: Ушбу мақолада соғлиқни сақлаш хизматлар бозорини шакллантиришнинг минтақавий жиҳатлари ва минтақа аҳолисини саломатлиги учун тиббий хизматлар бозори механизми ва дастакларини шакллантириш тамойиллари очиқ берилган. Шунингдек, соғлиқни сақлаш хизматлар бозори хизматларининг таркибий қисми бўлган соғлиқни сақлашда бозор муносабатларининг қарор топиши коммунал тўловлар, дори-дармон нархларининг ўсиб бориши, биоларни сақлаш, асбоб-ускуна ва инвентарлар сотиб олиш, беморлар овқатланишини ташкил этишида, профилактик тадбирларни қўллаш ва касалликларни даволашда тиббиёт муассасаларининг имкониятларини чеклаб қўяётганлиги билан боғлиқлиги асосланган.

Калит сўзлар: тиббий хизматлар, аҳоли саломатлиги, механизм, дастак, ижтимоий ҳимоя, минтақа бозори.

Аннотация: В статье раскрываются региональные аспекты формирования рынка медицинских услуг, принципы формирования механизмов и рычагов воздействия

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

рынка медицинских услуг на здоровье населения региона. Также утверждается, что урегулирование рыночных отношений в здравоохранении, являющемся неотъемлемой частью рынка медицинских услуг, обусловлено тем, что рост коммунальных платежей, цен на лекарственные препараты, содержание зданий, закупка оборудования и инвентаря, организация питания пациентов, проведение профилактических мероприятий и лечение заболеваний ограничивают возможности медицинских учреждений.

Ключевые слова: медицинские услуги, здравоохранение, механизм, рычаг, социальная защита, региональный рынок.

Abstract: This article reveals the regional aspects of the formation of the healthcare services market and the principles of forming the mechanisms and levers of the healthcare services market for the health of the population of the region. It is also argued that the settlement of market relations in healthcare, which is an integral part of the healthcare services market, is due to the fact that the growth of utility bills, drug prices, maintenance of buildings, purchase of equipment and inventory, organization of patient nutrition, implementation of preventive measures and treatment of diseases limit the capabilities of medical institutions.

Key words: medical services, public health, mechanism, lever, social protection, regional market.

Соғлиқни сақлаш тизимининг ривожланиши билан ишчи кучини кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш ўртасида объектив боғлиқлик мавжуд. У ижтимоий такрор ишлаб чиқариш муаммолари тизимида алоҳида ўрин эгаллайди. Чунки ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, унда иштирок этаётган барча омилларга боғлиқ. Ушбу омиллар орасида инсон муҳим ўрин эгаллайди. Биринчидан, инсон товар ва хизматларнинг яратувчиси бўлиб ҳисобланади; иккинчидан, инсон бошқа омиллар билан ўзаро мувофиқ боғлиқликда бошқаларнинг эҳтиёжини қондирадиган неъматларни ярата олади. Соғлиқни сақлаш тизимининг ишчи кучини такрор ишлаб чиқаришдаги роли соғлиғини тиклаш ва ҳаракатчанлигини оширишда намоён бўлади. Соғлиқни сақлашда яратилган бойликлар бирдан кўзга ташланмайди.

Мамлакатнинг иқтисодий жиҳатдан ривожланиши фуқароларнинг малакали тиббий ёрдамдан фойдаланиш имкониятларини кенгайтиради ва ўз навбатида соғлом фуқароларгина мамлакат тараққиётига тўла ҳисса қўша олади. Аксинча носоғлом ва тўла шаклланмаган фуқаролар иқтисодий ўсишнинг юксак суръатларини ва фаровонликни таъминлашга лаёқатли эмас. Саломатлик-инсоннинг сифатий кўрсаткичи, фаровонлиги ва ҳаёт даражасидир. Шу жиҳатдан саломатлик инсон омилини ривожлантириш мақсадлари билан узвий боғланган. Саломатликнинг яхшиланиши фуқароларнинг ишлаб чиқаришда қатнашишига ва фаравон турмуш тарзига шароит яратади. Фақат соғлом кишигина ижодкорона юксак унумли меҳнатга лаёқатли бўлади.

Ҳозирги вақтда соғлиқнинг замонавий талқини нафақат инсоннинг жисмоний нуқсонсиз ёки касал эмаслигини ифодалайди, балки тўлиқ жисмоний, руҳий ва ижтимоий етуқлик ҳолатини ўз ичига олади. Бу ҳол

ушбу тушунчага яхлит ёндашишини акс эттиради. Аҳоли соғлиғи даражасини аниқлашда бутун кўрсаткичлар тизими ёки “Саломатлик индекслари” асосида хулоса қилинади.

Соғлиқни сақлаш соҳасини ривожлантиришнинг халқаро тажрибаси тиббий хизматларнинг иқтисодий барқарорликни таъминлаш билан узвий боғлиқлигини кўрсатади. Соғлиқни сақлаш фаолиятида инсон соғлиғидек масала турганлиги боис, давлат томонидан назорат қилинади ва уни молиялаштиришга алоҳида аҳамият берилади.

Соғлиқни сақлаш хизматлар бозори механизмлари юқори даражада ривожланиши аҳолининг ҳудудий ва ижтимоий ҳаракатчанлигини, замонавий фан-техник ютуқларини ўзлаштириш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ва моддий маҳсулотлар истеъмолини оширишга ижобий таъсир этади.

Abstract. The article discusses the importance of effective management decisions in the development of the services sector. It examines the role of the services sector in economic growth, job creation, and improving the welfare of the population, as well as the role of strategic management. The significance of making effective management decisions to ensure economic stability and social well-being is highlighted.

Keywords: services sector, effective management decisions, strategic development, economic growth, population welfare, management, investments, regional development.

Хизматлар соҳаси ҳар бир мамлакатнинг иқтисодиётида муҳим ўрин тутди. Бундан ташқари, бу соҳанинг ривожланиши иқтисодий ўсишни, янги иш ўринларининг яратилишини ва аҳоли фаровонлигини оширишга кўмаклашди. Самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш эса бу соҳанинг стратегик ривожланишида муҳим роль ўйнайди. Мақсади — хизматлар соҳасини барқарор ривожлантириш, бунинг орқали ҳудудларнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш ва аҳоли учун янги имкониятлар яратиш.

Хизматлар соҳаси ҳозирги кунда иқтисодий ривожланишнинг катта қисмини ташкил этади. Бу соҳа турли йўналишларда фаолият кўрсатади, масалан: савдо, молия, таълим, соғлиқни сақлаш, транспорт, ахборот технологиялари ва бошқалар. Хизматлар соҳаси аҳолига юқори сифатли ҳаёт шароитини таъминлаш, иқтисодий ўсиш ва ижтимоий фаровонликка

эришиш учун муҳим омил ҳисобланади. Юртбошимиз Ш.Мирзиёв томонидан соҳани ривожлантириш бўйича қабул қилаётган қарорлари бу йўналишнинг нечоғлик муҳим эканлигини намоён этмоқда. Жумладан 2022 йил 1 апрелдан 2025 йил 1 январга қадар чакана савдо ва умумий овқатланиш, меҳмонхона (жойлаштириш) хизматлари, автотранспортда йўловчи ва юк ташиш, транспорт воситаларини таъмирлаш ва уларга техник хизмат кўрсатиш, компьютер хизматлари, маиший техникани таъмирлаш, агро ва ветеринария хизматларини кўрсатувчи ҳамда кўнгилочар масканларда хизматлар кўрсатувчи тадбиркорлик субъектлари учун ижтимоий солиқ ставкасини 1 фоиз этиб белгиланиши⁸³, ушбу йўналишга берилаётган катта эътиборни англатади.

Хизматлар соҳасининг ривожланиши мамлакат иқтисодиётига ижобий таъсир кўрсатиб, бу соҳадаги ўсиш янги иш ўринларининг яратилиши, тадбиркорлик фаолиятининг ривожланиши ва халқаро савдода рақобатдошликни оширишга олиб келади ҳамда хизматлар соҳасини ривожлантириш экономик ўсишнинг муҳим йўналишига айланади.

Хизматлар соҳаси, сервис фаолияти мамлакат иқтисодиётининг ижтимоий аҳамиятга эга ривожланиш йўналишлари хусусиятларига эга бўлиб, ҳаёт сифати ошишига, жамият аъзоларининг интеграциясига ва уларнинг социализациясига кўмаклашади⁸⁴.

Хизматлар бозорининг асосий хусусиятлари: капиталнинг юқори айланиш суръатлари — бу қиса ишлаб чиқариш циклининг натижасидир (хизматлар соҳасидаги бизнеснинг асосий афзалликларидан бири)⁸⁵.

Хизматлар соҳасининг бошқарув қарорларини қабул қилиш нуқтаи назаридан хусусиятлари қуйидагича бўлиши мумкин⁸⁶:

- маҳсулотнинг юқори даражада индивидуаллаштирилиши, истеъмолчиларнинг талабларига мослашиши;
- хизматлар соҳасида ишларнинг юқори меҳнат сифатини талаб қилиш;
- соҳа доимий равишда ривожланиб бораётган шароитда инновацион жараёнларнинг динамиклиги;
- хизмат кўрсатишда иштирок этувчи ходимларнинг ижтимоий-психологик маҳоратлари бўйича юқори талаблар;
- хизматлар соҳасидаги операциялардан юқори даромад олиш;
- маркетинг ва ишлаб чиқариш функцияларининг кесишиши.

⁸³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.01.2022 йилдаги “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сонли қарори

⁸⁴ Дышловой, Игорь Николаевич. "Человеческий капитал как определяющий фактор в администрировании управленческих решений в сфере услуг." Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент 3 (2018): 16-23.

⁸⁵ Толеубаев, Д. М. "ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ РЫНКА." Вестник науки 1.6 (75) (2024): 409-417

⁸⁶ Лукичева Л.И. Управленческие решения [текст]: учебное пособие / Л.И. Лукичева, Д.Н. Егорычев. – М.: Омега-Л, 2011. – 384 с.

Хизматлар соҳасида бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёнида бу соҳага хос иқтисодийнинг хусусиятларини, шунингдек ички ва ташқи омиллар ҳамда чекловларни инобатга олиш керак⁸⁷.

Хизматлар кўрсатиш соҳасида самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш – бу стратегияларни белгилаш, уларни амалга ошириш ва мониторинг қилиш жараёнидир. Бу жараёнда турли хил манфаатлар, ресурслар ва имкониятлар ўртасида мувозанатни сақлаш муҳим аҳамиятга эга. Хизматлар соҳасини ривожлантиришда самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш жуда муҳим ҳисобланиб, соҳанинг келажақдаги истиқболга салмоқли таъсир кўрсатади. Хизматлар соҳасидаги бошқарув қарорлари ушбу секторнинг хусусиятларини, шунингдек, ички ва ташқи омиллар ва чекловларни инобатга олиши керак⁸⁸.

Соҳага оид бошқарув қарорлари, шу жумладан, стратегик, тактик ва оператив қарорлар, тизимли ва самарали равишда қабул қилиниши керак. Мисол учун, агар маҳаллий бошқарув органлари хизматлар соҳасидаги масалаларни ечишда самарали қарорлар қабул қилса, бунинг натижасида аҳолига кўрсатилаётган хизматлар сифати ошади ва иқтисодий ўсишни таъминлашга янада катта йўл очилади. Албатта бу ерда раҳбар кадрларнинг билими катта аҳамиятга эга бўлиб, бошқарув ходимлари кўплаб ресурсларга эга бўлиши лозим. Энг муҳим ресурслар эса бу билим ҳисобланиб — уларни олиш, интеграция қилиш, тўплаш, сақлаш ва рақобат устунлигини яратишнинг энг самарали усули сифатида қўллаш қобилиятидир⁸⁹.

Худудлар даражасида самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш учун бошқарув тизими мавжуд муаммоларни аниқлаб, уларга ижобий ечимлар ишлаб чиқиш зарур. Масалан, маълум бир худудда кўрсатилаётган хизматлар сони ҳамда сифати юқори даражада бўлмаса, ўша йўналишдаги муаммоларни ҳал қилиш ва соҳани ривожлантириш учун бошқарув қарорлари қабул қилиниши лозим бўлади.

Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш учун самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш, иқтисодий ривожланишнинг барқарорлигини сақлаш, ресурслардан оқилона фойдаланиш ва ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга.

Самарали бошқарув қарорлари иқтисодий ривожланишга ҳамда хизматлар соҳасига ижобий таъсир кўрсатади. Мазкур қарорлар худудлар даражасидаги инфратузилмаларни яхшилаш, янги иш ўринларини яратиш, иқтисодий ўсишга хизмат қилади. Қарорлар қабул қилишда иқтисодий

⁸⁷ Колган, Е. А., and Н. Н. Доронина. "Особенности принятия управленческих решений в сфере услуг." *Наука и современность* 20 (2013): 222-225.

⁸⁸ Богомолов, Данила Васильевич. "ОСОБЕННОСТИ ПРИНЯТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В СФЕРЕ УСЛУГ." *Вестник Московской международной академии* 1 (2023): 173-176.

⁸⁹ Салихов, Ф. Н. "Особенности принятия управленческих решений в сфере услуг в период мирового финансового кризиса в контексте их качества." *Актуальные вопросы экономических наук* 42 (2015): 35-38.

кўрсаткичлар, масалан, ишсизлик даражаси, инфляция ва солиқ даромадлари ҳисобга олиниши муҳим аҳамият касб этади.

Барқарор иқтисодий ўсишнинг натижаси сифатида аҳоли фаровонлигини оширишга эришиш мумкин. Бунинг учун ижтимоий хизматлар, соғлиқни сақлаш, таълим ва турли ижтимоий дастурлар учун маблағлар ва ресурслар самарали тақсимланиши лозим.

Аҳоли фаровонлигини оширишда аҳолига юқори сифатли хизматлар кўрсатиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, хизматлар соҳасидаги муаммоларни ҳал қилиш учун самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш, инвестициялар жалб қилиш ва замонавий технологиялардан фойдаланиш муҳим.

Бизнинг фикримизча, хизматлар соҳаси ривожланиб бораётган иқтисодиёт тармоқларидан бири бўлиб, соҳани ривожлантириш йўналишлари сифатида қуйидаги таклифларни келтирамиз.

1. Рақамлаштириш ва инновацияларни жорий қилиш бўйича тўғри стратегиялар ишлаб чиқишни янада такоминлаштириш. Хизматлар соҳасини рақамлаштириш учун давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорликни янада қўллаб-қувватлаш. Бу соҳадаги қарорлар ахборотлар узатувини, текширувини тезлаштиради ва хизматлар сифати ошади.

2. Ижтимоий ва иқтисодий таҳлиллар орқали самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш ҳамда бу қарорларнинг натижаларини мунтазам мониторинг қилиш бўйича ишларни ташкил этиш лозим. Иқтисодий таҳлил асосида ишсизлик даражаси, инфляция ва бошқа ижтимоий кўрсаткичларни ҳисобга олиш хизматлар соҳасини ривожлантиришда тўғри йўналишлар белгилашга ёрдам беради.

3. Инвестициялар жалб қилиш ва хусусий секторни қўллаб-қувватлаш самарали бошқарув қарорлари орқали амалга оширилиши керак. Давлат органлари ва хусусий секторнинг ҳамкорлигини янада кучайтириш, янги инвестиция лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш бўйича қарорлар иқтисодий ривожланишнинг калибровкасига айланади.

4. Аҳоли ижтимоий хизматлар, таълим ва соғлиқни сақлаш оид хизматлар кўрсатиш соҳасига кенг жалб қилиши лозим. Бу жамиятнинг ижтимоий тармоқларини кучайтириш, аҳолига зарур хизматлар кўрсатиш, билимга эга кадрлар тайёрлашга кўмаклашади.

5. Бошқарув қарорлари ҳудудлар ва секторлар орасидаги фарқларни камайтириш учун махсус сиёсатларни ишлаб чиқишга қаратилиши лозим. Бу қарорлар ҳудудлардаги иқтисодий, ижтимоий ва маданий хосликларни ҳисобга олишга асосланиши керак. Йўналишда тўғри қарорлар қабул қилиниши орқали, ҳудудлардаги иқтисодий барқарорлик ва умумий фаровонликнинг ошишига олиб келади.

Ушбу таклифлар, самарали бошқарув қарорларининг ҳар бир йўналишдаги ўрни ва аҳамиятини кўрсатиб, бошқарув қарорларининг илмий ва амалий асосланиши, уларнинг самарали амалиёти хизматлар соҳасини ривожлантириш ва аҳоли фаровонлигини ошириш учун муҳим ҳисобланади. Самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш хизматлар

“Хизматлар соҳасини стратегик ривожлантириш орқали hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIАK materiallari

soҳasini strategik rivojlanishi, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shishni taъminlashda va aholi farovonligini oshirishda muҳim roль uynaydi. Boшqaruv qarorlari, ularning strategik aҳamiyati va ijtimoiy-iqtisodiy natijalari aҳamiyatga эga bўlib, mamlakatlar va hududlar darajasida barqaror rivojlanishi taъminlashga эrdam beradi.

Адабиётлар руйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.01.2022 йилдаги “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сонли қарори.
2. Дышловой, Игорь Николаевич. "Человеческий капитал как определяющий фактор в администрировании управленческих решений в сфере услуг." Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент 3 (2018): 16-23.
3. Толубаев, Д. М. "ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ РЫНКА." Вестник науки 1.6 (75) (2024): 409-417
4. Лукичева Л.И. Управленческие решения [текст]: учебное пособие / Л.И. Лукичева, Д.Н. Егорычев. – М.: Омега-Л, 2011. – 384 с.
5. Колган, Е. А., and Н. Н. Доронина. "Особенности принятия управленческих решений в сфере услуг." Наука и современность 20 (2013): 222-225.
6. Богомолов, Данила Васильевич. "ОСОБЕННОСТИ ПРИНЯТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В СФЕРЕ УСЛУГ." Вестник Московской международной академии 1 (2023): 173-176.
7. Салихов, Ф. Н. "Особенности принятия управленческих решений в сфере услуг в период мирового финансового кризиса в контексте их качества." Актуальные вопросы экономических наук 42 (2015): 35-38.

Mattiyev Sodiqjon Qodirovich – Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, ms_vavilon1@mail.ru

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH YO‘NALISHLARI

Аннотация: Maqolada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati borasidagi bir qator nazariyalar o‘rganilgan. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solishning tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarga ochib berilgan, oziq-ovqat xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish yo‘nalishlari tahlil qilingan va ushbu xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy xulosalar berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается ряд теорий относительно необходимости государственного регулирования экономики. Также выявлены отраслевые и региональные особенности государственного регулирования безопасности пищевой продукции, проанализированы направления государственного регулирования

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

безопасности пищевой продукции и даны научные выводы, связанные с совершенствованием механизмов государственного регулирования этой безопасности.

Abstract: The article examines a number of theories on the need for state regulation of the economy. It also reveals the sectoral and regional characteristics of state regulation of food safety, analyzes the directions of state regulation of food safety, and provides scientific conclusions on improving the mechanisms of state regulation of this safety.

Kalit so‘zlar: Davlat, oziq-ovqat xavfsizligi, siyosat, aholi, import, tartibga solish.

Ключевые слова: Государство, продовольственная безопасность, политика, население, импорт, регулирование.

Key words: State, food safety, policy, population, import, regulation.

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida davlatning bozor munosabatlarini tartibga solishdagi ishtiroki va uning muayyan chegaralari haqidagi g‘oyalar hamon iqtisodchi olimlar, amaliyotchilar o‘rtasidagi bahs va munozaralarning predmeti bo‘lib kelmoqda. Ayni paytda, taniqli iqtisodiy maktablar ta‘sirida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bo‘yicha maqsad, shakl va usullari bilan farqlanuvchi bir qator nazariyalar shakllandi. Jumladan, monetaristik maktab oqimining yorqin namoyondalari (M.Fridmen, F.Xayek, F.Nayt, G.Saymons va boshqalar) davlatning bozor munosabatlari jarayonlariga tizimli tarzda aralashuvi iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta‘sir etadi deb, hisoblaydilar [1]. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o‘rni muomaladagi pul massasini yetarli miqdorlarda saqlab qolish, mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan soha va tarmoqlarni kreditlash tadbirlarini olib borish va ijtimoiy xarajatlarni chegaralash bilan bog‘liq siyosatda aks etmog‘i lozim.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini ortib borishi bilan bog‘liq tendensiyalarning kuchayib borayotganligini institutsionalizm maktabining namoyondalari R.Xeylbroner va L.Turou alohida ta‘kidlab o‘tadilar [2]. Ularning fikricha, iqtisodiy rivojlanishga siyosiy omilning ta‘siri ortib borishi natijasida bozor jarayonlarini tartibga solishda ishtirok etuvchi bir qator institutlar paydo bo‘lmoqda. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat aralashuvining zaruriyati bozor mexanizmining nomukammalligi va ayni paytdagi jamiyat taraqqiyotidagi muammolarni hal etishga qodir emasligi bilan izohlanadi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish zarurki, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli kuchayib borishini nazarda tutuvchi yo‘nalish -liberal maktab nomoyondalarining fikrlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, iqtisodiy integratsiyaning kuchayishib borishi va Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish bilan bog‘liq jarayonlarda mamlakatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar zaruriyati vujudga keldi.

Turli mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini tartibga solishdagi muayyan usullarga ustuvorlik berish masalasi turlicha hal etiladi. Har bir davlatning agrar sohada qo‘llaydigan proteksionizm siyosati mamlakatni asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanganligi, agrar ishlab chiqarishi va uning sanoatlashuv darajasi bilan bog‘liq. Jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida oziq-ovqat

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

mahsulotlarini ortiqcha yetishtirish muammosi mavjud va bu agrar siyosatni belgilashda eng muhim omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, AQShda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda davlat tomonidan tartibga solinishi bilan ajralib turadi, milliy oziq-ovqat xavfsizligi esa yuqori darajada himoyalangan.

Umuman olganda, har qanday iqtisodiy sohani tartibga solishning an‘anaviy usullari kabi oziq-ovqat xavfsizligini tartibga solish usullari ham ikki yo‘nalishda, ya‘ni iqtisodiy va ma‘muriy yo‘nalishda olib boriladi. Ushbu usullardan foydalanayotgan har bir mamlakat uni qonuniy hujjatlar bilan mustahkamlagan holda amalga oshiradi. Belgilangan qonuniy me‘yorlarni bajarilishi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qarab majburiy yoki tavsiyaviy bo‘lishi mumkin.

Agrar sohada o‘zini-o‘zi tartibga solishning bozor mexanizmi hatto sanoat bilan paritetli baholar va daromadlarda ham talab bilan taklifning muvozanatini ta‘minlay olmaydi. Shuning uchun, talabning kengaytirish va uni o‘shirib boruvchi taklif bilan muvozanatlashtirishga yo‘naltirilgan oziq-ovqat xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish siyosati zarur bo‘ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati qo‘yidagi tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarga bog‘liq: oziq-ovqat mahsulotlari aholining birlamchi ehtiyojlari tarkibiga kirishi va iste‘molning kundalik me‘yori bois, narx bo‘yicha elastiklikni nisbatan pastligi, oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligi mamlakatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy inqirozlarni yuzaga keltirishi, oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramlik mamlakatni ushbu mahsulotlarni yetkazib beruvchi davlatlarning siyosiy ta‘siriga uchrashi, ovqatlanish tarkibi va sifati ko‘p jihatdan millatning salomatligi va mehnatga layoqatini ta‘minlashi, oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy-iqlim va biologik takror ishlab chiqarish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqligi, davlatning oziq-ovqat xavfsizligi siyosati ta‘sirida turli darajadagi raqobat muhiti, mintaqalarning tabiiy-iqlim sharoitlari, agrosurs salohiyati va iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari iste‘molining milliy an‘analari, aholi daromad darajasining hududiy farqlanishi va boshqalar shularga xosdir.

Bunday sharoitda davlatning oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish va qo‘llab-quvvatlashdan voz kechishi, mamlakatning oziq-ovqat fondini shakllantirishni xususiy tuzilmalar ixtiyoriga tashlab qo‘yishi agrar sektorda jiddiy yo‘qotishlar va inqiroz holatiga olib keladi. Shu bois, tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarni e‘tiborga olib oziq-ovqat xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish yo‘nalishlari belgilanadi.

Birinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solishda mintaqalar xususiyatlarini e‘tiborga olinishi talab etiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlar tufayli agrar sohani isloh qilishning barcha mintaqalar uchun yagona modelini majburiy joriy etish maqsadga muvofiq emas. Hukumat darajasida belgilangan qoidalar asosida mahalliy hokimiyat organlari mintaqalar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda islohotlarni olib borishi va bunda maqbul strategiyani ishlab chiqishlari lozim.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda davlat tomonidan ijtimoiy yo‘naltirilgan agrar siyosatni olib borishni taqozo etadi. Bu siyosatning maqsadi - qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini xalq xo‘jaligi darajasida bo‘lishiga erishishdir.

Uchinchidan, so‘nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga baho berilar ekan, uning chegarasi tig‘iz darajadan ancha yuqorida bo‘lsa-da, lekin zamonaviy talablar uchun hali yetarli emasligini tan olish lozim. Bunda oziq-ovqat fondini shakllantirishning asosiy manbai sifatida davlat tomonidan samarali tartibga solish chora-tadbirlari talab etiladi.

To‘rtinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari importini tartibga solish masalasi nisbatan murakkab ko‘rinish oladi. Bu bir tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari taqchiligini bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoyalash masalasining oqilona tarzda hal etilishi bilan bog‘liq.

Beshinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchi davlatlarning o‘z xukmini o‘tkazishga urinishlaridan saqlanish lozim. Ushbu davlatlar ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ma’lum senariy bo‘yicha harakat qiladilar. Avvaliga insonparvarlik yordami ko‘rsatiladi, keyin mahsulotni tijorat asoslarida past baholarda yetkazib berish orqali milliy qishloq xo‘jaligi tanazzulga yuz tutadi.

Shundan so‘ng, eksportyor korxonalar faoliyati uchun agrar sektorni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, milliy ishlab chiqarish hajmida bazaviy mahsulotlar barqarorligini saqlash va eksport uchun yetarli darajada bo‘lishiga erishish zarur.

Umuman olganda, oziq-ovqat zahiralari shakllantirishning izchil rag‘batlantirish mexanizmlarini ishga solish, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab va taklifning dinamik muvozanatiga erishish uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan tartibga solishning kuchli va salmoqli choralari ko‘rilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Захарченко В.И. Сумма знаний в экономике. – Одесса: Наука и техника, 2008. Т. 1. – С. 140.
2. Хейлбронер Р., Туроу Л. Экономика для всех. Пер. с англ. - Новосибирск: «Экор», 1994. - С. 80-83.
3. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. Monografiya. - T.: Yangi asr avlodi, 2009. - 312 b.
4. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. / A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: Moliya, 2011. - B. 398-411.
5. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Монография. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2005. - 280 с..
6. Sotvoldiev N.J. Directions for Improving the Enforcement Mechanism of the Food Market. // J. International Journal of Studies in Business Management, Economics and Strategies. - Volume 02, Issue 12, 2023. – pp. 56-60.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

7. <https://scholarsdiGEST.org/index.php/bmes/article/view/524>

Хакимов Зиёдулла Ахмадович – “ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oily ta’lim tashkiloti “Menejment va marketing” kafedrası professorı, i.f.d.

Raximov Furqat Jalolovich – “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi raisining maslahatchisi, e-mail: rakhimov.furkat5@mail.ru

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash zaruriyati va o‘ziga xos avzalliklari aniqlangan. Ilmiy nazariyalarga tayangan holda diversifikatsiya strategilari tizimlashtirilgan va ulardan foydalanish imkoniyatlari va samaradorligi ochib berilgan. Diversifikatsiya nazariyalari va strategik imkoniyatlarini hisobga olgan holda O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida mazkur strategiyalardan foydalanish imkoniyatlar va o‘ziga xos foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, kimyo tolalari, to‘qimachilik sanoati, mahsulot assortimenti, strategiyalar.

Аннотация: В статье определяются необходимость и конкретные преимущества диверсификации текстильной промышленности. На основе научных теорий систематизированы стратегии диверсификации и раскрыты возможности и эффективность их использования. С учетом теорий диверсификации и стратегических возможностей показаны возможности и конкретные направления использования этих стратегий на узбекских текстильных предприятиях.

Ключевые слова: диверсификация, химические волокна, текстильная промышленность, ассортимент продукции, стратегии.

Abstract: This article identifies the need for diversification of the textile industry and its specific advantages. Based on scientific theories, diversification strategies are systematized and the possibilities and effectiveness of their use are revealed. Taking into account the theories and strategic opportunities of diversification, the possibilities and specific directions of using these strategies at Uzbek textile enterprises are indicated.

Keywords: diversification, chemical fibers, textile industry, product range, strategies.

O‘zbekiston sanoatini muvaffaqiyatli rivojlantirishning tarkibiy qismlaridan biri barqaror rivojlanishni ta’minlash, makro va mikroiqtisodiy beqarorlashtiruvchi omillar asosida sanoatni boshqarishning strategik mexanizmlaridan samarali foydalanishdir. Bunday sharoitda mamlakatda qadimdan shakllangan va rivojlangan, muhim ijtimoiy muammolarni hal etishdagi asosiy sanoat tarmog‘i hisoblangan to‘qimachilik sanoatning barqaror rivojlanishning samarali mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati mamlakat sanoat majmuasi ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarining mutanosib o‘shishini ta’minlovchi asosiy tarmoq sifatida shakllangan. Ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati subyektlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tashqi omillarning o‘zgarish sur‘atining yuqoriligi, ayniqsa, jahon mamlakatlarida kechayotgan geosiyosiy vaziyatlarda to‘qimachilik va yengil sanoat korxonaları oldıga xalqaro bozorda

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha strategik vazifalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish talabini qo‘ymoqda.

To‘qimachilik sanoat korxonasi davlat manfaatlarini hisobga olgan holda, sanoat ishlab chiqarishining ko‘p tarmoqli, muvozanatli, barqaror tuzilishini ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan rivojlanish strategiyalari mavjud. To‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari asosiy rivojlanish maqsadlariga erishishga katta darajada ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillarni hisobga olgan holda resurslardan yanada samarali foydalanish va uning tarkibini qayta tuzish kabi vazifalari mavjud.

Hozirgi vaqtda mahalliy to‘qimachilik sanoat ichki talabni yetarli darajada qondirish bilan birga yuqori eksport salohiyatini namoyon etmoqda. Korxonalarining eksport imkoniyatlarini yanada oshirish uchun davlat tomonidan yuqori darajada sharoit yaratilmoqda.

To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyalarini tadqiq qilish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish yo‘nalishlarida olib borilgan asosiy tadqiqot yo‘nalishlari matolarni bo‘yash va pardozlash usullari, rang tanlashning raqamli usullaridan foydalanish, mahsulotni loyihalash jarayonini avtomatlashtirish, ishlab chiqarishda “sun’iy intellekt”dan foydalanish iqtisodiyotni raqamlashtirish va globalashtirish sharoitida ushbu sohani rivojlantirish ustuvor tadqiqotlar yo‘nalishidir.

Diversifikatsiya konsepsiyasi to‘qimachilik korxonalarini raqobatbardosh ustunlik bilan ta’minlash qobiliyatiga ega bo‘lib, ularga dolzarbligini saqlab qolish, bozor noaniqligi bilan bog‘liq muammolarni yengib o‘tish va jahon bozori ulushining katta qismini egallash imkonini beradi.

O‘z takliflarini diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni kengaytirish orqali to‘qimachilik kompaniyalari o‘zlarini muayyan mahsulot liniyalari yoki bozorlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan pasayishlardan samarali himoya qilishlari mumkin. Bu esa ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlaydi va kutilmagan muammolardan himoya qiladi.

Bundan tashqari, diversifikatsiya hali foydalanilmagan mijozlar segmentlari va geografik hududlarni o‘rganishni osonlashtiradi, bu esa kompaniyalarga yangi daromad manbalaridan foydalanish va kengroq miqyosda potensial o‘shish imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi.⁹⁰

Shunga qaramay, diversifikatsiya qilish murakkablik va to‘siqlardan xoli emas. Diversifikatsiya strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish turli omillarni, jumladan, mavjud mijozlar bazasini, mavjud resurslarni va bozor talablarini sinchkovlik bilan va har tomonlama baholashni talab qiladi.

Ushbu elementlarni sinchkovlik bilan baholagan holda, to‘qimachilik kompaniyalari o‘z faoliyatini diversifikatsiya qilishning hayotiyliigi va maqsadga muvofiqligini aniqlashlari mumkin, bu ularning kengaytirilgan mijozlar

⁹⁰ Islam S. Product diversification and higher value-addition are the biggest challenges of 2023 URL: <https://textilefocus.com/product-diversification-and-higher-value-addition-are-the-biggest-challenges-of-2023/>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

bazasining ehtiyojlari va afzalliklarini samarali qondirish uchun yaxshi jihozlanganligini ta’minlaydi.

Mavjud mijozlar munosabatlarini saqlab qolish va yangi hududlarga kirish o‘rtasida nozik muvozanatni saqlash juda muhim, chunki ikkala jihat to‘qimachilik sanoatining barqaror muvaffaqiyati va rivojlanishining ajralmas qismidir.

To‘qimachilik sanoatidagi diversifikatsiyaning quyidagi turlariga misollar mavjud. To‘qimachilik kompaniyalari tomonidan mahsulot assortimentini sport kiyimlari, ish kiyimlari va bolalar kiyimlari kabi kiyim-kechaklarning yangi turlarini qamrab olish uchun kengaytirilishi mahsulotni diversifikatsiya qilishning namunasi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. O‘z mijozlar bazasi va daromadlarini ko‘paytirish uchun kompaniyalar ichki va xalqaro bozorlarga yangi bozorlarga chiqishlari mumkin, bu esa bozorni diversifikatsiya qilish deb nomlanadi.

Bundan tashqari, mijozlarni diversifikatsiya qilish kompaniyalarning kichikroq kompaniyalar yoki to‘qimachilik gigantlari bilan hamkorlik qilish orqali qabul qilishi mumkin bo‘lgan yana bir yondashuv bo‘lib, bu xarid narxining oshishiga va katta buyurtmalarga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Misol uchun, Portugaliya to‘qimachilik sanoati hozirda Marokash yoki Turkiya kabi qo‘shni mintaqalardan ajralib turish vositasi sifatida sifat va mijozlarni diversifikatsiya qilishni qo‘llab-quvvatlab, katta o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu strategiya sanoatga o‘zini bozorda noyob va kerakli variant sifatida joylashtirish imkonini beradi.⁹¹

Shu bilan birga ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonlarini rejalashtirish va boshqarishni takomillashtirish masalalarida ham ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, diversifikatsiya bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ilk tadqiqotlar 1962-yilda M.Gort (Amerika kompaniyalariga nisbatan) va 1979-yilda E.Yesinara (Yaponiya kompaniyalariga nisbatan) amalga oshirildi. Xuddi shu yo‘nalishdagi rivojlanishni I.Ansoff (1989), A.Tompson, A.J.Striklend (1998) va boshqalar kabi xorijiy mualliflar davom ettirdilar.⁹²

Q.Zhang⁹³ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 2001 – 2005-yillardagi Xitoy to‘qimachilik sanoatining ro‘yxatga olingan firmalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalangan holda korxonalarining diversifikatsiya ta’siridagi iqtisodiy rivojlanishning xarajatlari bo‘yicha guruhlash amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, firmalarning diversifikatsiyasi uning iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta’siri aniqlangan.

⁹¹ Alonso T. Diversification and quality: The strategy behind the Portuguese textile industry’s transformation [Elektron manba], 2023. URL:<https://us.fashionnetwork.com/news/Diversification-and-quality-the-strategy-behind-the-portuguese-textile-industry-s-transformation,1503014.html> (Ko‘rilgan sana: 11.01.2024).

⁹² Chemirbayeva M., Malgarayeva Z., Azamatova A. Economic strategy of diversification of enterprise activities under conditions of globalization //Entrepreneurship and Sustainability Issues. – 2020. – T. 8. – №. 2. – S. 1083.

⁹³ Zhang Q. Diversification and performance of group-affiliated firms during institutional transitions: The case of the Chinese textile industry //American Journal of Economics and Business Administration. – 2011. – T. 3. – №. 2. – S. 234-246.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

S.A.Anvardjanovich⁹⁴ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yengil sanoat korxonalarini yanada isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar bergan.

A.M.Colpan⁹⁵ esa mahsulot turlari bo‘yicha Yaponiya to‘qimachilik sanoatida ro‘yxatga olingan firmalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar diversifikatsiya strategiyalari va diversifikatsiyalashni moliyalash-tirishning potensial ijobiy yoki salbiy ta’sirlari o‘rganilgan, xalqaro diversifikatsiya strategiyasi va rentabellik o‘rtasidagi munosabatlarni faqat iqtisodiy tanqislik davrida o‘zining ijobiy ta’siriga ega ekanligi bo‘yicha gipotezalar asoslangan.

K.Gemba, F.Kodamalar⁹⁶ tomonidan Yaponiya sanoatining ilmiy-tadqiqot ishlari va biznesining diversifikatsiya dinamikasi tahlil qilingan. Ilmiy-tadqiqot ishlarining diversifikatsiyasi 1980-yillarda sanoatning ko‘plab sohalarda rivojlangan, ammo 1990-yillarning boshlarida yaxshi rivojlanmaganligi aniqlangan. Sanoatning yuqori texnologiyali va ilm talab qiluvchi tarmoqlar uchun diversifikatsiya yo‘nalishi quyi oqimga qaratilishi asoslangan. Bundan tashqari, miqdoriy usullar yordamida “diversifikatsiya” va “samaradorlik” o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinib, yuqori darajada diversifikatsiyalangan tarmoqlarda rentabellikni pasayishi kuzatilishi mumkinligi asoslangan. Boshqa tomondan, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan sohalarda diversifikatsiyaning rivojlanishi savdning yuqori o‘shishiga yordam berishi aniqlangan.

Mahalliy olimlardan Baxtiyar Ruzmetov⁹⁷ va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda Xorazm viloyatida sanoatni diversifikatsiya qilish asosida ishlab chiqarish imkoniyatlari va viloyat iqtisodiyot tarmoqlarida “o‘shish nuqtalari”ni shakllantirish yo‘llari tadqiqot etilgan.

Diversifikatsiya konsepsiyaning eng to‘liq ta’rifini M.D.Korinko⁹⁸ belgilab bergan bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektni diversifikatsiya qilishni riskini kamaytirish va daromadni oshirish uchun resurslarni qayta taqsimlash, ishlab chiqarishning boshqa sohalariga va yangi tovar va xizmatlar bozorlariga kirib borishning innovatsion yondashuvi sifatida qaraydi.

Eng istiqbolli yondashuv Z.Poplavskaya va boshqalar⁹⁹ qarashlarida aks etgan bo‘lib, ular korxonaning diversifikatsiyasini mahsulotning (xizmatning) hayot aylanish bosqichlari bilan bog‘laydilar. Diversifikatsiya qilish zaruratini mahsulotning hayot aylanishi bosqichlari (masalan, o‘shish va yetuklik

⁹⁴ Anvardjanovich S. A. Organizational-economic mechanisms of management of manufacturing diversification in the companies of textile industry //Journal of Management Value and Ethics. – 2017. – T. 7. – №. 1.

⁹⁵ Colpan A. M. Are strategy-performance relationships contingent on macroeconomic environments? Evidence from Japan’s textile industry //Asia Pacific Journal of Management. – 2008. – T. 25. – S. 635-665.

⁹⁶ Gemba K., Kodama F. Diversification dynamics of the Japanese industry //Research Policy. – 2001. – T. 30. – №. 8. – S. 1165-1184.

⁹⁷ Ruzmetov B. et al. Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 449. – S. 01001.

⁹⁸ Korinko, M. 2017. Diversification: theoretical and methodological foundations. Moscow: NNTsIAE, 488 p

⁹⁹ Poplavskaya, Zh. 2018. The essence of the life cycle: advantages and factors affecting its formation. Scientific Bulletin of NTU, 8(18), 169-175.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

bosqichlari) bilan bog‘lanishi eng samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi degan xulosani beradi.

A.S.Krasnikova, O.N.Melnikov, E.A.Starozhuklar¹⁰⁰ esa ishlab chiqarishni tashkil etishni diversifikatsiya qilishda sanoat korxonalarining xususiyatlari va tarmoq yo‘nalishlariga ahamiyat qaratish lozim deb hisoblaydilar.

Bangladeshdagi yuzga yaqin tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari o‘z operatsiyalarini farmatsevtika va ko‘chmas mulk kabi boshqa tarmoqlarga diversifikatsiya qilish orqali xavfni kamaytirish va daromadni ko‘paytirish uchun innovatsion yondashuvni joriy qilgan. Ushbu strategik harakat ularga qo‘shimcha daromad manbalaridan foydalanish va an’anaviy to‘qimachilik sektoriga bo‘lgan ishonchini kamaytirish imkonini beradi. Ushbu kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining biznes tashabbuslarini diversifikatsiya qilish orqali o‘zlarining moliyaviy barqarorligini himoya qilishlari va dinamik biznes muhitida uzoq muddatli barqarorlikka erishishlari mumkin.¹⁰¹

Korxonalarining diversifikatsion rivojlanishini ta’minlash uchun u yoki bu usulni tanlash bir qator omillarga bog‘liq. Masalan, G‘arbiy Yevropada Ikkinchi jahon urushidan keyin ichki kengayish yo‘li bilan diversifikatsiya, Shimoliy Amerikada esa sotib olish yo‘li bilan diversifikatsiyalash kabi usullardan foydalanilgan.¹⁰² Bundan kelib chiqqanda diversifikatsiya strategiyasini qo‘llash qo‘llanilayotgan tarmoq yoki mahsulotning hayotiylik davri bilan bog‘liq. Yangi tarmoqlarda bozor o‘shishi va unchalik kuchli bo‘lmagan raqobat sharoitida mahsulot turlarini yanada muvaffaqiyatli kengaytirish imkoniyatini yaratib beradi. Bu esa korxonalar uchun ichki kengayishni yuzga chiqaradi. Biroq agar sanoat tarmog‘ida raqobat muhiti allaqachon shakllanib ulguragan bo‘lsa, unda bozor dinamikasi va korxonalar yangi mahsulotni bozorga kiritishda qiyinchiliklarga duch keladi. Biroq korxonalar doimiy o‘chishga intiladi va imkon qadar sotib olish strategiyasiga ko‘proq murojaat qilishadi.

Diversifikatsiya strategiyasini qo‘llash orqali kompaniyaning o‘shishini tavsiflovchi model V.Baumol tomonidan taqdim etilgan.¹⁰³ Mazkur model klassik diversifikatsiya yondashuviga xos bo‘lib, diversifikatsiyaning korxonaning moliyaviy ahvoriga ta’sirini aniqlashga qaratilgan modeldir. Bunda xarajatlar ikki guruhga bo‘lingan. Birinchi guruh diversifikatsiyalash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot uchun qilingan xarajatlar bo‘lsa, ikkinchi guruh esa strategiyani amalga oshirish xarajatlaridir. V.Baumolning fikricha, diversifikatsiya qilish xarajatlari diversifikatsiya darajasi oshganidan tezroq o‘shishi lozim. Biroq diversifikatsiya qilish kompaniyaning biznesning yangi va notanish sohalariga o‘tishi bilan uni

¹⁰⁰ Krasnikova, A., Melnikov, O., Starozhuk, E. 2019. The mechanism of tactical and strategic coordination of the departments of industrial enterprises under diversification. Russian Journal of Innovation Economics, 9(4), 1479-1488. <https://doi.org/10.18334/vinec.9.4.41324>.

¹⁰¹ Rahman H. Garment product diversification strategies. [Elektron manba], 2023. URL: <https://www.linkedin.com/pulse/garment-product-diversification-strategies-habibur-rahman-zjigc/> (Ko‘rilgan sana: 11.01.2024).

¹⁰² Рой Лариса Владимировна Стратегия диверсификации компании (теоретические подходы) // Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика. 2009. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/strategiya-diversifikatsii-kompanii-teoreticheskie-podhody> (дата обращения: 15.09.2024).

¹⁰³ Bawmol W.J. Business Behavior, Value and Growth. Ch. 10. N.Y., 1967.7 VMU, ekonomika, № 2

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

amalga oshirishdagi xatolar sonining ko‘payishiga olib kelishi bilan izohlanadi, bu esa bunday xarajatlarni oshiradi. Bundan tashqari, sotib olish foydadan emas, balki kapital bozorida qarz olish yo‘li bilan ko‘proq moliyalashtirilishi mumkin, bu esa firmaning qarzlari oshishi bilan yuqori foiz stavkasini keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, agar korxonada noma’lum hududda diversifikatsiya strategiyasini yetarlicha tez amalga oshirsa, unda xatolar yana paydo bo‘lishi va xarajatlarning oshishi ehtimoli bor.

Korxonada faoliyatini diversifikatsiya qilishni uning rivojlanishini boshqarish vositasi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir va diversifikatsiya turlari korxonaning faoliyat doirasi, hajmi, resurslari va strategik maqsadlariga bog‘liqdir.

“Diversifikatsiya” tushunchasi ilmiy hamjamiyat tomonidan turlicha talqinlarda uchrasa-da ularning mazmuni qo‘llanish sohasiga ko‘ra uning xilma-xilligi A.V.Leonov tadqiqotlarida aniqlanadi.¹⁰⁴ Muallif diversifikatsiyaning turli jihatlari ko‘rib chiqiladi (1-rasm), jumladan:

- ko‘rsatkichi obyektning ichki xilma-xilligi o‘lchovi bo‘lgan mulk sifatida;
- jarayon sifatida diversifikatsiya bir vaqtning o‘zida bir nechta faoliyat turlarini rivojlantirish (ishlab chiqarish), ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar turlarini kengaytirish bilan ifodalanadi;

- texnologiya sifatida diversifikatsiya — sinergiya paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan korxonada faoliyati turlarini kengaytirish;

- mexanizm (usul) sifatida diversifikatsiya — har xil turdagi xatarlarni (masalan, moliyaviy, valyuta, investitsion va boshqalar) minimallashtirish, zarur sinergik effektlarni olish va h.k.;

- maqsad sifatida diversifikatsiya, masalan: barqaror rivojlanishni ta’minlash;


- iqtisodiy o‘shish strategiyasi sifatida diversifikatsiya.¹⁰⁵

Mavjud ilmiy adabiyotlarda diversifikatsiya va uning iqtisodiy mazmuni faoliyat maqsadlariga, qo‘llaniladigan sohalarga, tarixiy davrlarga va tabiatiga qarab turli xil ta’riflar berilgan va o‘rganilayotgan bozorning tarmoq xususiyatlarini va o‘rganilayotgan bozorni hisobga olgan holda diversifikatsiya, asosan, bozorni egallash strategiyasi sifatidagi yondashuvlarga yuqori ahamiyat qaratilgan.

¹⁰⁴ Леонов, А. В. Управление созданием высокотехнологичной продукции в государственных программах и проектах: монография / М.: ИНФРА-М, 2020. — С. 40. — Текст: электронный

¹⁰⁵ Леонов, А. В. Управление созданием высокотехнологичной продукции в государственных программах и проектах: монография / А.В. Леонов, А.Ю. Пронин. — Москва: ИНФРА-М, 2020. — С. 40. — Текст: электронный. — URL: <https://proxy.library.spbu.ru:7813/catalog/product/>. — Режим доступа: по подписке // Znanium: электронно библиотечная система

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari



1-rasm. Diversifikatsiyaning asosiy xususiyatlari¹⁰⁶.

Jumladan, strategiya sifatidagi qarashlar Yu.A.Malenkova tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, “diversifikatsiya — kompaniyaning uzoq muddatli raqobatdosh ustunliklarga, yuqori bozor mavqelariga, foydaning o‘shishiga, ilmiy-texnik salohiyatni, inson kapitali va innovatsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga asoslangan rivojlanishning samaradorligi va barqarorligiga erishish va qo‘llab-quvvatlashning ilmiy asoslangan usuli”¹⁰⁷ sifatida yondashilgan.

Shuningdek, muallif diversifikatsiya strategiyasi ko‘p maqsadli deb tasniflanishi mumkin bo‘lgan kam sonli strategiyalardan biri ekanligini e‘tirof etadi.

M.S.Oladimeji va I.Udosen, tadqiqotlarida esa diversifikatsiya strategiyasining asosiy maqsadlari aniqlashtiriladi, jumladan ular quyidagilar:

- raqobat muhitida omon qolish;
- ishlab chiqarishni kengaytirish;
- rentabellikni oshirish;
- investitsiya imkoniyatlarini yaratish;
- miqyosda tejamkorlikka erishish;
- inqirozga qarshi strategiya;
- bozorda yaxshiroq mavqega erishish;
- ortiqcha resurslarni samarali qayta taqsimlash¹⁰⁸

I.V.Kotlyarevskaya¹⁰⁹, T.A.Ganeev, N.Ye.Smolyaninovlar¹¹⁰ o‘z ilmiy maqolasida diversifikatsiya strategiyasining ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanib, asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi (1-rasm)

¹⁰⁶ Muallif ishlanmasi

¹⁰⁷ Маленков, Ю.А. Стратегический менеджмент/ Ю.А. Маленков. – М: Проспект, 2009. – С. 19. – Текст: электронный. – УРЛ: <http://студфиле.нет/превиюw/7658664/> // Студфилес: файловый архив студентов
13 Там же, С. 68

¹⁰⁸ Oladimeji, M. S. & Udosen, I. (2019). The Effect of Diversification Strategy on Organizational Performance. *Journal of Competitiveness*, 11(4), pp. 120–121. <https://doi.org/10.7441/joc.2019.04.08>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari



1-rasm. Diversifikatsiya strategiyasining asosiy afzalliklari va kamchiliklari¹¹¹.

Diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish, baholash va rejalashtirish jarayoni vaqt, kuch, puxta tahlil, eng muhimi, moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu sababli, strategik biznes portfelini boshqarishning asosiy vazifasi har bir taklif yo‘nalishning kompaniya biznes portfelidagi o‘rni va istiqbollarni baholash, portfelni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, kompaniya biznesining strategik zaifligini kamaytirish, uzoq va qisqa muddatlar o‘rtasidagi muvozanatga erishish talab etiladi.¹¹²

S.Dhir va S.Dhirlar¹¹³ tomonidan diversifikatsiya strategiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni tizimli ravishda o‘rganadi. Tadqiqotlarda 2000 – 2015-yilgacha bo‘lgan so‘nggi 15 yillik tadqiqotlar sintez qilinadi. Uning tadqiqotlari asosida jami 3 yo‘nalish diversifikatsiya bo‘yicha asosiy qoidalarni aniqlaydi, jumladan: diversifikatsiyani 4 ta asosiy turini ajratib beradi: gorizontaal, vertikal, konsentrik, konglomerat;

2 ta asosiy darajasini (related, unrelated) ajratib beradi: bog‘liq, aloqasi yo‘q;

¹⁰⁹ Котляревская И.В. Рыночные возможности перехода промышленного предприятия к стратегии диверсификации: монография / И.В. Котляревская, М. А. Ильшева, К. В. Смирнов. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. — С. 11-12. — Текст: электронный // URL: https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/66221/1/978-5-7996-2505-4_2018.pdf

¹¹⁰ Ганеев Т. А., Смольянинов Н. Е. Диверсификация как стратегия развития предприятия //Управление экономикой: методы, модели, технологии. – 2018. – С. 66-70.

¹¹¹ Ганеев Т. А., Смольянинов Н. Е. Диверсификация как стратегия развития предприятия //Управление экономикой: методы, модели, технологии. – 2018. – С. 66-70.

¹¹² Голубков Е.П. Стратегический менеджмент: Учебник и практикум для академического бакалавриата / Е.П. Голубков. — Люберцы: Юрайт, 2015. — 290 с.

¹¹³ Dhir S., Dhir S. Diversification: Literature review and issues //Strategic Change. – 2015. – Т. 24. – №. 6. – S. 569

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

3 ta diversifikatsiyalash modellarini (internal development, allianse, asquisitions) aniqlaydi: ichki rivojlanish, ittifoqlar tuzish, sotib olish (qo‘shib olish);

A.A.Tompson, A.J.Strickland¹¹⁴ mintaqaviy darajada sanoat korxonalari faoliyatini diversifikatsiya qilish quyidagi asosiy omillar bilan rag‘batlantiriladi, deb hisoblaydi:

- ishlab chiqarish konsentratsiyasini tizimli cheklash;
- mahsulotlar assortimentini (assortimentini) yangilash va kengaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqadigan xavfni kamaytirish;
- tarkibiy o‘zgarishlar va bozor tebranishlari xavfini kamaytirish: kapital aylanmasining tez aylanishi bilan ishlab chiqarish orqali kapital aylanishining uzoq sikliga ega bo‘lgan korxonalarni isloh qilishni moliyalashtirish imkoniyati;
- ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal integratsiyalashuvining o‘shishini nazorat qilishning huquqiy shakllari.

Korxonalar uchun diversifikatsiya strategiyalari turlarini tanlashda ham asosiy afzalliklar va kamchiliklarga e‘tibor qaratishni talab etadi. Yuqoridagi keltirib o‘tilgan diversifikatsiya strategiyasining uchta asosiy turi hisoblangan gorizontal va konglomerat hamda konsentrik diversifikatsiya strategiyalarining ham o‘ziga xos bo‘lgan afzallik va kamchiliklarga ega.

Afzallik va kamchiliklarni xar bir strategik yo‘nalishlar bo‘yicha T.A.Ganeev, N.Ye.Smolyaninov tadqiqotlarida asoslar keltirilgan. Diversifikatsiya strategiyalari bozorlardagi risk darajalari, korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari, marketing va menejmentni tashkil etish usullari, texnologik ta‘minot va imkoniyatlari, innovatsiyalardan foydalanish holati kabi ichki ham iste‘molchilarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib bir qator afzalliklarga va bir qator kamchiliklarga egadir.

Korxonalarining turli darajadagi diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan afzalliklar va kamchiliklar 1-jadvalga ko‘ra tizimlashtirilgan.

Belgilangan maqsadlarga qarab, diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun turli xil variantlardan foydalanish mumkinligi bo‘yicha asosiy nazariy yondashuvlar mashhur.

1-jadval

Diversifikatsiya strategiyalarining asosiy afzalliklari va kamchiliklari xususiyatlari¹¹⁵

Strategiya turlari	Afzalliklar	Kamchiliklar
--------------------	-------------	--------------

¹¹⁴ Thompson, A., Strickland, A. 1998. Strategic management. The art of developing and implementing a strategy. Moscow: Banks and exchanges, 576 p.

¹¹⁵ Ступникова Т.А., Бычкова А.С. Оценка конкурентного статуса предприятия как фактора инновационного развития // Экономика, инновации и предпринимательство: сборник научных трудов. Уфа, 2016. С. 268-274

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

Strategiya turlari	Afzalliklar	Kamchiliklar
Konglomerat diversifikatsiya qilish strategiyasi	<ul style="list-style-type: none"> – risklar turli yo‘nalishlarda taqsimlangan; – moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va istiqbolsiz sohalarni moliyalashtirishni qisqartirishi; – ba’zi sohalardagi pasayish boshqalarning o‘shishi bilan qoplanadi, rentabellikni barqarorlashtiradi; – eskirgan asbob-uskunalarni almashtirishga investitsiya qilish zaruriyatini bartaraf qiladi, bu esa investitsiya fondini kengaytirish va aylanma mablag‘lar hajmini oshirish imkonini beradi. 	<ul style="list-style-type: none"> – yirik konglomeratlar boshqaruvi uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va turli sohalarda uchun to‘g‘ri strategiyani topish qiyin; – muvaffaqiyatga erishish uchun keng miqyosda diversifikatsiya qilish kerak; – yangi texnologiyaga katta investitsiyalar talab qilinishi mumkin; – bu strategiya bosqichma-bosqich, shuning uchun foydalanish uchun ma’lum vaqt kerak bo‘ladi; – katta pul zaxiralarini talab qiladi.
Konsentrik diversifikatsiya strategiyasi	<ul style="list-style-type: none"> – boshqaruvning vazifani bajara olmaslik xavfi kamayadi; – bepul resurslar geografik kengayishga yo‘naltirilgan; – rahbariyat ishlab chiqarish jarayonlarini biladi, bu ularga to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi; – o‘zining obro‘si va to‘plangan tajribasi tufayli kompaniya sohada yetakchiga aylanishi mumkin; – xarajatlarni kamaytirish. 	<ul style="list-style-type: none"> – bitta tarmoqqa qaram bo‘lib qolish xavfi. – iste’molchilarning xohish-istaklarining keskin o‘zgarishi yoki yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi sharoitida kompaniyaning to‘liq qulashi mumkin va hokazo.
Gorizontal diversifikatsiya strategiyasi	<ul style="list-style-type: none"> – sanoat xavfini minimallashtirish; – mahsulot assortimentini kengaytirish; – ish joylarini saqlash va boshqalar. 	<ul style="list-style-type: none"> – investorlarni jalb etishdagi qiyinchilik; – doimiy monitoring va aniq hisob-kitoblarga bo‘lgan ehtiyoj; – bozor konyunkturasini tizimli monitoring qilish va h.k.

Diversifikatsiya strategiyasining samaradorligi xavflarni kamaytirish, daromad manbalarini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy qilish va bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishda namoyon bo‘ladi. Ushbu strategiya korxonaning

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

moliyaviy barqarorligini ta’minlash, yangi imkoniyatlar yaratish va uzoq muddatli rivojlanishini kafolatlaydi.

Diversifikatsiya nazariyalari va strategik imkoniyatlarini hisobga olgan holda O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarini uchun mazkur strategik imkoniyatlar va o‘ziga xos foydalanish yo‘nalishlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

1. *Yangi to‘qimachilik mahsulotlari turlarini yaratish*: Texnik tekstil, aqlli (SMART) tekstil yoki ekologik toza tekstil kabi turli xil tekstil mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish. Bu jahon bozorida rivojlanayotgan tendensiyalar va talablarga javob berishi mumkin.

2. *Innovatsiyalar orqali mahsulotga qiymat qo‘shish*: To‘qimachilikda innovatsion xususiyatlarni joriy etish uchun tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritiladi. Bunga mikroblarga qarshi xususiyatlar, namlikni yutish kabi funksiyalarni qo‘shish kiradi.

3. *Mahsulot turlarini kengaytirish*: Mahsulot turlarini kengaytirish orqali diversifikatsiya qilish hisoblanadi. Korxonaga kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqaradigan bo‘lsa, unga uy, sanoat tekstil mahsulotlarini yoki hatto sumka va poyabzal kabi aksessuarlarni qo‘shishni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

4. *Noyob (nisha) bozorlarga kirish*: noyob to‘qimachilik ehtiyojlariga ega bo‘lgan bozorlarni yoki tarmoqlarni aniqlash sanaladi. Bu sog‘liqni saqlash, avtomobil yoki sport sohalarida tekstil mahsulotlari bozoriga kirishni o‘z ichiga olishi mumkin.

5. *Elektron tijorat imkoniyatlaridan foydalanish*: Kengroq auditoriyani qamrab olish uchun onlayn savdoni tashkil etish lozim. Elektron tijorat platformalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchilarga turli tekstil mahsulotlarini sotishi va sotib olishi uchun kerakli vosita bo‘lishi mumkin.

6. *Xalqaro bozorni kengaytirish*: Ko‘p tarmoqli to‘qimachilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga eksport qilish imkoniyatlarini o‘rganib, tekstil mahsulotlarini bozor talabiga mos ravishda moslashtirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. Islam S. Product diversification and higher value-addition are the biggest challenges of 2023 URL: <https://textilefocus.com/product-diversification-and-higher-value-addition-are-the-biggest-challenges-of-2023/>

2. Alonso T. Diversification and quality: The strategy behind the Portuguese textile industry’s transformation [Elektron manba], 2023. URL:<https://us.fashionnetwork.com/news/Diversification-and-quality-the-strategy-behind-the-portuguese-textile-industry-s-transformation,1503014.html> (Ko‘rilgan sana: 11.01.2024).

3. Chemirbayeva M., Malgarayeva Z., Azamatova A. Economic strategy of diversification of enterprise activities under conditions of globalization //Entrepreneurship and Sustainability Issues. – 2020. – T. 8. – №. 2. – S. 1083.

4. Zhang Q. Diversification and performance of group-affiliated firms during institutional transitions: The case of the Chinese textile industry

//American Journal of Economics and Business Administration. – 2011. – Т. 3. – №. 2. – S. 234-246.

5. Anvardjanovich S. A. Organizational-economic mechanisms of management of manufacturing diversification in the companies of textile industry //Journal of Management Value and Ethics. – 2017. – Т. 7. – №. 1.

6. Colpan A. M. Are strategy-performance relationships contingent on macroeconomic environments? Evidence from Japan’s textile industry //Asia Pacific Journal of Management. – 2008. – Т. 25. – S. 635-665.

7. Gemba K., Kodama F. Diversification dynamics of the Japanese industry //Research Policy. – 2001. – Т. 30. – №. 8. – S. 1165-1184.

8. Ruzmetov B. et al. Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 449. – S. 01001.

9. Korinko, M. 2017. Diversification: theoretical and methodological foundations. Moscow: NNTsIAE, 488 p

10. Poplavskaya, Zh. 2018. The essence of the life cycle: advantages and factors affecting its formation. Scientific Bulletin of NTU, 8(18), 169-175.

11. Krasnikova, A., Melnikov, O., Starozhuk, E. 2019. The mechanism of tactical and strategic coordination of the departments of industrial enterprises under diversification. Russian Journal of Innovation Economics, 9(4), 1479-1488. <https://doi.org/10.18334/vinec.9.4.41324>.

12. Rahman H. Garment product diversification strategies. [Elektron manba], 2023. URL: <https://www.linkedin.com/pulse/garment-product-diversification-strategies-habibur-rahman-zjigc/> (Ko‘rilgan sana: 11.01.2024).

13. Рой Лариса Владимировна Стратегия диверсификации компании (теоретические подходы) // Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика. 2009. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/strategiya-diversifikatsii-kompanii-teoreticheskie-podhody> (дата обращения: 15.09.2024).

14. Bawmol W.J. Business Behavior, Value and Growth. Ch. 10. N.Y., 1967.7 VMU, ekonomika, № 2

15. Леонов, А. В. Управление созданием высокотехнологичной продукции в государственных программах и проектах: монография / А.В. Леонов, А.Ю. Пронин. — Москва: ИНФРА-М, 2020. — С. 40. — Текст: электронный. — URL: <https://proxy.library.spbu.ru:7813/catalog/product/>. — Режим доступа: по подписке // Znanium: электронно библиотечная система

16. Маленков, Ю.А. Стратегический менеджмент/ Ю.А. Маленков. — М: Проспект, 2009. — С. 19. — Текст: электронный. — URL: <https://studfile.net/preview/7658664/> // Студфилес: файловый архив студентов 13 Там же, С. 68

17. Oladimeji, M. S. & Udosen, I. (2019). The Effect of Diversification Strategy on Organizational Performance. Journal of Competitiveness, 11(4), pp. 120–121. <https://doi.org/10.7441/joc.2019.04.08>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

18. Котляревская И.В. Рыночные возможности перехода промышленного предприятия к стратегии диверсификации: монография / И.В. Котляревская, М. А. Илышева, К. В. Смирнов. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. — С. 11-12. — Текст: электронный // URL: https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/66221/1/978-5-7996-2505-4_2018.pdf

19. Ганеев Т. А., Смольянинов Н. Е. Диверсификация как стратегия развития предприятия //Управление экономикой: методы, модели, технологии. — 2018. — С. 66-70.

20. Голубков Е.П. Стратегический менеджмент: Учебник и практикум для академического бакалавриата / Е.П. Голубков. — Люберцы: Юрайт, 2015. — 290 с.

21. Dhir S., Dhir S. Diversification: Literature review and issues //Strategic Change. — 2015. — Т. 24. — №. 6. — S. 569

22. Thompson, A., Strickland, A. 1998. Strategic management. The art of developing and implementing a strategy. Moscow: Banks and exchanges, 576 p.

Xasanov Soxib Latifovich – “United Biotech” MCHJ korxonasi xizmatchisi, Mustaqil tadqiqotchi, E mail: trade.asia@inbox.ru

FARMATSEVTIKA BOZORINING INNOVATSION SALOHICHYATINI OSHIRISHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqola farmatsevtika bozorida iste'molchi sodiqligini ta'minlashning ahamiyatini va uning raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini tahlil qiladi. Farmatsevtika bozori, boshqa iste'mol tovarlari bozorlariga o'xshab, bozordagi salohiyatini oshirish uchun iste'molchilarning sodiqligini maksimal darajada ta'minlashga harakat qiladi. Maqolada marketing tizimining mustahkamlanishi va strategik marketing jarayonlarining samarali tashkil etilishi orqali bu maqsadga qanday erishish mumkinligi ko'rsatilgan. Bunday innovatsion yondashuvlar korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi va uning barqaror rivojlanishiga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: farmatsevtika bozor, iste'molchi sodiqligi, raqobatbardoshlik, marketing tizimi, strategik marketing, innovatsion vositalar, barqaror rivojlanish

Аннотация: В статье анализируется важность обеспечения лояльности клиентов на фармацевтическом рынке и ее роль в повышении конкурентоспособности. Фармацевтический рынок, как и другие рынки потребительских товаров, стремится максимально повысить лояльность потребителей, чтобы максимально увеличить свой рыночный потенциал. В статье показано, как этой цели можно достичь за счет укрепления системы маркетинга и эффективной организации стратегических маркетинговых процессов. Такие инновационные подходы повышают конкурентоспособность предприятий и способствуют их устойчивому развитию.

Ключевые слова: фармацевтический рынок, лояльность потребителей, конкурентоспособность, маркетинговая система, стратегический маркетинг, инновационные инструменты, устойчивое развитие.

Abstract: This article analyzes the importance of ensuring consumer loyalty in the pharmaceutical market and its role in increasing competitiveness. The pharmaceutical market, like other consumer goods markets, seeks to maximize consumer loyalty in order to increase its

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XI AK materiallari

market potential. The article shows how this goal can be achieved through strengthening the marketing system and effectively organizing strategic marketing processes. Such innovative approaches increase the competitiveness of enterprises and enable their sustainable development.

Keywords: *pharmaceutical market, consumer loyalty, competitiveness, marketing system, strategic marketing, innovative tools, sustainable development.*

Farmatsevtika bozori bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab rivojlanayotgan, kengayib borayotgan va yuqori raqobatbardosh soha hisoblanadi. Ushbu bozorning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri iste‘molchi sodiqligini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarining muhim ahamiyatga ega bo‘lishidir. Iste‘molchi sodiqligi faqatgina bozorga o‘z pozitsiyalarini saqlash uchun emas, balki kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish va uning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun ham zarurdir. Ushbu maqolada farmatsevtika korxonalarini uchun innovatsion marketing vositalarini qanday ishlatish, marketing tizimini mustahkamlash va strategik marketing jarayonlarini samarali boshqarishning asosiy yo‘llari tahlil qilinadi.

Tashkilotning innovatsion salohiyatini farmatsevtika bozorida aniq strategik yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish mumkin, bu innovatsion maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vazifalarni bajarishga tayyorlik darajasi, ya‘ni innovatsion strategik o‘zgarishlar loyihasini yoki dasturini amalga oshirishga tayyorlik darajasi sifatida tushuniladi. Innovatsion maqsad, o‘zgarishlarni boshqarishda yo‘naltiruvchi unsur sifatida, tashkilotning global strategiyasi sifatida, uning yuqori maqsadlariga erishish vositasi, shuningdek tashkilotning missiyasini amalga oshirish vositasi sifatida ko‘riladi. Hozirgi kunda farmatsevtika bozori – eng rivojlangan tovar bozorlaridan biridir. Uning xususiyati shundaki, farmatsevtika bozori aholining dori bilan ta‘minlanishidagi aniq ijtimoiy funksiyasini ifodalaydi. Farmatsevtika bozorining missiyasi, 65-chi Xalqaro Farmatsevtika Federatsiyasi (FIP) Kongressida “Har kim uchun dori – inson huquqi” deb e‘lon qilindi, bu farmatsevtika bozorining faoliyatini aholining hayot sifati darajasini yuqori saqlash va uni doimiy ravishda yaxshilashga yo‘naltiradi. Bu esa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, sog‘likni ta‘minlash va yangi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishga, o‘z-o‘zini saqlash madaniyatini, profilaktika va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga xizmat qiladi.¹¹⁶

Shunday qilib, farmatsevtika bozorining innovatsion rivojlanishining asosiy maqsadini aholining hayot sifatini yaxshilash sifatida talqin qilishimiz mumkin, bu esa farmatsevtika bozori tarkibidagi barcha komponentlarning barqaror rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Har qanday innovatsion maqsadni amalga oshirish o‘ziga xos amalga oshirish mexanizmini talab qiladi, bu mexanizm iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanish qonunlarini, bozorning o‘ziga xos sharoitlarini va maqsadning mohiyatini aks ettiradi

¹¹⁶ www.who.int/medicines.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

O‘zgarishlarni boshqarish, innovatsion maqsadga erishish vositasi sifatida, tashkilotlarda yuz berayotgan jarayonlar strategik marketingning bir qismi bo‘lib, bir qator bozor mexanizmlarini amalga oshirishni talab qiladi.


Farmatsevtika mahsulotlari bozorida iste’molchilarni o‘ziga jalb qilish juda qiyin va uzoq jarayon bo‘lib, bu dori-darmonlar bozorining boshqa iste’mol tovarlari bozorida tubdan farqlanishi bilan bog‘liq. Mahsulotning pozitsiyalar, sifatli va miqdoriy maqsadlarni belgilash va ularga erishish – bularning barchasi farmatsevtika bozoridagi innovatsion marketing siyosatiga kiradi. Bugungi kunda aynan marketing strategiyasi va strategik qarashlar birgalikda bozorning innovatsion salohiyatini belgilaydi. Har bir ishlab chiqarish formasi yangi marketing vositalari kombinatsiyasini talab qiladi. Aynan samarali marketing kompleksi mahsulotning qo‘shimcha qiymatini, ijobiy imijini va optimal miqdoriy ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Farmatsevtika bozorida o‘shish strategiyasi haligacha aniq strategik yo‘nalishlarga ega emas, bu esa mijozlarni jalb qilish va sotishni intensivlashtirish maqsadida marketing funksiyalaridan faol foydalanishni talab qiladi. Shuningdek, farmatsevtika bozorida o‘zgaruvchan xarid qilish odatlari va iste’molchilarning ehtiyojlari bo‘yicha kompleks marketing vositalarini qo‘llash zarur. Hozirgi kunda ko‘plab farmatsevtika kompaniyalari ijtimoiy mas’uliyatli marketing konsepsiyasini qo‘llashadi, bu esa maqsadli bozorlarning ehtiyojlarini va manfaatlarini aniqlashni va iste’molchilarni samarali, raqobatchilardan ko‘ra yaxshiroq tarzda qondirishni nazarda tutadi. Bu jarayon iste’molchi va jamiyatning farovonligini mustahkamlashni davom ettiradi.

Farmatsevtika bozorining to‘lib-toshib ketgan sharoitida sanoatning asosiy diqqat markazida eng jozibali segmentlarning kengayishi va kapitalizatsiyasini oshirish vazifalari turadi. Ushbu jarayonning asosiy katalizatorlari sifatida operatsion kommunikatsion marketing vositalari xizmat qiladi, shu bilan birga ilmiy tadqiqotlar va tajriba ishlarining (NIOKR) roli ko‘proq kommunikatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun kon’yunkturaviy asos yaratishga qaratilgan.

Shunday qilib, O‘zbekistondagi farmatsevtika korxonasi marketing kompleksini shakllantirish va boshqarish masalasi eng dolzarb bo‘lib qolmoqda. Marketingning funksiyalari, qayta ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish va shakllantirishda namoyon bo‘ladi, ular uzluksizligini ta’minlash, xarajatlarni kamaytirish va rivojlanish uchun zarur bo‘lgan samaradorlikni oshirishni nazarda tutadi.

Marketing tizimining strukturasi quyidagi asosiy komponentlarga ega: tovar, kommunikatsiya va axborot-analitik guruhlar, bu guruhlar farmatsevtika korxonasining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun strategik potensialni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu guruhlar yordamida tashkilot raqobat ustunliklarini qo‘lga kiritadi va ularni saqlab qoladi. Har bir guruh bo‘yicha marketing faoliyatini boshqarish turli marketing metod va usullarining qo‘llanilishini talab qiladi. Farmatsevtika bozori, boshqa iste’mol tovarlari bozorlariga o‘xshab, iste’molchilar sodiqligini maksimal darajada ta’minlashga harakat qiladi. Chunki iste’molchilar sodiqligi kompaniyaga bozorga o‘z pozitsiyalarini saqlash va oshirishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi, bu esa oxir-oqibatda tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi va uning barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun turli innovatsion vositalardan foydalaniladi. Ularning eng samarali va keng tarqalgan usuli — farmatsevtika korxonasida mustahkam marketing tizimini yaratish va uni saqlashdir. Shuningdek, kompaniya o‘z resurslarini strategik marketing jarayonlarini samarali tashkil etish uchun ishlatadi. Bu jarayonlar bozorning o‘zgarishlariga moslashish va raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlashga yordam beradi. (1-rasm).



1-rasm. Farmatsevtika korxonalarining bozordagi innovatsion salohiyatini namoyon bo‘lishi¹¹⁷

Farmatsevtika korxonasining marketing tizimi samaradorligini, bozor imkoniyatlari darajasi va korxonaning tanlangan marketing strategiyasini amalga oshirishga imkon beruvchi salohiyatni o‘lchash orqali baholash mumkin. Bu esa korxonaning marketing resurslari va uning rivojlanishga qobiliyatiga bog‘liq.

¹¹⁷ Muallif ishlanmasi

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Ushbu samaradorlikni belgilovchi omillar quyidagilardan iborat: sifat — marketing salohiyatining mobilizatsiya darajasi va marketing strategiyasining ichki va tashqi sifati, usullar va marketingni ta’minlash omillarini qo‘llash madaniyati, miqdor — aniqlangan marketing kategoriyasi va firma miqyosining samaradorligi va vaqt — marketing faoliyatining raqobat muhitiga moslashuvchanligi, shuningdek, marketing o‘zgarishlarini amalga oshirish tezligi.

Xulosa va tavsiyalar. Farmatsevtika bozorida iste’molchi sodiqligini ta’minlash kompaniyaning bozor pozitsiyalarini mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunga erishish uchun farmatsevtika korxonalari o‘z marketing tizimlarini mustahkamlashlari va innovatsion strategik marketing jarayonlarini samarali amalga oshirishlari kerak. Bu esa o‘z navbatida kompaniyaning barqaror rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. Bozorning o‘zgarishlariga moslashish va raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlash uchun marketing vositalarini mukammal qo‘llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Soliyev A. Markiting. Iqtisod-moliya nashriyoti. Toshkent, 2010.- 423 b.
2. Юданов А.Ю., Вольская Е.А., Ишмухаметов А.А., Денисова М.Н. Фармацевтический маркетинг. Издательство «Ремедиум». Москва, 2008. 599 с.
1. Трофимова, Е. Эволюция фармацевтического рынка/ Е.О.Трофимова // Ремедиум. – 2005. — №11. — С. 36-41
2. Мнушко З.Н., Дихтярева Н.М. Менежмент и маркетинг в армации. Часть 2. Маркетинг в фармации. Издательство НФаУ “Золотые страницы”. Харьков, 2008. — 522 с.
3. Brent L. Rollins, Matthew Perri Pharmaceutical marketing. Jones Bart & Bartlett Publishers. – 2013. — 284 p.
4. Микки С. Смит, Коласса Е.М., Грег Перкинс, Брюс Сикер. Фармацевтический маркетинг. Принципы, среда, практика. Издательство “Литтерра”. Москва, 2005 г. — 382 с.
5. Саипова Д.Т., Илясова К.А., Юнусхўжаев А.А. “Фармацевтика бозорини бошқаришда маркетинг”.- Амалий машғулотлар учун ўқув-услубий мажмуа.-Тошкент.- 2009.-190б.
6. Багиев Г.Л., Тарасевич В. М., Анн Х.. Маркетинг: Учебник для вузов. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2007. – 736с.
7. Котлер, Ф. Маркетинг в третьем тысячелетии: Как создать, завоевать и удержать рынок. – М.: Издательство АСТ, 2009.-230 с.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Xolmirzaeva Feruza Abdullaevna – TDIU, tadqiqotchisi, E-mail: holmirzayeva73@gmail.com

MATBAA KORXONALARI MARKETING FAOLIYATINI XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon tijorat matbaa va bosma bozorining rivojlanish tendensiyalari statistik tahlil qilingan. AQSH, Indoneziya Malayziyaning matbaa sanoatini rivojlanishidagi muammolar va yechimlar o‘rganilgan. Mazkur mamlakatlar tajribalaridan O‘zbekiston matbaa sanoatida foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan

Kalit so‘zlar: matbaa, noshirlik, bosma mahsulotlar bozori, marketing, reklama.

Аннотация: В статье представлен статистический анализ тенденций развития мирового рынка коммерческой полиграфии и издательского дела. Изучены проблемы и пути их решения в развитии полиграфической отрасли США, Индонезии, Малайзии. Разработаны предложения по использованию опыта этих стран в узбекской полиграфии.

Ключевые слова: типография, издательское дело, рынок печатной продукции, маркетинг, реклама.

Abstract: This article provides a statistical analysis of the development trends of the world commercial printing and printing market. The problems and solutions in the development of the printing industry of the USA, Indonesia, and Malaysia are studied. Proposals are developed to use the experience of these countries in the printing industry of Uzbekistan

Keywords: printing, publishing, printed products market, marketing, advertising.

Jahon amaliyotida matbaa sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, korxonalarni raqamli muhitda yangi bozor imkoniyatlarini ochishga qaratilgan innovatsion marketing strategiyalarini joriy etish, bosma nashrlarga mijozlar xulq-atvor xususiyatlarini tadqiq etish, matbaa mahsulotlari va nashriyot kompaniyalari uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish, elektron savdo tizimini va ta‘minot tizimini xalqaro darajada yo‘lga qo‘yish, nashriyotlarning global raqamli muhitda faoliyat yuritishi va raqobatbardoshlini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Jahon tijorat bosma bozori hajmi 2024-yilda 501,36 milliard dollarga baholanib, 2025-yildan 2030-yilgacha o‘rtacha o‘shish darajasi 3,2 foiz bo‘lishi prognoz qilingan. Korxonalarning reklama tarqatma vositalari, broshyuralar va risolalar kabi reklama materiallariga bo‘lgan ehtiyojining ortishi mazkur bozorda talabni shakllantirishning asosiy omiliga aylangan.[1]¹¹⁸ Matbaa xizmatlarida reklama asosiy marketing vositalaridan biridir. Tezkor bosish va yangi rang va toner texnikasi kabi texnologiyalarning tarqalishning ortib borishi yanada tezkor ishlab va yuqori sifatga ta‘minlaydigan chiqarish imkoniyatlari yaratib bergan. Bundan tashqari, bosib chiqarish texnikasining texnik rivojlanishi ommaviy bosib chiqarish uchun iqtisodiy va samarali ekanligini allaqachon o‘z isbotini topgan.

¹¹⁸ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/commercial-printing-market>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Iqtisodiy samaradorlik ma’lum darajada raqamli ommaviy axborot vositalarining bosma xizmatlarga cheklovchi ta’sirini oldini olish darajasiga yetgan.

Jahon matbaa bozorida elektron tijoratning o‘shishi qadoqlash va etiketkalariga bo‘lgan talabni o‘shishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Amazon, eBay va Target kabi elektron tijorat sotuvchilari qadoqlashni yaxshilash uchun qo‘shimchalar ishlab chiqarish va sun’iy intellektga asoslangan dizayn vositalari kabi innovatsion qadoqlash yechimlarini qo‘llamoqdalar. Shuningdek, logistika, omborxonalar va chakana savdo sohalaridagi bozor ishtirokchilari gibrid bosib chiqarish texnologiyalariga sarmoya kiritmoqdalar. Gibrid texnologiya analog va raqamli texnologiyalarning afzalliklarini birlashtirishga yordam beradi. Bunga fleksografik bosib chiqarishning ishonchliligi va samaradorligini raqamli texnologiyaning badiiy salohiyati bilan birlashtirish orqali erishiladi.

Kitoblarni nashr qilish va reklama qilish uchun raqamli ommaviy axborot vositalarining tobora ko‘payib borayotganiga qaramay, bosma mahsulotlar va nashrlar taklif qiladigan tajriba noyob bo‘lganligi sababli tijorat nashri o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Sababi mijozlarga jozibadorlik kasb etish xususiyatlari aynan bosma nashrlarda mavjudligi ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda. Kitob o‘quvchilari va jurnal xaridorlari onlayn o‘qishdan ko‘ra bosma shaklni afzal ko‘rishadi, chunki jismoniy kitoblar kishining ma’naviy va psixologik holatlariga salbiy ta’siri kam. Chop etilgan kitoblar ham foydalanuvchilarga yaxshi o‘qilishi kabi afzalliklarni taqdim etadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida bosma kitoblar savdosi 2021-yilda qariyb 68 million AQSh dollariga oshgan. Iste’molchilar orasida talab bo‘yicha chop etish (POD) ommabopligi ham bozorni kengaytirayotgan bir vaqtda. Print-on-Demand (POD) — buyurtmani etkazib berish usulidan foydalanish orqali mazkur bozorni yanada kengaytirishga hissa qo‘shmoqda. Mazkur tizim tovarlar buyurtma berilgan zahoti chop etiladigan tizimdir. POD foydalanuvchilarga mahsulotlarning keng assortimenti uchun moslashtirilgan dizaynlarni olish imkonini beradi. Iste’molchining shaxsiylashtirish va shaxsiylashtirishga bo‘lgan afzalliklarini oshirish ham maqsadli bozor o‘shishiga yordam beradi (1-jadval).

1-jadval


Talab bo‘yicha bosma chop etish jarayoni va xususiyatlari

Xususiyatlari	Mazmuni
Talabga qarab chop etish	<ul style="list-style-type: none"> Hujjatlar, kitoblar, yoki materiallar oldindan ko‘p miqdorda chop etilmaydi. Faqat buyurtma olingandan so‘ng chop etiladi, bu esa ortiqcha zaxiralar va chiqindilarni kamaytiradi.
Kichik tirajda chop etish	<ul style="list-style-type: none"> Pod texnologiyasi kichik tirajlar uchun juda mosdir. Kam miqdorda buyurtma qiluvchi mijozlar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi.
Shaxsiylashtirish imkoniyati	<ul style="list-style-type: none"> Mijozlar har bir nusxani shaxsiylashtirishi mumkin (masalan, ism yoki dizayn qo‘shish)
Iqtisodiy	<ul style="list-style-type: none"> Katta miqdorda chop etish bilan bog‘liq oldindan

Xususiyatlari	Mazmuni
samaradorlik	xarajatlar talab etilmaydi. <ul style="list-style-type: none"> • Kam mablag‘ bilan biznes boshlash uchun qulaydir
Tezkorlik	<ul style="list-style-type: none"> • Texnologiya tez va sifatli mahsulot chop etishga imkoniyat beradi. • Mahsulot mijozga qisqa vaqt ichida yetkazib beriladi
Afzalliklari	<ul style="list-style-type: none"> • Zaxira qilish talab qilinmaydi. • Chiqindilarni kamaytirish. • Yangi mahsulotlarni bozorga tez kiritish. • Mahsulotni test qilish uchun qulay.

Matbaa bozorida siyoh, qog‘oz va pigmentlar kabi asosiy materiallari narxining oshirib borishi xalqaro bozorlarda mazkur sohani o‘shishini sekinlashtiruvchi omillardan biridir. Bundan tashqari, iste’molchilarning raqamli ommaviy axborot vositalarini tobora ko‘proq qabul qilishi bozorga to‘sqinlik qilishi kutilmoqda. Biroq, sotuvchilar orasida yashil tijorat printerlarini qabul qilish bozor uchun foydali imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda. Yashil texnologiya ekologik toza qog‘ozlar, soya siyohlari va qoplamalardan foydalanadi, bu esa yashil tijorat printerlariga bo‘lgan talabni kengaytirib, bozor o‘shishining yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

Jahon tijorat bosma bozori segment nuqtayi nazaridan, poligrafiya bosmaxonasi 2024-yilda 225332,4 million dollar daromad keltirgan. Raqamli bosib chiqarish — bu prognoz davrida eng tez o‘shishni qayd etadigan eng daromadli bosib chiqarish texnologiyasi segmenti bo‘lib qolgan. Mazkur bozor mintaqaviy jihatdan Osiyo Tinch okeani mintaqasi 2024-yilda eng katta daromad keltiruvchi bozor sifatida qayd qilingan. Ayniqsa mamlakatlar miqyosida Hindiston 2025-yildan 2030-yilgacha eng yuqori o‘rtacha o‘shishga erishadigan mamlakat sifatida 2030-yilga kelib 39 183,1 million dollarga yetishi kutilmoqda qolmoqda (1-rasm).



1-rasm. Jahon tijorat bosma bozori, 2018-2030 (mln. AQSh dollari)[2]¹¹⁹

Mazkur bozorda daromad bo‘yicha Shimoliy Amerika 2024-yilda global tijorat bosma bozorining 33,2 foizini tashkil etgan bo‘lsa, Mamlakatlar bo‘yicha

¹¹⁹ <https://www.grandviewresearch.com/horizon/outlook/commercial-printing-market-size/global>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

AQSh 2030-yilda daromad bo‘yicha jahon bozorida yetakchilik qilishi kutilmoqda.

Poligrafiya sanoati Indoneziya iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biridir. Indoneziya Markaziy Statistika Agentligi [1] ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda matbaa sanoatining yalpi mahsulot qiymati 75.480 milliard IDRni tashkil etgan. O‘sha yildagi matbaa sanoatidagi jami ishchi kuchi 166.375 kishini tashkil qilgan.[3]¹²⁰ Indoneziya poligrafiya sanoati boy madaniy merosini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Yangi texnologiyalar axborotning global miqyosda tez tarqalishiga turtki bergan.[4]¹²¹ Indoneziya va Malayziyaning ko‘pgina matbaa sanoati bir xil strategiyaga ega, ya’ni sifatli va arzon narxlardagi sifatli mahsulotlar. Malayziyada o‘tkazilgan tadqiqot natijalaridan foydalangan holda mamlakatda ushbu sohani rivojlanishda 4 ta muammoni bartaraf etishga qaratilgan strategiyalar asosida rivojlangan (1-jadval).

1-jadval

Indoneziyaning va Malayziyaning matbaa sanoatini rivojlanishidagi muammolar va yechimlar

No	Tarmoqdagi asosiy muammolar	Muammolar		Strategiyalar
		Indoneziya poligrafiya sanoati	Malayziya poligrafiya sanoati	
1	Talab / bozor muammolari	1. Marketingni kuchaytirish O‘z vaqtida ishlab chiqarish Bozor talabi bilan bog‘liq	Kam tirajli chop etish Matbaa brokerlari Narx bo‘yicha raqobat 4. Mijozlar talabining o‘zgarishi	Marketing kanallarini diversifikatsiya qilish Mahsulot yetkazib berish samaradorligini oshirish Xalqaro bozorlarda mijozlar ehtiyojlarini o‘rganib, yangi xizmatlar taklif etish
2	Mashina muammolari / Texnologiyalarni ishlab chiqish	1. Texnologiyani rivojlantirish bilan bog‘liq 2. Mashinaga muntazam texnik xizmat ko‘rsatish Mashina sifati va miqdori bilan bog‘liq 3. Ishlab chiqarish samaradorligi	Ofset usulida texnologiya Raqamli bosib chiqarish texnologiyasi	Talabga qarab chop etish (POD) strategiyasini joriy qilish; Mobil va raqamli marketing; shaxsiylashtirilgan mahsulotlar taklif etish Innovatsion texnologiyalarga investitsiya qilish;
3	Inson kapitali	1. Malaka asosida ishga qabul qilish 2. Dastlabki tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik va davriy tayyorgarlik	1. Xodimlar orasidagi munosabat Ta’lim va bilim Kadrlar malakasi va malakalari	Xodimlar uchun xalqaro darajada e’tirof etilgan sertifikatlash kurslarini joriy etish Maxsus malaka sertifikatlarini talab qilish

¹²⁰ Badan Pusat Statistik, “Statistical Yearbook of Indonesia 2021”. STATISTIK INDONESIA, 2021

¹²¹ W. Xu, “The Future of the Media Industries from an Asian Perspective”. International Circular of Graphic Education and Research, no. 8, pp. 4–15. 2015

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

No	Tarmoqdagi	Muammolar		Strategiyalar
		3. Karyera yo‘li		
4	Sifat muammolari	Sifat menejmentini amalga oshirish 2. Sertifikatlash 3. Sifatni saqlash	1. Boshqaruv majburiyatlari Sifat dasturi va sertifikatlash 3. Xodim ishtirokchisi	Sifat auditini tashkil etish; Sifatni baholashda mijozlarning fikrini o‘rganish Sifat dasturini joriy qilish

Umuman olganda, poligrafiya sanoati barcha sohalarni o‘zgartirishga majbur qiladigan raqamlashtirish davrining haqiqiy muammolariga duch kelish uchun umumlashtirilishi mumkin. Ushbu davr mijozlar talabi paradigmasini o‘zgartiradi va texnologik o‘zgarishlardagi o‘zgarishlarga real ta‘sir ko‘rsatadi, undan keyin sifat standartlaridagi o‘zgarishlar va inson resurslariga tuzatishlar kiritiladi. Poligrafiya sanoatining dolzarb muammolariga duch kelgan holda, biznesning uzluksizligini ta‘minlashda ma‘lumotnoma bo‘lishi uchun omon qolish va biznesni yuritishda muvaffaqiyatga erishish uchun muammolarni bartaraf etish strategiyasini topish va aniqlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/commercial-printing-market>
2. <https://www.grandviewresearch.com/horizon/outlook/commercial-printing-market-size/global>
3. Badan Pusat Statistik, “Statistical Yearbook of Indonesia 2021”. STATISTIK INDONESIA, 2021
4. W. Xu, “The Future of the Media Industries from an Asian Perspective”. International Circular of Graphic Education and Research, no. 8, pp. 4–15. 2015

Vaisov Dilshod Ibodullayevich – Ma‘mun NTM o‘qituvchisi, URDU mustaqil tadqiqotchisi, ddvais5@gmail.com

TIBBIY XIZMATLAR BOZORIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZORAT QILUVCHI MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy xizmatlar bozorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning nazorat qilish mexanizmlari o‘rganilib, soha tadbirkorlik subyektlarini raqobatbardoshligini ta‘minlashga ta‘siri bo‘yicha zaruriy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, tadbirkorlikni rivojlantirish, davlat muassasalari nazorat mexanizmi va boshqalar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены механизмы управления развитием малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства на рынке медицинских услуг, а также сделаны необходимые выводы о влиянии на обеспечение конкурентоспособности субъектов предпринимательства в этой сфере.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Ключевые слова: оказание медицинских услуг, организационно-экономические механизмы, развитие предпринимательства, механизм контроля государственных учреждений и др.

Annotation: This article examines the control mechanisms of the development of small business and private business entities in the market of medical services, and provides the necessary conclusions on the impact on ensuring the competitiveness of business entities in the field.

Keywords: provision of medical services, organizational and economic mechanisms, development of entrepreneurship, control mechanism of state institutions, etc.

Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish, o‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlarda boshqa xizmat turlari kabi tibbiyot xizmatlarini ham rivojlantirish orqali zamonaviy raqobatbardosh tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil qilinishini tezlashtiradi. Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish orqali yangi tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil qilish, pirovard natija tibbiy xizmatlar bozorida barqarorlik, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Barqaror tibbiy xizmatlar bozorining mavjudligi aholi salomatligini ta‘minlash kabi ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda ishsizlikni kamaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli tibbiy xizmatlar yaratish hamda tibbiyot turizmini rivojlantirish kabi iqtisodiy vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Tibbiy xizmatlar bozori, uning ishtirokchilari faoliyatini nazorat qilish hamda rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilish, o‘rganish nafaqat tibbiy xizmatlar sifati va raqobatbardoshligi, balki tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes vakillari faoliyati rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish uchun zaruriy ma‘lumot, taklif hamda tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.


Tadqiqot mavzusi doirasida o‘rganilgan adabiyotlarga asoslangan holda va mavzuni chuqurroq tadqiq etish maqsadida quyidagicha ta‘riflashni amalga oshirishni lozim deb hisobladik, Shunday qilib: Mexanizm (yun. μηχανή mechané - mashina) — bir biri bilan bog‘liq va kerakli (oldindan aniqlangan) harakatlarni bajaradigan jonsiz (odatda mashina detallari) yoki jonli tanlar majmui. Mexanizmlar harakatni (boshqa obyektga) o‘tkazib berish va o‘zgartirish uchun qo‘llaniladi. "Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar" – tushunchasi esa o‘zida tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalar to‘plamini aks ettirib, belgilangan qonunchilik, moliya-iqtisodiy va tashkiliy-ma‘muriy ta‘sir va mazmunga ega maqsadlilik, tizimlilik, o‘zaro ta‘sir ko‘rsatuvchilar manfaatlariga moslashgan, izchillik kabi tamoyillari asosida yo‘naltirilgan sohaning uzluksiz rivojlanishini ta‘minlaydigan ta‘sir usullari va metodlari yig‘indisidir. Tibbiy xizmat ko‘rsatish – bu tibbiy texnologiyalar, tibbiy vositalar bilan malakali tibbiyot xodimlari tomonidan sog‘liqni tiklash yoki uni mustahkamlash maqsadida xizmat ko‘rsatish bo‘lib, ko‘p bosqichli, murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo‘lib hisoblanadi. Tibbiy xizmatlar bozori – tibbiy xizmat iste‘molchilari, tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

tashkilotlar, turli vositachi iqtisodiy subyektlar (sug‘urta kompaniyalari, kreditlovchi moliya muassasalari, konsalting kompaniyalari, sertifikatliya hamda akkredetsiya kompaniyalari) hamda tarmoqni nazorat qiluvchi davlat va xalqaro korxonalar, tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, bu bozorda tibbiy xizmatni tashkil etish, tibbiy faoliyatni litsensiyalash, sertifikatliyalash, akkredetsiyalash va tibbiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Mamlakatimizda tibbiy xizmat ko‘rsatishni uzoq muddat va samarali tadqiq qilgan yetakchi olim prof. O‘tkirbek Rajabov tibbiyot muassalarini quyidagi shakllarini ajratgan bo‘lib, ular tibbiy xizmatlar bozorining o‘zagi bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, O‘zbekistonda tibbiyot muassalari tizimi oilaviy shifoxona poliklinikalari, ambulatoriya- poliknika, tez tibbiy yordam punkti, tug‘uruq muassasalari, ixtisoslashgan kasalxonalar, sanatoriy-profilaktoriya, ona va bola skrining-markazlari, sanitariya - epidemiologiya xizmati, ixtisoslashtirilgan diagnostika markazlari, sog‘lomlashtirish va protezlash markazlari, dorixona va farmasevtika korxonalaridan iborat. Maxsus loyihalar hamda davlat xususiy sektor sherikchiligi, litsensiyalash, sertifikatliyalash asosida xususiy sektor va kichik biznes vakillariga ham tibbiy xizmatlar ko‘rsatish uchun ruxsatnomalar berish, ixtisosliklarini rasmiylashtirish amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon tizimlashtirilgan bo‘lib, u o‘zida ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlarni aks ettiradi. Tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini nazorat qilish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari sifatida sog‘liqni saqlashga oid muassasalari faoliyat ko‘rsatib, belgilangan yo‘nalishda mexanizm sifatida aniq ta‘sir vositalariga ega bo‘lib hisoblanadi.

Tibbiyot tashkilotlarini litsensiyalash va akkredetsiyalash markazi 2023-yil 20 iyuldagi PQ-197 sonli «Ma‘muriy islohotlar doirasida sog‘liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident Qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshida tashkil etilgan bo‘lib, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lib hisoblanadi : - tibbiyot tashkilotlarini litsensiyalash va akkredetsiyalanishini ta‘minlash; - tibbiyot tashkilotlarini litsensiyalash va akkredetsiyalashda ilg‘or xalqaro tajribaga asoslangan talablarni ishlab chiqish; - litsensiyalarning tibbiy xizmatlar sifati, litsensiya talab va shartlari nazoratini amalga oshirish;- tibbiyotning nodavlat sektorini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini hamda ularni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish; - nodavlat tibbiyot tashkilotlarini xalqaro tan olingan akkredetsiyalashda qatnashish va ularni qo‘llab-quvvatlash; - xalqaro tan olingan akkredetsiya tashkilotlarini jalb qilish orqali mahalliy tibbiy xizmatlar sifati oshirish va «xavfsiz tibbiyot» standartlarini joriy qilish;- tibbiyot tashkilotlarini akkredetsiyalashning milliy tizimini joriy etish bo‘lib hisoblanadi. Markaz my.gov.uz va “Litsensiya” AAT maxsus axborot portali asosida o‘z faoliyatini tashkil qilgan bo‘lib, xususiy klinikalarni litsensiyalash to‘liq avtomatlashtirilgan.

1 – Rasm. Tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi KBXT subyektlarini nazorat qilish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.



Tibbiy vosita va preparatlar sifati tibbiy xizmat ko‘rsatish natijasiga katta ta‘sir qilishini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida sog‘liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 197-son qarori asosida tashkil etilgan farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi : - dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, shuningdek, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash yo‘li bilan davlat tomonidan boshqarishni, postmarketing nazoratini amalga oshirishni ta‘minlaydi; - dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi; - davlat farmakopeyasini ishlab chiqadi; - tibbiyot mahsulotlarini sertifikatlashtiruvchi markaziy organ sifatida respublikadagi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi; - tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishiga ruxsat etilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni realizatsiya qilish, berish, taqsimlash, saqlash hamda hisobga olish tartibini ishlab chiqadi; - farmakologik nazoratni amalga oshiradi; - tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifat nazorati borasida metrologiya tekshiruvlarini tashkillashtiradi; - tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reyestrini yuritadi; - huquqni muhofaza qilish organlarining murojaatlari bo‘yicha farmatsevtika mahsulotlarini ekspertizadan o‘tkazishni ta‘minlaydi; - dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning zararli ta‘sirini tasdiqlovchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ularning ishlab chiqarilishini, tayyorlanishini, import qilinishini, realizatsiya qilinishini belgilangan tartibda to‘xtatib turish chorasini ko‘radi.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish va sohada xususiy sektor ulushini oshirishdagi xalqaro tajribani o‘rgangan hamda milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda mamlakatimizda ham Davlat Tibbiy Sug‘urta Jamg‘armasi tashkil etildi. Dastlab Sirdaryo viloyatida tajribadan o‘tkazilgan tizim bosqichma-bosqich boshqa

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

mintaqalarda ham amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasining asosiy vazifasi davlat tibbiy sug‘urtasi tizimini joriy etish, boshqarish hamda ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta‘minlash hamda aholining barcha qatlamlarini davlat tomonidan kafolatlangan paket doirasida sifatli va zarur tibbiy yordam bilan ta‘minlash maqsadida tibbiy xizmatlar strategik xaridi tizimini joriy etish bo‘lib hisoblanadi. Jamg‘arma shartnoma asosida respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan davolangan holatlar uchun haq to‘laydi, bemorlarga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar sifatini tasdiqlangan standart va protokollarga muvofiqligini nazorat qiladi hamda klinik xarajatlar guruhlarini ishlab chiqish va “har bir davolangan holat uchun” to‘lov uslubini joriy etish uchun barcha davolangan holatlar hisobini yuritadi.

2020-yil 27-iyuldagi PQ-4790 sonli «O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident qaroriga asosan tashkil qilingan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bevosita mamlakatimizdagi sanitar- epidemiologik vaziyat uchun javobgarlik bilan birgalikda tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilar faoliyatining jamoat salomatligigga ta‘siri bo‘yicha ham majburiyatlarga ega bo‘lib hisoblanadi. Qo‘mitaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: - Sanitariya-epidemiologiya sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, respublika hududidagi yuqumli kasalliklar tabiiy o‘choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshirish; - sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o‘ta xavfli kasalliklar tashxisi bo‘yicha laboratoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish; - inson salomatligiga ta‘sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish; - Jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga doir davlat siyosatini samarali amalga oshirish, mazkur yo‘nalishda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish; - jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligiga oid fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ilg‘or usullarini tizimli asosda joriy etish; - idoralararo hamkorlik qilish, shu jumladan, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi sohasida favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha mashqlar va mashg‘ulotlar o‘tkazish; - xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, anjumanlar, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish orqali sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, xorijiy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va boshqalar bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston 2030 strategiyasidagi vazifalarga mos tarzda sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirish ishi dastlab (hozirda tugatilgan) “IT MED” kompaniyasiga yuklatilgan edi. Keyinchalik kompaniyaning vazifalari va

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

funksiyalari UZINFOCOM, davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integratorga yuklatilmoqda. Shu munosabat bilan UZINFOCOM yagona integratoriga sog'liqni saqlash sohasi bilan bog'liq qo'shimcha vazifalar belgilandi: - xalqaro tajribaga asoslangan sog'liqni saqlash tizimidagi biznes jarayonlarini raqamlashtirish orqali optimallashtirish va soddalashtirish; - "elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimlarining yagona kompleksini joriy etish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek uning boshqa davlat organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash; - tibbiyot va farmatsevtika sohasida raqamli texnologiyalar va kommunikatsiyalar siyosati va standartlarini joriy etish; - sog'liqni saqlash sohasida axborot tizimlarini rivojlantirish, texnik-iqtisodiy parametrlarni, xorijiy moliya tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar konsepsiyalarini ishlab chiqish. Sog'liqni saqlash tizimi uchun UZINFOCOMning raqamli yechimlari sun'iy intellekt, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va xavfsiz platformalarga asoslangan yechimlar sog'liqni saqlash muassasalariga tibbiy yordam sifati va mavjudligini yaxshilash, ish jarayonlarini optimallashtirish va bemorlar uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida mazkur davlat tashkilot va muassasalari faoliyati aniq hamda ixtisoslashtirilgan tartibda tibbiy faoliyat ko'rsatuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qiladi yoki ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatiga hamda jarayoniga ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, ular bevosita soha rivojlanishni ta'minlash uchun mas'ul bo'lib hisoblanadi hamda tarmoqda tadbirkorlarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun asosiy va muhim yo'nalishlarni shakllantirib, amalga ham oshiradi. Tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar esa nazorat mexanizmlari talablarini bajarish bilan birgalikda o'z faoliyatini rivojlantirish, raqobat ustunliklarini yaratishda yuqoridagi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Shu sabab mazkur tashkilotlar faoliyati tartibi va xususiyatlari sog'liqni saqlash sohasidagi barcha tadbirkorlik subyektlari rahbar kadrlari va mutaxassislar uchun foydali va ahamiyatli bo'ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Организационно-экономический механизм функционирования отрасли национальной экономики © 2012 Н.Л. Удальцова Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации (заочный финансово-экономический институт), г. Москва E-mail: nnosik@yandex.ru., Экономика и управление 2012 год
2. O'.D.Rajabov., "Ijtimoiy xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati va tarkibiy elementlari". Monografiya., T:2023 yil.,92-bet
3. «Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2023-yil iyundagi PQ-197 sonli Prezident Qarori
4. <https://dtsj.uz/markazlar/>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

5. «O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020-yil 27-iyuldagi PQ-4790 sonli Prezident qarori
6. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/03/it-med/>
7. <https://uzinfocom.uz/>).

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

V SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA INVESTISIYALARNI JALB QILISH VA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Исроилов Боҳодир Ибрагимович – и.ф.д, профессор. Тошкент давлат иқтисодиёт университети. b.isroilov@tsue.uz.

Наврўзова Фароғатхон Абдуҳамид қизи – Тошкент давлат иқтисодиёт университети тадқиқотчиси, f.navruzova@solig.uz.

АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ОПТИМАЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: Мақолада аҳоли даромадларини солиққа тортиш ва унинг оптимал миқдорини аниқлаш, уларнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисидаги қарашлар таҳлил қилинган. Мазкур масала бўйича амалга оширилган тадқиқотлар натижасида муаллифлик хулосалари берилган ҳамда оптимал солиқ миқдорининг бюджетга таъсири хусусида фикрлар берилган.

Калит сўзлар: аҳоли даромадлари, солиққа тортиш, оптимал солиққа тортиш, солиққа тортиш назарияси.

Аннотация: В статье анализируются взгляды на налогообложение доходов населения и определение его оптимального размера, а также их особенности. В результате исследования, проведенного по данному вопросу, сделаны авторские выводы и даны мнения о влиянии оптимальной суммы налога на бюджет.

Ключевые слова: доходы населения, налогообложение, оптимальное налогообложение, теория налогообложения.

Abstract: The article analyzes views on taxation of the population's income and determining its optimal amount, their specific characteristics. As a result of the research conducted on this issue, author's conclusions are given and opinions are given about the impact of the optimal tax amount on the budget.

Key words: population income, taxation, optimal taxation, theory of taxation.

Оптимал солиққа тортиш тизимини яратиш мамлакат иқтисодий барқарорлигини таъминлашнинг фундаментал масаласи ҳисобланади. Шу сабабли кишилик жамияти барча босқичларида мазкур масала ҳуқумдор ва олимлар диққат марказида бўлган.

Хусусан, соҳибқирон Амир Темур ўз тузукларида аҳоли даромадларини солиққа тортиш тамойиллари ва уни таъминлашнинг оқибатларини қуйидагича эътироф этади, “Амр этдимки, раиятдан мол-хирож йиғишда уларни оғир аҳволга солишдан ёки мамлакатни қашшоқликка тушиб қолишидан сақлансинлар. Негаки, раиятни хонавайрон қилиш (давлат) хазинасининг камбағаллашувига олиб келади. Хазинанинг камайиб қолиши эса сипоҳнинг тарқалиб кетишига сабаб бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида, салтанатнинг кучсизланишига олиб боради” [1].

Ушбу назарий қарашларда аҳоли даромадларини солиққа тортишнинг оптимал даражасини белгилаш фуқаролар ва давлатни қашшоқликдан асрайди, бюджет даромадарини маромийлиги ҳамда давлат хизматчиларига ўз вақтида иш ҳақи билан таъминлаш эвазига давлат хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга эканлиги ўз эксини топади. Таъкидланганлар соҳибқирон Амир Темур қарашларининг бугун ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Оптимал солиққа тортиш назарияси тарафдоридан ҳисобланган Френк Рламртон Рамсей ўз тадқиқотларида оптимал солиқ солиш назариялари кўриб чиқиб, уни таъминлашга оид фикрларини баён этган. Рамсей товарнинг бозордаги эластиклиги паст бўлса, солиқ ставкаси юқори бўлиши зарур деб ҳисоблайди. Фикримизча, ушбу қараш бир мунча мунозарали, бўлиб солиққа тортишга бундай ёндошувч солиқ амалиётини оғирлаштиришга сабаб бўлиши мумкин.

Сўнги ўн йилликларда солиқ назариячилари томонидан таклиф қилинган қуйидаги муҳим ҳисобланган умумий қоидаларни кўрсатиб ўтиш мумкин[2]:

1. Оптимал маржинал солиқ ставкаларини белгиланиши имкониятларнинг тақсимланишига боғлиқ.

2. Юқори даромадларда оптимал маржинал солиқ шкаласи камайиши мумкин.

3. Ягона солиқ ставкаси универсал бир марталик трансферт билан оптималга яқин бўлиши мумкин.

4. Қайта тақсимлашнинг оптимал даражаси иш ҳақи тенгсизлиги ўсиши билан ортади.

5. Солиқлар шахсий хусусиятлар билан бир қаторда даромадларга ҳам боғлиқ бўлиши керак.

6. Фақат якуний маҳсулотлар солиққа тортилиши керак ва одатда улар бир хилда солиққа тортилиши лозим.

7. Кариталдан даромад ҳеч бўлмаганда, олдиндан солиққа тортилмаслиги керак.

Юқорида келтирилган ҳар бир қоидалар назарий асослари ва уларнинг амалдаги солиқ сиёсатига қанчалик мос келиши ҳозирда барча амалиётчи ва назариётчилар муҳокамаси асосини ташкил қилади. Хусусан, Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD)га аъзо бўлган мамлакатларда максимал маржинал солиқ ставкалар пасайтирилди. Маржинал даромад солиғи, маржинал даромад солиғи шкалалари текисланади ва товарларга солиқлар бир хил бўлиб, одатда якуний товарларга нисбатан ҳисобланади. Бироқ, капитални солиққа тортиш тенденциялари турлича бўлиб, шу билан бирга, солиқ ставкалар ҳали ҳам оптимал солиқ назариясида келтириб ўтилган солиқ ставкасининг нолли даражасидан анча юқори. Бундан ташқари, назариянинг баъзи нозик кўрсатмалари, масалан, шахсий хусусиятлар, активларни тестдан ўтказиш ва тарихга боғлиқликни ўз ичига олган солиқлар камдан-кам учрайди. Агар

солиқ назарияси ва амалдаги солиқ сиёсати ўртасида катта бўшлиқлар сақланиб қолса, сиёсатчилар назарийчилардан кўпроқ нарсани ўрганишлари керакми ёки аксинча.

Оптималь солиққа тортишнинг стандарт назарияси солиқ тизимини бир қатор чекловларни ҳисобга олган ҳолда ижтимоий фаровонлик функциясини максимал даражада ошириш учун танлаш кераклигини таъкидлайди.

Оптималь солиққа тортиш бўйича илмий адабиётларда ижтимоий режалаштирувчи утилитар сифатида қаралади, яъни ижтимоий таъминот функцияси жамиятдаги алоҳида шахслар нафлиликка (нафлилик– инсон эҳтиёжлари қондирилиши) асосланади.

Рамсей томонидан олиб борилган илмий тадқиқотлар оптималь солиққа тортиш бўйича илмий адабиётларнинг асоси сифатида қаралади. Рамсей самарали солиққа тортиш фақат бир солиқни эмас, тўлиқ солиқлар тўпламини инобатга олишни таклиф этади. Шу билан бирга, бу фоизли даромадларни солиққа тортишда ҳам муҳим аҳамиятга эга. Рамсей истеъмол ва жамғармани иккита турли товарлар сифатида кўриб чиқади ва капиталга иш ҳақидан даромадга нисбатан анча растр ставкада солиқ солиниши лозимлигини таъкидлаган [2].

Жеймс Миррлис солиқ тўловчилар ўртасида кузатилмайдиган хилма-хиллик билан аниқ шуғулланадиган режалаштириш муаммосини расмийлаштириш йўлини таклиф қилиш орқали оптималь солиқ моделлари иккинчи тўлқинини бошлади. Моделнинг энг асосий версиясида шахслар даромад олишнинг туғма қобилияти билан фарқланади [3].


Миррлис моделининг дастлабки натижасида ноль маржинал солиқ ставкасининг оптимальлиги ҳисобланади. Кейинги даврларда олиб борилган илмий ишларда ушбу натижа амалий аҳамиятини йўқотган, бироқ унинг муҳим жиҳати шундаки, юқори даромад олувчиларни солиққа тортиш учун муҳим таъсир кўрсатиши мумкин. Масалан, иқтисодиётда энг юқори даромад оладиган жисмоний шахс учун ижобий маржинал солиқ ставкаси мавжуд ва даромади бўлсин деб фараз қилайлик. Ижобий маржинал солиқ ставкаси инсоннинг самарадорлик харажатларини яратишга интилишларига салбий таъсир кўрсатади. Агар бу ишчининг маржинал солиқ ставкаси у дан юқори бўлган ҳар қандай даромад учун нолга туширилса, унда бир хил миқдордаги даромад олинади ва самарадорлик харажатларидан қочиш мумкин эди.

Сандмо, Жудд анд Су, Карлов ва бошқа олимлар истеъмол ва бўш вақтни афзал кўриш каби қобилиятдан ташқари ўлчовлар бўйича шахслараро хилма-хилликнинг оқибатларини ўрганади. Улар хилма-хилликнинг қўшимча ўлчамлари қайта тақсимланишнинг Оптималь даражасини пасайтиришга мойиллигини аниқладилар [4].

Ниҳоят, тегишли эгилувчанлик оптималь маржинал солиқ ставкалари учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Оптималь солиқни моделлаштиришда кўринча бир хил эластиклик назарда тутилсада, Фелдстеин юқори

даромадли жисмоний шахслар ўртасида солиқ ставкалари бўйича солиққа тортиладиган даромаднинг юқори эгилувчанлиги баҳоланган [5]. Грубер ва Саэзлар кейинчалик кичикроқ эгилувчанликни баҳолашган, аммо уларнинг ҳисоб-китоблари ҳам эгилувчанлик даромад билан ортади деган гипотезани қўллаб-қувватлайди [6]. Агар юқори даромадли ишчилар, айниқса, солиққа тортиладиган даромадлари юқори солиқ ставкалари билан камайишига нисбатан эластик бўлса, бошқа тенг шароитларда бу юқори даромадлар учун нисбатан пастроқ Оптимал маржинал солиқ ставкалари қўлланишини англатади. Аммо қобилиятларни тақсимлаш ва ижтимоий фаровонлик функциясида бўлгани каби, даромад эгилувчанлигининг ҳақиқий модели ҳақида кўр баҳс-мунозаралар мавжуд. Булар ўз навбатида Оптимал солиқ сиёсатини ишлаб чиқаришда муаммоларни юзага келтириши мумкин.

Аҳоли даромадларини сезиларли даражадаги дифференциялашув муаммоси бозор иқтисодиёти шароитидаги аксарият мамлакатларга хос бўлган долзарб масалалардан ҳисобланади. Халқаро ҳамжамият ҳисоботлари маълумотларга кўра, 1990-2016 йиллар давомида дунё аҳолининг 71 фоизи яшаётган 49 та мамлакатларда аҳоли даромадларининг тақсимланишдаги тенгсизлик ўсган (1-расм).



1-расм. Даромадлар тенгсизлигининг мамлакатлар гуруҳлари бўйича таҳлили¹²²

Аҳоли даромадларидаги юқори даражадаги фарқланишни камайтиришда оптимал солиқ солиш сиёсатини амалга ошириш талаб қилинади. Даромад тенгсизлик даражаси икки гуруҳ, яъни юқори даромадли ҳамда иқтисодиёти ривожланаётган, ўтиш даври мамлакатларида солиқлар ва трансфертлар чегирилгунча бўлган даромадларда фарқланиш бўлмасда ва кейингисида эса аксинча фарқланиш мавжуддир (даромад тенгсизлиги Жини коэффиценти ёрдамида ўлчанади, у 0 дан 1 гача, 0 эса мукамал тенгликдир). Ушбу тафовутни камайтириш дунё мамлакатлари томонидан фискал механизмлар воситасида амалга оширилади.

¹²²<https://www.imf.org/external/russian/np/blog/2017/101117r.pdf>.

Тадқиқотларида Малкина аҳоли даромадлар тенгсизлигини юмшатиш учун, биринчи навбатда, фискал сиёсат инструментларидан фойдаланиш кераклиги таъкидланган [7].

Умуман олганда, даромадларни оптимал солиққа тортиш учун ягона ёндашув мавжуд эмас ва сиёсатчилар солиқ сиёсатини ишлаб чиқишда ижтимоий ва иқтисодий мақсадлар, тақсимлаш натижалари, маъмурий ва мувофиқлик харажатлари каби турли омилларни ҳисобга олишлари керак. Охир оқибат, мақсад адолатли ва самарали солиқ тизимини яратиш, шу билан бирга иқтисодий ўсишни ва мустаҳкам давлат даромадларини рағбатлантиришдан иборат бўлиши керак.

Юқорида қайд этилган олимлар тадқиқотларига асосланиб хулоса қилиш мумкинки, оптимал солиққа тортиш назарияси – солиқ сиёсатида самарадорлик ва адолатнинг рақобатдош мақсадларини мувозанатлашга интилади ҳамда одамларнинг хулқ-атвори ва иқтисодий фаолиятида юзага келадиган бузилишларни минималлаштиришга хизмат қилади.

Шу боис, аҳоли даромадларини прогрессив ставкаларда солиққа тортиш амалиётини жорий этиш ҳамда ижтимоий солиққа тортишда регрессив ставкани қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади. Солиқ қонунчилигига мазкур ўзгартиришларни киритиш норасмий иқтисодий секторда банд бўлган аҳоли сонини легаллаштириш ҳамда бюджетга маблағлар тушумини ўсишига эришилади.

Адабиётлар руйхати:

1. Temur tuzuklari [forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarjiması],Т., 1991, 1996;

2. Н. Грегорй Манкиw, Маттхew Wэинзиерл, анд Даннй Яган .Оптимал Тахатион ин Тхеорй анд Прастисэ. https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/09-140_10b91d0e-6f4c-48ee-b75b-8e2e0607f530.pdf.

3. Рамсей, Ф.П. (1927). «А сонтрибутион то тхе тхеорй оф Тахатион», Э Эсономис Жоурнал, вол. 37(145), пп.47-61.

4. Миррлис, Жамес А., (1971). "Ан Эхплоратион ин тхе Тхеорй оф Оптимал Инсоме Тахатион," Ревиеw оф Эсономис Студиеc 38, 175-208.

5. Сандмо, Агнар (1993). «Оптимал Редистрибутион wхен Тастес Диффер,» Финанзарчив,50(2).; Жудд, Кеннетх анд Че-Лин Су (2006). "Оптимал Инсоме Тахатион витх Мультидименционал Тахпаер Тйпес," Воркинг Папер, эрлиест аваилабле драфт Април, 2006; море ресэнт драфт Новембер 22, 2006.; Каплов, Лоуис (2008с). «Оптимал Полиcй витх Хетерогенеоус Преференсэс,» Тхе БЕ Жоурнал оф Эсономис Аналйсис анд Полиcй, 8(1) (Адвансэс), Артисле 40.; Wэинзиерл, Маттхew (2009). «Инсорпоратинг Преференсэ Хетерогенеитй инто Оптимал Тах Моделc: Де Густибус нон эст Тахандум,» Воркинг Папер, Май.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

6. Фелдстеин, Мартин (1995). «Тхе Эффест оф Маргинал Тах Ратес он Тахабле Инсومه: А Панель Студй оф тхе 1986 Тах Реформ Аст,» Жоурнал оф Политисал Эсономй, 103(3).

7. Грубер, Жон анд Эммануэл Саэз (2002). "Тхе Эластиситй оф Тахабле Инсومه: Эвиденсэ анд Имплисатионс," Жоурнал оф Публис Эсономисс 84, шп. 1-32.

8. WORLD социал репорт: <https://www.un.org/development/desa/dsp>.

9. <https://www.imf.org/external/russian/np/blog/2017/101117r.pdf>.

10. Малкина М.Ю. 2016. Институциональные основы неравенства доходов в современной экономике. Журнал институциональных исследований. № 1 (8). С. 115.

Dilshod Xudayberganov To‘xtabayevich - i.f.d., Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedراس, dilshod.x@urdu.uz

Mashhura Raimboyeva Davronbek qizi - o‘qituvchi, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedراس, mashhura.r@urdu.uz

EKSPORT MUNOSABATLARNI AMALGA OSHIRISHDA INVESTITSIYALARNI ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada eksport munosabatlarni amalga oshirishning zaruriyati, o‘ziga xos imkoniyatlari va ularni amalga oshirishda investitsiyalarni roli yoritib berilgan.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость реализации экспортных отношений, их уникальные возможности и роль инвестиций в их реализации.

Abstract. In this article, the need for the implementation of export relations, specific opportunities and the role of investments in their implementation are highlighted.

Kalit so‘zlar. Eksport, investitsiya, mamlakat, tovar, xizmat.

Ключевые слова. Экспорт, инвестиции, страна, товары, услуги.

Key words. Export, investment, country, goods, service.

Ma’lumki, eksport mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni boshqasiga sotishning iqtisodiy faoliyatini aks ettiradi. Bu borada mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xalqaro chegaralar bo‘ylab harakatlanishi xalqaro savdo va globalashuv jarayonini aks ettiradi. Shu bois, ushbu ko‘rsatkich sifatida mamlakat yalpi ichki mahsulotining rivojiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu eksport ko‘rsatkichi ichki imkoniyatlarga asoslanadi. Eksport har qanday mamlakat uchun muhim yo‘nalish bo‘lib, mahalliy tabiiy resurslardan foydalanishga asoslanadi. Bu ko‘rsatkich [rivojlanayotgan iqtisodiyot](#) uchun importdan ham muhim bo‘lib, iqtisodiy o‘shishga olib keladi.

Eksport mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xalqaro chegaralar bo‘ylab harakatlanishini aks ettiradi [1]. Bu esa bir mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning boshqasiga sotishni o‘z ichiga oladi. Mamlakat uchun ijobiy savdo balansini yaratish uchun uning qiymati doimo importdan kattaroq bo‘lishiga asoslanadi. Biroq, eksport resurslardan foydalanish va ichki bozorda raqobat bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu esa import qiluvchi

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

mamlakatda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar uchun omon qolish uchun ma’lum kamchiliklarka olib keladi.

Davlat tomonidan eksportchi korxonalarini faol qo‘llab-quvvatlanadi va ularning foydasiga ko‘pincha investitsiya siyosat shaklida amalga oshiriladi. Buning uchun ularning faoliyatiga investitsiyalar jalb qilinadi. Ushbu korxonalar subsidiyalar va soliq deklaratsiyalarni qabul qilib oladilar. Bundan tashqari, kredit agentliklari duch keladigan kredit xavfini yumshatadilar.

Darhaqiqat, eksport munosabatlarni amalga oshirishda investitsiyalar muhim o‘rin tutadi. Chunki, investitsiya vaqt o‘tishi bilan qiymatini oshiradigan va daromadlarni to‘lash yoki kapitaldan daromad olish shaklida daromad keltiradigan aktivlarni sotib olish jarayonini o‘zida aks ettiradi. Katta ma’noda, sarmoya kishilar hayotini yaxshilash uchun vaqt yoki pul sarflash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo, investitsiya qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk va sarmoya tushum yoki daromad sari qiymati boshqa ob’ektlar sotib olish asosi bo‘lib hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilishda eksport munosabatlari bevosita innovatsiyalar va mahsuldorlikka asoslanadi. Buning uchun investitsiyalar o‘shishi eksport bozorlariga kirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shunga asosan, eksport qiluvchi firmalar tomonidan eksport hajmi oshiriladi. Bu borada kuzatuv ma’lumotlari uchun ta’sirni baholash texnikasi orqali sababiy aloqalar hal qilinadi. Natijada, investitsiyalar uchun doimiy tahlil amalga oshiriladi. Bu boradagi yondashuvlar ilk tadqiqotlar sifatida ma’lumotlarning nisbatan uzoq vaqt davom etishi yangi ishtirokchilar va firmalarning o‘zgaruvchan eksport xatti-harakatlarini yaxshiroq tavsiflashga imkon beradi. Bundan tashqari, umumiy omil samaradorligini baholash uchun ma’lumotlar va ilmiy-tadqiqot va o‘quv investitsiyalarni yaxshiroq nazorat qilishni ta’minlaydi. Shunga asosan, investitsiyalar eksportga yo‘naltiriladi. Bu esa boshqa eksportni qo‘llab-quvvatlash siyosatiga emas, ya’ni investitsiyalarni rag‘batlantirish siyosatini puxta ishlab chiqish uchun asos yaratadi [2]. Shunday ekan, globallashuv sharoitida jahon bo‘yicha eksport investitsiya jalb qilish, iqtisodiy o‘shish va kambag‘allikni qisqartirish uchun muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, eksport munosabatlarini amalga oshirish investitsiya va moliyaviy oqimlarning harakatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va ularning yo‘nalishini mamlakat iqtisodiyoti uchun oqilona izlanishni talab qiladi. Bu esa mamlakatda barqaror va o‘zgaruvchan iqtisodiy o‘shishning dastlabki shartlarini ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish vazifasi bevosita investitsiya jarayonlarini samarali faollashtirishni taqozo etadi. Shunday ekan, eksport salohiyatini oshirish algoritmi korxonalar va tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratiladi [3].

Bugungi kunda eksport tarkibida investitsiya masalasi mamlakatimizda savdo-sotiq siyosati tufayli ko‘pchilik uchun maqbul variantga aylanib bormoqda. Bu borada davlat tomonidan ko‘pgina ishlab chiqaruvchilarni o‘z bozorlarini kengaytirish rag‘batlantiriladi. Shunga asosan, mamlakatlar

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

o‘rtasidagi o‘zaro [savdo shartnomalari](#) uning qulayligini yanada oshiradi va imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, eksport tarkibida investitsiyalash ko‘pgina an’anaviy xatarlar shaklida [sug‘urta](#) yo‘li bilan hal qilinadi. Ya’ni, unga asosan, savdogarlar [kredit xatarlaridan](#) sug‘urtalanadi. Bu borada banklar va boshqa kredit tashkilotlari [xalqaro savdoda](#) faol bo‘lib boradi. Ularning ishtiroki esa [akkreditivlar](#), hujjatli [kredit, xaridor](#) krediti va boshqalar kabi kredit shaklini kengaytirishda namoyon bo‘ladi.

Shunday ekan, tashqi iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllari orasida investitsiya alohida ahamiyatga ega. Chunki, mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiyalarni tartibga solish sohasidagi davlat siyosati chet el kapitalini turli shakllarda keng jalb qilishga qaratilgan. Bu esa hududda to‘liq xorijiy investorlarga tegishli bo‘lgan qo‘shma korxonalarni tashkil etish, erkin iqtisodiy zonalarni shakllantirish, imtiyozlar berish, uzoq davom etgan inqirozdan iqtisodiyotni olib tashlash, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda ichki bozorni oziq-ovqat va sanoat tovarlari bilan to‘yintirish muammolarini hal qilishga hissa qo‘shishi mumkin.

Xulosa shuki, eksport keng tarqalgan iqtisodiy faoliyat bo‘lib hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz tabiiy resurslarga egaligi bilan ajralib turadi. Resurslardan samarali foydalanish bevosita har bir manbadan bahramand bo‘lish uchun iloji boricha [tovarlarni](#) o‘tkazish zarurati tug‘iladi. Buning uchun xalqaro savdo xalqlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va samimiy munosabatlarni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga asosan, eksport mamlakat investitsiya kiritish uchun mamlakat YaIM hajmi oshishiga va uning iqtisodiy o‘shishiga ijobiy hissa qo‘shadi. Bu mamlakatga kapital oqimini va resurslardan maksimal darajada foydalanishni ta’minlaydi, bandlikni oshiradi va investitsiyalarni jalb qiladi. Bu borada eksport sohasi tarkibida investitsiya tushunchasi uzoq muddatda pul ishlash uchun biror-bir narsaga pul qo‘yish jarayonini o‘zida aks ettiradi. Ya’ni, investitsiya investor tomonidan amalga oshiriladigan harakat sifatida unda u ma’lum miqdordagi pulni moliyaviy daromadga erishish uchun biror-bir mahsulot sotib olish yoki kelajakda foyda olish uchun ushbu mahsulotni sotish uchun foydalanishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, eksport munosabatlarni amalga oshirishda investitsiyalarning rolini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- eksport munosabatlarini aks ettiruvchi maqsadli hududiy dasturlarni ishlab chiqish;
- investitsiyalarni keng jalb qilish hamda uning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini yanada oshirish;
- investitsiyalarning eng istiqbolli, zamonaviy turlari va shakllaridan samarali foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.wallstreetmojo.com/export/>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

2. Adriana P. The Role of Investments in Export Growth: Evidence from a Middle-Income Country (March 26, 2015). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2555629> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2555629>.

3. Потиеенко Л.И. О привлечении инвестиций в повышение экспортного потенциала страны. // Вестник ФА, 4, 2006. - с. 130.

Ochilova Ibodat G‘ulom qizi – TDIU SF Moliya, soliq va bank ishi kafedrasida assistenti

MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TIJORAT BANKLARIDAGI KREDIT PORTFELINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish va boshqarish amaliyoti, uning iqtisodiy samaradorligi va yuzaga keluvchi xatarlarni baholash usullari muhokama qilinadi. Shu bilan birga, kredit portfelini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari, xorijiy tajriba va O‘zbekiston sharoitidagi o‘ziga xos jihatlarni tahlil qilinadi. Ushbu masalalar bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish esa banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, kredit portfeli, bank aktivi, diversifikatsiya, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi.

Annotation. This article discusses the practice of forming and managing the loan portfolio of commercial banks, its economic efficiency and methods of assessing emerging risks. At the same time, modern trends in credit portfolio management, foreign experience and specific aspects of Uzbekistan are analyzed. The development of scientifically based recommendations on these issues will serve to increase the financial stability of banks and the consistent development of the national economy.

Key words: commercial banks, loan portfolio, bank asset, diversification, credit policy, financial stability, banking system of the Republic of Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье рассматривается практика формирования и управления кредитным портфелем коммерческих банков, его экономическая эффективность и методы оценки возникающих рисков. При этом анализируются современные тенденции в управлении кредитным портфелем, зарубежный опыт и специфика Узбекистана. Разработка научно обоснованных рекомендаций по этим вопросам послужит повышению финансовой устойчивости банков и последовательному развитию национальной экономики.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитный портфель, банковские активы, диверсификация, кредитная политика, финансовая устойчивость, банковская система Республики Узбекистан.

Kirish. Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi roli, ularning kreditlash faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kredit portfelini shakllantirish va boshqarish bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u banklar uchun ham, butun iqtisodiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Zero, bankning kredit portfelini samarali boshqarish uning moliyaviy barqarorligi va mijozlar ehtiyojlarini qondirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida bank-moliya tizimini isloh qilish va tijorat banklarining rolini oshirish borasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori tijorat banklarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjatda kredit portfelining diversifikatsiyasini ta‘minlash va xatarlarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish asosiy vazifalar qatorida ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida ham banklarning kreditlash faoliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, bank tizimini transformatsiya qilishni yakunlash, xususiyl banklarning ulushini 2025-yilda jami bank aktivlarining 60 foiziga yetkazish. Shu bilan birga bank tizimida moliyaviyl barqarorlikni ta‘minlash maqsadida quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

1) moliyaviyl barqarorlik bo‘yicha Xalqaro valyuta jamg‘armasining doimiy ekspertini jalb qilish;

2) 2022 yil birinchi yarim yillik natijalari bo‘yicha Moliyaviyl barqarorlik sharhini chop etish;

3) xalqaro valyuta jamg‘armasi ko‘magida iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta‘sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish.

Ushbu strategiya doirasida banklarning kredit portfelini shakllantirishda yangi yondashuvlarni joriy etish, ularning sifatini oshirish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

Kredit portfeli tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida, moliyaviyl vositachilik vazifasini samarali bajarish va investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. 2019-yil 5-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-580-sonli Qonuni ham ushbu jarayonni tartibga solib, banklarning kreditlash operatsiyalarini aniq huquqiy asosga tayangan holda amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Adabiyotlar sharhi

Kredit portfeli tushunchasi va uni boshqarish bo‘yicha bir necha olimlar o‘z fikrlarini aytib o‘tganlar va ushbu adabiyotlardagi nazariyl qarashlar bilan tanishib chiqadigan bo‘lsak, Oluxonoyeva A.P., Tkachenko A.I. o‘zlarining “Tijorat bankining kredit portfelini boshqarish” nomli asarida tijorat banklari kredit portfelini shakllantirish va boshqarishda amaliyl va nazariyl asoslarni o‘rganib, ham amaliyl ham nazariyl muammolarga yechimlar va takliflar berib o‘tgan Mualliflar tijorat bankining kredit portfeli deganda bank tomonidan ajratilgan kreditlar yig‘indisi tushunilishini ta‘kidlaydilar. Kredit portfeli tarkibi quyidagi asosiy mezonlarga ko‘ra tasniflanadi:

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

- *Muddat bo‘yicha* (qisqa, o‘rta va uzoq muddatli kreditlar);
- *Tavakkalchilik darajasi bo‘yicha* (ta‘minlangan, ta‘minlanmagan kreditlar);
- *Mijoz turlari bo‘yicha* (korporativ, jismoniy shaxslar, kichik biznes kreditlari).

Bu mezonlarni amalga oshirish uchun quyidagi tamoyillarni ko‘rsatadilar:

- Kreditlarning sifatini nazorat qilish;
- Kredit risklarini kamaytirish va ularni diversifikatsiyalash;
- Rentabellikni oshirishga qaratilgan kredit siyosatini amalga oshirish.

Mualliflar kredit portfelidagi asosiy muammo sifatida *kredit risklarini* ko‘rsatadilar. Risklar kreditlarning qaytarilmasligi, mijozlarning moliyaviy holati yomonlashuvi kabi omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shu bois risklarni boshqarishning quyidagi usullari taklif etiladi:

- Kredit tahlilini samarali tashkil qilish;
- Ta‘minotlar (garovlar, sug‘urta) orqali risklarni kamaytirish;
- Kredit portfelini diversifikatsiya qilish.

Kredit portfelini samarali boshqarish uchun doimiy monitoring va nazorat muhim ahamiyatga ega. Kreditlar berilgandan so‘ng ularning qaytarilish jarayoni va mijozlarning moliyaviy barqarorligi muntazam tahlil qilinishi kerak. Shu bilan birga, qaytarilmagan kreditlarni erta aniqlash va ularning sabablarini o‘rganish ham muhim vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Menki E. “Kredit riski va portfelni boshqarish” asarida kredit risklarini aniqlash va boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Kitob tijorat banklarining kredit portfeli tarkibini tahlil qilish va portfel samaradorligini oshirish uchun risklarni rejalashtirish usullariga bag‘ishlangan. Shuningdek, muallif kredit portfelining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bergan.

Kurganov V.A., Goncharova T.V. “Tijorat bankida risklarni boshqarish” kitobida tijorat banklarining kredit portfeli bilan bog‘liq risklarni boshqarishning zamonaviy usullari haqida so‘z yuritadi. Kredit risklarining asosiy turlari, xususan, kredit to‘lovlari kechikishi, qaytmas kreditlar va aktivlarning sifatsizlanishi kabi omillarga urg‘u berilgan. Risklarni kamaytirish bo‘yicha murakkab model va strategiyalar taklif etilgan. Sharp U. F., Aleksander G.Dj., Beyli Dj.V. “Investitsiyalar: tahlil qilish va boshqarish” nomli asarida bank kredit portfelini diversifikatsiya qilish va portfelni optimallashtirishning fundamental nazariyalariga asoslangan. Kitobda kredit portfelini boshqarish jarayonida risk va daromad o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash yondashuvlari keltirilgan. Norton, R. “Moliyaviy risklarni boshqarish: amaliy yondashuv” Ushbu xalqaro manba kredit va moliyaviy risklarni amaliy boshqarish yondashuvlarini o‘z ichiga oladi. Muallif tijorat banklarining kredit portfeli tarkibini optimallashtirish, kredit siyosati va aktivlarni boshqarishning xalqaro standartlari haqida to‘xtalib o‘tgan.

Bulardan tashqari respublikamiz iqtisodchi olimlarining ham fikrlarini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, jumladan Muxamediyev T.SH., Raximov A.K. “Tijorat banklari faoliyatini tashkil etish” nomli kitobida tijorat banklari

faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini yoritadi. Xususan, kredit portfelini shakllantirish va uning samaradorligini oshirishda bankning kredit siyosati hamda boshqaruv mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Yodgorov R., Sharapov N. “Bank kreditlari va ularni boshqarish” Ushbu asar O‘zbekiston tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirish va boshqarishning o‘ziga xos milliy jihatlarini yoritadi. Shuningdek, mahalliy banklar misolida kredit portfeli sifatini yaxshilash bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

1. Kredit portfelini boshqarishda risklarni aniqlash, diversifikatsiya va monitoring asosiy ahamiyat kasb etadi.

2. Milliy va xalqaro adabiyotlar kredit portfeli sifatini oshirishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanishni taklif etadi.

3. Tijorat banklarining samarali kredit siyosatini shakllantirish uchun risklarni minimallashtirish va kapitalni optimallashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish va boshqarish bo‘yicha nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tijorat banklarining kredit portfeli tuzilmasi, uning sifati va risklarini tahlil qilish orqali nazariy bilimlar amaliy natijalar bilan solishtirildi hamda kredit portfelining muayyan ko‘rsatkichlari sintez qilingan va umumiy xulosalar chiqarildi. Jumladan, kredit portfeli bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, jumladan, kreditlarning hajmi, foiz stavkalari, muddati va qaytmas kreditlar ulushi kabi ma’lumotlar statistik tahlil qilindi. Kredit portfelini boshqarish bo‘yicha xususiy hollardan umumiy xulosalar chiqarildi (induksiya) hamda nazariy prinsiplarni amaliy jihatdan asoslash uchun deduktiv usul qo‘llanildi hamda Banklarning kredit portfeli hajmi va sifati o‘zgarishi ko‘rsatkichlari dinamik tahlil qilindi. Ushbu usul kredit portfeli shakllanishidagi tendentsiyalarni aniqlashda qo‘llanildi.

Banklarning audit jarayonidagi asosiy vazifalardan biri moliyaviy faoliyat va boshqaruv sifatini har tomonlama tahlil qilishdan iborat. So‘nggi yillarda kredit portfelidagi o‘zgarishlarni aniqlash esa bank rahbariyatining likvidlilik, ishonchlilik va daromadlilikni ta’minlash qobiliyatini baholashga imkon beradi. Bankning moliyaviy hisobotlari foydalanuvchilar uchun muhim bo‘lib, ular bank balansi va balansdan tashqari moddalar orqali aktivlar, passivlar, likvidlilik, to‘lov qobiliyati va risklar haqidagi ishonchli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Bankning aktiv operatsiyalari to‘rt asosiy guruhga ajratilishi mumkin:

• **Kredit operatsiyalari**, bu jarayon bankning kredit portfelini shakllantirishga xizmat qiladi;

• **Investitsiya operatsiyalari**, bu faoliyat bankning investitsiya portfelini tashkil etishning asosi hisoblanadi;

• **Kassa va hisob-kitob operatsiyalari**, bu bank tomonidan mijozlarga taqdim etiladigan asosiy xizmat turlarini o‘z ichiga oladi;

• **Boshqa aktiv operatsiyalar**, ya’ni bank faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur infrastruktura yaratishga qaratilgan jarayonlar.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

Kredit portfelining tahlili asosida audit bankning muayyan kredit bo‘yicha tavakkalchilik darajasini aniqlaydi. Ushbu jarayon alohida e‘tibor talab qiladi, chunki auditorlar tavakkalchilik darajasini baholab, kredit uchun ajratilgan zahiralarni oshirish yoki kamaytirish bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega. Bu esa o‘z navbatida bank aktivlarining sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Bank kredit portfelini kengaytirish hisobiga bank daromadlarini oshirishga olib keladi. Bankda qancha ko‘p kapital bo‘lsa sohalar va tarmoqlarga ajratilayotgan kreditlarni takomillashtirish uchun shuncha katta pul ajratadi, bu esa ijobiy ta‘sir etmasdan qolmaydi.

1-jadval¹²³

Tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2024 y.		01.01.2025 y.		O‘zgarishi, foizda
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	471 406	100%	533 121	100%	13%
Sanoat	140 152	30%	153 389	29%	9%
Qishloq xo‘jaligi	47 255	10%	50 303	9%	6%
Qurilish sohasi	12 275	3%	12 960	2%	6%
Savdo va umumiy xizmat	32 516	7%	38 130	7%	17%
Transport va kommunikatsiya	34 342	7%	32 808	6%	-4%
Moddiy va texnik ta‘minotni rivojlantirish	4 067	0,9%	4 213	0,8%	4%
Uy-joy kommunal xizmati	2 345	0,5%	2 324	0,4%	-1%
Jismoniy shaxslar	148 621	32%	177 532	33%	19%
Boshqa sohalar	49 833	11%	61 463	12%	23%

Ushbu jadvalda mamlakatimizdagi tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi qay holatda ekanligi aks ettirilgan. Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2024-yil 1-yanvarda jami kredit qo‘yilmalari 471406 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yil 1-yanvar holatida 533121 mlrd. so‘mni tashkil etgan va ushbu kredit qo‘yilmalari mamlakatimizda turli sohalar rivoji uchun taqsimlangan. Kredit qo‘yilmalarining eng katta qismi jismoniy shaxslardagi ulushga va eng kam qismi esa uy-joy kommunal xizmatidagi ulushiga to‘g‘ri kelganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, ushbu maqolada tijorat banklarining kredit portfeli va uni shakllantirish jarayoni batafsil tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida kredit portfelining diversifikatsiyasi bank faoliyatida tavakkalchiliklarni kamaytirishda va moliyaviy barqarorlikni

¹²³ www.cbu.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ta'minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi. O‘zbekiston tijorat banklari misolida kredit portfelining joriy holati tahlil qilinib, kreditlar tarkibini yanada muvozanatlashtirish va samaradorligini oshirish uchun strategik takliflar ishlab chiqildi. Kelgusida tavakkalchiliklarni yanada samarali boshqarish va kredit siyosatini optimallashtirish orqali banklarning raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi ta’kidlandi. Keltirib o‘tilgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida biz respublikamiz banklari faoliyatida kredit portfelini shakllantirish, uning sifatligini ta’minlash maqsadida quyidagi takliflarni beramiz:

1. Kredit portfelini diversifikatsiya qilishni kengaytirish orqali banklar kredit portfelini shakllantirishda sektorlar va mintaqalar kesimida diversifikatsiyani oshirishlari lozim. Bu yondashuv iqtisodiy risklar ta’sirini kamaytiradi va portfel barqarorligini ta’minlaydi.

2. Kredit tavakkalchiliklarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish bilan

kredit portfeli samaradorligini oshirish uchun zamonaviy risklarni boshqarish texnologiyalaridan, jumladan, kredit reyting tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

3. Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirishni kengaytirish orqali kichik va o‘rta biznes subyektlariga kredit ajratish bank portfelining barqarorligini oshiradi. Ushbu segmentdagi kreditlash hajmini oshirish orqali iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shish mumkin.

4. Kredit portfelini monitoring qilish tizimini takomillashtirish bilan kreditlarning qaytuvchanligini oshirish va tavakkalchiliklarni oldini olish maqsadida doimiy monitoring tizimini rivojlantirish zarur. Bu, xususan, kredit olish istagidagi mijozlarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatishni talab qiladi.

5. Ipoteka va iste’mol kreditlari ulushini optimallashtirish bilan banklarning kredit portfelidagi iste’mol va ipoteka kreditlari ulushini muvozanatlash orqali uzoq muddatli barqaror daromad manbalarini ta’minlash imkoni bo‘ladi.

6. Bank xodimlarining malakasini oshirish eng muhim jihatlardan biridir. Chunki kreditlash jarayonida xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish orqali kredit sifatini yaxshilash mumkin. Bu maqsadda xalqaro tajribalarni o‘rganish va tegishli treninglarni tashkil etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-580-sonli Qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni

4. Олухоноева, А.П., Ткаченко, А.И. (2018). Управление кредитным портфелем коммерческого банка. Москва: Финансы и статистика.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

5. Мэнки, Э. (2020). *Кредитный риск и управление портфелем*. Москва: Эксмо.
6. Курганов, В.А., Гончарова, Т.В. (2021). *Риск-менеджмент в коммерческом банке*. Москва: Альпина Бизнес Букс.
7. Шарп, У.Ф., Александер, Г.Дж., Бэйли, Дж.В. (2019). *Инвестиции: анализ и управление*. Москва: ЮНИТИ.
8. Мухамедиев, Т.Ш., Рахимов, А.К. (2019). *Tijorat banklari faoliyatini tashkil etish*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya.
9. Norton, R. (2019). *Financial Risk Management: A Practical Approach*. New York: John Wiley & Sons.
10. Ёдгоров, Р., Шарапов, Н. (2022). *Bank kreditlari va ularni boshqarish*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
11. www.cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

SH.Z.Jalilov – SamATI tayanch doktoranti

O'ZBEKISTON BOG'DORCHILIKDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION JARAYONLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston bog‘dorchilik tarmog‘ida investitsion faoliyatni amalga oshirishga oid ilmiy va uslubiy tahlil yoritilgan. Asosiy e‘tibor ilg‘or tajribalar va innovatsion yondashuvlarga qaratilgan. Tadqiqotda Isroil va Niderlandiya kabi davlatlarning tajribalari o‘rganilib, ularni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola bog‘dorchilikning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tahlil qilish va investitsiyalarni samarali jalb qilish usullarini ko‘rsatish orqali ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Kalit so‘zlar: bog‘dorchilik, investitsion faoliyat, ilmiy tadqiqot, O‘zbekiston, xalqaro tajriba, innovatsiyalar.

Аннотация : В данной статье представлен научный и методический анализ реализации инвестиционной деятельности в секторе садоводства Узбекистана. Основное внимание уделено передовому опыту и инновационным подходам. В исследовании изучены практики таких стран, как Израиль и Нидерланды, а также разработаны предложения по адаптации их опыта к условиям Узбекистана. Статья является актуальной с научной и практической точки зрения, так как анализирует стратегическое значение садоводства в экономике и методы эффективного привлечения инвестиций.

Ключевые слова: садоводство, инвестиционная деятельность, научные исследования, Узбекистан, международный опыт, инновации.

Abstract: This article presents a scientific and methodological analysis of the implementation of investment activities in Uzbekistan's horticulture sector. The focus is on best practices and innovative approaches. The research examines the practices of countries such as Israel and the Netherlands, and develops recommendations for adapting their experiences to the conditions of Uzbekistan. The article is relevant both scientifically and practically, as it analyzes the strategic importance of horticulture in the economy and methods for effectively attracting investments.

Keywords: horticulture, investment activities, scientific research, Uzbekistan, international experience, innovations.

Kirish. Bog‘dorchilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, eksport hajmini oshirish va qishloq aholisi bandligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakat aholisining qariyb 49 foizi qishloq xo‘jaligida band. Ushbu tarmoqning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim hisoblanadi¹²⁴.

Tadqiqotda bog‘dorchilik tarmog‘ida investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligi, xalqaro tajribalar va amaliy tavsiyalarni hisobga olgan holda ko‘rib chiqilgan.

Adabiyotlar sharhi. Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi bo‘lib, resurslarni samarali taqsimlash, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va yuqori daromad olishni ta‘minlaydi. Bocharovning (2004) ta‘kidlashicha, investitsiyalar moddiy va nomoddiy resurslarni iqtisodiy yoki ijtimoiy samaradorlikka erishish maqsadida jalb qilishni nazarda tutadi.¹²⁵ Xalqaro tajriba ko‘rsatmoqdaki, Niderlandiyada issiqxona texnologiyalarini joriy etish eksport hajmini sezilarli oshirishga olib kelgan¹²⁶, Isroilda esa tomchilatib sug‘orish texnologiyalari suv resurslarini samarali boshqarish orqali hosildorlikni oshirgan¹²⁷.

O‘zbekistonda investitsion faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yondashuvlar muhimdir:

1. Institutsional yondashuv: Barqaror huquqiy va iqtisodiy muhitni shakllantirish.

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash: Kreditlar, subsidiyalar va investitsion fondlarni kengaytirish.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Zamonaviy texnologiyalar, masalan, tomchilatib sug‘orish va avtomatlashtirilgan tizimlarni keng qo‘llash

Metodologiya. Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullarning uyg‘unligi qo‘llanilgan. Asosiy ma‘lumotlar qishloq xo‘jaligi sohasidagi manfaatdor tomonlardan olingan so‘rovnomalar va intervyulardan yig‘ilgan. Statistik tahlillar regressiya va korrelyatsiya usullari yordamida amalga oshirilib, grafik va diagrammalar orqali yoritilgan.

Tahli va natijalar. O‘zbekiston bog‘dorchilik tarmog‘ining so‘nggi yillardagi rivojlanishi statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilindi. 2023-yilda ishlab chiqarish hajmi 12 foizga oshgan bo‘lib, eksport hajmi 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi¹²⁸.

¹²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). *Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha statistika to‘plami*. Toshkent: Statistika nashriyoti.

¹²⁵ Bocharov, V. V. (2004). *Investitsion menedjment*. Sankt-Peterburg: Piter.

¹²⁶ Gollandiyaning issiqxona xo‘jaligi bo‘yicha hisobot. (2020). Niderlandiya Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi nashrlari.

¹²⁷ Qishloq xo‘jaligida suv resurslarini boshqarish: Isroil tajribasi. (2023). Tel-Aviv: Isroil Milliy Tadqiqot Markazi.

¹²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). *Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha statistika to‘plami*. Toshkent: Statistika nashriyoti.

il	Ishlab chiqarish hajmi (%)	Eksport hajmi (mlrd. AQSh dollari)
021	8	0,8
022	10	1,0
023	12	1,2

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sug‘orish tizimlari va davlat subsidiyalari tarmoq rivojlanishida muhim o‘rin tutgan.

O‘zbekiston bog‘dorchilik tarmog‘i iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivojlanishi bevosita investitsiyalar samaradorligiga bog‘liq. Mamlakatning qishloq xo‘jaligi eksportida meva-sabzavot mahsulotlari muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi (2023) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda bog‘dorchilik mahsulotlari eksporti umumiy eksport hajmining 20 foizidan ortig‘ini tashkil etgan¹²⁹. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan bog‘dorchilik mahsulotlari hajmi esa 2021-2023-yillar davomida o‘shish tendensiyasini ko‘rsatdi¹³⁰. Bu esa zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va investitsion muhitning yaxshilanishi bilan bog‘liq¹³¹.

Isroilning tomchilatib sug‘orish texnologiyalari samaradorligi tahliliga ko‘ra, suv resurslarini boshqarishda ushbu texnologiyalar 40% suv tejashga imkon bergan¹³². Bu O‘zbekistonning suv tanqisligi sharoitida dolzarb masala sanaladi. Bundan tashqari, Niderlandiyada avtomatlashtirilgan issiqxona texnologiyalarini keng joriy etish mahsulot sifati va eksport hajmining oshishiga olib kelgan¹³³. Ushbu tajribalarni O‘zbekistonga moslashtirish uchun mavjud qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish lozim. Xususan, davlat tomonidan subsidiyalar va grantlar orqali texnologik yangiliklarni joriy etish jarayonini rag‘batlantirish zarur.

Investitsion muhitni rivojlantirish O‘zbekistonda bog‘dorchilik tarmog‘ining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biridir. O‘zbekiston hukumati qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qator islohotlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, hali ham quyidagi to‘siqlar mavjud:

1. Yuridik va institutsional barqarorlikning yetishmasligi¹³⁴.
2. Xorijiy investorlar uchun byurokratik jarayonlarning murakkabligi¹³⁵.

¹²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. (2023). "Qishloq xo‘jaligi statistik ko‘rsatkichlari."

¹³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. (2021–2023). "Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari bo‘yicha ma‘lumotlar."

¹³¹ FAO. (2022). "O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sektorining rivojlanishi to‘g‘risida hisobot."

¹³² Postel, S. (1999). "Pushing the Limits: Water Use and Management in Arid Regions."

¹³³ Rabobank. (2021). "The Netherlands: Greenhouse Farming and Export Opportunities."

¹³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (2017-2023). "Investitsion muhitni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar to‘plami."

¹³⁵ USAID. (2020). "Obstacles to Foreign Investment in Developing Countries."

3. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda moliyaviy resurslarning cheklanganligi.

Jahon banki (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion muhitni yaxshilash iqtisodiy o‘shish va hosildorlikning ortishiga xizmat qiladi¹³⁶. Shuningdek, O‘zbekistonda investorlarni jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kuchaytirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu maqola mamlakatimizda bog‘dorchilik tarmog‘ida investitsion faoliyatni rivojlantirishning dolzarb masalalariga qaratildi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

❖ Bog‘dorchilikning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyati:

Bog‘dorchilik tarmog‘i O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bandlik darajasini oshirish va qishloq hududlarining iqtisodiy faolligini kuchaytirish mumkin.

❖ Xalqaro tajribani moslashtirishning ahamiyati:

Isroilning suv tejovchi texnologiyalari va Niderlandiyaning avtomatlashtirilgan issiqxona tizimlari O‘zbekistonda bog‘dorchilikni rivojlantirish uchun qo‘llanilishi mumkin. Ushbu tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirishga erishiladi.

❖ Investitsion muhitni takomillashtirish zaruriyati:

Investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay institutsional muhitni shakllantirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, davlat tomonidan investorlarga soliq imtiyozlari va subsidiyalarni taklif qilish, DXSh loyihalarini amalga oshirish orqali investitsion oqimlarni rag‘batlantirish lozim.

❖ Texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish:

Bog‘dorchilik tarmog‘ida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Tomchilatib sug‘orish va avtomatlashtirilgan tizimlar nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi.

❖ Ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarni rivojlantirish:

O‘zbekistonda bog‘dorchilik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xorijiy tajribalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Xususan, ilmiy markazlar va tadqiqot institutlari bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Tavsiya etiladigan chora-tadbirlar:

➤ Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda davlat subsidiyalarini oshirish va texnologik modernizatsiyaga yo‘naltirilgan grantlar ajratish.

➤ Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash va investorlarga qulay sharoitlar yaratish.

¹³⁶ Jahon banki. (2022). "Agricultural Financing in Emerging Economies."

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

- Ekologik yondashuvlarni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida barqaror resurs boshqaruvini ta‘minlash.
- Bog‘dorchilikni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish mamlaktimiz bog‘dorchilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘shishni jadallashtiradi, balki mamlakatning qishloq xo‘jaligidagi raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (2017-2023). "Investitsion muhitni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar to‘plami."
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). *Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha statistika to‘plami*. Toshkent: Statistika nashriyoti.
3. Bocharov, V. V. (2004). *Investitsion menedjment*. Sankt-Peterburg: Piter.
4. Gollandiyaning issiqxona xo‘jaligi bo‘yicha hisobot. (2020). Niderlandiya Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi nashrlari.
5. Qishloq xo‘jaligida suv resurslarini boshqarish: Isroil tajribasi. (2023). Tel-Aviv: Isroil Milliy Tadqiqot Markazi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. (2023). "Qishloq xo‘jaligi statistik ko‘rsatkichlari."
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. (2021–2023). "Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari bo‘yicha ma‘lumotlar."
8. FAO. (2022). "O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sektorining rivojlanishi to‘g‘risida hisobot."
9. Postel, S. (1999). "Pushing the Limits: Water Use and Management in Arid Regions."
10. Rabobank. (2021). "The Netherlands: Greenhouse Farming and Export Opportunities."
11. USAID. (2020). "Obstacles to Foreign Investment in Developing Countries."
12. Jahon banki. (2022). "Agricultural Financing in Emerging Economies."

Шодмонов Даврон – Кимё халқаро университети мустақил изланувчи

СОЛИҚ НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: *Мазкур мақолада рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ назоратининг назарий масалалари ёритилган. Солиқ назоратини шакллари ва турлари бўйича ўтказилган текшириш натижалари амалиётдан олинган маълумотлар асосида келтирилган.*

Калит сўзлар: *рақамлаштириш, солиқ, солиқ назорати, солиқ текшируви, солиқ аудити*

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAC materiallari

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические вопросы налогового контроля в условиях цифровой экономики. Результаты проверок налогового контроля по формам и видам представлены на основе информации, полученной из практики.

Ключевые слова: цифровизация, налог, налоговый контроль, налоговая проверка, налоговый аудит

Annotation: This article discusses theoretical issues of tax audit in the digital economy. The results of tax control audits by form and type are presented on the basis of information obtained from practice.

Key words: digitalization, tax, tax control, tax audit.

Иқтисодиётини рақамлаштиришнинг ривожланиши шароитида солиқ назоратини ва умуман солиқ тизимини ўзгартириш заруратга айланди, чунки рақамлаштириш катта маълумотлар ва рақамли технологиялардан фойдаланишни ўз ичига олади. Солиқ назоратини ривожлантиришнинг асосий муаммоларидан бири бу "катта маълумотлар" (Big Date) деб аталадиган технологияларни жорий этишдир. Ушбу технологиялар (Big Date) туфайли солиқ органлари учун бир қатор имкониятлар очилади: улар солиқ тўловчи ҳақидаги маълумотларга эга бўлади, солиқ тўловчиларнинг ноқонуний фаолиятини ва солиқ тўлашдан бўйин товлаш ҳолатларини аниқлайди.

Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида солиқ назорати солиқ тўловчилар томонидан солиқ мажбуриятларининг бажарилиши тўғрисидаги маълумотларни таҳлил қилиш ва таққослаш қўшимча солиқлар, жарималар ва пенялар шаклида бюджетга қўшимча тўловларни ундириш имконини берувчи ҳамда бу орқали солиқ қонунчилигини бузилишини олдини олиш ёки минималлаштиришни таъминлайдиган турли рақамли ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш ва қўллашга асосланади.

Иқтисодиётни рақамлаштириш жараёнлари ва умуман солиқ тизимини ривожлантириш, жумладан, солиқ назорати билан ўзаро боғлиқ бўлиб, у ҳозирги кунда нафақат илмий мунозаралар объекти, балки жиддий амалий муаммога ҳам айланиб бормоқда. Амалиёт нуқтаи назаридан ўрганилаётган масала иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида солиқ хизмати фаолиятини биринчи босқичда, рақамли иқтисодиёт шароитида эса кейинги босқичда аниқ ташкил этиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиш зарурлигини тавсифлайди. Рақамли макон жуда кенг кўламли ва субъектларнинг солиқларни тўламаган ҳолда даромад олиш имкониятлари шунчалик кенгки, бундай имкониятларнинг яратилиш ва улардан фойдаланиш тезлиги ҳам жуда тез ўсиб бормоқда. Натижада, давлатларнинг барча солиқ хизматлари ва солиқ назорати тизимлари ҳам назоратни керакли даражада амалга ошира олмайди. Бу эса солиқ назорати тизимини рақамлаштиришни талаб қилади.

Ҳозирги вақтда солиқ маъмуриячилиги ва солиқ назоратини рақамлаштириш масалалари мамалакатимиз ва хорижий адабиётларда тез-тез ишлатиладиган тушунча бўлиб қолмоқда. Бироқ, меъёрий ҳуқуқий

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

хужжатларда ҳам, иқтисодий адабиётларда ҳам юқоридаги тушунчалар ҳар хил талқин қилинмоқда.

Бу борада Т.А.Ефремова қуйидаги фикрларни билдирган, самарали солиқ назоратини ташкил этишнинг биринчи навбатдаги шарти эса солиқ ва бухгалтерия ҳисоботларининг электрон тарзда тақдим этишнинг замонавий илғор ахборот технологик тизимга асосланган солиқ назорати ҳисобланади¹³⁷.

О.Михайлова, Т.Терехова ва Е.Гариповаларнинг таъкидлашича, амалдаги солиқ қонунчилигини таҳлил қилиб, шундай хулосага келиш мумкин солиқ мониторинги солиқ назоратининг янги шакллари билан бири бўлиб, уни амалга ошириш механизми солиқ текширувларидан фарқ қилади. Келажакда катта маълумотларнинг жорий этилиши технологиялар солиқ маъмуриятчилиги имкониятларини кенгайтиради. Солиқ маъмурчилигини такомиллаштиришнинг асосий йўналиши солиқ тўловчиларнинг қонунга хилоф хатти-ҳаракатларнинг олдини олиш мақсадида солиқ текширувлари самарадорлигини оширишни назорат қилиш керак¹³⁸.

И.Журавлева ва С.Шамаевларнинг фикрича, "Рақамли ҳукумат" тушунчаси турли давлатлар сиёсатида тобора кўпроқ акс этмоқда. Шу билан бирга, ушбу концепциянинг ривожланиши кўплаб соҳаларда, жумладан, солиқ муносабатлари соҳасида ҳам ўз ифодасини топтомоқда. Солиқ органлари фаолиятини рақамлаштириш, бир томондан, фуқаролар ва ташкилотларга тўланиши лозим бўлган солиқ ва йиғимларни ҳисоблаш жараёнини соддалаштириш, уларга қонун ҳужжатларидаги ўзгаришлар ва амалдаги солиқ имтиёзлари тўғрисида долзарб маълумотларни тақдим этиш имконини берса, бошқа томондан, солиқ органларига ишларнинг бир қисмини автоматлаштириш, уларнинг фаолияти самарадорлигини ошириш имконини беради¹³⁹.

К.А.Фаизова ўзининг илмий ишларида рақамлаштириш шароитида солиқ назоратини ўзгартиришнинг асосий жиҳатлари билан боғлиқ масалалар муҳокама қилган. Мақолада рақамли трансформация тушунчаси, солиқ назоратини рақамлаштиришнинг асосий йўналишлари ва усуллари, шунингдек, миллий иқтисодиётни рақамлаштириш доирасида қўлланиладиган солиқ назорати воситалари муҳокама қилинади. Бугунги кунда солиқ органлари фаолиятида солиқ қонунчилигига мувофиқ солиқ назорати ва маъмуриятчилигини тезкорлик билан амалга ошириш имконини

¹³⁷ Ефремова Т.А. (2017), Развитие налогового администрирования в России: теория, методология, практика. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. МГУ. Саранск. стр. 366.

¹³⁸ Mikhaleva Oksana; Terekhova Tatiana Aleksandrovna; Garipova Ekaterina Nikolaevna. Tax monitoring: digitalization of tax control. Social and Behavioural Sciences-EpSBS. DOI: 10.15405/epsbs.2021.04.02.

¹³⁹ Irina A. Zhuravleva, Semyon A. Shamaev. Smart Governance: Digitalization of Tax Control in the Russian Federation to Increase VAT Collection. Digital Transformation: What are the Smart Cities Today? 01 February 2024. Pages 127-143.

берувчи назорат тадбирларини амалга оширувчи юқори сифатли дастурий таъминотдан фойдаланилмоқда. Солиқ назоратини рақамли ўзгартиришнинг ҳуқуқий тартибга солишга таъсири нуқтаи назаридан қуйидаги ўтиш даври қоидалари қайд этилган: солиқ тартиб-қоидаларини рақамли шаклда амалга ошириш солиқ назорати бўйича барча чора-тадбирларни бир хил шаклда амалга оширишни назарда тутати; шунингдек, солиқ назорати жараёнидан коррупцион ҳаракатлар ва инсон омилини истисно қилиш. Рақамли воқелик шароитида солиқ назоратини ўзгартириш жараёнида давлат томонидан амалга оширилиши зарур бўлган муаммолар ва уларни ҳал этиш чора-тадбирлари алоҳида таъкидланган¹⁴⁰.

Солиқ маъмуриятчилиги ва солиқ назоратини рақамлаштиришнинг натижаларига ўтишдан олдин жаҳонда рақамли иқтисодиёт борасидиги баъзи маълумотларни келтириб ўтамиз.

Глобал рақамли иқтисодиёт 2028 йилга бориб 16,5 триллион долларга етади ва глобал ялпи ички маҳсулотнинг 17 фоизини эгаллайди. Глобал рақамли иқтисодиётнинг деярли учдан икки қисми АҚШ ва Хитой улушига тўғри келади. Дунё аҳолисининг 4,2 фоизи ва глобал ялпи ички маҳсулотнинг 26 фоизига эга бўлган АҚШ глобал технология харажатларининг 42 фоизини эгаллайди. Электрон тижорат Хитойда рақамли иқтисодиётнинг энг катта улушини эгаллайди, чакана савдонинг 39 фоизи 2024 йилда онлайн харид қилинган, бу 2028 йилга келиб 41 фоизга етади¹⁴¹.

Рақамли иқтисодиёт жадал ривожланмоқда. Йиллик смартфон етказиб бериш 2010-йилдан буён икки баравардан кўпроққа ўсди ва 2023-йилда 1,2 миллиардни ташкил этди. Нарсалар интернетини (IoT) қурилмалари 2023-йилдан 2,5 бараварга ошиб, 2029-йилга бориб 39 миллиардга етиши прогноз қилинмоқда. 43 та давлатдан олинган янги маълумотлар жаҳон ялпи ички маҳсулотининг тўртдан уч қисмини ташкил қилади. Электрон тижорат савдолари 2016-йилга нисбатан қарийб 60% га ўсди 2022 йилда 27 триллион долларга етади.

Хитойнинг рақамли иқтисодиёти 2022-йилда 50,2 триллион юанга етиб, дунёда иккинчи ўринни эгаллаб, ички ялпи ички маҳсулотнинг 41,5 фоизини ташкил этади. Ассентуре компаниясининг Хитой корхоналарининг рақамли трансформация индекси (2021) ҳақидаги ҳисоботи шуни кўрсатадики, Хитойнинг 2018 йилдан 2021 йилгача бўлган йиллардаги корхоналарнинг рақамли трансформацияси индексининг ўртача

¹⁴⁰ Faizova Kristina Alexandrovna. Transformation of tax control in the context of digitalization. “Евразийский юридический журнал”. № 4 (179) 2023. Pages 215-216. DOI 10.46320/2073-4506-2023-4-179-215-216.

¹⁴¹ Michael O’Grady. Digital Transformation Is A Cornerstone Of Innovation And Sustainable Growth. Jul 23 2024. <https://www.forrester.com/blogs/the-global-digital-economy-will-reach-16-5-trillion-and-capture-17-of-global-gdp-by-2028/>.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

кўрсаткичлари мос равишда 37, 45, 50 ва 54 ни ташкил этади, бу эса йилдан йилга ўсишнинг жадал ривожланиш тенденциясидир¹⁴²

Рақамли ривожланишнинг Ўзбекистоннинг иқтисодий ўсиши ва иш ўринлари яратилишидаги муҳим ролини эътироф этган ҳолда Ҳукумат стратегик кун тартибига рақамлаштиришни юқори даражага қўйди. Охириги беш йилда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) соҳасини ривожлантиришга 2 миллиард АҚШ доллари миқдорида сармоя киритилди, жумладан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар (700 миллион доллар). Ҳукумат 2020 йилдан бошлаб рақамлаштириш бўйича кўплаб қарорлар қабул қилди, жумладан, бешта устувор йўналишни ўз ичига олган “Рақамли Ўзбекистон 2030” стратегияси (“Стратегия”) қабул қилди: (1) Рақамли инфратузилма; (2) электрон ҳукумат; (3) рақамли иқтисодиёт; (4) Рақамли технологиялар миллий бозори; ва (5) ИТ-таълим. Рақамли иқтисодиётнинг ялпи ички маҳсулотга (ЯИМ) қўшаётган ҳиссаси ҳамон паст (2021-йил ҳолатига кўра 1,9 фоиз)¹⁴³.

Рақамли иқтисодиётнинг Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотидаги улуши 2022-йилда 2020-йилга нисбатан 1,99 фоиздан 2,77 фоизга ошган¹⁴⁴.

Солиқ тизимида рақамлаштириш қандай бормоқда?

Мамлакатимизда солиқ маъмуриятчилигида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш солиқларни янада самарали йиғиш, қонунчиликка риоя этишни кучайтириш ва солиқ органлари ва солиқ тўловчилар учун маъмурий юкларни камайтиришга олиб келади. Бундан ташқари, бугунги кунда солиқ маъмуриятчилиги доирасида солиқлар тузилмасини оптималлаштириш, уларни ундириш, солиқ ҳисоби ва ҳисоботини юритиш механизмини такомиллаштириш, солиқ тўғри ҳисобланиши, ўз вақтида ва тўлиқ тўланиши, солиқ тўловчиларнинг солиқ қонунчилигида белгиланган ҳуқуқ ва мажбуриятларига риоя этилишини назорат қилиш, солиқ тушумларини турли даражадаги бюджетлар ўртасида тақсимлаш, натижаларни йиғиш ва таҳлил қилиш, солиққа тортиш жараёнининг барча иштирокчиларининг солиқ муносабатларини уйғунлаштириш бўйича кенг чора-тадбирлар амалга ошириш бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда. Хусусан, тадбиркорлик субъектларининг иқтисодий фаоллигини қўллаб-қувватлаш билан бирга, соҳани рақамлаштириш-Электрон ҳисобварақ-фактуралари билан қамров даражаси 100 фоизга, ҳисоботларни автоматлаштириш 76 фоиздан 86 фоизга етказилганлиги, “Таҳлика-таҳлил” ААТ, “Е-ижара”, “Автокамерал”,

¹⁴² Yanhui Xu, Fuhua Deng, Qianbin Feng. The effect of tax enforcement digitalization on corporate digital transformation: Evidence from China's listed companies. *Economic Analysis and Policy*. Available online 5 January 2025. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0313592625000062>.

¹⁴³ The World Bank Uzbekistan Digital Inclusion Project (P179108) November 2, 2023. <chromeextension://efaidnbnmnnibpcajpcglcfeindmkaj/https://documents1.worldbank.org/curated/en/099110623155540364/pdf/BOSIB0bffa70a055092ad0700f8cf4b156.pdf>.

¹⁴⁴ Bakhtiyor Ismailov. Uzbekistan in the Process of Digitalization. <https://eupoliticalreport.com/uzbekistan-in-the-process-of-digitalization/>. 09.01.2025.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Тах.гап, “Cas’hback” ва “Солиқ” мобил иловаси ва бошқа қатор дастурий маҳсулларнинг ишга туширилиши солиқ тушумларини кўпайишига олиб келди¹⁴⁵.

2024 йилда солиқ органлари томонидан республика бўйича бюджетга 199,6 трлн. сўм солиқ тушумлари таъминланиб, 2023 йилга нисбатан 20 фоиз ўсишга эришилди. Туман ва шаҳарлар бюджетига тушумлар 24 фоизга ошди. Худудлар кесимида Тошкент шаҳри – 27 фоиз, Сирдарё – 25 фоиз ва Тошкент вилояти – 23 фоиз юқори ўсиш кузатилди. Фойда солиғи 29,1 фоизга жумладан, йирик солиқ тўловчилар бўйича худудлараро солиқ инспекцияси 30,8 фоизга ва худудларда 19,6 фоизга ўсди.

Тадбиркорларнинг барқарорлик рейтингига ҳар бир тадбиркор ўз ўрни ва баҳосини реал вақтда билиб бориши мумкин бўлди. Ҳозирда “Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтинги” электрон онлайн платформасида жами 520,6 мингта тадбиркорлик субъекти баҳоланган. Бугун тадбиркорликка яратилган қулай шароитлар сабаб, тадбиркорлар билан ҳамкорлигимиз янги босқичга кўтарилди. 31 минг тадбиркор барқарорлик рейтингини яхшилаб, ҳалол тадбиркорлар сафини кенгайтирмоқда. Умумий юқори рейтингдаги тадбиркорлар сони 4,5 бараварга кўпайиб, жами 7,5 мингдан ошди. ААА рейтингдаги тадбиркорларнинг 1107 тасига 1,9 трлн. сўмлик ҚҚС суммаси 1 кунда текширувларсиз қайтариб берилган¹⁴⁶.

Юқорида келтирилган катта ҳажмдаги амалий ишларни рақамлаштиришсиз амалга ошириш жуда қийин бўлади. Шунинг солиқ маъмуричилиги ва солиқ назорати тизимига янада кўпроқ янги технологияларни жалб қилиш натижасида тизимда коррупцияни олдини олиш мумкин.

Хулоса ва таклифлар. Мамлакатимизда рақамли иқтисодиётнинг улушини ошириш мақсадида илғор хориж тажрибасини ўрганиб, уларнинг ижобий томонларини амалиётга жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Солиқ маъмуриятчилиги ва солиқ назорати тизимга янги рақамли технологияларни жалб қилган ҳолда инсон омили таъсирини камайтириш чораларини кўриш лозим.

Интизомли солиқ тўловчиларни рағбатлантириш мақсадида солиқ текширувларидан озод қилиш мезонларини янада кўпроқ амалиётга жорий этиш керак.

¹⁴⁵ Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг 2023 йил якунлари ҳисоботи.2024.

¹⁴⁶ 2025 йилда 224 трлн. сўм солиқ тушумларини таъминлаш вазифаси белгиланди. https://uza.uz/uz/posts/2025-yilda-224-trln-som-soliq-tushumlarini-taminlash-vazifasi-belgilandi_675250. 08.01.2025.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Каюмов Равшан Исмаилович – к.э.н., заведующий отделом Центра исследований Агентства госактивов РУз, e-mail: Kayumov_1960@mail.ru

ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining investitsiya loyihalarini kreditlashdagi faolligini cheklovchi omillar ochib berilgan. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini cheklovchi sabablar ko'rsatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiyalar, loyiha, qimmatli qog'ozlar, risklar, hosilaviy moliyaviy vositalar bozori.

Аннотация: В статье раскрыты факторы, сдерживающие активность коммерческих банков по кредитованию инвестиционных проектов. Показаны причины, ограничивающие деятельность банков на рынке ценных бумаг, даны предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиции, проект, ценные бумаги, риски, рынок производных финансовых инструментов.

Abstract: The article reveals the factors that restrain the activity of commercial banks in lending to investment projects. The reasons that limit the activity of banks in the securities market are shown, and proposals for their elimination are given.

Keywords: commercial banks, investments, project, securities, risks, derivatives market.

В условиях продолжающейся неопределенности в мировой экономике и ожидания очередного экономического кризиса необходимым условием устойчивого развития республики является высокая инвестиционная активность, которая достигается за счет привлечения и эффективного использования внутренних и внешних ресурсов. Мысль о том, что инвестиции являются двигателем экономики, обеспечивающим ее движение вперед, - это аксиома любой экономической теории. Каждое государство должно прилагать усилия для привлечения в первую очередь в сферу материального производства как отечественных, так и иностранных инвесторов. С этой целью разрабатывается и реализуется определенная инвестиционная политика, формируется соответствующий инвестиционный климат. Экономические реформы, последовательно осуществляемые в независимом Узбекистане, предполагают достижение рациональных отраслевых, воспроизводственных и территориальных пропорций, развитие интеграционных процессов, обеспечение экономического роста и др.

Немаловажное место в реализации намеченных мероприятий отводится коммерческим банкам, которые играют роль локомотивов экономики. Однако большинство банков еще не полностью реализовывает свой потенциал по освоению такого сегмента рынка как инвестиционная сфера, который включает в себя рынок реальных инвестиций и финансовые рынки.

На рынке реальных инвестиций коммерческие банки осуществляют свою деятельность посредством кредитования инвестиционных проектов, а

также путем предоставления ипотечных кредитов. Основные недостатки в деятельности банков проявляются в кредитовании инвестиционных проектов. При общем росте объемов кредитования, доля кредитов в источниках финансирования продолжают оставаться незначительной (на уровне 5-9 %). Это обусловлено рядом причин, а именно:

- ограниченностью долгосрочных ресурсов кредитования;
- использованием традиционных методов оценки эффективности инвестиционных проектов, в то время как в условиях рыночных отношений используется метод дисконтирования денежных потоков;
- недостаточная квалификация банковских специалистов в области оценки эффективности и порядка финансирования инвестиционных проектов;
- отсутствие ставки дисконтирования для расчета чистой приведенной стоимости проекта;
- слабая развитость или отсутствие таких операций как лизинг, форфейтинг и других трансформаций кредита.

В настоящее время, на уровне банковской системы необходимо осуществить ряд мероприятий по комплексному решению указанных проблем и устранению имеющихся недостатков.

На финансовых рынках участие коммерческих банков сводится к операциям с такими фондовыми инструментами как акции и облигации. При неразвитости рынка ценных бумаг данные инвестиции не обеспечивают сочетания высокой доходности и ликвидности. Рынок других видов ценных бумаг развит слабо или вообще не функционирует (банковских и депозитных сертификатов, векселей, корпоративных облигаций и т.д.). Но самое главное, на рынке отсутствуют государственные ценные бумаги, доходность которых считается безрисковой, и служит базой для расчета стоимости других ценных бумаг. Кроме того, она закладывается в основу ставки дисконтирования при оценке эффективности инвестиционных проектов, а также в оценочной деятельности.

В тоже время, необходимо отметить, что инвестиции в ценные бумаги имеют ряд преимуществ по сравнению с другими направлениями вложения активов коммерческими банками. В частности, это достаточно эффективный объект вложения средств на краткосрочный период. При развитом фондовом рынке, краткосрочные вложения в ценные бумаги позволяют получать дополнительные доходы даже с «коротких» денег, при этом полностью реализуется главный принцип экономики – капитал не должен стоять, он должен постоянно оборачиваться.

Вместе с тем, вложения банков в ценные бумаги эффективны только в случае, когда фондовый рынок достаточно развит и на нем обращается достаточное количество видов ценных бумаг. Наличие обездвиженных ценных бумаг снижает эффективность рынка и повышает риски инвесторов.

Проблема возникновения риска инвесторов на рынке ценных бумаг обусловлена рядом факторов, а определение путей их снижения играют большую роль. В целом, процесс управления инвестиционными рисками можно свести к алгоритму действий из пяти шагов: выявление риска; оценка риска; выбор приемов управления риском; реализация выбранных приемов; оценка результатов.

Выявление риска состоит в определении того, каким видам риска наиболее подвержен объект анализа, для этого необходимо рассматривать проблему риска в целом, с учетом всех факторов, влияющих на него. Оценка риска - это количественное определение затрат, связанных с видами риска, которые были выявлены на первом этапе управления риском.

Для уменьшения риска существует четыре основных приема управления риском:

1. Избежание риска— это сознательное решение не подвергаться определенному виду риска. В данном случае речь идет об отказе от инвестиций.

2. Предотвращение ущерба сводится к действиям, предпринимаемым для уменьшения вероятности потерь и для минимизации их последствий. Такие действия могут предприниматься до того, как ущерб был нанесен, во время нанесения ущерба и после того, как он случился.

3. Принятие риска состоит в покрытии убытков за счет собственных ресурсов.

4. Перенос риска состоит в перенесении риска на других лиц и выполняется с помощью трех основных методов: хеджирования, страхования и диверсификации.

Вслед за решением о том, как поступать с выявленным риском, следует переходить к реализации выбранных приемов. Главный принцип, которого следует придерживаться на этом этапе управления риском, сводится к минимизации затрат на реализацию избранного курса действий.

Оценка результатов основана на том, что управление риском — это динамический процесс с обратной связью, при котором принятые решения должны периодически анализироваться и пересматриваться. Время идет, обстоятельства меняются и несут с собой перемены: появляются новые виды риска, или новые сведения об имеющихся видах риска и т.д.

Для того чтобы данный алгоритм работал необходимо решить ряд проблем:

1. Подходы к учету неопределенности при описании рисков. В теории принятия решений в настоящее время при компьютерном и математическом моделировании для описания неопределенностей чаще всего используют вероятностно-статистические методы (прежде всего методы статистики нечисловых данных, в том числе интервальной статистики и интервальной математики). Полезны методы теории нечеткости и методы теории конфликтов (теории игр). Математический инструментарий применяются в имитационных, эконометрических,

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

экономико-математических моделях, реализованных обычно в виде программных продуктов. Следовательно, необходима достаточная и достоверная статистическая выборка данных.

2. Незрелость или отсутствие на практике отдельных методов переноса рисков снижает эффективность управления ими. Поэтому необходимо на фондовых рынках республики организовать операции по хеджированию, т.е. активно развивать практику заключения форвардных и фьючерсных контрактов. А для этого нужно создать рынок производных финансовых инструментов как самостоятельный сегмент финансового рынка.

3. Страхование как метод переноса риска предполагает предоставление соответствующих услуг страховыми компаниями и развитие такого производного инструмента как опционы. При этом, необходимо определиться какой из видов опциона наиболее приемлем в Узбекистане (европейский или американский).

4. Снижению инвестиционных рисков на фондовых рынках способствует диверсификация. Но в современных условиях, только диверсификация на основе оптимального инвестиционного портфеля дает положительные результаты. На практике это предполагает наличие определенных навыков и умение у специалистов банка по формированию эффективного портфеля. Поэтому вопрос подготовки и переподготовки банковских специалистов, работающих с ценными бумагами, должен быть поднят на качественно новый уровень.

Решение указанных выше проблем позволит повысить активность коммерческих банков в сфере инвестиций, что будет способствовать устойчивому экономическому росту страны и повышению благосостояния населения.

Ниёзов Абдунаби Олим ўгли – Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

МАХСУС ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРДА ФАОЛИЯТ КЎРСАТАЁТГАН ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ МЕХАНИЗМИ

Аннотация: Мақолада махсус иқтисодий зоналарда фаолият кўрсатаётган хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналарни солиққа тортишнинг механизми ёритилган. Шунингдек, хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар ва қўшма корхоналар фаолиятини солиққа тортишда бир қанча хорижий мамлакатлар тажрибаси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: корхона, қўшма корхона, инвестиция, инвестиция сиёсати, солиқ, МИЗ, ЭИЗ.

Аннотация: В статье описан механизм налогообложения предприятий с иностранными инвестициями, действующих в особых экономических зонах. Также

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

проанализирован опыт ряда зарубежных стран по налогообложению деятельности предприятий и совместных предприятий с иностранными инвестициями.

Ключевые слова: предприятие, совместное предприятие, инвестиции, инвестиционная политика, налог, ОЭЗ, СЭЗ.

Abstract. *The article describes the mechanism for taxing enterprises with foreign investment operating in special economic zones. The experience of a number of foreign countries in taxing the activities of enterprises and joint ventures with foreign investment is also analyzed.*

Key words: enterprise, joint venture, investment, investment policy, tax, SEZ, FEZ.

Мамлакатимизда хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар ва кўшма корхоналар фаолиятини солиқлар орқали қўллаб қувватлаш мақсадида махсус иқтисодий зоналар ташкил қилинди ва қилинмоқда. Бу борада қонунлар, Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг бирқанча фармон ҳамда қарорлари қабул қилинди. Бу жумласига, Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 февралдаги “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги ЎРҚ-604-сон Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 10 июлдаги “Қўқон” эркин иқтисодий зонасининг ҳудудини кенгайтириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-250-сон ва 2024 йил 6 августдаги “Марказий осий” халқаро саноат кооперацияси маркази” эркин иқтисодий зонасини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-283-сон қарорларини киритишимиз мумкин.

Юқорида келтирилган меъёрий ҳужжатлар ва иқтисодий адабиётларда “махсус иқтисодий зоналар”, “эркин иқтисодий зона” тушунчаларининг иқтисодий моҳияти очиқ берилган бўлиб, улар турлича талқин қилинган.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 февралдаги “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги ЎРҚ-604-сон Қонунида (2020) “Махсус иқтисодий зона — тегишли ҳудудни жадал ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун чет эл инвестициялари ва маҳаллий инвестицияларни, юқори технологиялар ҳамда бошқарув тажрибасини жалб этиш мақсадида махсус ажратилган, белгиланган чегараларга ва махсус ҳуқуқий режимга эга бўлган ҳудуд” деб эътироф этилган [1].

Ушбу қонунда “эркин иқтисодий зона” тушунчасига ҳам таъриф берилган: “Эркин иқтисодий зона — янги ишлаб чиқариш қувватларини барпо этиш, юқори технологик ишлаб чиқаришни ривожлантириш, замонавий рақобатбардош, импорт ўрнини босувчи, экспортга йўналтирилган тайёр саноат маҳсулотини ишлаб чиқаришни ўзлаштиришга фаол жалб этиш, шунингдек ишлаб чиқариш, муҳандислик-коммуникация, йўл-транспорт, ижтимоий инфратузилмани ва логистика хизматларини ривожлантиришни таъминлаш мақсадларида ташкил этиладиган ҳудуд”.

Б.Беркинов ва У.Арслоновларнинг (2023) фикрича, давлат томонидан МИЗлар фаолиятини ижтимоий-иқтисодий қўллаб-қувватлаш чораларини амалга ошириш талаб этилади. Бунда дастлабки босқичларда ҳар бир МИЗларни ривожлантириш дастури инвесторларни жалб қилиш учун фискал рағбатлантиришнинг маълум бир шаклини таклиф қилиши

мумкин. Мавжуд далиллар шуни кўрсатадики, фақат рағбатлантириш тўғридан-тўғри инвестицияларни жалб қилиш учун етарли бўлмайди. Шу нуқтаи назардан, рағбатлантириш шакллари маълум бир зонанинг ўзига хос хусусиятларига қараб ўзгариши мумкин [Беркинов ва бошқалар, 2].

Н.Р.Кузиева (2020) қулай инвестиция муҳитни ва жозибали инвестиция муҳитни яратишда, адолатли рақобатни ривожлантиришда, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик жадал ривожланишини рағбатлантиришда эркин иқтисодий зоналарнинг аҳамиятини алоҳида такидлайди [Кузиева, 3].

Ш.Мамажоновни (2023) қайд этишича, жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, барқарор иқтисодий ўсишга фақат мамлакатда инвестиция фаоллигини ошириш, миллий ва хорижий инвесторларни кенг жалб қилиш шароити-да эришиш мумкин. Қатор мамлакатлар тажрибаси (Хитой, Жанубий Корея, Ирландия, Венгрия, Тайвань ва ҳ.к.) шуни кўрсатмоқдаки, инвестициявий фаолликни рағбатлантирувчи жуда самарали восита махсус иқтисодий зоналарни яратишдир [Мамажонов, 4].

Сичжэ Ван (2020) такидлашича, Хитой Халқ Республикаси иқтисодиётини юқори даражада ва барқарор ривожланишида мамлакат ҳудудларида эркин иқтисодий зоналарнинг фаол тарқалиши билан характерланади. Ҳозирги даврда ЭИЗ фақат иқтисодий муаммоларни ечимини топишдан ташқари, иқтисодий ўсишни рағбатлантириш ва Хитой иқтисодиёти таркибини оптималлаштириш омили бўлиб ҳисобланади [Сичжэ Ван, 5].

Р.И.Алексеевни (2020) ёзишича, эркин иқтисодий зона махсус деганда махсус ажратилган ҳудуд бўлиб, унда валюта, божхона ва солиқ каби соҳаларда имтиёзли режим амал қилади.. Амалга оширишда қўшма тадбиркорлик фаолияти йўлга қўйилади ва хорижий капитал инвестиция сифатида киритилиши тушунилади [Алексеев, 6].

Мамлакатимизда ҳозирги вақтда, яъни 2024 йил 1 январь ҳолатига 766 та саноат зонаси ташкил этилган, шу жумладан:

24 та – махсус иқтисодий зоналар (МИЗ);

532 та – кичик саноат зоналари (КСЗ);

210 та ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари (ЁСТЗ).

Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлигининг маълумотларига кўра, 2023 йилда саноат зоналарида жойлашган корхоналар томонидан 53,4 триллион сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилиб, 972 миллион долларлик экспорт амалга оширилган.

Ушбу маълумотларни Кореянинг «The Korea Post» журнали ҳам эътироф этган: 2024 йилда Ўзбекистон саноат зоналарида 841 та янги лойиҳаларни ишга тушириш режалаштирилган [7].

Ўзбекистонда 2017-2023 йилларда 45 млрд.доллар миқдорида хорижий инвестициялар жалб этилди. Ушбу инвестицияларнинг 800 млн.доллари махсус иқтисодий зоналар лойиҳалари асосида жалб этилиб, унинг жами тўғридан тўғри хорижий инвестициялардаги улуши бор йўғи

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

1,8% ni tashkil etgan. Bu kўrsatkich Xitoyda-80%, Vyetnamda-65%, BAAda 40% ni tashkil qilgan [10]. Bu borada amalga оширишимиз керак бўлган ишларимиз кўп экан.

Махсус иқтисодий зоналарини ривожлантиришга хорижий ҳамда маҳаллий инвестицияларни жалб этиш имконини берадиган солиқ, божхона имтиёзлари ва енгилликларининг кенг тизимини яратиш борасида муайян ишлар амалга оширилган. МИЗ аъзоларидан 2022 йилда 508 таси 514,0 млрд.сўмлик, 2023 йилда 531 таси 644,0 млрд.сўмлик (25,3 фоизга ўсган) солиқ имтиёзларидан фойдаланган. Фойдаланилган солиқ имтиёзининг тўланган солиққа нисбати 2023 йилда 38 фоизни ташkil etgan. КСЗ иштирокчилари фаолияти бўйича барча меъёрий ҳужжатларда назарда тутилган имтиёзлар инobatга олинган ҳолда 2022 йилда 628 та субъект 510 млрд.сўмлик, 2023 йилда 695 таси 581 млрд.сўмлик (14 фоизга ўсган) солиқ имтиёзларидан фойдаланган. Шунингдек, ЁСЗ иштирокчилари фаолияти бўйича 2022 йилда 105 та субъект 29,8 млрд.сўмлик, 2023 йилда 138 таси 32,3 млрд.сўмлик (8 фоизга ўсган) солиқ имтиёзларидан фойдаланган.

Ҳозирги глобаллашув даврида махсус иқтисодий зоналарни янада ривожлантиришни тақоза қилади. Бунда илғор хориж тажрибасидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

МИЗ иштирокчиларига минтақанинг иқтисодий ривожланиши ва унинг ҳудудий жойлашувидан келиб чиқиб, табақалаштирилган имтиёз ва преференцияларни қўллаш, божхона тўловлари бўйича имтиёздан фойдаланган ҳолда импорт қилинган хомашё, материаллар ва бутловчи қисмлардан тайёрланган маҳсулотларни экспорт қилиш муддатини белгилаш лозимлиги таъкидланди. Шунингдек, “ягона дарча” тамойили асосида барча турдаги давлат хизматларини кўрсатиш, инвестиция лойиҳаларини мониторинг қилишнинг автоматлаштирилган тизимини яратиш, олий таълим муассасалари талабаларининг ишлаб чиқариш амалиётини МИЗ корхоналарида ўташи юзасидан алоҳида қўшма дастурлар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ экани айтиб ўтилди.

Тўғридан тўғри инвестицияни кўпроқ жалб қилиш ва МИЗни янада ривожлантириш мақсадида МИЗ иштирокчиларига Бирлашган Араб Амирликлари, Вьетнам, Қазоқистон, Хитой, Беларус Республикалари тажрибасидан фойдаланган ҳолда барча солиқ ва йиғимлардан озод этиш керак.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 февралдаги “ Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги ЎРҚ-604-сон Қонунига замон талабларидан келиб чиққан ҳолда ўзгартиш ва қўшимчалар мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 февралдаги “ Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги ЎРҚ-604-сон Қонуни.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

2. Беркинов Б.Б., Арслонов У. Ўзбекистон минтақаларида махсус иқтисодий зоналарни ривожланиш истиқболлари. *Iqtisodiyot va ta'lim* / 2023-yil 5-son.

3. Кузиева Н.Р. Эркин иқтисодий зоналар ҳудудида солиқлар ва божхона тўловлари бўйича берилган имтиёзларнинг аҳамиятли жиҳатлари. *Архив научных исследований*, 1(24). 2020. <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2892>.

4. Мухаммаджанов Ш. С. Инвестиция муҳити жозибадорлигини оширишда ҳудудлардаги махсус иқтисодий зоналарнинг ўрни ва уларнинг фаолияти таҳлили. *Iqtisodiyot va ta'lim* / 2023-yil 5-son. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/%25x.

5. Ван С. Свободные экономические зоны Китая: история и современность. *Информация и инновации*. 2020;15(4):84-90. <https://doi.org/10.31432/1994-2443-2020-15-4-84-90>.

6. Алексеев Р.И. Свободные экономические зоны: российский и мировой опыт в условиях глобализации и регионализации. *Путеводитель предпринимателя*. 2020;13(3):98-105. <https://doi.org/10.24182/2073-9885-2020-13-3-98-105>

8. https://buxgalter.uz/ru/publish/doc/text196983_andijon_viloyatida_yangi_ipak_yuli_erkin_iqtisodiy_zonasi_tashkil_etiladi.3.12.2024.

7. *The Korea Post»* журнали. 02.03.24. <https://www.koreapost.com/com/com-1.html>.

Рахматуллаева Наргиза Нуриддиновна – Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчиси

ИНВЕСТИЦИЯ ЛОЙИҲАЛАРИНИ ИЧКИ НАЗОРАТИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. Мақолада инвестиция лойиҳаларини ҳисобга олиш ва ички назорат қилишининг ўзига хос хусусиятлари ёритилган бўлиб, унда инвестиция лойиҳаларининг молиявий иқтисодий самарадорлигини баҳолашни тадқиқ этиш, мавжуд муаммолар ечимини топиш, лойиҳаларнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш, ҳисобга олиш ва назоратни амалга оширишни такомиллаштиришига қаратилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар келтирилган. Шунингдек, мақолада инвестицияларни ҳисобга олиш ва назорат қилишининг ўзига хос хусусиятлари баён қилинган, ички назорат тизими барча мавжуд жиҳатлар бўйича ҳисоботни, унинг ишончлилигини тасдиқлаш ва унда нотўғри моддий маълумотлар йўқлигига фойдаланувчининг оқилона ишончини таъминлаш кераклиги асосланган.

Калит сўзлар: инвестиция, инвестиция лойиҳаси, инвестиция объекти, ички назорат, ички назорат тизими, пул маблағлари, назорат режаси ва дастури, инвестицияларни иқтисодий самарадорлигини баҳолаш, инвестиция ҳисоботларининг ишончлилиги ва тўлиқлиги, инвестицияларни ҳисобга олиш ва назорат қилиш, инвестицияларнинг ички назорат усуллари.

Аннотация. В статье раскрыты особенности учета и внутреннего контроля инвестиционных проектов. Рассматриваются исследование финансово-экономической

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

эффективности инвестиционных проектов, поиск решений существующих проблем, оценка экономической эффективности проектов, а также совершенствование учета и контроля. Приводятся научные предложения и практические рекомендации, направленные на улучшение данных процессов. Кроме того, в статье изложены особенности учета и контроля инвестиций. Обосновано, что система внутреннего контроля должна подтверждать отчетность по всем имеющимся аспектам, обеспечивать ее надежность и предоставлять пользователю разумную уверенность в отсутствии существенных искажений.

Ключевые слова: инвестиция, инвестиционный проект, объект инвестиций, внутренний контроль, система внутреннего контроля, денежные средства, план и программа контроля, оценка экономической эффективности инвестиций, надежность и полнота инвестиционных отчетов, учет и контроль инвестиций, методы внутреннего контроля инвестиций.

Abstract. *The article highlights the specific features of accounting and internal control of investment projects. It explores the study of the financial and economic efficiency of investment projects, the search for solutions to existing problems, the assessment of the economic efficiency of projects, and the improvement of accounting and control processes. The article provides scientific proposals and practical recommendations aimed at enhancing these processes. Additionally, it outlines the specific features of accounting and control of investments. It is substantiated that the internal control system must confirm the reports on all existing aspects, ensure their reliability, and provide the user with reasonable confidence in the absence of material misstatements.*

Keywords: *investment, investment project, investment object, internal control, internal control system, cash funds, control plan and program, assessment of the economic efficiency of investments, reliability and completeness of investment reports, accounting and control of investments, internal control methods for investments.*

Инвестиция лойиҳаларини назорат қилишнинг ўзига хос хусусиятлари шундан иборатки, ички назорат тизими барча мавжуд жиҳатлар бўйича ҳисоботни, унинг ишончилигини тасдиқлаши ва унда нотўғри моддий маълумотлар йўқлигига фойдаланувчининг оқилона ишончини таъминлаши керак.

Инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда ички назоратнинг асосий мақсади бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботларнинг, шу жумладан инвестиция ҳисоботларининг ишончилиги ва тўлиқлиги, амалдаги қонунчиликка ва бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботларга қўйиладиган талабларга мувофиқлигини аниқлашдан иборат.

Ички назоратнинг асосий усулларида бири ҳужжатли текширишдир. Ҳужжатли текшириш усуллари бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини хўжалик операцияларининг ҳақиқий мазмунига мувофиқлигини белгилайди. Шу билан бирга, операцияларнинг амалдаги қонунлар ва норматив-ҳуқуқий қоидаларга мувофиқлиги устидан ҳам назорат амалга оширилади.

Солиққа тортиш билан боғлиқ операциялар алоҳида эътибор талаб қилади. Хорижий ва миллий амалиёт шуни кўрсатадики, бу соҳада бошқаларга қараганда кўпроқ суиистеъмолликлар мавжуд.

Текширилган бирламчи хужжатлар, жорий бухгалтерия маълумотлари, бизнес-режада акс этирилган кўрсаткичлар, баланс, молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот ва бошқа ички ҳисоботлар назорат талаблари ва мақсадларига мослаштирилган эксперт тизимининг асосий таркибий қисми бўлган ахборот базаси бўлиб хизмат қилади. Унинг якуний мақсади инвестициялар самарадорлигини назорат қилиш, жумладан корхонанинг молиявий кўрсаткичларини стратегик таҳлил қилишдан иборат.

Баланснинг ликвидлигини таҳлил қилиш муҳимлигини алоҳида таъкидлаш керак. Бундай ҳолат корхона банкрот деб эълон қилинганда юзага келади. Ички назорат тизими бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботдаги кўрсаткичларнинг тўғрилигини таҳлил қилиб, бошқарув қарорларини қабул қилиш учун тавсиялар беради.

Ҳар қандай хўжалик субъектида, мулк тури, ҳажми ёки шаклидан қатъи назар, раҳбарлар ва бухгалтерлар ўзларининг бухгалтерия ва ички назорат тизимлари элементларини билишлари керак. Тақдим этилаётган бухгалтерия хизматлари доираси ҳал қилинаётган вазифага қараб ўзгаради, аммо уларнинг асосий мақсади молиявий ҳисобот ишончилигини таъминлаш ва корхоналарни самарали бошқаришдан иборат. Раҳбарлар, шунингдек, бухгалтерия регистрларини юритиш зарурлигини билишлари зарур, уларнинг ёрдамида кредиторлик ва дебиторлик қарзларидаги ўзгаришларни кузатиш, ҳисобварақлар бўйича кирувчи ва чиқувчи хужжатларни таҳлил қилиш мумкин.

Бухгалтерия тизими – бу одатда корхонанинг молиявий ҳисоботи ва молиявий ҳолатига таъсир қилувчи ҳодисалар билан боғлиқ бўлган бухгалтерия регистрлари, процедуралар тўпламидан иборат. Бу асосан тўрт тоифага бўлинган такрорланадиган ҳаракатларга боғлиқ. 1) пуллик харажатлар; 2) пул тушумлари; 3) таъминот жараёнини ҳисобга олиш (шу жумладан меҳнатни ёллаш); 4) сотиш жараёнини ҳисобга олиш

Инвестиция лойиҳаларини бухгалтерия ҳисоби ва ички назорат тизимлари жуда мураккаб ва нозик бўлиб, унинг ажралмас қисмлари корхонанинг мутлақо барча бўлинмалари, унинг фаолиятининг барча соҳалари ва ҳар бир ходимнинг фаолияти ҳисобланади.

Инвестиция лойиҳаларини ички назорат қилишнинг таклиф этилаётган вазифалари унинг услубий қоидаларини шакллантириш ва тегишли шакллар ва назорат тартибларини ишлаб чиқиш учун асосдир.

Юқоридаги мақсад ва вазифаларга эришиш учун бухгалтерия ҳисоби ва ички назорат тизимларининг изчиллиги зарурий шартдир, чунки ҳар қандай бухгалтерия тизими асосланган икки томонлама кириш тизими хўжалик операцияларини рўйхатдан ўтказиш тартибини белгилайди ва маълум назоратни таъминлайди.

Инвестицияларни ички назорат қилиш ва ҳисобга олиш раҳбарнинг корхона ва унинг таркибий бўлинмалари фаолиятини ташкил этиш, режалаштириш ва мониторинг қилишдаги ҳаракатларининг натижасидир. У корхона раҳбарияти томонидан ташкил этилади ва хўжалик операцияларининг

конунийлигини, уларнинг иқтисодий мақсадга мувофиқлигини белгилайди. Бу ички назоратнинг бошқа назорат турларидан биринчи ва асосий фаркидир.

Ички назоратни амалга оширишда турли хил усуллар қўлланилади (1-расм). Бузилишлар, ноаниқликлар ва уларнинг оқибатларини аниқлаш учун хужжатлар ва уларда кўрсатилган хўжалик операциялари мазмунининг моҳиятини текшириш учун ушбу назорат усулларида фойдаланиш тавсия этилади.



1-расм. Инвестицияларнинг ички назорат усуллари (муаллиф томонидан тузилган)

Бизнинг фикримизча, ички хўжалик назорати – бу корхона раҳбарияти томонидан барча ходимларнинг бизнес операцияларини амалга оширишда

Ўз вазифаларини энг самарали бажаришини таъминлаш учун кўлланиладиган чора-тадбирлар тизими. Бу ушбу операцияларнинг қонунийлигини ва уларнинг корхона учун аҳамиятини белгилайди.

Аввало, менежерлар мақсадларни, бутун корхона ва алоҳида бўлимларнинг вазифаларини белгилашлари, сўнгра унинг тузилишини яратишлари керак. Ушбу мақсадларга эришиш учун ҳужжатлар ва ҳисоботларнинг самарали тизимининг ишлашини ва ваколатларнинг бўлинишини таъминлаш керак.

Корхона раҳбарияти ва бошқарув ходимлари хўжалик операцияларининг нормал шароитларидан четга чиқиш тўғрисида тўлиқ маълумотни тезда олиш учун ички назорат маълумотларидан фойдаланадилар.

Ички назорат ҳар бир корхона учун фаолият юритиши мақсадга мувофиқдир. Йирик корхоналарда махсус ички назорат тизимлари ташкил этилиши мақсадга мувофиқ.

Ички назорат бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботнинг ишончилиги учун жавобгардир ва ушбу корхона ходимлари томонидан амалга оширилади. Кичик корхоналарда ички назорат тафтиш комиссиясига топширилиши мумкин.

Инвестициялар учун самарали ички назорат тизимини ишлаб чиқиш учун қуйидаги тамойиллардан фойдаланишни тавсия этамиз (1-жадвал).

1-жадвал

Ички назорат тизимини ишлаб чиқиш тамойиллари

Тамойиллар	Мазмуни
Ташкилий тузилма	Бош корхонада аниқ ташкилий тузилма ишлаб чиқилиши ва тасдиқланиши керак, шу жумладан таркибий, инвестиция билан шуғулланадиган хўжалик бўлинмалари, филиаллар ва ваколатхоналар тўғрисидаги маълумотлар. Ташкилий тузилма тўғрисидаги Низом уларнинг функцияларини, функционал ва услубий бўйсунлишни тавсифлаши керак
Мувозанат	Таркибий бўлинмага фақат уларни бажариш учун тегишли воситалар билан таъминланган бошқарув функциялари белгиланиши керак
Оғишлар тўғрисида ўз вақтида хабар бериш	Инвестиция қарорларини амалга оширишдаги оғишлар тўғрисидаги маълумотлар ваколатли шахсларга тегишли қарорлар қабул қилишга имкон қадар тезроқ тақдим этилади
Интеграция	Инвестицияларни назорат қилиш ва ҳисобга олиш учун турли функционал бўлимлар ходимларининг ўзаро муносабатлари таъминланиши керак
Назорат қилинадиган ва бошқариладиган	Корхонанинг ички назорат тизими таркибий бўлинма, хўжалик бўлинмаларининг ички назорат тизимига мос келиши керак

тизимларнинг Г мувофиқлиги	
Мувофиқлик	Инвестицияларни бошқариш тизими мумкин бўлган оғишларга ўз вақтида жавоб бера олиши кераклигини англатади
Мураккаблик	Барча инвестиция объектлари бир хил даражада назорат билан қопланиши керак
Тезкорлик	бўлимлар ва бош ташкилот ўртасида ахборот алмашинувининг зарур тезлигини таъминлайдиган компьютер дастурларидан фойдаланишни ўз ичига олган ички назорат хизматининг турли қисмлари ўртасида маълумотларни узатишнинг изчиллиги
Мажбуриятларни тақсимлаш	Асосий молиявий функциялар (инвестиция операцияларини рўйхатдан ўтказиш, уларни бухгалтерия ҳисобида акс эттириш, активларнинг сақланишини таъминлаш, уларни инвентаризация қилиш, активлар билан операциялар учун рухсатномалар бериш, активларга тўғридан-тўғри кириш) турли шахслар ўртасида тақсимланишини англатади. Бу, бир томондан, суиистеъмолликни бартараф этиш учун, бошқа томондан – самарали назорат қилиш учун керак
Авторизация ва тасдиқлаш	Барча молиявий ва хўжалик операцияларини тасдиқлаш тартиблари инвестицияларни ҳисобга олиш тизимида аниқ қайд этилиши керак

Корхоналарда инвестициялар ҳисоби ички назоратининг икки тури мавжуд:
1) таъсисчилар томонидан мустақил аудиторлар ёрдамида назорат қилиш;
2) назорат ички назорат хизмати ёки ички аудит томонидан амалга оширилади.

Корпоратив бошқарув тамойиллари талабларига мувофиқ замонавий ички назорат тизимларини шакллантириш учун кўплаб корхоналар ўз тузилмаларида бундай назорат хизматини яратдилар.

Инвестицияларни бошқариш тизимининг ташкилий тузилмасида бир нечта хизматлар бўлиши мумкин. Асосийлари:

- 1) иқтисодий хавфсизлик хизмати;
- 2) ички назорат ва ички аудит хизмати ёки инвестициялар ички назорат бўлими.

Йирик корхоналарда бу ички назорат ва ички аудит бўлимлари ёки директорлар кенгаши ҳузуридаги назорат қўмиталари бўлиши мумкин.

Ички назорат тизими одатда функционал бирликларни ҳам ўз ичига олади:

- 1) молиявий-иқтисодий хизмат;
- 2) юридик хизмат;
- 3) ходимлар бўлими.

Қоидалар ва кўрсатмаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш орқали бошқарув тартиб-қоидаларини тартибга солиш корпоратив бошқарув хизмати томонидан амалга оширилади.

Инвестицияларнинг ички назорат тизими бўлимлар раҳбарлари ва ходимларининг тасодифий ёки қасддан хато ва қоидабузарликларга йўл қўймаслиги ёки уларни аниқлашни қийинлаштирадиган жавобгарлик ва ваколатларнинг тақсимланишини таъминлайди. Филиал раҳбарига топширилган назорат миқдори ва даражасини аниқлашда унинг ривожланиш босқичи, филиал айланмаси ва минтақавий бозорнинг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинади.

Бош корхонанинг таркибий бўлинма раҳбарига бўлган ишонч даражаси ҳам катта аҳамиятга эга. Филиал раҳбарининг молиявий қарорларига ишонч даражаси ошгани сайин, ушбу бўлинма устидан инвестицияларни назорат қилиш шакллари ва даражаси ўзгариши мумкин. Шу билан бирга, филиал раҳбарининг йирик инвестиция операциялари бўйича барча қарорлари бош офис билан келишилган бўлиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Евдокимова А.В. и Пашкина И.Н. Внутренний аудит и контроль финансово хозяйственной деятельности организации Практическое пособие. М.: Дашков и Ко, 2009. - 208 с.

2. Бозоров Р.Ҳ. Ўзбекистонда инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини баҳолашни такомиллаштириш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил.

3. Колесников С.Н. Организация учета через центры ответственности. // Экономика и жизнь, 1997г. №49.

4. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Книжный мир : М., 2003. - 895 с.

5. Добровольский, Е. и др. Бюджетирование: шаг за шагом. СПб. : Питер, 2006 г. - 448 с.

6. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent, 2014. – B.255. (318 b.).

7. Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект: Пер. с англ. М. : Финансы и статистика, 2004. - 416 с.

8. Ergasheva Sh.T., Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: TDIU, 2019. – B.155. (180 b.).

9. Хасанов Б.А., Хашимов А. А. Бошқарув ҳисоби. Дарслик – Тошкент: Yangi nashr, 2011. – Б. 38. (328 б.).

10. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent, 2014. – B.255. (318 b.).

Исроилов Боҳодир Ибрагимович – и.ф.д, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети, b.isroilov@tsue.uz.

Ҳасанов Ойбек Мардонович - Тошкент давлат иқтисодиёт университети тадқиқотчиси

ЭКОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ФИСКАЛ СИЁСАТ РОЛИНИ ОШИРИШ

Аннотация: Мақолада экологик хавфсизлик ва уни таъминлаш механизмлари тўғрисидаги қарашлар таҳлил қилинган. Экологик хавфсизлик масала бўйича амалга оширилган тадқиқотлар натижасида муаллифлик хулосалари берилган ҳамда уни таъминлашга фискал сиёсат инструментларидан фойдаланишни такомиллаштириши бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: экологик хавфсизлик, механизм, экологик хавфсизликни таъминлаш, фискал сиёсат, фискал механизм.

Аннотация: В статье анализируются взгляды на экологическую безопасность и механизмы ее обеспечения. В результате проведенных исследований по вопросу экологической безопасности даны авторские выводы и рекомендации по совершенствованию использования инструментов фискальной политики для ее обеспечения.

Ключевые слова: экологическая безопасность, механизм, обеспечение экологической безопасности, фискальная политика, фискальный механизм.

Ключевые слова: экологическая безопасность, механизм, обеспечение экологической безопасности, фискальная политика, фискальный механизм.

Abstract: The article analyzes views on environmental safety and mechanisms for ensuring it. As a result of the conducted research on the issue of environmental safety, the author's conclusions and recommendations for improving the use of fiscal policy instruments for its provision are given.

Key words: environmental security, mechanism, ensuring environmental security, fiscal policy, fiscal mechanism.

Дунёда йилдан йилга аҳоли сонининг ошиб бориши истеъмом ҳажмининг ўсишига ва илмий-техник инқилобий жараёнларнинг жадаллашувига олиб келиши шубҳасиздир, бу эса ўз ўзидан атроф-муҳитга салбий таъсир ўтказишга олиб келмоқда. Шу сабабли дунё ҳамжамияти томонидан экологик хавфсизликни олдини олиш ва уни таъминлашнинг ҳуқуқий асослари ҳамда механизмларини яратиш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ривожланган мамлакатлар тажрибаси экологик хавфсизликни таъминлашда энг самарали восита сифатида экологик фискал ислохотларни амалга оширишдан кенга фойдаланилади.

Фикримизча экологик хусусиятга фискал ислохотларни амалга ошириш мамлакат экологик хавфсизликни таъминлаш учун қўлланиладиган бошқа таъсир чоралардан самарли ҳисобланади.

Даставвал экологик фискал ислохотларнинг мазмун хусусида қисқача тўхталиб ўтамыз. Экологик фискал ислохотлар атроф-муҳитга зарар етказишни олдини олиш ва унинг оқибатларини бартараф этиш мақсадида мамлакат фискал сиёсатида солиқ механизмларига устунлик бериш, рағбатлантиришга қаратилган иқтисодий ислохотлардир.

Экологик фискал ислохотлар:

“Хизматлар соҳасини стратегик ривожлантириш орқали hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

- табиий ресурслардан фойдаланганлик учун солиқлар жорий этиш;
- атроф муҳитни ифлослантганлик учун тўловлар белгилаш;
- экологик соф маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун солиқ имтиёзлари бериш;
- экологик харажатларни солиқ базасидан чегириш;
- атроф-муҳитга етказиладиган зарарларни камайтириш ва уларни қайта тиклаш учун субсидиялар ажратиш каби механизмларни қўллаш ҳисобланади. Ушбу амалиётларни мамлакат фискал сиёсатида белгиланиши экологик хафсизликни таъминлашга ва ресурслардан самарали фойдаланишга хизмат қилади.

Иқтисодий ва ижтимоий муҳим аҳамиятга эга бўлган экологик мувозанатни сақлаш, тиклашда фискал ислоҳотлардан ривожланган мамлакатларда кенг фойдаланиб келинмоқда. Шу билан бирга бир қатор илмий тадқиқотлар ҳам олиб борилмоқда.

Larry Kreiser, Soochool Lee, Kazuhiro Uetalар атроф-муҳит ва иқтисодий ўсишни уйғунлаштиришда “Экологик солиқ ислоҳоти”, “Экологик фискал ислоҳот” ва “Яшил фискал ислоҳот” каби давлат сиёсатлари муҳимлигига тўхталиб ўтилган [1].

Nataliye P. Stoianoff, Larry Kreiser, Bill Butcherлар яшил фискал сиёсат ислоҳоти орқали барқарор келажакка эришишга мумкин деб ҳисоблайди. Улар яшил фискал сиёсатни амалга ошириш нафақат иқтисодий муҳим балки 2015 йилда БМТ томонидан тасдиқланган Барқарор Ривожланиш Мақсадларига эришиш учун ҳам алоҳида ўрин эгаллаши аниқ фактлар билан кўрсатиб ўтилган [2].

Anil Markandya, Gustavo Piga, Laura Castelluccілар фискал ислоҳотларда экологик масалаларга алоҳида тўхталишнинг муҳимлиги ва бир ёки иккита экологик солиқ жорий қилингандан кўра, экологик фискал ислоҳотни амалга ошириш кенг қамровли самарали тадбир эканлиги таъкидлаган [3].

Шуни алоҳида кўрсатиб ўтиш лозим, экологик фискал ислоҳотлар натижасида бюджетга қўшимча тушадиган маблағлар эвазига аҳоли соғлиғини тиклаш, экологик муаммоларни бартараф этиш, таълим тизимини яхшилаш каби ижтимоий муаммоларни яхшилашга сарфланади. Умуман олганда экологик фискал ислоҳотларни амалда қўлланилиши ва муҳимлигига кўплаб асосли сабабларни келтириш мумкин. Барчамизга маълумки экологик хавфларни камайтириш, аҳоли саломатлигини асраш, камбағалликни қисқартириш ва экологик хавфсизликни таъминлаш XXI асрнинг энг муҳим ечилиши лозим бўлган масаласидир. Экологик солиқ ислоҳотларни аҳоли фаровонлигига бевосита ва билвосита таъсир кўрсатишини қуйидаги жадвалда кўриш мумкин (1-жадвал).

Экологик фискал ислоҳотлар ва унинг ижобий натижалари таркиби таснифи¹⁴⁷.

¹⁴⁷https://www.researchgate.net/publication/332135012_Benefits_beyond_Climate_Environmental_Tax_Reform

Экологик фискал ислохотлар	Фаровонлик
<i>Экологик фискал ислохотда солиқларни қўллаш:</i>	
- Ифлослантирувчига — CO ₂ , NO _x , CO ₂	Бевосита таъсирлари: Соғлиқ
- Энергия – кўмир, электр энергия, керосин, бензин, дизел	Иқлим хавфини камайтириш (сув тошқини, қургоччилик, иссиқлик тўлқинлари, очлик, касаллик ва бошқалар)
- Транспорт — йўл тарнспорти, юк ташиш ва ҳаво транспорти солиқлари, тирбандлик учун тўловлар	Ривожланишнинг умумий фойдалари (тоза ҳаво ва сув ҳамда хавфсиз йўллар)
- Бошқалар - чиқиндилар, спиртли ичимликлар, шакар	Хавфсизлик
Харажат сиёсатлари билан:	
- Камайтирилган меҳнат ёки капитал солиқлари	Жамоат товарларини молиялаштириш
- Давлат нвестициялари — инфратузилма, соғлиқни сақлаш, таълим	(соғлиқни сақлаш ва таълим, ижтимоий харажатлар, инфратузилма)
- Ижтимоий харажатлар – ижтимоий ёрдам, суғурта, меҳнат дастурлари	Сув таъминоти
- Компенсация – чегирмалар ва бошқалар	Энергия таъминоти
Тадқиқот ва ривожланишга (Р&Д) субсидиялар	Таълим
Бундан ташқари, қўшимча сиёсатлар:	Билвосита таъсирлари:
- Қазиб олинадиган ёқилғини субсидиялаш ислохоти	Иқтисодий фаолият (ЯИМ, бандлик, сармоя, инновация, маҳсулдорлик)
- Бошқа сиёсатларга тузатишлар киритишга доир тадбирлар	Бошпана
	Ҳуқуқлар
	Эркинликлар

Жадвал маълумотларидан солиқлар, харажат сиёсатлари ва бошқа сиёсатларнинг ҳамоҳанглигида экологик фискал ислохот амалда қўлланилади. Экологик фискал ислохот инсон фаровонлигига бевосита (иқлимнинг ташқи таъсирини камайтириш, ривожланишнинг умумий фойдаларини таъминлаш ва жамоат товарларини молиялаштириш орқали) ва билвосита (иқтисодий фаолиятдаги ўзгаришлар орқали) таъсир қилади.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Экологик фискал ислохотлар хусусидаги олимлар тадқиқотлари натижаларида ҳам унинг самарали эканлигини эътироф этилади.

Хусусан, Ж.Котрелл, Р.Мандер, С.Счмидт, К.Счелгелмилчлар ўзларининг “Европада экологик фискал ислохот: тадқиқот, тажриба ва энг яхши амалиёт” номли асарларида фискал ислохот тамойилларини тушунтириб, ушбу йўналишда амалга оширилган муваффақиятли чоралар ҳақида ҳам тўхталиб ўтган. Муаллифлар карбонат ангидрид солиғининг бир қатор ўзига хос ижобий томонларини баён қилган, Мисол учун 1990 йилдан 2001 йилгача карбонат ангидрид солиғи сабабли Данияда CO₂ ҳавога чиқариш миқдори 24 фоизга камайганлигини қайд этганлар [4].

А.Бруволл, Б.Ларсенлар томонидан мамлакатда охириги ўн йилликлар давомида атроф муҳитни муҳофаза қилиш учун салмоқли ишлар амалга оширилганлиги ва булар ичида энг асосийси 1991 йилда жорий этилган карбонат ангидрид солиғилиги аҳамияти юқори бўлгани эътироф этилган. Ушбу тадқиқотчилар карбонат ангидрид солиғини ўзига хос жиҳатларини таъкидлаб, мазкур солиқнинг жорий этилиши 1990 йилдан 1999 йилгача бўлган даврда Норвегияда CO₂ миқдорини 2 фоизга камайтирганлиги асослаб берилган [5].

Hennessy ва Tol томонидан амалга оширилган тадқиқотларда экологик хавфсиз тарнспорт воситалари туридан келиб чиқиб Ирландияда қўлланилган солиқ режими автомобил харидорларининг автомобил сотиб олиш қарорларига жиддий таъсир кўрсатганлиги аниқланган. Автомобиллардан чиқарилган CO₂ ҳажмидан келиб чиқиб, автомобиль солиғи; автомобилларни рўйхатга олиш солиғини жорий этилган. Натижасида ушбу тартибларнинг жорий этилиши Ирландияда дизель ёқилғисида ишлайдиган автомобиллар сони истеъмолда сезиларли ўсишига олиб келди.

Тежамкор ва экологик хавфсиз автомобиллар харидорларига тақдим этилган солиқ имтиёзлар CO₂ ҳажмини ижобий томонга ўзгаришига жиддий таъсир кўрсатган. Жумладан, 2009 йилда янги рўйхатга олинган автомобилларнинг 13 фоизи атроф муҳитга энг кам зарар етказадиган (*A тоифа, CO₂/км 120 граммдан кам*) автомобиллардан иборат бўлса, 2016 йилга келиб ушбу тоифадаги автомобиллар сони 76 фоизни ташкил этган.

Шу билан бирга, ушбу қўлланилган фискал солиқ сиёсати Ирландияда автомобиллар таркибини янгиланишига ва истеъмолчиларни экологик хавфсиз транспорт воситаларидан кенг фойдаланишларига хизмат қилган [6].

Ўзбекистонда экологик хавфсиз транспорт воситаларини рағбатлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 декабрдаги ПҚ-4086-сон қарорига асосан мамлакатга олиб кириладиган электр автомобиллар учун божхона божи бекор қилинди [7]. Ушбу қабул қилинган қарор экологик хавфсиз транспорт воситаларидан

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

кенг фойдаланишга ундайдиган энг асосий ва муҳим қадамлардан бири деб ҳисобласак муболаға бўлмайди (2- жадвал).

Жадвал маълумотларидан кўришимиз тақдим этилган фискал имтиёз натижасида мамлакат ички бозорида электромобиллар бозор нархлари пасайишига сабаб бўлди.

Автомобил ва электромобиллар бозор нархлари ўзгариши таҳлили¹⁴⁸

2-Жадвал


Одатий ёнилғидан фойдаланадиган янги энгил автомобил **Янги энгил электр автомобил**

“Kia Ceed” (двигатель ҳажми 1482 см³) автомобили		“BYD Yuan Pro” электромобили	
Автомобиль нархи	25 000 АҚШ дол.	Автомобил нархи	23 000 АҚШ дол.
Божхона божи	10 464 АҚШ дол.	Божхона божи	0 АҚШ дол.
ҚҚС	4 255,7 АҚШ дол. (12%)	ҚҚС	2 760 АҚШ дол. (12%)
Божхона йиғими	67.4 АҚШ дол.	Божхона йиғими	67.4 АҚШ дол.
Утилизация йиғими	3 238 АҚШ дол.	Утилизация йиғими	810 АҚШ дол.
Ундирилган мажбурий тўловлар	18 025,1 АҚШ дол.	Ундирилган мажбурий тўловлар	3 643 АҚШ дол.
Якуний нарх	43 025,1 АҚШ дол. (ҳақиқий нархга +72% кўшилган)	Якуний нарх	26 643 АҚШ дол. (ҳақиқий нархга +15.8 % кўшилган)

Шунингдек ушбу имтиёз 2018-2024 йилларда мамлакатимизга электромобилларни мамлакатга импортини ўсишига ҳам сабаб бўлган (1-расм).

Таҳлиллар 2024 йилнинг ўтган 10 оyi мобайнида 20190 та электромобиллар божхона назоратидан ўтган холос. Шу йилдаги камайиш сони кўшимча чекловнинг киритилиши салбий оқибати ҳисобланади. Тадқиқотларимиз бозорнинг давлат томонидан ҳар қандай арашашувга тез реакция қилишини кўрсатмоқда.

¹⁴⁸ Амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида муаллиф ишланмаси



1-Расм. 2018 -2024 йиллар давомида Ўзбекистонга импорт қилинган электромобиллар таҳлили¹⁴⁹.

Экологик хавфсизликни таъминлашда фискал сиёсатни роли хусусидаги тадқиқотларимиз куйидаги хулосаларга асос бўлди:

- фискал сиёсатни ҳар қандай ўзгариши иқтисодий ўсишга салбий таъсир этади;
- чеклов хусусиятга эга бўлган фискал сиёсатидаги ўзгаришлар яширин иқтисодий ривожланиши учун хизмат қилади;
- экологик хавфсизликни таъминлашда фискал сиёсат инструментларидан фойдаланиш ижобий самара беради.

Мазкур хулосаларга асосланиб электромобиллар савдоси ва ишлаб чиқаришини чеклашга оид меърий ҳужжатларни бекор қилиш ҳамда уни доимийлигини таъминлаш таклиф этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Larry Kreiser, Socheol Lee, Kazuhiro Ueta. “Environmental taxation and Green fiscal reform”. 2014
2. 1 Green Fiscal Reform for a Sustainable Future. “Green Fiscal Reform for a Sustainable Future”. 2016
3. 1 Anil Markandya, Gustavo Piga, Laura Castellucci. “Environmental Taxes and Fiscal Reform”. 2012
4. Cottrell, J. et al., Environmental fiscal reform in Europe: research, experience and best practice, ETUI: European Trade Union Institute. Belgium. Retrieved from <https://policycommons.net/artifacts/2067571/environmental-fiscal-reform-in-europe/2822589/> on 18 Jan 2024. CID: 20.500.12592/d2vpbm.
5. Bruvoll A., Larsen B. M. Greenhouse gas emissions in Norway: do carbon taxes work? //Environmental taxation in practice. – Routledge, 2017. – С. 545-557. ([https://doi.org/10.1016/S0301-4215\(03\)00151-4](https://doi.org/10.1016/S0301-4215(03)00151-4))

149 Статистика агентлиги томонидан тақдим этилган маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

6. H.Hennessy, and R. Tol (2011). ‘The impact of government policy on private car ownership in Ireland’, Economic and Social Review, Vol. 42, No. 2, pp. 135–157 <https://www.researchgate.net/publication/227360226>.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 декабрдаги ПҚ-4086-сон 54-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.12.2018 й., 07/18/4086/23.

Худайбердиев Умар – и.ф.н. СамИСИ доцент,
hudayberdiyevumar1941@gmail.com

Худойбердиева Марифат – Самарқанд ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар университети ўқитувчиси

АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИНИНГ КУПАЙИШИ - ТУРМУШ ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲУМ ОМИЛИ

Аннотация: Мақола аҳоли даромадлари, уларнинг турлари, даромадларнинг мунтазам купайиб бориши натижасида аҳоли турмуш фаровонлигининг яхшиланиб бораётганлиги баён қилинган.

Калим сўзлар: Аҳоли даромадлари, бирламчи даромадлар, ёлланма ишчи меҳнат ҳақи, мулкдан олинган даромад, фоиз даромадлар, ҳудуд кўрсаткичлари, трансфертлар.

Аннотация: В статье описаны доходы населения, их виды, улучшение благосостояния населения в результате регулярного увеличения доходов.

Ключевые слова: Доходы населения, первичные доходы, заработная плата наемных работников, доходы от собственности, процентные доходы, показатели площади, трансферты.

Abstract: The article describes the income of the population, its types, and the improvement in the well-being of the population as a result of a regular increase in income.

Key words: Personal income, primary income, wages of employees, property income, interest income, area indicators, transfers.

Аҳоли даромадлари турлича манбалардан олиниши мумкин. Ҳозирги вақтда аҳоли даромадларини қонунда тақиқланмаган турли фаолият билан шуғулланиб олиши мумкин. Аҳолининг даромадлари уларнинг ақл-заковати, тадбиркорлиги ва бошқа омилларга боғлиқ. Аҳоли даромадларини тадбиркорликдан (маҳсулот ишлаб чиқариш, хизматлар кўрсатиш кабилар билан шуғилланиб), ишлаб меҳнат ҳақи олиб, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириб, мулкни ижарага бериб, қимматбаҳо қоғозлардан – дивиденд каби олишлари мумкин.

Аҳоли даромадлари туғрисида олимлардан Абдуллаев Е., Пардаев М.К., Мухаммедов М., Шодиева Г.М., Уринбаева Ю. кабилар монографиялар, илмий мақолалар ёзганлар.

Аҳоли даромадлари пул кўринишида ва натура шаклида бўлиши мумкин. Назария жихатидан аҳоли даромадларини: номинал даромад, ихтиёрдаги даромад ва реал даромадларга бўлиб ўрганилади.

Номинал даромадга аҳолининг маълум даврда олган даромадларининг барчаси киради.

Ихтиёрдаги даромад эса – номинал даромаддан тўланган солиқлар ва мажбурий тўловлар айрилгандан кейин қолган суммани билдиради.

Реал даромад – аҳолининг сотиб олиш мумкин бўлган маҳсулотлар, товарлар ва хизматлар ҳажми билан ифодаланади. Демак реал даромад нарх инфляция даражасини ҳисобга олган ҳолдаги даромаддир.

Ўзбекистон аҳолисининг 2023 йилги умумий даромади 728,8 трлн. сумни ташкил этган бўлиб, ўтган йилга нисбатан 115,0 фоизга ўсган. Аҳоли сонининг мунтазам равишда кўпайиб бораётганлигини ҳисобга олсак, аҳоли жон бошига даромадларни ҳолати муҳим кўрсаткичдир.

Ўзбекистон аҳолиси жон бошига даромадларнинг 2019-2023 йиллар динамикаси (минг сўм)

Йиллар Кўрсаткичлар	2019	2020	2021	2022	2023	2023 йил 2019 йилга нисбатан, %
Аҳоли жон бошига даромадлар	10887,3	12122,2	14869,8	17772,8	20015,9	183,8

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад мунтазам равишда йилдан йилга кўпайиш тенденциясига эга. Ушбу 5 йилда аҳоли жон бошига даромад 183,8 фоизга ўсиб 2029 йилги 10887,3 минг сўмдан, 2023 йилга -20015,9 мингсўмга етган.

Ҳудудлар бўйича олганда, аҳоли жон бошига даромадлар саноатлашган Тошкент шаҳрида (44427,9 минг сўм), Навойи вилоятида (31445,6 минг сўм), Бухоро вилояти (23480,3 минг сўм) юқори бўлиб, Қорақалпоғистон Республикасида (14570,7 минг сўм), Наманган вилоятида (15070, 6 минг сўм), Фарғона вилоятида (15716,5 минг сўм). Республика бўйича ўртачадан камдир.

Аҳолининг даромадлари: бирламчи даромадлар ва трансфертлардан олинган даромадларига гуруҳланади.

Бирламчи даромадлар – ёлланма ишчилар даромадлари, мустақил равишда банд бўлишдан олинган даромадлар, мулкдан олинган даромадларга бўлинади. 2023 йилда аҳолининг бирламчи даромадлари барча даромадларнинг 73,3 фоизини ташкил этган. Трансфертлардан олинган даромадларига аҳоли ишлагандан оладиган даромадлари пенсиялар, ногиронлиги, боқувчисини йўқотганлиги каби нафақа олувчилар киради. 2023 йилда трансфертдан олган даромадлар аҳолининг барча даромадларининг 26,7 фоизини ташкил этган.

Аҳолининг меҳнат фаолиятитидан олган даромадларининг ҳажми йилдан -йилга кўпайиб бормоқда. 2023 йил аҳолининг бундай даромадлари ўтган йилга нисбатан -119,8 фоизга ўсган. Республика Президенти минумал иш ҳақини кўпайтириш бўйича ҳар йили фармонлар чиқаради. Эндиликда

иш ҳақи нарх инфляцияси даражасидан кам бўлмаган даражада кўпайтирилади.

Мол-мулкдан олинадиган даромадларга хонадонларни, машиналарни, асбоб-ускуналарни, ўй жиҳозларини ва шу каби мулкларни ижарага бериб, оладиган ижара ҳақидан иборатдир. Мулкдан олинган даромад 2023 йилда барча даромадларнинг 2,8 фоизини ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан юқори даражада – 143,7 фоизга ўсган.

Аҳоли даромадлари таркибида чет мамлакатларда тадбиркорлик фаолиятдан, ёлланма ишчи бўлиб ишлаб меҳнат ҳақи олиб, мамлакатимизга келиб тушган маблағларни ҳам инобатга олиш зарур. Бундай маблағлар Хоразм, Самарқанд, Андижон вилоятларида сезиларли даражада бўлиб, бундай маблағлар вилоят аҳолиси умумий даромадларининг тегишли тарзда 24,2 %, 22,5%, 22,8 фоизларини ташкил этади.

2024 йил мамлакат ЯИМ ҳажми 115 млрд. АҚШ долларини ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан 6,5 фоизга ўсган.

2025 йил мамлакат ЯИМни 6,0 фоизга кўпайтириш режалаштирилган. Мамлакат иқтисодиёти юқори суръатлар билан ривожланган сари, аҳоли турмуш даражаси яхшиланиб бормоқда. Аҳоли даромадларининг маълум қисмини ўй-жойини жиҳозлашга, маиший товарлар (музлаткич, чангюткич, кир ювиш машинаси кабилар), енгил машиналар сотиб олишга сарфламоқда. Булар аҳоли турмуш даражаси яхшиланиб бораётганлигидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 12.08.2024 йилдаги ПФ-108-сон “Иш ҳақи, пенсиялар ва нафақалар миқдорини ошириш” тўғрисида
2. Абдуллаев Е. Макроиқтисодий статистика 100 савол ва жавоб Т.: “Меҳнат”, 1998
3. Пардаев М.К., Шодиева Г.М. Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги Самарқанд 2001
4. Шодиева Г.М. Оила хўжалиги фаровонлигини ошириш: муаммолари ва уларнинг ечимлари. Т.: “Фан”, 2006
5. Мухаммедов М. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси. Т.: “Фан ва технология” 2018
6. Ўринбаева Ю. П. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва аҳоли турмуш даражаси: ўзаро боғлиқлиги ва ривожланиш истиқболлари. Монография. Т.: “Фан” нашриёти, 2013
7. Худайбердиев У. Аҳоли турмуш даражаси. Монография. Самарқанд, СамДЧТИ нашр – матбаа маркази, 2021.
8. Худойбердиева М.У. Ўзбекистонни ривожлатиришда менежментнинг ўрни ва роли. Образование и наука в XXI веке 28.11.2024 г.

Otayev Ne’matjon Nurmatboyevich – Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

MINTAQADA INVESTITSIYA LOYIHALARINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada investitsiya loyihalarining rivojlanishi zaruriyati, ustuvor jihatlari va unga ta’sir qiluvchi omillar yoritib berilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются необходимость, приоритеты и факторы, влияющие на развитие инвестиционных проектов в регионе.

Abstract. This article highlights the need, priorities and factors influencing the development of investment projects in the region.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, investitsiya, loyiha, investitsiya loyihasi, omil.

Ключевые слова. Регион, инвестиции, проект, инвестиционный проект, фактор.

Key words. Region, investment, project, investment project, factor.

Investitsiyalar kapital tovarlarga, masalan, yangi mashinalar, ofislar va yangi texnologiyalarga xarajatlar shaklida sarflanadi. Chunki, investitsiyalar yalpi talabning tarkibiy qismi bo‘lib, kapital fondi va iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvatiga ta’sir qiladi. Investitsiyalarni joriy qilinishi investitsion jarayonlar shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, hududdagi investitsion jarayonlar asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash va modernizatsiya qilish sur’atlarini belgilab beradi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari natijalarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishga ko‘maklashadi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish hamda ishlab chiqarishga qayta yo‘naltirilishiga imkon beradi. Ishlab chiqarish sanoati tovarlari va ularni eksport qilishga asoslanadi. Ushbu jarayonlar o‘zgarib borayotgan bozor sharoitlari sharoitida hududning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari, faoliyati samaradorligi va rivojlanish istiqbollari belgilaydi. Bu borada asosiy e’tibor davlat va mintaqaviy darajada investitsiya resurslari uchun investitsiya jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllarini o‘rganishga hamda investitsion resurslarni rivojlantirishga qaratiladi.

Ayniqsa, mintaqada investitsiya loyihalarining rivojlanishida barcha hududlar uchun investitsiya siyosatining asosiy muammosi moliyalashtirish manbalarini izlab topishga asoslanadi. Bu borada mintaqaviy investitsiya loyihalariga investitsiyalarni keng jalb qilishning qator potensial variantlari mavjud. Ammo, ushbu variantlar mintaqadagi vaziyatni o‘zgartira olmaydi. Bu borada hudud investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich hududning investitsion salohiyatidir. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushuncha so‘nggi o‘n yillikda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, unga aniq ta’rif berilmagan. Shunga asosan, investitsion salohiyat darajasi investitsiyalar orqali ifodalanishi mumkin.

Mintaqada investitsiya loyihalarining samaradorligi unga ta’sir qiluvchi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Chunki, yirik investitsiya qarorini qabul qilishdan oldin har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt kapital qo‘yilmalar maqsadini

tushunishi, investitsiya natijasi, investitsiya loyihasining samaradorligini baholashi va investitsiya loyihasiga ta’sir etuvchi omillarni baholashi kerak [1]. Bu borada loyiha hayot aylanishi bevosita loyihaga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liq bo‘ladi va bunday omillar tarkibiga siyosiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy omillar kiradi. Shuningdek, boshqaruv tizimi hayot aylanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘labi, loyihani boshqarishga ta’sir qiluvchi hayot sikliga ega bo‘ladi. Natijada, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan tannarx ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga olib keladi.

Mintaqada investitsiya loyihalarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar investitsiya jarayoniga ta’sir qiladi. Chunki, investitsiya jarayoni jadal sur‘atlar bilan davom etmoqda. Biroq, davom etayotgan sanksiyalar va ko‘plab hududlarda turmush darajasi pastligini hisobga olsak, ushbu sur‘at ancha yuqori bo‘lishi lozim. Shunga asosan, potensial investor uchun muhim bo‘lgan omillar quyidagi yo‘nalishlarga ajratiladi [2]:

- qonunchilik bazasini rivojlantirish;
- soliq tizimi va mavjud imtiyozlar tizimi;
- hududdagi kadrlar salohiyati;
- infratuzilma obyektlarini rivojlantirish;
- tabiiy (xom ashyo) resurslar mavjudligi va boshqalar.

Shular bilan birgalikda, mintaqada investitsiya loyihalarining rivojlanishini turli omillar natijasi belgilaydi. Bu holatda investitsiya darajalariga quyidagi omillar ta’sir qiladi [3]:

- foiz stavkalari (qarz olish qiymati). Investitsiyalar joriy jamg‘armalar hisobidan yoki qarz olish yo‘li bilan moliyalashtiriladi. Shu bois, investitsiyalarga foiz stavkalari ta’sir qiladi. Yuqori foiz stavkalari qarz olishni qimmatroq qiladi. Yuqori foiz stavkalari bankda pul saqlashdan ko‘ra yaxshi daromad keltiradi. Yuqori foiz stavkalari bilan investitsiya foiz to‘lovlarini amalga oshirish mumkin.

- iqtisodiy o‘shish (talab o‘zgarishi). Firmalar kelajakdagi talabni qondirish uchun sarmoya kiritadilar. Talab pasayganda firmalar investitsiyalarni qisqartiradilar. Iqtisodiy istiqbollar yaxshilanganda firmalar investitsiyalarni ko‘paytiradi. Chunki, ular kelajakda talab oshishini kutadilar. Investitsiyalar davriy ekanligi to‘g‘risida kuchli empirik dalillar mavjud. Shunga asosan, reqessiyada investitsiyalar tushadi va iqtisodiy o‘shish bilan tiklanadi.

- ishonch yoki taxmin. Investitsiyalar tejashdan ko‘ra xavfliroq bo‘ladi. Firmalar kelajakdagi xarajatlar, talab va iqtisodiy istiqbollarga asoslanib sarmoya kiritadilar. Ishonchga iqtisodiy o‘shish va foiz stavkalari, shuningdek, umumiy iqtisodiy va siyosiy iqlim ta’sir qiladi. Agar noaniqlik bo‘lsa, firmalar investitsiya qarorlarini qisqartirishi mumkin va ular voqea kechishini kutadilar.

- texnologik ishlanmalar (kapital unumdorligi). Uzoq muddatli istiqbolda inflyatsiya darajasi investitsiyalarga ta’sir qiladi. Yuqori va o‘zgaruvchan inflyatsiya investitsiyalarning kelajakdagi narxiga nisbatan noaniqlik va chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Agar inflyatsiya yuqori va o‘zgaruvchan

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

bo‘lsa, firmalar investitsiyalarning yakuniy narxida noaniq bo‘ladi. Ular yuqori inflyatsiya iqtisodiy noaniqlik va kelajakdagi tanazzulga olib keladi. Bu borada uzoq muddatli past va barqaror inflyatsiyaga ega mamlakatlar investitsiyalarning yuqori stavkalarini boshdan kechiradilar.

- kapital mahsuldorligi. Texnologiyadagi uzoq muddatli o‘zgarishlar investitsiyalar jozibadorligiga ta’sir qiladi. Yangi texnologiyalar firmalarning ushbu yangi texnologiyaga sarmoya kiritishga turtki beradi. Chunki, u avvalgi texnologiyalarga qaraganda samarali bo‘ladi. Agar texnologik taraqqiyot sur’atlarining pasayishi kuzatilsa, firmalar investitsiyalarni qisqartiradilar va investitsiyalar daromadlari past bo‘ladi.

- **moliya mavjudligi. Ya’ni**, kredit inqirozida ko‘pgina banklar likvidligi tahlil qilinadi. Shu bois, kreditlashni qisqartirishga to‘g‘ri keladi. Banklar firmalarga sarmoya kiritish uchun qarz berishni xohlamaydilar. Shu bois, rekord darajadagi past foiz stavkalariga qaramay, firmalar investitsiya uchun qarz olmaydilar. Bu borada uzoq muddatli investitsiyalarga ta’sir ko‘rsatadigan omil tejash darajasi bilan belgilanadi. Yuqori darajadagi tejash investitsiyalar uchun ko‘proq resurslardan foydalanishga imkon beradi. Yuqori depozitlar bilan banklar qarz berishga qodir bo‘ladilar. Agar iqtisodiyotda jamg‘arma darajasi tushib qolsa, u investitsiyalarga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar miqdorini cheklaydi.

- ish haqi xarajatlari. Agar ish haqi xarajatlari tez o‘shib borayotgan bo‘lsa, bu holat firma uchun kapital fondiga sarmoya kiritish orqali mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Ish haqining past o‘shishi davrida firmalar mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish usullaridan foydalanishga moyil bo‘ladilar.

- amortizatsiya. Barcha investitsiyalar iqtisodiy siklga bog‘liq bo‘lmaydi. Eskirgan uskunalarni almashtirish uchun ba’zi sarmoyalar zarur bo‘ladi. Shuningdek, firmaning standart o‘shishi uchun investitsiyalar talab qilinishi mumkin. Retsessiyada investitsiyalar keskin pasayadi. Unga asosan, firmalar allaqachon boshlangan loyihalarni davom ettirishi mumkin. Bundan tashqari, ba’zi firmalar sarmoya kiritish yoki ishga tushirishni xohlaydilar.

- davlat sektoriga investitsiyalar. Investitsiyalarning aksariyati xususiy sektor tomonidan boshqariladi. Biroq, investitsiyalar davlat sektori investitsiyalarini ham o‘z ichiga oladi. Ular infratuzilma, maktablar, shifoxonalar va transportga davlat xarajatlari shaklida namoyon bo‘ladi.

- hukumat siyosati. Ba’zi hukumat qoidalari investitsiyalarni qiyinlashtiradi. Masalan, qat’iy rejalashtirish qonunchiligi investitsiyalarni to‘xtatishi mumkin. Boshqa tomondan, davlat subsidiyalari soliq imtiyozlari investitsiyalarni rag‘batlantirishi mumkin. Xitoy va Koreyada hukumat bilvosita investitsiyalar narxini qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi. Bu yirik investitsiyalarga olib keladi va investitsiyalar sifatiga ham ta’sir qiladi. Chunki, investitsiyalarning kuchli daromadlilik darajasiga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun kamroq rag‘bat mavjud bo‘ladi.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Xulosa shuki, mintaqada investitsiya loyihalarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar turli darajalar va yo‘nalishlarga ega bo‘ladi. Bu borada investitsiya sarflagan xarajatlarga bog‘liq bo‘ladi. Shunga asosan, bozordan yuqori daromad olish uchun oqilona sarmoya kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, investitsiya strategiyasini amalga oshiradigan ko‘pgina omillar mavjud bo‘ladi. Ular orqali bozorning pastga qarab harakatlanishi mavjud tizim faoliyatiga ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахмедова Д.А. Факторы, влияющие на инвестиционный проект. // Международный научный журнал «Вестник науки» №4 (49), Т.4, Апрель, 2022. - с. 35.

2. Olga V. Tayurskaya, Dilyara R. Okladnikova, Kamil R. Bibarsov, Ivan A. Ogorodnikov. Assessment of factors affecting investment activity in regions. // TIES 2020 International conference «Trends and innovations in economic studies», 2020. - pp. 630.

3. <https://www.economicshelp.org/blog/136672/economics/factors-affecting-investment/>.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XI AK materiallari

VI SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SHISH JARAYONIDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT MUAMMOLARINI BARTARAF QILISH MASALALARI

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.

Озода Мамаюнусова Пардаева–Тошкент давлат иқтисодиёт университети кафедра мудури, доценти, PhD.

Севара Абдиназаровна Бабаназарова – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти, PhD.

ИНСОН РЕСУРСЛАРИ АНАЛИТИКАСИ (ТАҲЛИЛИ)НИ БАҲОЛАШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ҚИЙМАТ ЗАНЖИРИ

Аннотация. Мақолада инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили)ни баҳолашда қўлланиладиган қиймат занжири ишлаб чиқилган. Бунда ИП баҳолашда қўлланиладиган қиймат занжирининг кетма-кетлиги, яъни унинг мақсаддини аниқлаш, инвестицияларни қўйиш, ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш жараёнлари, сақлаш ва ташиш ҳамда сотиш жараёнлари қараб чиқилган. Шунингдек, ушбу инсон ресурсларини (ИП) баҳолашда қўлланиладиган қиймат занжири ўз ичига 5 та элементни олган бўлиб, улар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ жараёнлардан иборат эканлиги қайд этилган.

Калит сўзлар. инсон ресурслари, иш жойи, инсон ресурслари аналитикаси, ишловчи ходимлар, ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш, ИП қиймат занжири, инвестиция, сақлаш ва сотиш, маркетинг, ташиш.

Абстрактный. В статье разрабатывается цепочка создания стоимости для использования при оценке аналитики человеческих ресурсов. В данном обзоре рассматривается последовательность цепочки создания стоимости, используемая при оценке НИОКР, то есть определение ее цели, осуществление инвестиций, процессы производства или обслуживания, хранение и транспортировка, а также процессы продаж. Было также отмечено, что цепочка создания стоимости, используемая в данной оценке человеческих ресурсов (HR), включает 5 элементов, которые состоят из тесно связанных процессов.

Ключевые слова. человеческие ресурсы, рабочее место, аналитика человеческих ресурсов, сотрудники, производство, обслуживание, цепочка создания стоимости HR, инвестиции, хранение и продажи, маркетинг, транспортировка.

Abstract. This paper develops a value chain for use in human resource analytics assessment. This review examines the value chain sequence used in R&D assessment, i.e., defining its purpose, making investments, production or service processes, storage and transportation, and sales processes. It was also noted that the value chain used in this human resource (HR) assessment includes 5 elements that consist of closely related processes.

Keywords: human resources, workplace, human resource analytics, employees, production, service, HR value chain, investment, storage and sales, marketing, transportation.

Кириш. Мавзунинг долзарблиги. Мавзунинг долзарблигини исботлаш учун энг аввало, қиймат занжирига эътиборни қаратамиз. Қиймат занжири деганда, ташкилотнинг маҳсулот ёки хизматини яратиш, сақлаш, маркетинг, сотиш ва тақдим этиш жараёнида содир бўладиган ҳолатларнинг

қийматини (харажатлари, даромадлари, солиқлар ва бошқалар) амалга оширилишидаги фаолиятларнинг ўзаро боғлиқлиги тушунилади. Ушбу концепция асосан, маҳсулотнинг қанча кераклигини ўрганишдан тортиб, яратилиш жараёни, у билан боғлиқ хизматлар, маркетинг, савдо ва охирида истеъмолгача, имкон қадар турли йўқотишларсиз етказиб берилиши билан боғлиқ фаолиятлар занжиридан ташкил топади. Ҳозирги пайтда иқтисодиётда содир бўладиган барча жараёнлар маълум миқдорда харажатларни талаб қилади. Булар эса уларни истеъмолгача етказиб берилиб сотиш жараёнида даромад қилинади. Ушбу босқичлар катта жараёнларни қамраб олади. Айнан шу даврда иқтисодиётда қилинган харажатларга нисбатан кўпроқ даромадга эришилсагина иқтисодиёт ривожланади, давлатнинг иқтисодий қудрати ошиб боради ва аҳолининг фаровонлиги ҳам таъминланади. Булардан ҳам кўриниб турибдики, мазкур мавзудаги тадқиқот иши ўта долзарб масалага бағишланган экан.

Тадқиқот методологияси. Мақолани ёзиш жараёнида турли методологик йўналишлардан, хусусан, индукция ва дедукция, макон ва замон, таҳлил ва синтез, мантиқий таҳлил каби методологик ёндошувлардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Айрим ҳолатларда қиймат занжири аниқ манзилни топишдан бошланади. Агар ишлаб чиқариш бўлса, уни хомашёни таъминлаш керак бўлади. Тегишли мутахассислар иштирокида ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, буларни сотилганса сақлаш кейин савдо-сотиқ жараёни амалга оширилади. Бунда мижозларга хизмат кўрсатиш ҳам муҳим босқич ҳисобланади, чунки бунда икки томоннинг ҳам манфаатдорлиги таъминланади. Ушбу жараёнда логистика ва маркетинг каби фаолиятларнинг борлигини ҳам унутмаслик лозим.

Шунинг учун, қиймат занжирини тўғри бошқариш, ташкилотнинг рақобатбардошлигига ёрдам беради ва мижозларнинг эҳтиёжларини яхши қондириш имконини яратади. Инсон ресурслари аналитикаси (ИР таҳлили), бевосита инсон ресурслари ҳолати ва фаолияти билан боғлиқ маълумотларни йиғиш, таҳлил қилиш, бошқарув қарорларини қабул қилиш ва улардан амалиётда фойдаланиш жараёнлари билан боғлиқдир. Ушбу таҳлил ИР фаолиятининг самарадорлигини ошириш, ташкилотларнинг стратегик мақсадларига етиши учун керакли қарорларни қабул қилиш учун муҳимдир. ИР аналитикасини баҳолашда қўлланиладиган қиймат занжири бир қатор асосий компонентлардан ташкил топади.

ИР баҳолашда қўлланиладиган қиймат занжирининг бошланишида, энг аввало мақсад қўйилади. Нима ишлаб чиқариш ёки қандай хизмат кўрсатиш кераклиги аниқланади. Сўнгра ишни бошлаш учун нималар қилиши керак, жумладан хом ашё ва материалларни қаердан олиб келиш, нима билан олиб келиш, уларни қаерда сақлаш каби жараёнлар режалаштирилади. Шу тариқа мақсад аниқ бўлгачуни бошлаш учун инвестиция қўйилади. Тегишли маблағ бўлгандан кейин ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш жараёни бошланади. Бунга хом ашё билан бирга ишловчи

мутахассислар жалб қилинади. Ишлаб чиқарилган маҳсулотлар (хизматлар истеъмолга, яъни харидорга етгунча сақланиши лозим. Истеъмолчиларга етказиб бериш учун эса, транспорт воситаларидан фойдаланиб, ташиш хизматлари амалга оширилади. Буларнинг ҳаммаси маблағ билан боғлиқ. Шу туфайли ушбу жараённинг барчаси қиймат занжирини ташкил қилади. Буларнинг ўзаро боғлиқликлари қуйидаги расмда келтирилган (1-расм).



1-расм. Инсон ресурсларини (ИР) баҳолашда қўлланиладиган қиймат занжири

Расмдан кўриниб турибдики, инсон ресурсларини (ИР) баҳолашда қўлланиладиган қиймат занжири ўз ичига 5 та элементни олар экан. Улар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ жараёнлардир. Шу жиҳатдан бунинг аҳамияти жуда катта. Шу туфайли ИР аналитикасида ушбу жараёнлар тўлиқ ўрганилади ва шунга асосланган ҳолда хулоса чиқарилади. Буларга:

Биринчидан, ҳар қандай аналитика маълумотларни йиғишдан бошланади. Корхона ва ташкилотлардаги ИР билан боғлиқ ҳодиса ва жараёнлар ҳақидаги маълумотларни йиғишда аналитикага оид маълумотларга эътибор қаратилиши керак. Ушбу маълумотлар корхона ва ташкилотлар фаолиятига боғлиқ бўлиб, бунда ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш, иш бажариши бўйича натижалар, унинг барқарор ривожланиши, бунга йўналтирилган ходимларнинг иш самарадорлиги каби жараёнларни таҳлил қилиш учун жамланади. Бунда таҳлил натижалари бир қатор кўрсаткичларни, яъни ушбу таҳлил натижаси бўйича бошқарув қарорларини қабул қилиш билан боғлиқ кўрсаткичларни ўз ичига олади.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Иккинчидан, ушбу тўпланган маълумотларни таҳлил қилиш натижасида мавжуд тенденциялар, барқарор ёки жадал ривожланишнинг ҳолати билан боғлиқ муаммолар аниқланади. Аниқланган муаммолар шунчаки муаммони билиши учун эмас, балки уни ҳал қилиш учун аниқланади. Демак таҳлил натижасида ҳамisha муаммоларни ҳал қилишга қаратилган ечимлар ишлаб чиқилган бўлиши лозим.

Учинчидан, таҳлил натижалари асосида корхона ва ташкилотларнинг ИР стратегиясига оид тавсияларни ишлаб чиқиш лозим бўлади. Бунда масаланинг ечимига креатив ёндошувлар асосида кўпвариантли ечимлар ишлаб чиқилиб, уларнинг энг самараласи танлаб олинади ва айнан шу амалиётга қўлланилади. Ушбу маълумотлар асосида стратегик қарорлар қабул қилинади. Чунки ИР аналитикаси асосида ташкилот раҳбарияти стратегик қарорлар қабул қилиш имкониятига эга бўлади. Ушбу қарорлар корхона ва ташкилотлар фаолиятининг барқарор ривожланиши ва самарадорлигининг мунтазам ошиб бориши учун зарур жараён ҳисобланади.

Тўртинчидан, қабул қилинган қарорларни корхона ва ташкилотларда қандай бажарилаётганлиги ва аниқ йўналишларда амалга оширилаётганлиги кузатилиши билан бирга назорат ҳам қилиб борилади. Ушбу жараёнда ИР жамоаси, раҳбарият ва бошқа манфаатдор томонлар ўртасида ҳамкорлик ўта муҳим ҳисобланади.

Бешинчидан, ҳар бир тадбирнинг қандай амалга оширилаётганлигини узатиб, унинг сифати ва самарадорлигини баҳолаб ҳам борилади. Амалга оширилган тадбирларнинг самарадорлигини баҳолаш, натижаларни кузатиш ва кейинги ривожланиш учун кўрсаткичлар даражасидан келиб чиқиб, навбатдаги босқич учун аниқ вазифалар белгилаб олинади.

Хулоса қилиб айтганда, қиймат занжири инсон ресурслари аналитикасининг самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, корхона ва ташкилотларнинг стратегик мақсадларига эришишга ҳам ёрдам беради. Шу туфайли мамлакатимиз амалиётида инсон ресурсларининг қиймат занжиридан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бу инсон ресурсларининг самарадорлигини ошириш билан бирга, мамлакат иқтисодий қудратини мустаҳкамлаб, аҳоли фаровонлигининг ошиб боришига ҳам хизмат қилади.

Худайбердиев Умар – и.ф.н., СамИСИ доценти,
hudayberdiyevumar1941@gmail.com

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИ СТРАТЕГИК РИВОЖЛАНТИРИШДА ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда темир йўл хизматларининг ҳолати ва ривожланиши баён қилинган. Темир йўл инфратузилмасининг яхшиланиши, темир

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

йўлларининг электрланиши юк ташиш ва йўловчиларни ташишда ижобий кўрсаткичларга олиб келмоқда.

Калит сўзлар: Темир йўл хизматлари, электрлаштириши, юк ташиши, юк айланмаси, ҳисса, йўловчи ташиш, йўловчи айланмаси.

Аннотация: В статье описано состояние и развитие железнодорожного сообщения в Узбекистане. Совершенствование железнодорожной инфраструктуры, электрификация железных дорог приводит к положительным показателям в сфере грузовых и пассажирских перевозок.

Ключевые слова: Железнодорожное сообщение, электрификация, грузовой транспорт, грузооборот, вклад, пассажирские перевозки, пассажирооборот.

Abstract: The article describes the state and development of railway communication in Uzbekistan. Improving railway infrastructure and electrifying railways leads to positive indicators in the field of freight and passenger transportation.

Key words: Railway communication, electrification, freight transport, cargo turnover, contribution, passenger transportation, passenger turnover.

Темир йўл транспорти хизмат соҳасининг муҳим тармоқларидан биридир. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида темир йўллар қурилди, лакомативлар, темир йўл вагонлари, минераллар, цемент, дон ташийдиган маҳсус вагонлар ишлаб чиқарилди.

Учқудук - Нукус, Ғузур - Бойсун темир йўлларининг қурилиши Қорақалпоғистон, Қашқадарё даштларидаги фойдали қазилмаларидан фойдаланишга имкон яратди. Тошкент - Самарқанд, Тошкент - Қарши, Тошкент – Бухоро, Тошкент – Хива йўналишларининг электрлаштирилиши замонавий тезюрар лакомативларнинг фойдаланиши юк ва йўловчи ташишни тезлаштирди. Айниқса туристларга қулай шароит яратиш, манзилга тезроқ етиб боришни таъминлади.

Жадвал 1

Темир йўл транспортида 2019-2023 йилларда юк ташиш ва юк айланмаси кўрсаткичлари

Йиллар	2019	2020	2021	2022	2023	2023 йил 2019 йилга Нисбатан %
Кўрсаткичлар						
1. Юк ташиш: млн тонна	70,1	70,6	72,0	73,4	73,8	105,3
2. Юк айланмаси: млн.т/км.	23444,6	23632,2	24618,8	24939,6	27055,8	115,4

Жадвал маълумотларидан кўришиб тўрибдики, темир йўл хизматлари кўрсаткичи мунтазамйилдан-йилга яхшиланиб бормоқда.

Юк ташиш кўрсаткичи темир йўл орқали ташилган турли юкларнинг миқдорини ифодалайди. Бу кўрсаткичи буйича темир йўл барча транспорт турларида 5,1%ни ташкил этади. Автомобиль хизматлари юк ташишда этакчи бўлиб, юк ташиш хизматларининг 90,7 фозини (2023 йил) ташкил этади. Темир йўли юкларни узоқроқ масофага ташиганлиги учун 2023 йил барча транспорт турлари юк айланмасида 35,2 фоизни ташкил этган. 2023

“Хизматлар соҳасини стратегик ривожлантириш орқали hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIАK materiallari

йил темир йўл юк айланмаси 27055,8 млн.т/км ташкил этиб, 2019 йилга нисбатан 115,4 фоизга ўсган.

Темир йўли орқали асосан турли рудалар, кўмир, цемент, нефт маҳсулотлари, ўғитлар қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ташилади.

Темир йўли орқали йўловчилар ҳам ташилади. Хозирги пайтда темир йўлларнинг электрлашуви, тез юрар поездларнинг йўлга қўйилиши, темир йўлда йўловчиларга кўрсатилаётган хизматлар сифатининг яхшиланиши содир бўлди.

Жадвал 2

Ўзбекистон темир йўллари транспортда 2019-2023 йилларда йўловчи ташиш ва йўловчи айланмаси кўрсаткичлари

Йиллар	2019	2020	2021	2022	2023	2023 йил 2019 йилга Нисбатан %
Кўрсаткичлар						
1. Йўловчи ташиш- млн.киши	22,9	6,2	7,9	9,0	9,7	42,6
2. Йўловчи айланмаси: млрд.йўловчи км.	4,4	1,8	3,1	3,5	3,9	88,6

Йўловчи ташиш кўрсаткичи темир йўл орқали неча киши ташилган бўлса, йўловчи айланмаси шунча йўловчиларни неча км. ўзоқликга ташилганини билдиради.

Жадвал -2 маълумотига кўра 2023 йилда 9,7 млн киши ташилган лекин 2019 йил кўрсаткичига қараганда кам – 42,6 фоизгина ташкил этади. Бу 2019-2020 йиллардаги короновирус пандемиясининг тасиридир. Лекин кейинги йилларда аста-секинлик билан йўловчи ташиш кўпайиб бормоқда. Йўловчи айланмаси кўрсаткичи ҳам камайган. 2023 йил 2019 йилга нисбатан – 88,6 фоизни ташкил этади.

Ўзбекистон-Қирғизистон-Хитой темир йўлининг қурилиши, транспорт-логистика соҳасидаги ўзгаришлар темир йўл транспорти кўрсаткичларини янада яхшилашга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2023 йил 10 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспорти соҳасини тубдан ислох қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-329-сонли қарори.

2. Худайбердиев У. , Холикулов А.Н. Хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланиши ва муаммолари. Монография. Самарқанд, СамИСИ, 2020

3. Худайбердиева М.У. Роль розничной торговли в развитии экономики. “Образование и наука в ХХ веке” журнал 24.11.2024 год.

4. www.stat.uz

А.Н.Холиқулов – СамИСИ Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси мудири, и.ф.н., профессор

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА СЕРВИС СИФАТИНИ ОШИРИШ ОРҚАЛИ САМАРАДОРЛИКНИ БАҲОЛАШНИНГ ИЛМИЙ ВА УСЛУБИЙ МАСАЛАЛАРИ

***Аннотация:** Мақолада “Мамлакатимизда хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг асосий концептуал йўналишлари, ҳамда хизматларининг сифатига боғлиқ омиллар ёритиб берилган.*

***Калит сўзлар:** Хизмат, хизмат кўрсатиш, хизмат кўрсатиш корхоналари, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлиги.*

***Аннотация:** В статье выделены основные концептуальные направления развития сферы услуг в нашей стране, а также факторы, связанные с качеством услуг.*

***Ключевые слова:** Сервис, сервис, сервисные предприятия, эффективность сервисных предприятий.*

***Annotation:** In the article, the main conceptual directions of the development of the service sector in our country, as well as the factors related to the quality of services, are highlighted.*

***Key words:** Service, service, service enterprises, efficiency of service enterprises.*

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар, ислохотлар учун эмас, балки инсонлар, уларнинг муносиб турмуш шароитини яхшилашга, ижтимоий ҳимоясини кучайтиришга қаратилганлигини Президентимизнинг ҳалқимиз фаровонлигини ошириш, камбағалликни камайтириш, аҳолини кексалик ёшида пенсия билан таъминлаш, уларни ижтимоий муҳофаза қилиш борасида узлуксиз ғамхўрлик қилиб келаётганлигида кўриш мумкин.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, яширин иқтисодиётни камайтириш ва аҳолининг бандлик масаласини ҳал қилиш орқали камбағалликни қисқартириш каби муҳим тадбирларга қаратилган. Президентимизнинг айнан 2021 йил 22 апрель кунини хизмат кўрсатиш соҳаси йўналишларини ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Бу йиғилиш аҳолини иш билан таъминлаш ва уларнинг фаровонлигини оширишга қаратилган олдинги олиб борилган ишларни янада кучайтиришга ва мамлакатда ислохотларни чуқурлаштиришга қаратилган амалий тадбирлардан бири бўлди. Хизмат кўрсатиш соҳаси кенг қамровлилиги билан иқтисодиётда, аҳоли турмуш даражасида муҳим ўринлардан бирини тутди. Хизмат кўрсатиш соҳасида янги иш ўринларини яратиш, кам харажат билан, тез муддатда ташкил этиш мумкин, бундан ташқари қилинган харажатлар самарадорлиги ҳам юқоридир. Аҳоли даромадларининг реал ўсиши ҳам аввало хизматлар кўрсатиш соҳасида яққолроқ сезилади.

Мамлакатимизда хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг асосий концептуал йўналишларини белгилаб олиш мумкин. Бу йўналишлар куйидагилардир:

1. Хизматлар кўрсатиш соҳасида тадбиркорликнинг фаоллигини янада кучайтириш учун қулай шарт-шароит яратиш, хусусан, бу борадаги расмиятчилик тўсиқларини бартараф этиш.

2. Қишлоқ жойларда хизмат ва сервис соҳасини жадал ривожлантириш, хусусан, қишлоқ аҳолисига кўрсатилаётган хизматлар, биринчи навбатда, коммунал-маиший, уй-жойларни таъмирлаш ва қуриш, сувдан фойдаланиш, ветеринария, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини тайёрлаш ва машина трактор парклари соҳасидаги хизматлар ҳажми ва турларини янада ошириб бориш.

3. Коронавирус пандемияси бу соҳага салбий таъсир кўрсатди. Шу боис, тадбиркорларга турли хилдаги солиқ имтиёзлари, ҳамда субсидия ва бошқа имтиёзли кредитлар тақдим этиш орқали кўмак бериш.

4. Хавфсизлик талабларини қўйган ҳолда, одамлар гавжум жойларда, яъни аэропорт, темир йўл ва автовокзаллар ҳудудларида, магистрал йўллар ёқасида савдо ва хизмат кўрсатиш объектларини ташкил этиш орқали тадбиркорларни даромад олишини, аҳолини эса иш билан таъминлаш.

5. Мамлакатимизда анъанавий хизматлар турларини ривожлантириш, айрим бугунги кун талабига жавоб берадиган, аммо унитилиб кетилган хизмат турларини излаб топиш ва уларни тиклаш.

6. Хизматларининг янги истиқболли турларини, хусусан, туризм, юридик, консалтинг, банк, молия, суғурта, лизинг ва бошқаларни янада жадал равишда ривожлантириш.

7. Мамлакатимизнинг хизматлар экспортини кўпайтириш учун ушбу соҳа корхоналарининг ҳалқаро бозордаги хизматлар даражаси ва сифатини оширишга эришиш.

8. Энг муҳими, хизматлар кўрсатиш ва сервис соҳасида ишлайдиган кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мижоз хизмат кўрсатиш корхонаси сервисидан фойдаланиш ёки фойдаланмаслиги унга кўрсатилган хизматнинг яхши ёки ёмонлигига, яъни сервиснинг сифатига боғлиқ. Биринчи марта мижозни яхши реклама, бой жиҳозлар ёки кенг турдаги таомномалар билан жалб қилиш мумкин. Аммо иккинчи марта мижоз персоналнинг профессионал ишлаши ва олдин унга кўрсатилган хизмат сифатининг юқорилиги учун келади.

Хизмат кўрсатиш корхонаси маъмурияти, хизматчилари ва мижозлари ўртасидаги ўзаро муносабатларни белгилаб берувчи асосий ҳужжатлардан бири «Хизмат кўрсатиш корхонаси хизматлари кўрсатиш қоидалари» ҳисобланади. Ушбу ҳужжатнинг «Хизмат кўрсатиш тартиби» бўлимида шундай деб қайд этилган: «Кўрсатилаётган хизматлар сифати шартнома

талабларига жавоб бериши лозим. Агар шартнома бўлмаса ёки тўлиқ бўлмаса ушбу хизматларга одатда қўйиладиган талабларга жавоб бериши лозим.

Хизмат кўрсатиш корхонаси хизматларининг сифати бир қанча омилларга боғлиқ. Бу омилларга бизнинг фикримизча қуйидагиларни киритиш мумкин:

1. Моддий-техника базасининг ҳолати, яъни: хизмат кўрсатиш корхонаси биноларнинг қулай режалаштирилганлиги ва сифатли жиҳозланганлиги, замонавий жиҳозлар билан таъминланганлиги ва х.к.

2. Хизмат кўрсатишнинг илғор технологияси. Бунга: жамоат ва турар хоналарни тозалаш тартиби ва усуллари; миқозларни рўйхатга олиш ва улар билан ҳисоб-китоб қилиш, ресторан ва барларда овқатлар ва ичимликларни тайёрлаш рецептлари, савдо залларида хизмат кўрсатиш шакллари ва бошқалар киради.

3. Хизмат кўрсатувчи персоналнинг юқори даражада профессионалиги, унинг миқозга аниқ, тез ва маданиятли хизмат кўрсатишга қодирлиги ва тайёрлиги.

4. Хизмат кўрсатиш корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини бошқариш. Бунга сифат стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, персоналнинг малакасини муттасил ошириш, хизмат кўрсатиш корхонаси фаолиятининг барча жабҳаларида сервисини назорат қилиш, тўғрилаш, такомиллаштириш кабилар киради.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатига таъсир кўрсатувчи омилларни чуқурроқ ўрганишни талаб қилади. Чунки ушбу кўрсаткичнинг даражаси бошқа жуда кўп иқтисодий-ижтимоий кўрсаткичларнинг ҳолати боғлиқдир.

Маълумки ҳар қандай ишда инсон меҳнати тадбиркорни фойда билан таъминлайдиган муҳим омил ҳисобланади. Аммо хизмат кўрсатиш соҳасида ушбу кўрсаткичнинг ҳажми бевосита меҳнатнинг миқдори ва сифатига боғлиқ. Кейинги пайтларда хизмат кўрсатиш корхоналарида инсон омилига катта эътибор қаратилмоқда.

Самарқанд шаҳрида жойлашган ўтказилган сўровларда хизмат кўрсатиш корхоналарини ривожлантириш учун асосий омил нима, деган саволга биринчи навбатда персоналнинг профессионалиги (57,8%), деб жавоб бердилар. Қолган барча омиллар 42,2 %ни ташкил қилади. Бундан кўриниб турибдики, хизмат кўрсатиш корхоналарининг рақобатбардошлиги бевосита унинг ходимларига ва улар томонидан кўрсатилаётган хизматларнинг сифатига боғлиқ экан.

Хизмат кўрсатиш корхонасида кўрсатиладиган хизматларнинг сифатига, лавозимидан қатъий назар, унда ишлайдиган барча ходимлар масъул бўлишини талаб қилади. Истеъмолчи катта тоқатсизлик билан яхшироқ хизмат кўрсатилишини кутади. Шу туфайли қайси хизмат кўрсатиш корхонасида ходимлар яхшироқ хизмат кўрсата олса, шу корхона

рақобатчиларга нисбатан қулайроқ имкониятга эга бўлади ва шу субъект рақобатбардош бўлиши тайин.

Хизмат кўрсатиш корхонасида ходимлар яхши ва сифатли хизмат кўрсатиши энг аввало ишлаш учун қулай муҳит яратилишидан иборат. Ходимларга ишлаш учун қанчалик қулай муҳит яратилса, шунчалик самарадорлик ва сифат юқори бўлади. Иш учун қулай муҳит қуйидагиларда иборат:

- **кадрларни танлаш ва жойлаштиришнинг адолатли жараёнини ташкил этиш;**
- ҳар бир иш жойида норма ва стандартлар бажарилишини баҳоловчи кўрсаткичлар белгиланган ёзма шаклдаги хизмат мажбуриятлари (мансаб инструкциялари) мавжуд бўлиши;
- хизматчилар малакасини оширишга эҳтиёжларни ва шарт-шароитларни хизмат бўйича кўтарилиш нуқтаи назаридан баҳолаш, иш ҳақини ошириш (разрядни ошириш);
- малакани доимий равишда ошириб боришни рағбатлантириш;
- вақти-вақти билан бутун персонал ишини текшириб туриш;
- барча даражадаги хизматларни рағбатлантириш дастури ва шартларини ишлаб чиқиш;
- хизматчиларни хизмат мансабларини кўтаришнинг расмий режаси, кўтарилишнинг шартларининг белгилаб қўйилишини таъминлаш;
- вақти-вақти билан иш ҳақини ошириш ва шу орқали мавжуд мансабларнинг рақобатбардошлигини сақлаш;
- рақобатбардошлигини сақлаш мақсадида имтиёзлар тизимини такомиллаштириб бориш;
- маъмурият учун мажбурий бўлган меҳнат келишмовчиликларини ҳал қилиш тартибини жорий қилиш.

Хизмат кўрсатиш корхонасида ҳар бир янги ходим ўзини корxonанинг ажралмас қисми сифатида ҳис қилиши, хўжаликнинг асосий стратегик вазифалари ва молиявий ҳолатини билиши керак. Агар хизмат кўрсатиш корхонасида юқорироқ сифатли хизмат кўрсатишни таъминловчи тадбирлар аниқ бўлмаса, уни албатта шакллантириш лозим. Шундагина ҳар бир ходим ўзлари бажарадиган вазифаларни бажаришга киришганларида ўз мажбуриятларини чуқур англаши ва ҳис қилиши мумкин.

Ҳозирги пайтда ходимлар малакасини оширишга иложи борича кўпроқ эътибор қаратиш лозим. Чунки, мижозларнинг хизмат сифатига бўлган талаби узлуксиз ошиб бормоқда, сифат стандартлари ўзгармоқда, рақобат кучаймоқда. Бундай шароитда хизмат кўрсатишни юқори даражада сақлаш, янги стандартга тезкорлик билан мослашиш, уни амалга ошириш лозим бўлади. Шу туфайли персонални қайта тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш масаласи хизмат кўрсатиш корxonасининг маъмурияти диққат эътиборида ҳамиша бўлиши лозим.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Хизмат кўрсатиш корхоналарининг вазифаси тармоқ ичидаги эркин рақобат шароитида миждозни ўзига кўпроқ жалб қилиш ва жалб қилинган миждозларга сифатли хизмат кўрсатиб, биринчидан уларнинг хизматларга бўлган эҳтиёжини қондириш ва иккинчидан ҳар бир миждоздан кўпроқ турли сифатли хизматларни кўрсатиш эвазига кўпроқ маблағини хизмат кўрсатиш корхонасига қолдиришдан иборатдир.

Uzakov Utkir Abdusattarovich – Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, “Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, e-mail:u.uzakov@tift.uz; UO‘K 657:006.013:658.8 ORCID 0009-0005-6637-3234

SAVDO KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Аннотация: Ushbu maqolada savdo korxonalarining sotish xarajatlarini aniqlash, tahlil qilish, sotish xarajatlarini kamaytirish strategiyalari, sotish xarajatlari va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlik kabi masalalar, shuningdek savdo korxonalarida sotish xarajatlarining o‘rni, ularning tashkilot faoliyatidagi ahamiyati va ularni boshqarish usullari haqida batafsil bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: Savdo korxonalari, sotish xarajatlari, mahsulot, marketing strategiyalari, mijozlar, reklama xarajatlari, raqobat.

Аннотация: В этой статье подробно рассматриваются вопросы определения и анализа торговых расходов предприятий, стратегии сокращения торговых расходов, связь между торговыми расходами и прибылью, а также место торговых расходов в торговых компаниях, их значение для деятельности организации и методы управления ими.

Ключевые слова: Торговые компании, торговые расходы, продукция, маркетинговые стратегии, клиенты, рекламные расходы, конкуренция.

Abstract: This article provides a detailed discussion on identifying and analyzing the selling expenses of trading companies, strategies for reducing selling expenses, the relationship between selling expenses and profit, as well as the role of selling expenses in trading companies, their significance in organizational operations, and methods of managing them.

Keywords: Trading companies, selling expenses, products, marketing strategies, customers, advertising expenses, competition.

Kirish. Sotish xarajatlari nima? Sotish xarajatlari - bu mahsulot yoki xizmatni sotish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar.

Savdo korxonalarida sotish xarajatlari – bu mahsulot yoki xizmatlarni iste‘molchiga yetkazib berish va uni sotish jarayonidagi turli xarajatlarni o‘z ichiga olgan muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biridir. Sotish xarajatlari, asosan, marketing, reklama, distributsiya, sotuvchilarga to‘lanadiga to‘lovlar va boshqa sotuv bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir savdo korxonasi o‘z faoliyatida ushbu xarajatlarni samarali boshqarish orqali raqobatbardoshligini oshirishga, mijozlar bazasini kengaytirishga va umumiy foydani maksimal darajaga keltirishga intiladi.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri o‘rnatish savdo korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosi hisoblanadi. Sotish xarajatlarining o‘rni va ahamiyati esa nafaqat korxonada daromadining shakllanishida, balki uning uzoq muddatli rivojlanishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, sotish xarajatlarini samarali boshqarish va optimallashtirish har bir korxonada uchun dolzarb vazifaga aylanadi. Bu masala savdo sohasidagi boshqaruv va strategiya qarorlarini qabul qilishda katta ahamiyatga ega.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining xarajatlari xususan, sotish xarajatlari tarkibi bo‘yicha hamda sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilash bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy asosi bo‘lib, 1999-yil 05-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-son qarori¹⁵⁰ [1] sanaladi.

Adabiyotlar sharhi. Savdo xaqida ko‘plam olimlar turli xil kitoblar, qo‘llanmalar yozishgan, ilmiy ishlar qilingan va o‘zlarining savdo xaqidagi turli xil fikrlarini bildirgan, xususan iqtisodchi olim K.B. Urazov o‘zining “Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish” deb nomlangan kitobida quyidagicha fikrlarni bildirgan: Mablag‘lar aylanishi jarayonida savdo ishlab chiqarish soxasini iste‘mol soxasi bilan bog‘lovchi vosita xisoblanadi. Savdosiz jamiyatda yaratilgan nozu-ne‘matlar o‘z iste‘molchilariga yetib bormaydi, shuningdek ularni takror ishlab chiqarishni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Savdo makon va zamonda uzliksiz, doimiy yuz beruvchi tovar-pul munosabatlarining majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomon sotuvchi, ikkinchi tomon esa sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi (K.B. Urazov 2004) [2].

Savdo ishlab chiqarishning biridan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisiga va ishlab chiqaruvchi qo‘lidan istemolchi qo‘liga maxsulotlarni yetkazish vazifasini bajaradi (B.A. Abdukarimov 2010) [3].

Chakana savdo tarmog‘ida boshqaruv hisobini takomillashtirish va rivojlantirish zarurati ko‘p jihatdan joriy amaliy yechimlarni izlash, yangi innovatsion vositalarni joriy etish, xususan, tejamkor boshqaruv hisobi amaliyotiga va nazariyaning matematik apparatiga murojaat qilish bilan belgilanadi deb takidlab o‘tgan (Ю.В. Смирнова 2024) [4].

Narxlarning o‘zgarishi hozirgi vaqtda chakana sotuvchilar uchun katta muammodir. Xarajat ko‘tarilsa, foydaga ta‘sir qiladi. Sifatni saqlab qolish uchun mahsulot narxi oshadi va bunda talabga ham ta‘sir qiladi (Alotosh Datta 2024) [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma‘ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo‘riqnomalar, xoriyda va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog‘i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan

¹⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.02.1999 yildagi 54-son

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

korxonalarining amaliy materiallari tashkil etadi. Tahlil jarayonida analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Savdo bu korxonalarining “tomiridagi qoni” qon yaxshi aylanganda ya’ni savdo yaxshi bo‘lganda korxonalar sog‘lom va uzoq umur ko‘radi. Savdoda sotish xarajatlari muhim ahamiyat kasb etadi, sotish xarajatlarini to‘g‘ri boshqarish korxonaning kelajagiga bevosita bog‘liq masala hisoblanadi.

Sotish xarajatlarini aniqlashda asosiy omillar. Sotish xarajatlarini aniqlashda bir qancha omillar hisobga olinishi kerak. Bular:

- 1) Mahsulotning turiga qarab xarajatlar;
- 2) Bozordagi raqobat darajasi;
- 3) Marketing strategiyalari;
- 4) Sotuv kanallari va ularning xarajatlari. Har bir omil sotish xarajatlarini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Sotish xarajatlarini aniqlash usullari. Sotish xarajatlarini hisoblash uchun bir nechta usullar mavjud, masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar usuli, foizli usul, va umumiy xarajatlar usuli. Bu usullar har xil vaziyatlarda qo‘llaniladi va xarajatlarni aniq hisoblashda yordam beradi.

Sotish xarajatlarini tahlil qilish. Sotish xarajatlarini tahlil qilishda asosiy maqsadlar xarajatlarni aniqlash, ularni boshqarish va biznes samaradorligini oshirishdir. Bu xarajatlar orqali kompaniya o‘z foydasini maksimal darajada oshirishga harakat qiladi. Tahlil natijalari xarajatlarning o‘shishi yoki kamayishini ko‘rsatishi mumkin. Bu jarayon natijasi tahlil xarajatlarni optimallashtirish va foyda olish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Tahlil usullari sifatida hisob-kitoblar, solishtirma tahlil va statistik usullar qo‘llaniladi. Bularning barchasi xarajatlarni o‘rganish va yaxshilash uchun zarur vositalardir. Bunga misol qilib, SWOT tahlilini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

SWOT tahlili misollari:

- Kuchlar: Yuqori brend obro‘si,
- Kamchiliklar: Yuqori xarajatlar,
- Imkoniyatlar: Yangi bozorlarni ochish,
- Tahdidlar: Raqobatchilar raqobati,

Sotish xarajatlarini kamaytirish strategiyalari. Sotish xarajatlarini kamaytirish kompaniya samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Bu jarayon xarajatlarni optimallashtirish, foydani ko‘paytirish va mijozlar bilan munosabatlarni kuchaytirishga yordam beradi.

Strategiyalar:

- Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- Ta’minotchilar bilan kelishuvlarni yaxshilash;
- Marketing va reklama xarajatlarini optimallashtirish;
- Savdo jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

Yana shuni ta’kidlash lozimki strategiyalarni joriy etishdan oldin, mavjud xarajatlarni tahlil qilish va shuningdek, raqobatchilarni o‘rganish zarur.

Sotish xarajatlarini kamaytirish uchun muhim tamoyillar:

➤ Samarali rejalashtirish: Sotish jarayonini yaxshi rejalashtirish xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, mahsulotlarning ombor zaxirasini optimallashtirish, ortiqcha saqlash xarajatlarini kamaytiradi.

➤ Texnologiyalardan foydalanish: Sotish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash xarajatlarni kamaytiradi. Masalan, avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ish jarayonini tezlashtirish.

➤ Mijozlar bilan aloqani yaxshilash: Mijozlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish, xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, mijozlar ehtiyojlarini yaxshi tushungan holda, ularni yanada samarali xizmatlar bilan ta’minlash.

➤ Marketing strategiyalarini optimallashtirish: Maqsadli auditoriyaga mos marketing strategiyalarini ishlab chiqish, xarajatlarni kamaytirish va sotishni oshirishga yordam beradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda reklamalarni to‘g‘ri yo‘naltirish.

Xarajatlarning ta’siri:

Sotish xarajatlari foydaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yuqori reklama xarajatlari yoki tarqatish xarajatlari foyda marjasini kamaytirishi mumkin. Agar xarajatlar ko‘payib ketsa, bu kompaniyaning umumiy moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sotish xarajatlari bilan bog‘liq strategiyalar orasida xarajatlarni nazorat qilish va tahlil qilish muhimdir. Kompaniya o‘z xarajatlarini baholash orqali qaysi sohalarida tejash mumkinligini aniqlashi kerak. Shuningdek, barqaror etkazib beruvchilar bilan ishlash xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Xarajatlarni kamaytirishning bir necha usullari mavjud. Birinchidan, reklama xarajatlarini optimallashtirish mumkin, masalan, samarali raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish. Ikkinchidan, tarqatish jarayonlarini soddalashtirish orqali xarajatlarni qisqartirish mumkin. Umuman olganda, sotish xarajatlari kompaniyaning moliyaviy salohiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Xarajatlarni samarali boshqarish orqali kompaniyalar o‘z foydalarini oshirish va raqobatbardoshligini saqlab qolishlari mumkin.

Umuman olganda savdo korxonalarida tovarlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish, sotish xarajatlarini o‘z vaqtida hisobga olishda buxgalteriya hisobining o‘rni katta ahamiyatga ega [6] shuning uchun korxonalarda xarajatlar bilan birgalikda buxgalteri hisobi tizimi ham xar doim to‘g‘ri va samarali olib berilishi kerak hisoblanadi.

Bugungi kundagi chakana savdo korxonalarida reklama faoliyatidan foydalanish har bir korxonaga uchun juda zarur bo‘lib, ayniqsa, ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatda katta samaradorlikka ega. Reklamadan foydalanish orqali korxonaga, tovarlar, buyurtma shartlari va aloqalar haqida batafsil ma’lumotlarni ommaga taqdim etishi mumkin [7].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratlar rivojlangan davlatlarda savdo korxonalarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda rivojlangan

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

mamlakatlar iqtisodiyotida savdo-tijorat korxonalarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi ancha yuqori. Shu sababli, Respublikamizda savdo-tijorat korxonalari faoliyatini tashkil qilish va jahon tajribasi asosida takomillashtirish dolzarb muammolardan biri sanaladi [8].

Xozirgi kunga kelib yurtimizda savdo sohasidan tushayotgan tushumlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi salmoqli o‘rinlarni egallaydi. Ushbu ko‘rsatkichlarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval¹⁵¹: 2019-2024-yillarda Savdo tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YAIM (YAHM) dagi ulushi, (YAIM (YAHM) ga nisbatan foizda)

Ko‘rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y. **	Yanvar -iyun 2024-y. **
O‘zbekiston Respublikasi	5,6	5,8	6,0	5,8	6,0	6,0
Qoraqalpog‘iston respublikasi	4,6	4,6	5,0	4,6	5,2	5,4
Andijon	5,3	5,6	6,1	5,6	5,6	6,2
Buxoro	5,7	6,3	6,3	6,3	6,3	7,0
Jizzax	4,9	5,0	4,7	4,8	5,5	7,6
Qashqadaryo	5,3	5,7	5,6	5,8	5,8	6,3
Navoiy	2,8	2,4	2,4	2,5	2,4	2,2
Namangan	6,7	6,7	6,6	6,6	6,8	7,5
Samarqand	5,9	6,0	5,9	5,8	5,8	6,5
Surxandaryo	7,4	7,5	7,6	7,6	7,5	8,2
Sirdaryo	4,1	4,4	4,1	4,0	4,0	4,2
Toshkent	5,6	5,2	5,0	5,4	5,6	5,8
Farg‘ona	6,8	7,2	6,7	6,6	6,9	7,3
Xorazm	5,3	5,1	5,1	4,5	4,6	4,9
Toshkent sh.	10,9	11,5	12,2	11,7	12,4	11,2

¹⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

*) yillik ma’lumotlar MHT-2008 uslubiyaiga muvofiq, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqilgan

***) dastlabki ma’lumotlar

Xulosa va takliflar. Savdo korxonalarida sotish xarajatlarining o‘rni va ahamiyati korxonalar faoliyatining samaradorligi va rentabelligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sotish xarajatlari, marketing, reklama, sotuvchilar faoliyati kabi turli omillarni o‘z ichiga olgan holda, mahsulot yoki xizmatni bozorga chiqarish, mijozlarga yetkazib berish va ularni sotishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu xarajatlarni samarali boshqarish, optimallashtirish va o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashtirish orqali korxonalar raqobatbardoshlikni oshirishi, xarajatlarni kamaytirishi va foydani maksimal darajaga etkazishi mumkin.

Sotish xarajatlarining ahamiyati nafaqat qisqa muddatli foyda olishda, balki korxonaning uzoq muddatli rivojlanishida ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri boshqarilgan sotish xarajatlari, shuningdek, mijozlar bilan uzoq muddatli va samarali aloqalar o‘rnatishga imkon yaratadi. Shuning uchun, har bir savdo korxonasi sotish xarajatlarini diqqat bilan tahlil qilib, ulardan samarali foydalanishning strategiyalarini ishlab chiqishi zarur. Bu esa o‘z navbatida korxonaning muvaffaqiyatli va barqaror faoliyatini ta’minlashga yordam beradi. Sotish xarajatlarini samarali boshqarish, kompaniyaning umumiy moliyaviy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular foyda marjasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sotish xarajatlarini kamaytirish uchun bir nechta strategiyalar mavjud bo‘lib ularni quyidagi tartibda bo‘lish mumkin.

- 1) Marketing xarajatlarini optimallashtirish;
- 2) Sotuvchilarni tayyorlash va ularning samaradorligini oshirish;
- 3) Raqobatchilarni o‘rganish va bozorni tahlil qilish orqali yaxshi takliflar ishlab chiqish.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish, xarajatlarni sezilarli darajada optimallashtirish va kamaytirishi mumkin.

Amaliy tavsiyalar. Sotish xarajatlarini optimallashtirish uchun:

- 1) Marketing strategiyalarini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish;
- 2) Onlayn reklama va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish;
- 3) Xarajatlarni monitoring qilish va tahlil qilishni kuchaytirish.

Mijozlarni jalb qilish imkoniyatlari va cheklovlarini yaxshiroq tushunish uchun demografik ma’lumotlarni to‘plash muhim sanaladi. Bunga aholining yoshi, boyligi, oilasi, qiziqishlari yoki biznesingiz uchun tegishli bo‘lgan boshqa narsalar haqidagi ma’lumotlar kiradi.

Keyin bozoringizni yaxshi tushunish uchun quyidagi savollarga javob bering:

- Talab: Sizing mahsulotingiz yoki xizmatigingiz uchun xohish bormi?
- Bozor hajmi : Sizing taklifingizga qancha odam qiziqadi?
- Iqtisodiy ko‘rsatkichlar: daromad darajasi va bandlik darajasi qanday?
- Joylashuv: Sizing mijozlaringiz qayerda yashaydi va biznesingiz qayerga yetib borishi mumkin?

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

- Bozorning to‘yinganligi: iste‘molchilar uchun qancha shunga o‘xshash variantlar mavjud?
- Narxlar: potentsial mijozlar ushbu alternativlar uchun nima to‘laydilar?[9]

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 05-fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 54-son Qarori <https://lex.uz/docs/-264422>

2. K.B. Urazov “Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish” Toshkent - 2004. -336 bet.

3. B.A. Abdulkarimov Ichki savdo iqtisodiyoti: darslik, Toshkent “Iqtisod-moliya”, 2010. -384 bet.

4. Ю.В. Смирнова (2024). Совершенствование бухгалтерского управленческого учета в розничных торговых сетях автореферата <https://www.dissercat.com/content/sovershenstvovanie-bukhgalterskogo-upravlencheskogo-ucheta-v-roznichnykh-torgovykh-setyakh>

5. Alotosh Datta (2024). The impact of sales effort on a dual-channel dynamical system under a price-sensitive stochastic demand, *Journal of Retailing and Consumer Services* 76 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0969698923003120>

6. U.A. Uzakov (2024). SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MILLIY STANDARTDAN XALQARO STANDARTGA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONI, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(10), 262–267 <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/1720>

7. N.D. Karimova (2023). CHAKANA SAVDODA REKLAMA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI, *Scholar*, 1(8), 98-111. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2705>

8. U.A. Uzakov (2024). RESPUBLIKAMIZ IQTISODIYOTIDA SAVDO KORXONALARINING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYI, HAMDA ULARDA HISOB YURITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, *So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi Respublika ilmiy-uslubiy jurnali* 7(9), 64-68. <https://bestpublication.net/index.php/sitn/article/view/422>

9. <https://www.sba.gov/business-guide/plan-your-business/market-research-competitive-analysis>

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Fayziyev Umurkul Shuxratovich – Acting Associate Professor of the Department of Financial Analysis, Tashkent State University of Economics, ORCID: 0000-0002-3922-7742

FINANCIAL ANALYSIS OF THE OILFIELD SERVICE COMPANY JSC MAKHSUSENERGOGAS

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Maxsusenergogaz" AJning moliyaviy holati har tomonlama o'rganib chiqildi va uning faoliyati baholadi. Tahlil protseduralari kompaniyaga xavf-xatarlarning oldini olish va o'z faoliyatini ishonchli kengaytirishga xizmat qiladi. Tahlil ushbu sohaning faoliyat sohasi boshqalardan ajralib turishi va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi, chunki "Maxsusenergogaz" AJ neft-servis kompaniyasining asosiy faoliyati qurilish-montaj ishlarini olib borish, gaz magistrallarini yotqizish, neft va energetika kompaniyalari ishida ishlatiladigan uskunalarni o'rnatish va demontaj qilishdir.

Kalit so'zlar: moliyaviy holat, balans valyutasini tahlil qilish, rentabellik, likvidlik, qurilish-montaj ishlari.

Annotation. This article comprehensively examines the financial condition of Makhsusenergogas JSC and provides an assessment of its activities. The analysis procedures carried out will serve the company in preventing risks and in confidently expanding its activities. The conducted analysis is distinguished by the fact that the field of activity of this industry is different from others and has its own characteristics, since the main activity of the oilfield service company JSC Makhsusenergogas is construction and installation work, laying of gas pipelines, installation and dismantling of equipment used in the work of oil and energy companies.

Keywords: financial condition, balance sheet currency analysis, profitability, liquidity, construction and installation work.

Аннотация. В данной статье комплексно изучено финансовое состояние АО «Махсусэнергогаз» и дана оценка ее деятельности. Проведенные процедуры анализа послужат компании в предотвращении рисков и в уверенном расширении своей деятельности. Проведенный анализ отличим тем, что сфера деятельности данной отрасли отличима от других и имеет свои особенности, так как основной деятельностью нефтесервисной компании АО «Махсусэнергогаз» является проведение строительно-монтажных работ, прокладка газовых магистралей, монтаж-демонтаж оборудования используемых в работе нефтяных и энергетических компаний.

Ключевые слова: финансовое состояние, анализ валюты баланса, рентабельность, ликвидность, строительно-монтажные работы.

Introduction. Currently, in our country, as well as all over the world, there is a need to conduct a comprehensive analysis of enterprises in order to determine their financial condition and assess it. Thus, Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, dated July 28, 2015, No. 207 "On the introduction of criteria for evaluating the effectiveness of joint-stock companies and other economic entities with State ownership" and Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, dated December 14, 2018, No. 1013 "On measures to radically improve the system of financial rehabilitation of enterprises with state participation" serve as a kind of tools for execution of these actions. Having determined their financial condition, organizations can be confident in their future and correct all the shortcomings of the past. The analysis

of the financial condition of an enterprise plays a critical role in a comprehensive assessment of its economic stability and investment attractiveness. The purpose of this analysis is to identify dynamic trends in the economic development of an enterprise in the retrospective period, to diagnose in detail its current financial and economic situation, to make scientifically sound forecasts of the vectors of further strategic development, as well as to quantify and qualitatively assess the level of financial and operational risks affecting its functioning in conditions of market uncertainty.

Determining the financial condition of an enterprise at a specific reporting date is a comprehensive assessment of its property and financial situation based on the principles of a systematic and integrated approach. This analysis makes it possible to identify the structure and dynamics of assets and liabilities, the level of liquidity and solvency, the degree of financial stability, as well as the effectiveness of the company's resource management. The research results serve as the basis for the development of strategic management decisions aimed at ensuring long-term economic stability and sustainable development in a changing macroeconomic environment.:

- how well the company managed its financial resources during the period preceding this date;
- how it used the property;
- What is the structure of this property;
- how efficiently did the company combine its own and borrowed sources;
- how effectively did it use its own capital;
- What is the payoff?

The main types of analytical research of financial reporting data are: analysis based on a single database (vertical analysis), which is a structural study of the financial performance of an enterprise in order to determine the proportional ratio of reporting elements. Within the framework of this approach, the balance sheet items are transformed into relative indicators in relation to the total amount of assets, which makes it possible to identify the specific weight of each element in the formation of the property potential of the enterprise. Similarly, the items in the financial results report are expressed as a percentage of total income, which provides a comprehensive assessment of the profit structure and profitability of business activities. Such an analysis helps to identify key financial imbalances, form the basis for comparative analysis and make informed management decisions.

A review of the literature on the topic. In the context of modern economic realities, business entities are interested in moderate and sustainable activities that can be ensured by an effective capital management system, which will help maximize profits and increase their own well-being. An integral component of the continuity of business and the stability of the functioning of enterprises is the systematic work on the analysis and assessment of the financial condition, reflecting their ability to effectively use resources in a rapidly changing external environment. The content, the conceptual framework of the financial condition

and the assessment of the factors affecting it are important theoretical foundations for the development of a methodology for analyzing the financial condition of business entities. A significant contribution to the development of relevant theoretical provisions was made by domestic and foreign scientists and practitioners: Khan N.A., Ibragimov A., Abduganiev A.A., Khasanov B.A., Abdukarimov I.T., Pardaev M.K., O.I. Averina, M.I. Bakanov, V.I. Barilenko, S.B. Barngolts, L.A. Bernstein, Y.B. Brigham, L.T. Gilyarovskaya, D.A. Endovitsky, O.V. Efimova, V.G. Kogdenko, V.V. Kovalev, N.P. Lyubushin, M.V. Melnik, E.V. Nikiforova, J. Richard, O.V. Rozhnova, G.V. Savitskaya and others. Many authors reveal various aspects of the financial condition. However, the essential characteristics of the financial condition have not yet been determined; its conceptual framework, which allows to adequately disclose the content of the financial condition in relation to the practice of domestic enterprises, has not yet been formed; and the idea of the factors determining the level of financial stability needs to be clarified.

Modern methods of analyzing and evaluating the effectiveness of oilfield service industry enterprises cover a wide range of approaches and theoretical foundations developed by both foreign and domestic scientists. The classical works of Smith and J. Schumpeter, which laid the theoretical foundation for the study of economic processes, play a key role in shaping the foundations of efficiency analysis. The concepts of M. Mescon, M. Albert and F. Hedowri in the field of financial management emphasize the importance of a strategic approach to the management of industrial enterprises and their resources.

The contribution of Uzbek scientists such as S.S. Gulyamov, M.A. Ikramov, T.Z. Teshabaev and others to the study of the specifics of the development of national industry and the adaptation of modern methods of efficiency assessment in the context of the national economy is important and significant. Their work contributes to an in-depth understanding of the processes of economic growth and transformation of industry structures, as well as the formation of scientific foundations for optimizing the management of production and financial resources. Their research has enriched the theoretical and methodological basis for the development of effective tools for assessing the financial and economic stability of enterprises, which contributes to increasing competitiveness and innovation activity in the national industry.

Thus, modern scientific literature on the analysis and evaluation of the effectiveness of oilfield services industry enterprises demonstrates a multidimensional approach that integrates theoretical concepts with practical recommendations, which contributes to a deeper understanding of the specifics of the functioning of this sector. The review and systematization of the works of various authors make it possible not only to deepen the understanding of the mechanisms of analysis and evaluation of effectiveness, but also to form a comprehensive toolkit for their application in a rapidly changing economic environment. This integrated approach contributes to the development of more accurate and reasonable assessment methods, and also allows taking into account

the specific features of the oilfield services industry, which is a prerequisite for making informed management decisions and improving the financial performance of enterprises.

Research methodology. The methodological basis of the research is the works of domestic and foreign scientists who study in detail the theoretical and practical aspects of modern methods for assessing the effectiveness of oilfield services industry enterprises, as well as the issues of studying and analyzing their financial condition in a dynamically changing market environment. In the course of the analysis, not only legislative acts and regulatory documents were used, but also materials from scientific and practical conferences devoted to this topic, which ensured the versatility of the approach and the relevance of the research. The research was based on a systematic approach that involves a comprehensive analysis of interacting elements, and in order to achieve the goals and obtain objective results, methods of traditional, economic, mathematical, logical, comparative and statistical analysis were used, which allowed for a deeper understanding of the patterns of functioning of enterprises and the development of scientifically sound recommendations.

Analysis and results. To conduct a comprehensive financial analysis of an enterprise, the authors of the study decided to use a condensed analytical balance sheet, which is a modified form of the balance sheet, providing an increase in the degree of analytical informativeness. In the practice of financial analysis, various methodological approaches are used to study the structure and dynamics of the balance sheet, among which the following can be distinguished:

A direct analysis of the balance sheet, carried out without prior transformation and changes in the structure of balance sheet items, allows you to get a general idea of the financial position of the enterprise.


The formation of a condensed analytical balance sheet, which provides for the aggregation of elements of balance sheet items that are homogeneous in economic content in order to increase the convenience and accuracy of interpretation of the data obtained.

Clearing the balance sheet of regulatory items, including adjusting indicators by eliminating regulatory values and then aggregating data in the necessary analytical sections for in-depth research.

Thus, the tables below reflect one of the possible options for forming a condensed analytical balance sheet-net, in which individual items are aggregated in order to ensure greater clarity and consistency in financial analysis.

Dynamics of the balance sheet currency of MakhSusenergoGas JSC, million soums

Diagram 1



During the analyzed period, there has been an increase in the balance sheet currency of MakhSusenergoGas JSC. At the end of 2023, the balance sheet currency increased by about 28% relative to the end of 2022, and amounted to 126,687 million soums.

The company's net revenue for 2023 amounted to 226,737 million soums, and increased by 51,713 thousand soums, or 30 percent, compared to 2022.

In the structure of the total income received from the implementation of all types of activities of the Enterprise, the largest share was accounted for by income from the main type of activity.


The value of all assets on the company's balance sheet by the end of 2023 amounted to 126,686,522 thousand soums.

The company's long-term assets in the balance sheet currency at the end of 2023 amounted to 13,548,865 thousand soums (10.6% of total assets). Current assets amounted to 113,137,657 thousand soums (89.4% of total assets). Thus, the main part of the property structure for the entire analyzed period was occupied by current assets. Fixed assets, including equipment, are owned by the company.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari


Net revenue and cost of Mahsusenergogas JSC, million soums

Diagram 2



Financial results for 2023 of Makhsusenergogas JSC, million soums

Diagram 3



Conclusions and suggestions. An analysis of the current financial condition of Makhsusenergogas JSC revealed the absence of long-term debt (over 12 months), which can be interpreted as a positive trend indicating the stability of the financial structure of the enterprise. The absence of long-term debt obligations reduces dependence on external debt sources and reduces the financial burden associated with debt servicing. It also indicates a high degree of financial independence and the company's ability to independently meet its operational needs, minimizing the risks associated with possible fluctuations in

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XI AK materiallari

market conditions and changes in lending conditions. Thus, this fact indicates financial stability and a strategic focus on long-term independence.

The increase in short-term accounts receivable (from 27,692,952 thousand soums to 58,646,481 thousand soums) shows a stable structure of liabilities and satisfactory work carried out by the company with consumers of its products.

During the reporting year 2023, the company saw a significant increase in cash (from 42,394,280 thousand soums to 52,287,441 thousand soums) – the company's funds with absolute liquidity, which indicates the positive dynamics of the company's financial position. The growth of funds is a positive trend, and at the same time, in order to increase the efficiency of the enterprise, it is necessary to invest temporarily available funds along with borrowed funds in expanding production, developing new products, and advertising the enterprise, which is also pursued by this project.

At the end of 2023, there was an increase in the balance sheet currency, which characterizes an increase in the activity of the enterprise in the market.

The analysis of the balance sheet of Makhsusenergogas JSC showed a positive trend in its work, which is confirmed by the data from form No. 2 "Profit and Loss Statement".

Net revenue for 2023 increased by 51,713,198 thousand soums (from 175,023,826 thousand soums to 226,737,024 thousand soums). There was an increase in cost by 54,563,759 thousand soums (from 131,569,410 thousand soums to 186,133,169 thousand soums). The cost of production increases at a faster pace at the enterprise. Thus, with a 30 percent increase in net revenue, the cost increased by 41 percent, therefore, in the future, Makhsusenergogas JSC needs to pay increased attention to cost reduction measures (choosing cheaper suppliers, reducing transportation costs, optimizing forms of remuneration).

Thus, it can be concluded that the company has significant potential to improve its solvency, increase the liquidity of assets and strengthen financial stability, provided that a rational and strategically sound approach to financial resource management is applied. Effective asset management, including optimizing working capital and diversifying financing sources, can be the basis for increasing operational flexibility and minimizing financial risks. The implementation of targeted financial strategies will increase the internal efficiency of the enterprise and improve its position in the market, creating a solid foundation for further growth and long-term development.

List of used literature:

1. Fayziev U.S./ Analysis and assessment of the financial condition of enterprises based on foreign experience/ Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016

2. Fayziyev U.Sh. /The role and significance of the audit risk assessment in the auditor's activities/TJE - Tematics journal of Social Sciences ISSN 2277-3010 Vol-8-Issue-4 2021

3. Akhmadzhonov K. B., Yakubov I. I. Fundamentals of auditing. Textbook. - T.: Iktisod-moliya, 2009.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

4. Tulakhodzhaeva M.M., Ilkhomov S.I. Audit. Textbook. - T.: Iktisodiet, 2012.

5. Arabyan K. Organization and conduct of verification. Textbook. Moscow: EDINESTVODANA, 2009.

6. Mamatov Z., Najbiddinov S. Audit. Textbook. - T.: Sano-standard, 2014.

7. Kaplan Robert S., Norton David P. Balanced scorecard. From strategy to action / Translated from English. Moscow: Olymp—Business CJSC, 2003. 304 p.

8. Robinson M.A., Last D. Basic Model of Performance-Based Budgeting / M. Robinson, D. Last. — Washington: International Monetary Fund, 2009. — 16 p.

9. Satr R.C. Benchmarking. The Search for Industry Best Practices That Lead to Superior Performance / R.C. Camp. —Milwaukee, Wisconsin: ASQC Industry Press, 1989. URL: <https://www.researchgate.net/publication/237323758>

10. Fayziyev U.Sh., Features of accounting and analysis of the financial condition of enterprises., /AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 09, 2023 ISSN (E): 2993-2769/.

Ko‘chimova Dilnoza Ibragim qizi – Transport logistikasi assistenti, Jizzax politexnika instituti, E-mail: dilnozakoachimova93@gmail.com

Rajabov Xabibullo Ismoil o‘g‘li – Transport logistikasi talabasi

AQLLI MARSHRUTLASH YECHIMLARI BILAN NON MAHSULOTLARI YETKAZIB BERISHDA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

***Annotatsiya** Marshrutni optimallashtirish dasturi yetkazib berish marshrutlari va jadvallarini optimallashtiradigan, haydovchilarning rejalashtirish vaqtini qisqartiradigan va biznes samaradorligini oshiradigan vosita hisoblanadi. U etkazib berishni yakunlash uchun eng yaxshi yo‘lni hisoblab chiqadi va kechikishlarni kamaytiradi. Haydovchilar endi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratib, o‘z marshrutlarini qo‘lda rejalashtirishlari shart emas. Nonvoyxona marshrutini rejalashtirish dasturi foydalanuvchilarga tizimga kirish, ishlarni qabul qilish va yetkazib berish joylariga eng yaxshi yo‘lni kuzatish uchun optimallashtirish opsiyasini bosish imkonini beradi. Bu yangilikni saqlashga, mijozlar ehtiyojini qondirishga va kompaniya daromadini oshirishga yordam beradi.*

***Аннотация** Программное обеспечение для оптимизации маршрутов — это инструмент, который оптимизирует маршруты и графики доставки, сокращает время планирования водителями и повышает эффективность бизнеса. Он рассчитывает лучший маршрут для завершения доставки и минимизирует задержки. Водителям больше не нужно вручную планировать свои маршруты, сосредоточившись на задачах. Программное обеспечение для планирования маршрута пекарни позволяет пользователям войти в систему, нажать на опцию оптимизации, чтобы отслеживать лучший маршрут к местам получения и доставки. Это помогает поддерживать инновации, удовлетворенность клиентов и увеличивать доходы компании.*

***Annotation** Route optimization software is a tool that optimizes delivery routes and schedules, reduces driver planning time, and improves business efficiency. It calculates the best route to complete the delivery and minimizes delays. Drivers no longer need to manually plan their*

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

routes while focusing on tasks. Bakery route planning software allows users to log in, click on the optimize option to track the best route to pick-up and delivery locations. This helps to maintain innovation, customer satisfaction and increase company revenue.

Kalit so‘zlar: non maxsulotlari, tashish, konteyner, marshrut, optimallashtirish, Zeo Route Planner, GPS, dispecher.

Ключевые слова: пекарня, транспортировка, контейнер, маршрут, оптимизация, Zeo Route Planner, GPS, диспетчер.

Keywords: bakery, transportation, container, route, optimization, Zeo Route Planner, GPS, dispatcher.

Non sanoati oziq-ovqat sanoati tarmog‘i. Nonning turli navlarini, buxanka, bulka va teshikkulcha, parhez, diabetik va shifobaxsh non turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. O‘zbekistonda novvoylik qadimiy tarixga va boy an‘analarga ega. Non deyarli har bir oilada tayyorlanishiga qaramay shaharlar va yirik qishloqlarda yirik novvoyxonalar aholining yopilgan nonga bo‘lgan ehtiyojlarini ta‘minlashda muhim mavqeda turgan. Non va non-bulka mahsulotlarini tashish uchun furgon tipidagi kuzovli, seksiyalarga bo‘lingan va lotoklar o‘rnatish uchun yo‘naltiruvchilar bilan jihozlangan avtotransport vositasi yoki non va non-bulka mahsulotlarini konteynerlarda tashish uchun moslashtirilgan avtotransport vositasi qo‘llaniladi. Non va non-bulka mahsulotlarini ushbu talablarga muvofiq jihozlanmagan avtotransport vositalarida tashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Non va non-bulka mahsulotlarini tashish uchun yukni jo‘natuvchidan qabul qilish va yukni oluvchiga topshirish tashuvchi tomonidan har bir lotokdagi (konteynerdagi) mahsulotlarning sonini hisoblamasdan standart to‘ldirilgan lotoklar (konteynerlar)ning nomi va soni bo‘yicha amalga oshiriladi. Onlayn non yetkazib berish xizmatlari mashhur bo‘lib bormoqda, chunki ko‘proq mijozlar o‘z ovqatlarini etkazib berishni afzal ko‘rishadi. Bu novvoyxonalarga o‘z imkoniyatlarini kengaytirish, sodiq mijozlarni jalb qilish va yangilarini jalb qilish imkonini beradi. Biroq, mijozlar ehtiyojini qondirish qo‘shimcha harakat talab qilishi mumkin. Muvaffaqiyatni ta‘minlash uchun nonvoyxonalar egalari o‘zlarining pishirilgan mahsulotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mijozlarga etkazib berish bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlarga amal qilishlari kerak. Ushbu blog postida aqlli marshrutlash dasturi yordamida non yetkazib berish samaradorligini qanday oshirish mumkinligi muhokama qilinadi. Non mahsulotlari yetkazib berish marshrutlash dasturi novvoyxonalar yetkazib berish yo‘nalishlarini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishni soddalashtirish uchun mo‘ljallangan. Bu o‘z vaqtida, yangi va qulay etkazib berishni ta‘minlaydi, ayniqsa oxirgi daqiqada buyurtmalar uchun.

Marshrutni optimallashtirish dasturi yetkazib berish marshrutlari va jadvallarini optimallashtiradigan, haydovchilarning rejalashtirish vaqtini qisqartiradigan va biznes samaradorligini oshiradigan vositadir. U etkazib berishni yakunlash uchun eng yaxshi yo‘lni hisoblab chiqadi va kechikishlarni kamaytiradi. Haydovchilar endi vazifalarni bajarishga e‘tibor qaratib, o‘z marshrutlarini qo‘lda rejalashtirishlari shart emas.

Nonvoyxona marshrutini rejalashtirish dasturi foydalanuvchilarga tizimga

kirish, ishlarni qabul qilish va yetkazib berish joylariga eng yaxshi yo‘lni kuzatish uchun optimallashtirish opsiyasini bosish imkonini beradi. Bu yangilikni saqlashga, mijozlar ehtiyojini qondirishga va kompaniya daromadini oshirishga yordam beradi. Zeo Route Planner non yetkazib berish marshrutlash dasturi oziq-ovqat xizmatlari va ta'minot zanjirlarini boshqarish kompaniyalari uchun muhim vosita bo‘lib, operatsiyalarda samaradorlik va aniqlikni oshiradi va uni non mahsulotlari yetkazib berish korxonalariga uchun ideal echimga aylantiradi. Non yetkazib berish korxonalariga yordam beradigan Zeo-ning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Zeo Jonli marshrutni kuzatish bu xususiyat novvoyxonalariga real vaqt rejimida yetkazib berishni kuzatish imkonini beradi, yangi pishirilgan mahsulotlarni o‘z vaqtida va samarali yetkazib berishni ta'minlaydi. Bu menejerlar va dispetcherlarga har bir etkazib berish vositasining aniq manzilini ko‘rish imkonini beradi, bu uni kundalik ulgurji yetkazib berish yoki maxsus buyurtmalarni boshqarish uchun muhim afzallik qiladi. Zeo-ning marshrutni rejalashtirish dasturini amalga oshirish aniq va o‘z vaqtida yetkazib berish uchun real vaqt rejimida GPS kuzatuvidan foydalangan holda etkazib berish yo‘nalishlarini optimallashtiradi. Bu marshrutlarni optimallashtiradi bir necha to‘xtash uchun, yoqilg‘i narxini va haydovchi soatlarini kamaytirish va ko‘plab etkazib berishlarni samarali bajarish. Zeo aqlli marshrutni rejalashtirish, kechikishlarni minimallashtirish va tezroq yetkazib berish vaqtlarini ta'minlash uchun ilg‘or algoritmlardan foydalanadi. “Marshrutni boshlash haqida ogohlantirish” mijozlarga haydovchi o‘z marshrutini boshlaganida, “yaqin to‘xtash haqida ogohlantirish”, bir kunlik marshrut haqida ogohlantirish va tugallangan to‘xtash haqida ogohlantirish” haqida ma’lumot beradi, bularning barchasi real vaqtda yangilanishlarni ta'minlaydi va mijozlarga rejalar tuzishda yordam beradi. keyingi so‘rovlardan qoching. Bu xususiyat taxminiy yetib kelish vaqtini va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kechikishlar yoki o‘zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish orqali novvoyxona xizmatlarining ishonchliligi va shaffofligini oshiradi.

Marshrutni rejalashtirish yetkazib berish tartibini va etkazib beriladigan buyurtmalar uchun marshrutlarni belgilaydi. “Logistikada marshrutni rejalashtirish nima?” degan savolga yana bir javob. U eng tejamkor etkazib berish marshrutini hisoblaydi, shundan so‘ng haydovchi minimal vaqt ichida maksimal to‘xtashlar sonini qoplashi mumkin. Misol uchun, agar elektron tijorat kompaniyasi ma'lum bir kunda 50 ta buyurtmani etkazib berishi kerak bo‘lsa, u holda marshrutni rejalashtirishning ilg‘or vositasi etkazib berish ketma-ketligi va marshrutini ta'minlaydi. Logistikada marshrutni rejalashtirishning ahamiyatini tushunish uchun misol keltiraylik. Posilka A joydan D manziliga yetkazilishi kerak. Mos ravishda B va C yetkazib berish joylariga ega yana ikkita posilka mavjud. Ikkala B va C joylari A va D yo‘lida. Endi etkazib berishni uchta turli transport vositasiga belgilash o‘rniga, to‘g‘ri yondashuv - bu uchta etkazib berishni amalga oshirish uchun bitta transport vositasi va haydovchiga bir xil narsani belgilash. Marshrutni rejalashtirish shunday qiladi. Marshrutni

rejalashtirmasdan, etkazib berish narxi yuqori bo‘ladi, chunki uchta etkazib berish mashinasi va uchta haydovchi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, biznes buyurtmalar ro‘yxatini tuzish, mos transport vositalari va haydovchilarni topish va keyin har bir buyurtma uchun etkazib berish yo‘nalishlarini loyihalash uchun katta vaqt sarflashi kerak bo‘ladi. Marshrutni rejalashtirishning maqsadi yoqilg‘i sarfini kamaytirish, transport vositalarining sig‘imini yaxshilash, umumiy etkazib berish xarajatlarini minimallashtirish va mijozlarga yuqori darajadagi tajribani taqdim etish uchun samarali etkazib berish yo‘nalishlarini loyihalashdan iborat. Marshrutni rejalashtirish va marshrutni optimallashtirish ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatiladi; ammo, ikkala atama ham farq qiladi. Birinchisi, eng qisqa etkazib berish yo‘llarini tejamkorlik bilan topish uchun oldindan mavjud bo‘lgan buyurtmalar ro‘yxatidan foydalanadi. Bu dinamik marshrutni rejalashtirishni o‘z ichiga olmaydi. Marshrutni optimallashtirish ushbu jarayonni keyingi bosqichga olib boradi, bu esa park menejerlariga eng samarali etkazib berish yo‘nalishlarini rejalashtirish uchun bir nechta parametrlarni tanlash imkonini beradi. Bu parametrlar avtomobil hajmi, transport vositasi turi, haydash soatlari, smenalar, yo‘l cheklovlari, real vaqtda harakat va ob-havo sharoiti, haydovchining ishlashi va boshqalar bo‘lishi mumkin. Marshrutni rejalashtirishning 7 ta umumiy muammosi Marshrutni rejalashtirishning an’anaviy yondashuvlari korxonalarining operatsion samaradorlikni ta’minlagan holda mijozlarning o‘zgaruvchan kutishlariga dosh berishni qiyinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, marshrutni rejalashtirish logistikaning barcha uch bosqichida, shu jumladan birinchi, o‘rta va oxirgi milda zarur. Shunday qilib, endi siz marshrutni rejalashtirish nima ekanligini bilganingizdan so‘ng, keling, u bilan bog‘liq muammolarni ko‘rib chiqaylik:

1. Marshrutni qo‘lda rejalashtirish Yo‘nalishni rejalashtirish bir nechta omillarni, jumladan, etkazib berish vaqti oynasi va etkazib berish joyini hisobga olishni talab qiladi. Bundan tashqari, yaxshiroq rejalashtirish uchun oldingi marshrutlarni o‘rganish, haydovchilarning ish faoliyatini o‘lchash va boshqa muhim jihatlarni tahlil qilish kerak. Marshrutni qo‘lda rejalashtirish samarasiz, qimmat va inson xatolariga moyil. Bundan tashqari, u juda ko‘p vaqt sarflaydi.

2. Ko‘rinishning yomonligi Konsignatsiyalarda ko‘rinmaslik noto‘g‘ri ishlov berishga, operatsion xarajatlarning oshishiga va mijozlar tajribasining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. An’anaviy marshrutni rejalashtirish amaliyotiga amal qiladigan biznes uchun bir nechta posilkalarda ko‘rinishga ega bo‘lish juda qiyin.

3. Yoqilg‘i sarfini oshirish Yo‘lda ko‘proq avtomobillar ko‘proq yoqilg‘i sarfini anglatadi, bu esa samarasiz marshrutni rejalashtirish bilan sodir bo‘ladi. Bu bo‘sh millarni, bo‘sh turish vaqtini va yoqilg‘i narxini yanada oshiradi. Yetkazib beruvchi yuk mashinasi ishlamay qolganda soatiga 0,84 gallon iste‘mol qiladi.

4. Kechiktirilgan yetkazib berishlar Filo va ob-havo va transport sharoitlarida real vaqt rejimida ko‘rinmaslik kech va o‘z vaqtida yetkazib berilishiga olib kelishi mumkin. Yetkazib berishdagi kechikish mijozlar tajribasi

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

va brend obro‘sigiga bevosita ta'sir qiladi. Mijozlarning taxminan 17 foizi bir marta kechiktirilgan yetkazib berishdan keyin boshqa do‘kondan xarid qilmaydi.

5. Ko‘p tomchi etkazib berishni rejalashtirish Turli xil etkazib berish buyurtmalarini birlashtirish - bu ko‘p tomchi yetkazib berishdir. Ko‘p tomchi yetkazib berishni rejalashtirish juda ko‘p vaqt va tajribani talab qiladi, ayniqsa uni zich joylashgan shaharlarda amalga oshirish kerak bo‘lganda.

6. Noto‘g‘ri yetkazib berish muddati Mijozlarning umidlari endi o‘zgardi; ular yetkazib berish muddati, ularning buyurtmalarida ko‘rinish va boshqalar haqida xabardor bo‘lishni xohlashadi. Marshrutni rejalashtirishning an'anaviy yondashuvi bilan bu maqsadga erishish biroz qiyin.

7. Xarajatlarni oshirish Noto‘g‘ri yo‘nalishni rejalashtirish resurslardan foydalanishni oshiradi va har bir transport vositasiga etkazib berish sonini kamaytiradi, bu esa etkazib berishning umumiy xarajatlarini oshirishga yordam beradi.

Ushbu maqola marshrutni rejalashtirishda eng maqbul yechimni tanlashga, model yordamida optimal transport turini, optimal yo‘nalishni tanlashga yordam beradigan fikr mulohazalarni ochib berishni o‘z oldiga maqsad qilib oldi va bu maqola marshrutlashtirishning korxonada faoliyatida yetkazib berishda bir qancha xarajatlarni kamaytirishga yordam berish ko‘zda tutilgan .

Adabiyotlar:

1. E.Karimov Avtotransport vositalarida yuk tashish va avtotransport logistika Toshkent-2013
2. A.Nuriddinov, Z.To‘xtaboyev, B.Sodiqov Yuk tashishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali 2022 №3 <https://cyberleninka.ru/article/n/yuk-tashishda-innovatsion-texnologiyalarni-joriy-etish/viewer>.
3. <https://ilmiybaza.uz/document/yuk-tashish-jarayonda-zamonaviy-axborot-texnologiyalari/>.
4. Шевелев В.Я. Технология и организация перевозок учебное пособие/ В.Я. Шевелев, С.А Лутков, А.А. Сапунов Новороссийск: МГА им адм. Ф.Ф. Ушакова 2011-156с.
5. Еремина А.Е. Черпакова Е.В. Инновационные технологии перевозки наливных грузов. Сбор. Международная научно-практическая конференция / НИЦ весник науки: Индустриальная Россия: вчера, сегодня, завтра.- Москва -2019-стр. 83-90.

A.X.Xudayberganov – Urganch davlat universiteti iqtisodiyot kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

MINTAQANI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqani innovatsion rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar, ularni mavjud imkoniyatlari va ulardan foydalanishning ilmiy salohiyatga asoslangan jihatlari yoritib berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье выделены факторы, влияющие на инновационное развитие региона, их существующие возможности и аспекты их использования на основе научного потенциала.*

***Abstract.** This article discusses the factors affecting the innovative development of the region, their existing opportunities and aspects of their use based on scientific potential.*

***Kalit so‘zlar.** Innovatsiya, mintaq, omil, korxon, salohiyat, samaradorlik.*

***Ключевые слова.** Инновации, регион, фактор, предприятие, потенциал, эффективность.*

***Key words.** Innovation, region, factor, enterprise, potential, efficiency.*

Bilamizki, raqamli texnologiya innovatsiya rejimini o‘zgartiradi va innovatsiya subyektlari orasida innovatsion omillar alohida o‘rinna egallaydi. Bu borada davlat innovatsion omillarni taqsimlashni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, innovatsion omillar taqsimotini to‘g‘ri tartibga solish uchun davlatga raqamli texnologiyalardan foydalanishga imkon berish uchun kelajakda ishlab chiqarish sanoatini sifatli rivojlantirish uchun asosiy energiya manbasini aniqlashtirish kerak [1]. Bu borada ishlab chiqarish sanoatining innovatsion mexanizmini tasvirlash uchun tizimli dinamik modeldan foydalaniladi va turli senariylarda innovatsiyalarning o‘zgarishini prognoz qilish uchun tegishli parametrlar o‘rnatiladi. Shu orqali fan va texnologiyaga davlat xarajatlari innovatsiyalar samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Keyinchalik esa axborot xarajatlari sarflanadi. Bunda davlat xarajatlari ijobiy rol o‘ynashi uchun aniq miqyosga yetishi kerak.

Innovatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yetakchi yo‘nalishi sifatida aholi hayot sifatiga ta’sir qiladi. Ustuvor innovatsion rivojlanishni amalga oshirish ichki innovatsion salohiyat va samarali boshqaruv ta’siridan kelib chiqadi. Ushbu tadbirlar innovatsion sohaning samaradorligini oshirishga qaratiladi. Ammo, innovatsion sohada amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini aniqlashga oid yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Shu bois, innovatsion o‘zgarishlar samaradorligi masalalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri mintaqaviy tizimlarda mavjud bo‘lgan aniqlangan tendensiyalar va namuna xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Mintaqani innovatsion rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillardan foydalanish borasida innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish omillari va shart-sharoitlarini o‘rganish quyidagi muammolarni hal qilishga imkon beradi [2]:

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

- mintaqaviy tizimlarning samarali ishlashining eng muhim omillarini izlab topish;

- mintaqaning innovatsion rivojlanishining institutsional sharoitlarini aniqlash;

- innovatsion rivojlanishga ta’sir qiluvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligi va ierarxik tuzilishini aniqlash;

- ilmiy natija va investitsiya qilingan mablag‘lar nisbati uchun maqbul mezonlarni aniqlash, eng kam xarajatlar bilan maksimal rentabellik shartlarini tanlash;

- mintaqaviy tizimlarning aniqlangan innovatsion rivojlanish omillarining integratsiya ta’siriga javobini baholash.

Shuningdek, mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini hisobga olmasdan va omillarning innovatsion faoliyatga ta’sir qilish darajasini o‘rganmasdan, innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish shartlarini aniqlab bo‘lmaydi. Bu borada mintaqaning innovatsion rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o‘shishining muhim sharti sifatida innovatsion faoliyatga xos omillar tasnifi va ta’sir darajasini aniqlash talab etiladi [3]. Buning uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- hududiy tizimlar faoliyati xususiyatlari, hududning innovatsion rivojlanishining institutsional jihatlari hamda mintaqaning innovatsion rivojlanish omillari ta’sirini aniqlash;

- eng yuqori natijalar va eng kichik xarajatlarning qulay nisbati mezonlarini tanlash.

Shular bilan birgalikda, mintaqani innovatsion rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillardan foydalanishda ilmiy va innovatsion salohiyat quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni belgilaydi:

- 1) iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar intensivligi va tabiati (eskirgan, xom ashyo va energiya talab qiladigan tarmoqlarni qisqartirish, yuqori texnologiyali faoliyatni rivojlantirish);

- 2) mamlakat iqtisodiyotining ilg‘or texnologik uskunalari, uning resurslarni tejaydigan va tejamkor texnologiyalarga yo‘naltirilganligi;

- 3) ishlab chiqarishda rentabellik va mehnat unumdorligini oshirish, ish bilan bandlik nisbati va kapital samaradorligini oshirish;

- 4) innovatsiyalarni eksport qilish va joriy etishda mamlakatning xalqaro maydondagi rolini oshirish.

Biroq, ilmiy va innovatsion salohiyat ta’siri ostida quyidagi ijobiy transformatsion tendensiyalar yuzaga keladi [4].

- kichik va yirik korxonalarni texnik-iqtisodiy mezonlarga muvofiq optimallashtirish firmalarning tashkiliy tuzilmasini doimiy ravishda takomillashtirish va ularning korporativ aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi;

- o‘shib borayotgan innovatsion jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi iqtisodiyotning innovatsion asoslarini tashkil etuvchi va mintaqalararo xo‘jalik

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

yurituvchi subyektlarni bosqichma-bosqich yaratishni boshlaydigan yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ahamiyatini oshiradi;

- innovatsion jarayonlar jahon bozorini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Bu, turli yangiliklar, jumladan nomoddiy yangiliklar (g‘oyalar, nou-xau, malaka, patentlar, loyihalar va ma‘lumotlar) bilan to‘yingan bo‘lsa-da, raqobatning tabiati sifat jihatidan o‘zgarib boradi. Hamkorlik mustahkamlanib, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va innovatsion jarayonlarni tashkil etishda raqobatchilar rollari taqsimlanmoqda, innovatsion bozor prognoz qilinadigan va tartibga solinadi;

- progressiv innovatsion jarayonlar texnologik bazani mustahkamlaydi hamda milliy iqtisodiyotlar hamda tarmoq va tarmoqlararo iqtisodiy tizimlarning o‘zaro bog‘liqligini oshiradi;

- ishlab chiqarishning modulliligi oshadi, uning bozorda moslashuvchanligi oshadi, kam sonli ishchilar va tabiiy resurslarni qayta ishlaydigan yangi turdagi korxonalar shakllanadi. Ammo, ularning yangiligi tufayli ular yuqori rentabellik va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Mintaqani innovatsion rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi omillar ta‘sirida iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida turli xil ilmiy-texnik taraqqiyot innovatsion o‘zgarishlarni oldindan belgilab beradi. Bu esa xom ashyoni qazib olish va qayta ishlashning yangi, yanada ilg‘or usullariga o‘tish, mintaqa iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari bilan munosabatlar tarkibi va parametrlarining o‘zgarishi hamda mahsulotning yangi turlaridan foydalanish bilan belgilanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning ishlab chiqarishga bevosita ta‘siri bilvosita shular bilan to‘ldiriladi.

Texnopolislar tarkibiga ilm-fan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyektlari asosida rivojlanadigan shaharlar yoki nisbatan mustaqil shahar subyektlari kiradi. Texnopolislarga tavakkalchilik kapitalidan foydalangan holda ilmiy-texnik firmalarni birlashadigan innovatsiyalar “inkubatorlari” kirishi mumkin.

Ilmiy-texnika parki rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lgan yirik universitetlar atrofida tayyorlangan hududlarda tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriyalar va ilmiy-tadqiqot fabrikalari majmuasi kabilardan tarkib topadi.

Texnopark yuqori texnologiyalar va yuqori texnologiyali firmalarni rivojlantirish uchun yaratiladi. Bu o‘rta va kichik xavfli innovatsion korxonalarni ishlab chiqarish uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar va ustuvor rivojlanish hududlari maxsus ish rejimiga ega bo‘lgan mamlakat hududining bir qismiga aylanadi.

Ilmiy va innovatsion soha iqtisodiy kompleksning iqtisodiy munosabatlarni o‘zgartirish sharoitida eng muhim o‘zgarishlarga uchragan tarmoqlarini o‘zida aks ettiradi. Ilmiy faoliyatni rivojlantirishning umumiy tendensiyalari mavjud ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilinishi va ilmiy resurslar samaradorligini ko‘rsatadi.

Xulosa shuki, mintaqani innovatsion rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi omillardan foydalanishda ilmiy salohiyat keng ko‘lamli va murakkab

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

fundamental tadqiqotlarga yo‘naltiriladi. Bunda ilmiy muassasalar, konstruktorlik byurolari va loyihalashtirish tashkilotlari faoliyatining qisqarishi bilan bog‘liq tarkibiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Boshqa tomondan, yirik shaharlar va ularning kichik tijoratga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot institutlari ulushi o‘shirib boradi. Ular xorijiy texnologiyalarni keng joriy etish, marketing va reklama faoliyati bilan bog‘liq alohida ixtisoslashtirilgan ilmiy-texnik xizmatlarni taqdim etadilar. Shu bois, innovatsion rivojlanishning turli yo‘nalishlardagi omillari mavjud bo‘ladi. Ularning tarkibi moliya-kredit tizimi, iqtisodiy tuzilma, tadqiqot bazasi, mintaqaning kadrlar salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish tizimi, shuningdek boshqa hududlar bilan integratsiyalashgan o‘zaro ta‘sir, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy raqobatbardoshligi va global darajaga chiqish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cui Li, Jie Zhu, Changqi Tao. How does the innovative factor allocation promote the high quality development of manufacturing industry? // Journal of Innovation & Knowledge, 9 (2024), 100511. - pp. 1-14.

2. Кисуркин А.А. Факторы, влияющие на инновационное развитие региона и их классификация по уровням управления. // Современные проблемы науки и образования, 2012, №2.

3. Юленкова И.Б. Факторы инновационного развития региона. // Russian journal of regional studies, Регионология, Том27, №4, 2019. - с. 663.

4. https://pidru4niki.com/1822061155777/rps/regionalna_ekonomika_naukovo-innovatsiyni_faktori_rozvitku

F.O.O‘roqov – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika”, kafedrasi assistenti, firdavs26031995@gmail.com

KORXONALARDA SAMARADORLIK TUSHUNCHASI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada samaradorlik tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati va korxonalarda samaradorlikni oshirish strategiyalari tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, innovatsiyalar joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish orqali korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: samaradorlik, ishlab chiqarish unumdorligi, innovatsiya, boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие эффективности, его экономическая сущность и стратегии повышения эффективности на предприятиях. Анализируются пути обеспечения конкурентоспособности предприятий путем оптимизации производственных процессов, внедрения инноваций и повышения производительности труда.

Ключевые слова: эффективность, производственная продуктивность, инновация, управление, экономическая эффективность.

Abstract: This article examines the concept of efficiency, its economic essence, and strategies for increasing efficiency in enterprises. The ways to ensure the competitiveness of enterprises

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XI AK materiallari

through the optimization of production processes, the introduction of innovations, and the improvement of labor productivity are analyzed.

Keywords: *efficiency, production productivity, innovation, management, economic efficiency.*

Kirish. Samaradorlik har qanday iqtisodiy tizimda muhim ko‘rsatkich bo‘lib, resurslardan oqilona foydalanish va maksimal natijaga erishish darajasini aks ettiradi. Korxonalarining samaradorligi ularning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun samaradorlikni oshirish masalasi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Samaradorlik – biror jarayon yoki faoliyatning maqsadga erishishdagi samarasi, ya’ni resurslarni (vaqt, kuch, mablag‘ va boshqalar) eng optimal tarzda ishlatib, kerakli natijaga erishish darajasi. Samaradorlikni o‘lchashda, ko‘pincha, foyda, vaqtni tejash yoki umumiy xarajatlarning kamayishi kabi omillar hisobga olinadi.

Tahlil va natijalar. Korxonalar samaradorligi – bu resurslardan oqilona foydalanish va maksimal natijalarga erishish darajasidir. Korxonalarining samaradorligini oshirish ular uchun raqobatbardoshlikni ta’minlash va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biridir. Quyida korxonalar samaradorligini oshirishga yordam beradigan asosiy strategiyalar keltirilgan.

1. Ish jarayonlarini optimallashtirish

Korxonalar faoliyatidagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va jarayonlarni takomillashtirish samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Buning uchun:

- Ish jarayonlarini tahlil qilib, ortiqcha bosqichlarni bartaraf etish;
- Ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirishni joriy qilish;
- Ishchilarning vaqt va kuchini tejaydigan texnologiyalardan foydalanish lozim.

2. Mehnat unumdorligini oshirish

Xodimlar samaradorligi korxonalar muvaffaqiyatining kalitidir. Buning uchun:

- Xodimlarga malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilish;
- Rag‘batlantirish tizimini yaratish va mukofotlash tizimlarini joriy etish;
- Mehnat sharoitlarini yaxshilash va xodimlarning motivatsiyasini oshirish lozim.

3. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish

Korxonalar moliyaviy barqarorligi samaradorlikning muhim omillaridan biridir. Buning uchun:

- Xarajatlarni optimallashtirish va samarasiz xarajatlardan voz kechish;
- Investitsiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish va risklarni kamaytirish;
- Pul oqimlarini nazorat qilish va samarali boshqarish lozim.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAX materiallari

4. Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy qilish

Raqobatbardosh bo‘lish uchun korxonalar doimiy ravishda yangi texnologiyalarni joriy etishlari lozim. Buning uchun:

➤ Raqamli texnologiyalardan foydalanish va avtomatlashtirishni kengaytirish;

➤ Yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish;

➤ Innovatsion yondashuvlarni joriy qilish kerak.

5. Bozorni o‘rganish va marketing strategiyasini takomillashtirish

Bozor talablarini chuqur o‘rganish va samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish korxonalar rivoji uchun muhimdir. Buning uchun:

➤ Mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish va ularning talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish;

➤ Raqobatchilarni o‘rganib, o‘zining ustun jihatlarini rivojlantirish;

➤ Marketing va reklama strategiyalarini doimiy takomillashtirish kerak.

6. Yetkazib berish tizimini optimallashtirish

Tovar va xizmatlarning o‘z vaqtida yetkazib berilishi mijozlar qoniqishini oshiradi va samaradorlikni ta’minlaydi. Buning uchun:

➤ Yetkazib beruvchilar bilan samarali hamkorlik qilish;

➤ Logistika va ta’minot zanjirini takomillashtirish;

➤ Zaxiralarni optimal boshqarish kerak.

7. Tashkiliy boshqaruvni kuchaytirish

Korxonalar ichki boshqaruvi qanchalik samarali bo‘lsa, natijalar ham shuncha yaxshi bo‘ladi. Buning uchun:

➤ Tashkiliy tuzilmani optimallashtirish;

➤ Rahbarlar va xodimlar o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish;

➤ Qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish kerak.

Korxonalarda ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish muhimdir. Buning uchun avtomatlashtirish, texnologik yangilanish va sifat boshqaruv tizimlari joriy qilinishi lozim.

Innovatsiyalar korxonalar faoliyatini samarali olib borish uchun zarurdir. Masalan:

➤ Raqamli texnologiyalarni tatbiq etish;

➤ Ishlab chiqarishda avtomatlashtirish va robototexnika imkoniyatlaridan foydalanish.

Xodimlarning malakasini oshirish va ularga qulay mehnat sharoitlarini yaratish korxonalar samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada quyidagi chora-tadbirlar muhim:

➤ Xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha treninglar;

➤ Samarali rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

➤ Ish sharoitlarini yaxshilash.

Korxonalarda xarajatlarni optimallashtirish va foydani oshirish uchun moliyaviy tahlil va rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

Xulosa. Korxonalarining samaradorligi ularning bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatini belgilaydi. Ish jarayonlarini optimallashtirish, innovatsiyalarni tatbiq etish, mehnat unumdorligini oshirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Korxonalar samaradorligini oshirish doimiy rivojlanish va takomillashtirishni talab qiladi. Ish jarayonlarini optimallashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va innovatsiyalarni joriy qilish korxonalar barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar va raqobatbardosh strategiyalar orqali korxonalar o‘z samaradorligini oshirib, bozor talablariga moslashishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ансофф И. Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1989. – 519 с.
2. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Вильямс, 2003. – 736 с.
3. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. – 454 с.
4. Becker G. Human Capital: Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: The University of Chicago Press, 1993. – 412 p.

Дўлабов Зафар – ТДИУ таянч докторанти

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА СОЛИҚ МАЖБУРИЯТЛАРИ АУДИТИ

Аннотация: Мақолада солиқ мажбуриятлари аудитининг назарий масалалари ёритилган. Солиқ мажбуриятлари аудити назарий масалалари умумлаштирилган.

Калим сўзлар: бухгалтерия ҳисоби, солиқ, солиқ мажбурияти, солиқ аудити, АХС.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические вопросы аудита налоговых обязательств и налоговых обязательств. Обобщены теоретические вопросы аудита налоговых обязательств.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, налог, налоговое обязательство, налоговый аудит, МСА.

Annotation: The article covers theoretical issues of audit of tax liabilities and tax liabilities. Theoretical issues of the audit of tax obligations are summarized.

Key words: accounting, tax, tax liability, tax audit, ISA.

Янги технологиялар солиқ мажбуриятларининг ички операциялари самардорлигини ҳам ошириши ва харажатларни камайтириши мумкин. Рақамли иқтисодиётни шакллантириш иқтисодий фаолиятнинг барча турлари ва ҳаёт соҳаларига, жумладан, солиқ текширувига инновациялар ва ахборот-коммуникация технологияларини фаол жорий этишни назарда тутди. Электрон солиқ текширувидан фойдаланишнинг шубҳасиз афзаллиги солиқ текширувларига сарфланадиган вақтни сезиларли

даражада қисқартириш ва солиқ тўлашдан бўйин товлашларни аниқлаш эҳтимолини оширишдир. Бироқ, солиқ текширувларида рақамли воситалардан фойдаланиш муайян муаммоларни ҳам келтириб чиқаради. Солиқ қонунчилиги ва бухгалтерия ҳисобидаги ўзгаришлар туфайли шаффофликни таъминлаш ва реал вақт режимида солиқ маъмурчилиги томонидан мувофиқликни ва маълумотларга йўналтирилган аудитни осонлаштирадиган хавфларни ва солиқ рискларини стратегик жиҳатдан бошқариш долзарб масаладир. Солиқ мажбуриятларини солиқ аудитидан ўтказиш методикаси ҳали етарлича тадқиқ этилган эмас. Солиқ аудитини ташкил этиш ва ўтказиш, унинг натижаларини расмийлаштиришда иқтисодиёт тармоқларининг хусусиятлари ҳисобга олиниши зарур.

Солиқ мажбуриятларининг аудитини АХС асосида ташкил этиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон қарорида асосий вазифа қилиб белгиланди¹⁵².

Иқтисодий адабиётларда солиқ мажбуриятлари ва мажбуриятлар аудити тушунчаларига турлича таърифлар берилмоқда.

Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти . (IAS) 37 "Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар"да мажбуриятга қуйидагича таъриф берилган: *“Мажбурият - бу ташкилотнинг бўлиб ўтган ҳодисалардан юзага келадиган мавжуд жавобгарлиги бўлиб, унинг сўндирилиши натижасида ташкилотдан ўзида иқтисодий нафни мужассамлаштирган ресурсларнинг чиқиб кетиши кутилади”*¹⁵³.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 85-моддасида солиқ мажбурияти қуйидагича эътироф этилган: Солиқ тўғрисидаги қонунчилик билан солиқ тўловчилар зиммасига юклатилган солиқларни ва йиғимларни тўғри ҳисоблаб чиқариш ҳамда ўз вақтида тўлаш мажбурияти уларнинг солиқ мажбуриятидир¹⁵⁴.

С.Н.Ташназаров солиқ мажбурияти бўйича қуйидаги фикрни билдирган: Стандартларда ва иқтисодий адабиётларда солиқлар бўйича муддати узайтирилган мажбуриятларни эътироф этиш бўйича ҳам тортишувга сабаб бўлувчи мавзулар мавжуд. 21-сон БҲМСда муддати узайтирилган мажбуриятларга ҳукумат қарорлари билан амалдаги қонунчилик асосида корхонанинг солиқлар ва мажбурий тўловлари бўйича тўлов муддатлари узайтирилган мажбуриятлари киритилган¹⁵⁵.

¹⁵² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.

¹⁵³ (IAS) 37 "Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар" Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти (АВ томонидан 09.12.2022 й. 3400-сон билан рўйхатга олинган молия вазирининг 10.11.2022 й. 61-сон буйруғига 22-илова).

¹⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 85-моддаси. 2023.

¹⁵⁵ Ташназаров С.Н. Мажбуриятларни ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш. "Экономика и социум" №5(84) 2021.

“Xizmatlar sohasini strategik rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari” XIAK materiallari

БҲХС 12 “Фойдадан солиқлар” стандартида солиқ мажбуриятлари борасида куйидаги норма келтирилган: *Муддати узайтирилган солиқ мажбуриятлари* -бу келгусида солиқ солинадиган вақтинчалик фарқлар бўйича келгуси даврларда тўланадиган фойда солиқларининг суммаси. Жорий ва олдинги даврлар учун жорий солиқнинг тўланмаган қисми мажбурият сифатида тан олиниши керак. Агар жорий ва олдинги даврлар учун тўланган солиқ суммаси ушбу даврларда тўланиши керак бўлган солиқ суммасидан кўп бўлса, ортиқча сумма актив сифатида тан олиниши керак¹⁵⁶.

